O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

INSON HUQUQLARINI TA’MINLASH – DAVLATNING OLIY MAQSADI

respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI

TOSHKENT

KBK-67-489
X-17

“Inson huquqlarini ta’minlash – davlatning oliy maqsadi” respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024, 385 b.

Ushbu to‘plamda O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professor-o‘qituvchilari, sohaviy xizmatlar, respublikamizning yetakchi oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari bilan hamkorlikda o‘tkazilgan “**Inson huquqlarini ta’minlash – davlatning oliy maqsadi**” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari asosida inson huquqini ta’minlash bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va ularning yechimini topish maqsadida tayyorlangan maqolalar joy olgan.

To‘plam doktorantlar, magistrlar, tinglovchi-kursantlar, talabalar, professor-o‘qituvchilar, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari hamda ushbu muammoga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir: Rustambayev M.X. - O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist, yuridik fanlar doktori, professor.

Tahrir hay’ati:

Usmonov M.B., yu.f.d., professor;
Zulfiqarov Sh.X., yu.f.d. professor, mayor;
Yuldashov S.O., yu.f.f.d.(PhD);
Xomidov E.O., yu.f.b.f.d. (PhD), mayor;
Olimjonov X.M., yu.f.b.f.d. (PhD), mayor.

To‘plamga kiritilgan maqolalarning mazmuni va keltirilgan ma’lumotlarning aniqligi uchun mualliflarning mas’ulligi belgilangan.

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024

KIRISH

Assalomu alaykum hurmatli anjuman qatnashchilari!

Sizlarni O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida o‘tkazilayotgan **“Inson huquqlarini ta’minlash – davlatning oliy maqsadi”** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida ko‘rib turganimizdan xursandmiz.

O‘zbekiston Respublikasida bugungi kun yangi islohotlar bosqichida inson huquqlarini himoya qilish, uning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash eng ustuvor, birinchi darajali, davlat siyosati darajasidagi masalaga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqi oliy qadriyat sifatida o‘rnatilganligini amalda taminlash bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Inson huquqini taminlashga bag‘ishlangan yangidan yangi qonunlar, sog‘liqni saqlash, ta’lim, tadbirkorlik, davlat xizmatlarini takomillashtirishga qaratilgan yuzlab Prezident farmon va qarorlari qabul qilindi.

Ushbu masalaga to‘xtalib, Yurtboshimiz “erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadri-qimmati va uning qonuniy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarimiz yangi pog‘onaga ko‘tariladi. Bu borada, millati, tili va dinidan qat’i nazar, yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning, butun xalqimizning farovonligini ta’minlashga xizmat qiladigan “Yangi O‘zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat” g‘oyasini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratiladi”, deb ta’kidlagan edi.

Yurtboshimizning inson qadrini ulug‘lovchi xalqparvar davlat barpo etish g‘oyasi yangilanayotgan Konstitutsiyamizga ham to‘la singdirildi. Chunonchi, yangilanayotgan Konstitutsiyamizda O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosining taqiqlanishi, hech narsa inson sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi, hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emasligi, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yilishi belgilandi.

Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqini taminlashga bag‘ishlangan normalar uch barovarga ko‘paytirilib, ularning ijrosini amalga oshirish huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan chuqur bilim, kuch va amaliy ko‘nikmalarning shakllanganligini talab etadi.

Konstitutsiyada O‘zbekiston – huquqiy davlat, deb belgilandi. Inson huquq va erkinliklari qonunlarimizning, har bir vazirlik va idora va mansabdor shaxslar faoliyatining mazmuniga aylanishi qat’iy talab sifatida belgilandi.

Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar doirasi kengaydi. Birinchi marta har kimning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha mavjud ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, murojaat etishga haqliligi mustahkamlandi. Bu fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasi nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki xalqaro huquq asosida ham himoyalanishini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o‘rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga egaligi qayd etildi.

Konstitutsiyada aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerakligi qayd etildi. Mazkur norma to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi qoida bo‘lib, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta’minlaydi hamda shaxsni asossiz ravishda javobgarlikka tortilishdan himoya qiladi.

Qolaversa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlab berishi shart emasligi mustahkamlandi, hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilandi. Bu qoidalarning Konstitutsiyada belgilanishi jinoiy ta’qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim

va turli tahdidlar o‘tkazish, uning sha’ni va qadr-qimmatni kamsitish kabi boshqa noqonuniy usullar qo‘llanishini oldini olishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim norma – agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi kafolatlandi. Bu hol jinoyat bo‘yicha haqiqatni aniqlash, shuningdek, aybsiz insonlarning javobgarlikka tortilishini oldini olishga, ayni paytda, jinoyat sodir etgan haqiqiy aybdor shaxs yoki shaxslarni aniqlashga xizmat qiladi.

Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi belgilandiki, bularning hammasi mustabid tuzumdan qolgan illatga, qancha yoshlarimizni o‘z orzu-umidlaridan voz kechishga majbur qilgan noinsoniy taqiqlarga chek qo‘yadi.

Kuchli ijtimoiy himoya va muhtojlarga g‘amxo‘rlik – davlat siyosatining muhim yo‘nalishi bo‘lib qoladi. Tariximizda ilk bor O‘zbekiston – ijtimoiy davlat, deb belgilandi. Konstitutsiyada kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash, ishsizlikdan himoya qilish bo‘yicha davlat o‘ziga qator yangi majburiyatlar olishi belgilandi. Umuman davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq Konstitutsiyadagi normalar 3 barobar ko‘paytirildi. Xususan, Konstitutsiyada har kimning uy-joyli bo‘lish huquqi belgilandi. Ushbu normaning amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarning o‘z boshpanasiga ega bo‘lishini ta’minlab, kishilarning hayotdan rozilik darajasini oshiradi.

Bundan tashqari, hech kim sudning qarorisiz va qonunga nomuvofiq holda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda (bozor qiymatida) qoplanishi ta’minlanishi kafolatlandi.

Aholi kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlardan foydalanishi ham nazarda tutildi. Umuman, Konstitutsiyada aholi salomatligini asrash bilan bog‘liq normalar 4 barobar ko‘paytirildi. Bu aholi sog‘lig‘ini ishonchli

muhofaza etish hamda onalar va bolalar o‘limi, yuqumli kasalliklar tahdidini bartaraf etishda juda muhim ahamiyatga egadir.

Har kim ta’lim olish huquqiga egaligi, davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlashi, davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlashi, umumiy o‘rta ta’limning majburiyligi, maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratida ekanligi, ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiyaning ta’minlanishi, fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olishga haqliligi, oliy ta’lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqiga egaligi, O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etilishi, davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi mustahkamlandi.

Davlat bebaho tabiiy boyliklarimizni ko‘paytirish, asrab-avaylash va atrof-muhit musaffoligini saqlash choralarini ko‘radi. Aholi hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zaruriy sharti sifatida Konstitutsiyada atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha kompleks choralar belgilandi.

Konstitutsiyaning bir qator normalarida “har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga egaligi (49-modda), fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburligi (61-modda), mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar etkazmasligi kerakligi (66-modda), davlat yoshlarning ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlashi” (79-modda) tahriridagi normalar [4]ning joy olganligi davlat tomonidan aholining ekologik jihatdan xavfsizligi, inson va uning kelgusi avlodlari genetik fondi haqida g‘amxo‘rlik qilishidan dalolat beradi.

Konferensiya materiallari to‘plamining signal nusxasi chop etildi, ushbu mavzuda yana diqqatga sazovor maqola tezislari taqdim etilsa, uni ushbu to‘plamga qo‘shishga tayyormiz. Konferensiya materiallari asosida tayyorlangan takliflar, albatta, tegishli davlat hokimiyati organlariga taqdim etiladi.

Konferensiya ishiga muvaffaqiyat tilayman!

INSON HUQUQINI TAKOMILLASHTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

Inson huquqini ta’minlash va uni himoya qilish kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida eng asosiy va bosh masalalardan biri bo‘lib kelgan. Har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayotida inson huquqi muhim ahamiyat kasb etib, u demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisi, davlatning qay darajada rivojlanganligini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos mezon hisoblanadi.

Shu sababdan, umumtan olingan xalqaro hujjatlar va umuminsoniy qadriyatlar talablaridan kelib chiqqan holda inson huquqini tartibga solishga mamlakatimizda alohida e’tibor qaratilmoqda. Asosiy qonunimizda inson huquqlariga sodiqlik, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishi, fuqarolar tinchligini ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilanib, uning 13-moddasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi[1], deb o‘rnatildi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev haqli ravishda ta’kidlaganidek, “Bosh Qomusimiz Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro hujjatlar talablariga to‘la mos holda, inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini kafolatlab berdi. Insonning ma’naviy kamol topishi va har tomonlama uyg‘un rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi”[2].

Yurtboshimiz tomonidan inson huquqini himoya qilishni yanada takomillashtirishning yangi yo‘nalishlari belgilab berildi. Bular: inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilanishi lozimligi, odamlarning sudma-sud sarson bo‘lib yurishiga barham berish uchun adolatli hukm va qaror chiqarish

bo‘yicha viloyat sudlarining vakolati, mas’uliyatini oshirish kerakligi, tintuv o‘tkazish, telefon so‘zlashuvini eshitish va mulkni xatlashga sanksiyani prokurordan sudga o‘tkazish muhimligi, mulk huquqini cheklashga oid har qanday harakat faqat sud orqali bo‘lishi zarurligi, tergov shaxsni ayblash uchun emas, jinoyatni fosh etish orqali haqiqatni aniqlash uchun ishlashi kerakligi, sudda ishlarni ko‘rishda qatnashadigan alohida prokurorlar korpusini shakllantirish lozimligi, odil sudlovni ta’minlashda himoyachining huquqlari kengaytirilishi, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ma’muriy sudlar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish kerakligi va h.k.

Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqini taminlashga bag‘ishlangan normalar uch barovarga ko‘paytirilib, ularning ijrosini amalga oshirish huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan chuqur bilim, kuch va amaliy ko‘nikmalarning shakllanganligini talab etadi.

Konstitutsiyada O‘zbekiston – huquqiy davlat, deb belgilandi. Inson huquq va erkinliklari qonunlarimizning, har bir vazirlik va idora va mansabdor shaxslar faoliyatining mazmuniga aylanishi qat’iy talab sifatida ko‘rsatildi.

Inson huquq va erkinliklarining kafolatlari sezilarli darajada kuchaytirildi. Xususan, O‘zbekistonda o‘lim jazosi ta’qiqlandi. O‘lim jazosini ta’qiqlashni konstitutsiyaviy darajada belgilanishi insonni hayotdan hatto davlat ham mahrum etishga haqli emasligini kafolatlaydi. Bundan tashqari, shaxsni sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turish mumkin emasligi belgilandi[3]. Ya’ni, shaxsning erkinligini cheklash bilan bog‘liq har qanday harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi shart. Ushbu qoida tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgandir. Bu orqali xalqaro e’tirof etilgan “Xabeas korpus” institutini qo‘llash ko‘lami yanada kengaydi.

Ilk bor shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi kerakligi ayblanuvchi

va sudlanuvchilarga o‘ziga qarshi ko‘rsatma bermaslik (xalqaro e’tirof etilgan “Miranda qoidasi”), sukut saqlash huquqi berildi.

Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar doirasi kengaydi. Birinchi marta har kimning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha mavjud ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, murojaat etishga haqliligi mustahkamlandi. Bu fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasi nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki xalqaro huquq asosida ham himoyalanishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli etkazilgan zararning o‘rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga egaligi qayd etildi.

Konstitutsiyada aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerakligi qayd etildi. Mazkur norma to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi qoida bo‘lib, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta’minlaydi hamda shaxsni asossiz ravishda javobgarlikka tortilishdan himoya qiladi.

Qolaversa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlab berishi shart emasligi mustahkamlandi, hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilandi. Bu qoidalarning Konstitutsiyada belgilanishi jinoiy ta’qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar o‘tkazish, uning sha’ni va qadr-qimmatni kamsitish kabi boshqa noqonuniy usullar qo‘llanishini oldini olishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim norma – agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi kafolatlandi. Bu hol jinoyat bo‘yicha haqiqatni aniqlash, shuningdek, aybsiz insonlarning javobgarlikka tortilishini oldini olishga, ayni paytda, jinoyat sodir etgan haqiqiy aybdor shaxs yoki shaxslarni aniqlashga xizmat qiladi.

Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi[3] belgilandiki, Bularning hammasi mustabid tuzumdan qolgan illatga, qancha yoshlarimizni o‘z orzu-umidlaridan voz kechishga majbur qilgan noinsoniy ta’qiqlarga chek qo‘yadi.

Kuchli ijtimoiy himoya va muhtojlarga g‘amxo‘rlik – davlat siyosatining muhim yo‘nalishi hisoblanib, tariximizda ilk bor Asosiy qonunda O‘zbekiston – ijtimoiy davlat, deb belgilandi. Konstitutsiyada kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash, ishsizlikdan himoya qilish bo‘yicha davlat o‘ziga qator yangi majburiyatlar olishi belgilandi. Umuman davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq Konstitutsiyadagi normalar 3 barobar ko‘paytirildi. Xususan, Konstitutsiyada har kimning uy-joyli bo‘lish huquqi belgilandi. Ushbu normaning amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarning o‘z boshpanasiga ega bo‘lishini ta’minlab, kishilarning hayotdan rozilik darajasini oshiradi. Ma’lumotlarga qaraganda o‘tgan yili mamlakatimizda 50 ming oila uchun yangi kvartiralar olishga sharoit yaratib berilgan bo‘lsa, bu yil 90 ming oilani uy-joyli qilish marrasi olingan. Yaqin 2-3 yilda esa bu raqamni 200 mingga etkazish ustida ishlanmoqda.

Bundan tashqari, Konstitutsiyada hech kim sudning qarorisiz va qonunga nomuvofiq holda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda (bozor qiymatida) qoplanishi ta’minlanishi kafolatlandi.

Aholi hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zaruriy sharti sifatida Konstitutsiyada atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha kompleks choralar belgilandi. So‘nggi uch yilda qurilishlardan norozi bo‘lib, aholidan 15 mingta murojaat kelib tushgan, sudlar tomonidan birgina Toshkent shahrida 200 dan ortiq qurilishlar to‘xtatib qo‘yilgan, avtomobillar soni 1,3 millionga ko‘payib, 3,6 millionga etgan, har yili atmosfera havosiga 2,2 million tonna sanoat va transport tashlanmalari chiqarilayotgani ham ushbu masala tobora dolzarb ahamiyat kasb

etayotganligidan dalolat beradi. Asosiy qonunimizda har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga egaligi belgilandi. Aholimiz va kelajak avlod uchun ekologik toza hududni saqlab qolishning konstitutsiyaviy kafolatlari yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta’lim olish huquqi va imkoniyati yanada kengaytirildi, o‘qituvchilar konstitutsiyaviy maqomga ega bo‘ldi. Ta’lim va ilm-fanga oid normalar qariyb 2 barobarga oshdi. Jumladan, fuqarolarning oliy ta’lim muassasalarida davlat granti hisobidan o‘qish huquqi qat’iy belgilab qo‘yildi. Ma’lumot tariqasida aytish mumkinki, 2017 yilgacha oliygohlarda o‘qish uchun davlat grantlari soni faqat qisqarib kelgan bo‘lsa, oxirgi olti yilda bu boradagi ahvol butunlay o‘zgardi. Grantlar soni 2 baravar ko‘payib, 40 mingtaga yetdi. Magistratura uchun esa grantlar soni 5 baravar ko‘paydi. Asosiy qonunda fuqarolarning bepul boshlang‘ich kasb-hunarga o‘qitilishi ham belgilandi.

Konstitutsiyada davlatning o‘qituvchilar sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish majburiyati kuchaytirildi. Bu qoidalar mamlakatimizdagi 685 ming nafardan ortiq o‘qituvchilarning professional o‘sishi hamda ijtimoiy va moddiy qo‘llab-quvvatlanishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi, obro‘sini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Endi farzandlar tarbiyasi, ularga ta’lim berish, barkamol voyaga yetkazish ota-ona majburiyati sifatida belgilandi. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish esa davlatning burchi sifatida o‘rnatildi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan dunyo davlatchiligi amaliyoti va tajribasida uchramagan, kishilik jamiyati taraqqiyoti uchun butunlay yangi hisoblangan "inson qadri ulug‘lanadigan xalqparvar davlat" barpo etish g‘oyasi ilgari surildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "inson qadri uchun" g‘oyasi ilgari surilar ekan, uning mazmuni va asosiy belgilari sifatida har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishi, uning

fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlash, har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etish, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berish, sifatli ta’lim olish zaruriyati ko‘rsatib berildi. Shuni aytish kerakki, inson qadri ulug‘lanadigan ijtimoiy xalqparvar davlatni barpo etish yangi O‘zbekistonni shakllantirishga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yangi O‘zbekistonning belgilari sifatida har bir fuqaroning hayotini yanada yaxshilash maqsadida davlat xizmatlaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadigan, odamlar o‘z muammolari haqida ochiq gapirishi va ularning echimi uchun birgalikda harakat qilishlariga barcha sharoitlar mavjud bo‘lgan, hamma uchun adolatni so‘zsiz ta’minlash imkoniyatini beradigan hamda fuqarolari ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida teng bo‘lgan, tadbirkorlikning rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan davlat ko‘rsatib berildi. Bir so‘z bilan aytganda, Yangi O‘zbekiston deganda, har bir fuqarosi uchun g‘amxo‘rlik qiladigan, ochiq va adolatli jamiyat tushuniladi.

Ayniqsa, keyingi olti-yetti yilda amalga oshirilayotgan tub islohotlar - davlat organlari va mansabdor shaxslarning amalda chinakam xalqqa xizmat qilishi, Xalq qabulxonalari orqali xalqning dardi va muammolarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri eshitilishi, mavjud muammolarning joyida hal etilishi, davlat xizmatlarining yo‘lga qo‘yilishi, xalq davlat idoralariga emas, davlat organlari va mansabdor shaxslarning xalqqa xizmat qilishi tamoyilining amaliyotga to‘la joriy etilishi O‘zbekiston chinakam inson qadri ulug‘lanadigan xalqparvar, ijtimoiy, demokratik, dunyoviy davlat barpo etish yo‘lida ekanligini ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga

bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi //Xalq so‘zi, 2016 yil 9 dekabr;

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023;

3. Qonunchilik ma’lumotlar milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.

KONSTITUTSIYA MENIKI-SENIKI-BARCHAMIZNIKI

Turg‘unov Oybek Karimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘ining
o‘quv ishlari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari,
y.f.d., professor

Jahon hamjamiyatida O‘zbekistonning roli va o‘rni tobora oshib borayotgan sharoitlarda mamlakat Konstituttsiyasi ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash ishida, asosiysi, mamlakatning izchil iqtisodiy rivojlanishi va xalq farovonligi oshishida real huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Konstitutsiyasi mustaqillik qo‘lga kiritilgandan keyin juda qisqa muddatlarda ishlab chiqilgani va qabul qilinganini alohida ta’kidlash joiz.

“Konstitutsiya” deganda biz ongu tafakkurimizning muayyan mustahkam printsiplaridan kelib chiqadigan va ijtimoiy farovonlik maqsadlariga yo‘naltirilgan, jamiyat rioya qiladigan aniq va yagona tizimiga solingan qonunlarning, qoida va odatlarning mujassamligini tushunamiz.

Xalqimiz konstitutsiyaviy islohotlardan katta o‘zgarishlarni kutayotganligi sir emas, albatta. Buning isboti sifatida loyiha bo‘yicha o‘tkazilgan umumxalq muhokamasi jarayonida aholidan 220 mingdan ziyod takliflar kelib tushganligi ham fuqarolarimiz ushbu masalaga juda katta qiziqish va e’tibor bilan yondashganligidan yaqqol dalolat beradi. Konstitutsiyaviy qonun loyihasi ustida ishlashda senatorlarimiz ham faol ishtirok etdilar. Xususan, 19 nafar senatorlarimiz Konstitutsiyaviy komissiya tarkibida Konstitutsiyaviy qonun loyihasi ustidagi ishlarda bevosita qatnashdilar. Xabaringiz bor, Konstitutsiyaviy qonun loyihasi umumxalq muhokamasida, yetuk olimlar, jamoatchilik, xalqaro va xorijiy

ekspertlar ishtirokidagi muhokamalarda har tomonlama tahlil qilindi va maromiga yetkazildi.

Xususan, loyihani tayyorlashda va takomillashtirishda 400 dan ortiq xalqaro hujjatlar, 190 ga yaqin mamlakatlar konstitutsiyalari puxta o‘rganildi, xalqaro ekspert va mutaxassislar ishtirokida bir necha bor muhokama qilindi, shuningdek respublikaning turli hududlarida keng jamoatchilik vakillari ishtirokida jami 20 mingga yaqin muhokamalar tashkil etildi. Loyiha 10 ga yaqin xorijiy va xalqaro, shu jumladan lingvistik, yuridik, gender-huquqiy, korrupsiyaga qarshi, jamoatchilik hamda inson huquqlari bo‘yicha normalarga muvofiqligi yuzasidan ekspertizalardan o‘tkazildi. Xalqaro ekspertlar ham mazkur loyiha xalqaro huquqning umume’tirof etilgan barcha qoidalarini o‘zida mujassam etganligini ko‘rsatdi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo‘yicha referendumni tayinlash va uni o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Qarorda mazkur qarorning Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash uchun uni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga yuborish tartibi ham belgilangan edi. Shunga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud o‘z majlisini o‘tkazib, yuqoridagi qarorni Konstitutsiyaga muvofiq deb topdi.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasida mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolatlar o‘z ifodasini topmoqda. O‘zbekiston “huquqiy davlat” degan konstitutsiyaviy tamoyil muhrlandi.

Bu barchaning qonun oldida tengligini va qonundan xech kim ustun emasligini ta’minlash, sudlar tomonidan adolatli qarorlar qabul qilish, umuman olganda davlat organlarining xalqqa xizmat qilishi uchun mustahkam poydevor bo‘ladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasida ilgarigi “davlat-jamiyat-inson” tamoyilini “inson-jamiyat-davlat” deb o‘zgartirish, ya’ni eng avvalo inson manfaatini har narsadan ustun qo‘yishni maqsad qilgan.

Xususan, unda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash–davlatning oliy majburiyati etib belgilandi va shu munosabat bilan inson huquqlari

kafolatlari jiddiy ravishda kuchaytirildi. Loyihaga asosan insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizdir, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas. Insonnning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi hamda qonunlar, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining mazmun-mohiyatini belgilab berdi.

Inson va davlat organlari o'rtasidagi yuzaga kelgan noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi, huquqiy ta'sir choralari maqsadga erishish uchun yetarli va mutanosib bo'lishi kerakligi belgilandi. Bu normalar huquqni qo'llash faoliyatida inson manfaatlari ustuvor bo'lishini amalda ta'minlashga xizmat qildi.

Navoiy shahridagi Navoiy viloyat Ma'naviyat va ma'rifat markazida "Ayoli e'zozlangan yurt" ma'naviy-ma'rifiy tadbiri o'tkazildi.

Mazkur tadbirda Navoiy viloyat sudi sudyasi G.Xudayberdiyeva qatnashib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson-jamiyat-davlat eng avvalo inson huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy majburiyati etib belgilanganligi va shu munosabat bilan inson huquqlari kafolatlari kuchaytiralganligi, inson va davlat o'rtasidagi yuzaga kelgan noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi, huquqiy ta'sir choralari maqsadga erishish uchun yetarli va mutanosib bo'lishi kerakligi belgilanganligi haqida fikr bildirdi.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasi huquqiy demokratik kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimizning tinch, obod va farovon hayotini ta'minlash, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltirish, milliy qonunchilik tizimini shakllantirish hamda mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.[1]

O'zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning erkinlik sari uzoq yo'ldagi izlanishlari natijasidir. Avvalambor, konstitutsiyaviy "bino"ni qurishda uch ming yillik milliy davlatchilik tajribasiga tayanilgan. Bugungi O'zbekiston qadimgi Xorazm va So'g'diyona, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, o'zbek xonliklari,

[1] Gulnafis Xudayberdieva Navoiy viloyat sudi sudyasi "Konstitutsiya-yangi tamoyillar va islohotlar"

xalqimizning tarixiy an’analari va uning mustaqil davlat haqidagi ko‘p asrli orzusini mujassam etgan. Qolaversa, manfaatlarimiz va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, Asosiy Qonunimiz Sharq va G‘arb, Janub va Shimolning 97 ta mamlakati to‘plagan ilg‘or konstitutsiyaviy tajribani hisobga olib yaratilgan. 1990-yil mart oyi Mustaqilligimiz e’lon qilinishidan bir muncha vaqt oldin, o‘n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashning birinchi sessiyasida sobiq ittifoq tarkibidagi respublikamizda Prezidentlik boshqaruvi joriy etildi, davlat ramzlari haqidagi masala muhokama qilinib, bu borada maxsus komissiya tuzildi. Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratish g‘oyasi ilk bor ana shu sessiyada ilgari surildi. 1990-yil 20-iyun O‘zbekiston Oliy Kengashi Mustaqillik deklaratsiyasini e’lon qildi. Deklaratsiyaning 8-bandida O‘zbekiston “o‘zining taraqqiyot yo‘lini, o‘z nomini belgilaydi va davlat belgilarini (gerb, bayroq, madhiya) o‘zi ta’sis etadi” degan qoida mustahkamlangan bo‘lsa, Deklaratsiyaning 12-bandida ushbu hujjat respublikaning yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish uchun asos bo‘lajagi qayd etildi. O‘shanda bunday mazmundagi hujjat sobiq ittifoq hududida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda qabul qilingan edi. O‘sha kuniyoq Oliy Kengash qarori bilan O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov raisligida davlat arboblari, deputatlar, mutaxassislardan iborat 64 nafar a’zoni o‘zida jamlagan Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi.

1991-yil 31-avgust Oliy Kengash O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida Bayonot qabul qildi. Bayonotda ta’kidlandiki, “Bundan buyon O‘zbekiston Respublikasi hududida respublika Konstitutsiyasi va qonunlari shak-shubhasiz ustun deb e’tirof etiladi”. Shu kuni “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Undan bo‘lajak Konstitutsiyaning o‘zak qoidalarini o‘zida aks ettirgan bir qator muhim moddalar joy oldi. Jumladan, mazkur Qonunga muvofiq: “O‘zbekiston Respublikasi to‘la davlat hokimiyatiga ega, o‘zining milliy-davlat va ma’muriy hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilaydi” (3-modda); “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va uning qonunlari ustundir. O‘zbekiston

Respublikasi davlat idoralarining tizimi hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida quriladi” (5-modda). 1992-yil 26-sentabr Yangi Konstitutsiyaning birinchi loyihasi tayyor bo‘ldi. Uning ustida taxminan ikki yil davomida ishlandi. Loyiha shu kuni umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e’lon qilindi. Loyiha e’lon qilingach, Konstitutsiyaviy komissiyaga fikr-mulohazalar bildirilgan 600 taga yaqin xat kelib tushdi. Fuqarolarimiz bildirgan takliflar soni 5 mingdan oshib ketdi.

1992-yil 21-noyabr Loyiha ikkinchi marta umumxalq muhokamasi uchun gazetalarda chop etildi. Shunday qilib, huquqiy presedent – ikki bosqichli umumxalq muhokamasi yuz berdi. Ushbu holat, bir tomondan, muhokama ishtirokchilarini faollashtirish uchun qudratli rag‘bat vazifasini bajargan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Asosiy Qonunimizning xalqchilligini ta’minladi. 1992-yil 8-dekabr Oliy Kengash sessiyasiga muhokama qilish uchun kiritilgan Konstitutsiya loyihasiga 80 ga yaqin o‘zgarishlar, qo‘shimchalar taklif etildi va aniqliklar kiritildi. Parlament deputatlari tomonidan loyiha moddama-modda muhokama qilinib, unga yana bir qator o‘zgartishlar kiritilgach, Bosh Qomusimiz qabul qilindi. Konstitutsiyamizning xususiyatlari Suveren O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini tayyorlash, muhokama etish, qabul qilish va uning amal qilishining quyidagi sakkizta muhim xususiyati bor. O‘zbekistonda istiqlolga erishilgach, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga ega demokratik huquqiy davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish hayotimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning asosiy maqsadi etib belgilangan. Bundan 20 yil avval qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ushbu muhim vazifalarni hayotga tatbiq etishda mustahkam asos bo‘lib xizmat qilayotir. Unda inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi belgilangan. Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, Konstitutsiyamiz Asosiy Qonunimiz qabul qilinishi bilan biz O‘zbekiston kelajagini, yangitdan barpo etilayotgan davlatimizning chuqur mazmuni, ma’no va mohiyatini, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, gumanitar va ma’naviy

taraqqiyotning, yurtimiz qiyofasini, uning xalqaro hamjamiyatdagi o‘rni va nufuzini tubdan o‘zgartirib yuborgan mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilishning pirovard maqsadlarini aniq-ravshan belgilab oldik.

Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi – ulkan tarixiy ahamiyatga ega noyob hujjat bo‘lib, unda suveren davlat va adolatli jamiyatni shakllantirishning muhim asoslari, inson huquqlariga, demokratiya va ijtimoiy adolatga sodiqlik, fuqarolar tinchligi hamda millatlararo totuvlikni ta’minlash mustahkamlangan. Uning qoidalari mamlakatimizda bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy islohotlarni ortga qaytarib bo‘lmasligi, ularni jadal va barqaror rivojlantirish hamda kelajakda davlatimizni ravnaq toptirishni kafolatlaydi. O‘zbekiston Konstitutsiyasining g‘oya va normalarida xalqimizning ko‘p asrlik tajriba va ma’naviy qadriyatlari, boy tarixiy-huquqiy merosi aks ettirilgani uning hayotiyligining kafolatidir. Shu bilan birga, Asosiy Qonunimiz ko‘plab demokratik davlatlarda konstitutsiyaviy qurilish sohasidagi ilg‘or tajribaning eng yaxshi jihatlarini, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining umume’tirof etilgan normalari hamda mazkur sohadagi boshqa xalqaro hujjatlarga asoslangan inson huquq va manfaatlari, erkinligini ta’minlash va himoya qilish mexanizmini o‘zida mujassam etgan. Konstitutsiyaning qabul qilinishi ijtimoiy va davlat qurilishining barcha jabhalaridagi munosabatlarni, milliy qonunchiligimizning barcha sohalarini tartibga soluvchi aniq huquqiy tizimni tashkil etdi. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimiz parlamenti Konstitutsiya normalariga muvofiq 7 ta konstitutsiyaviy qonun, 15 ta kodeks, 600 dan ziyod qonunni qabul qildi, 200 dan ortiq ko‘p tomonlama xalqaro shartnomani ratifikatsiya qildi va shu tariqa Asosiy Qonunimizni amalga oshirishning yaxlit huquqiy mexanizmi yaratildi. Uning samaradorligini vaqt o‘zi ko‘rsatib turibdi va bu bugun jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilmoqda. O‘zbekistonda “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” prinsipiga muvofiq, yuksak demokratik talablar va xalqaro huquq standartlariga mos milliy saylov tizimi yaratilgani ta’kidlandi. Ko‘ppartiyaviylik asosida muntazam o‘tkazilayotgan saylovlar

mamlakatimiz Konstitutsiyasida fuqarolarning saylash va saylanish huquqi kafolatlanganining yorqin ifodasi bo‘lib, bu ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini, jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini oshirishga xizmat qilayotir. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari faoliyati uchun huquqiy sharoit hamda keng imkoniyatlar yaratib beradi. Bunga haqiqiy demokratiyaning muhim asosi sifatida qaraladi.

Shuning bilan birga, mamlakatimizda respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga qarshi chiquvchi, urushni, milliy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi jamoat birlashmalarini tuzilishi man etilgan. Sud-huquq tizimini erkinlashtirish borasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar mamlakatimizning demokratik qadriyatlar tarafdori ekanining yorqin ifodasidir. Sud hokimiyati mustaqilligi ta’minlandi, sudlar ixtisoslashdi, kassatsiya instituti isloh qilindi, ishlarni qayta ko‘rib chiqishning apellyatsiya tartibi, yarashuv instituti joriy etildi, sud amaliyotining barcha bosqichlarida tomonlar tengligi kafolatlandi. Konstitutsiyamizda inson, uning hayoti, erki, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas tabiiy huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ular huquqiy jihatdan kafolatlangan. Inson va fuqarolarning huquq hamda erkinliklari sohasida Konstitutsiyamiz Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining barcha asosiy g‘oya va qoidalarini o‘ziga singdirgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi to‘g‘risidagi moddasini bajarish doirasida 2008 yilning 1 yanvaridan mamlakatimizda o‘lim jazosi bekor qilindi, qamoqqa olishga sanktsiya berish huquqi sudlarga o‘tkazildi. Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlashtirish jarayoni davom ettirilmoqda. O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, qo‘llab-quvvatlash hamda himoya qilish borasida katta tajriba to‘plangan. Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar tizimi tashkil qilindi, bu boradagi ishlar samaradorligi Asosiy Qonunimiz normalarining so‘zsiz bajarilishiga asoslangan. Mustaqil bo‘lgan bu institutlar bir-birini takrorlamasdan jamiyatimizda qonun ustuvorligi, fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy,

ijtimoiy va madaniy huquqlarini himoya qilish printsiplariga rioya etilishiga xizmat qilayotir. Mamlakatimizda axborot sohasini bosqichma-bosqich demokratik isloh etish, bu jarayonning qonunchilik asoslarini takomillashtirish, fuqarolarning fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqlarini to‘liq amalga oshirish, islohotlarning oshkoraligi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, ommaviy axborot vositalarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash borasida aniq maqsadli kompleks ishlar amalga oshirildi. Natijada O‘zbekistonda faqat keyingi 10 yilning o‘zida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobar ko‘payib, bugungi kunda faoliyat ko‘rsatayotgan qariyb 1250 ta ommaviy axborot vositalarining aksariyati nodavlat hisoblanadi.

Ayni paytda davlatimiz rahbari tomonidan qo‘yilgan vazifalarga binoan mamlakatimiz parlamenti yangi qonunlar ishlab chiqmoqda, amaldagi qonunlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritmoqda. Bular, o‘z navbatida, axborot sohasini yanada demokratlashtirish, ommaviy axborot vositalarini odamlar o‘z fikr va g‘oyalarini, sodir bo‘layotgan voqealarga o‘z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirishga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, mamlakatimizda davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlaydi, ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Bu printsip hayotda ham o‘z ifodasini to‘liq topmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida 6 mingdan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Ularga davlat tomonidan subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shaklida katta yordam ko‘rsatilmoqda. Birgina 2012 yilda ushbu maqsadlarga Davlat byudjetidan 6 milliard so‘m ajratildi. O‘zbekistonda Asosiy Qonunga binoan ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini isloh etish va demokratlashtirish siyosati milliy iqtisodiyotimizni jadal, barqaror rivojlantirish, aholi farovonligini muntazam oshirish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Hattoki, global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida ham

o‘tgan yillardagi kabi O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’atlari kamida o‘rtacha 8,2 foizni tashkil qilgani shundan dalolat beradi. Konstitutsiyaning qat’iy amal qilayotgani sharofati bilan mamlakatimizda kuchli, raqobatbardosh, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti tarkib topdi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi jadal rivojlanmoqda.

Bugungi kunda ushbu sohaning yalpi ichki mahsulotga qo‘shayotgan hissasi 54 foizdan ortib borayotir, ichki va tashqi bozorda xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqaradigan yangi korxonalar barpo etilib, yangi ish o‘rinlari ochilmoqda, aholi daromadlari oshmoqda. Tarixan qisqa muddat ichida bunday ulkan iqtisodiy muvaffaqiyatlarga mamlakatimiz Konstitutsiyasining iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlik erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va ustuvor bo‘lib, davlat himoyasida ekanini kafolatlaydigan normalarining samarali amalga oshirilishi tufayli erishdik. Xorijlik ekspertlar mamlakatimizda tinchlik, barqarorlik, millatlararo va dinlararo totuvlikni saqlash hamda mustahkamlash istiqlol yillarida O‘zbekiston erishgan eng muhim yutuq ekanini yakdillik bilan qayd etmoqda. Bu Konstitutsiyamizda O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi borasida mustahkamlangan printsipga qat’iy rioya etilayotganining bevosita natijasidir.[1]

Shu o‘rinda aytishimiz mumkinki yangi konsititutsiyamiz davlatimizning huquqiy poydevori xalqimizning demokratik yo‘lidagi katta qadam va ahamiyatli ustuvoq qadam bo‘lib xizmat qiladi xususan barcha olib borilayotgan islohotlar zamirida xalqimizning kelajak avlodlarimizning hayotidagi zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Gulnafis Xudayberdieva Navoiy viloyat sudi sudyasi “Konstitutsiya-yangi tamoyillar va islohotlar”.
2. www.meningkonstitutsiyam.uz internet portalidan.

[1] www.meningkonstitutsiyam.uz internet portalidan.

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA CHINAKAM XALQ KONSTITUTSIYASI YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA HUQUQIY POYDEVORDIR

Zulfiqarov Sherzod Xurramovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
boshlig‘ining ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha o‘rinbosari, y.f.d., professor

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, farovon jamiyat barpo etishni orzu qilgan, inson qadri aziz bo‘lgan adolatli davlat qurishni o‘z oldiga maqsad qilgan har qanday xalq davlat va huquq taraqqiyotining mashaqqatli va sharafli yo‘lini bosib o‘tganiga guvoh bo‘lamiz.

So‘nggi yillarda xalqimiz yangi ulug‘vor marralar sari sobit qadamlar tashlagancha barcha to‘siq va qiyinchiliklarni engib o‘tib, mohiyatan bir-birini taqozo etuvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy sohalardagi izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. Bugun Yangi O‘zbekiston demokratik tamoyillar, inson huquq va erkinliklari borasida umume’tirof etilgan printsip va normalarga asoslangan, bosh maqsadi xalq uchun erkin, obod hamda farovon hayot yaratib berishdan iborat bo‘lgan davlatga aylandi. Shunday ezgu maqsadlardan biri aholining keng qatlami va saylovchilar xohish-irodasi bo‘lmish konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirishdan iborat bo‘ldi. Negaki davlat va jamiyatda tub o‘zgarishlar ro‘y berayotgan bir paytda tabiiy ravishda Konstitutsiyaga jiddiy o‘zgartirishlar kiritish taqozo etiladi. Zero, har qanday demokratik islohotlar chin ma’noda xalqchil konstitutsiyaviy asosga ega bo‘lsagina, yanada bardavom bo‘ladi, ko‘zlangan ezgu maqsadlarga erishadi.

Prezidentimiz joriy yilning 20-iyunida Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvda yangilangan Konstitutsiya mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, umuman, yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratishi lozim ekanini alohida ta’kidlab o‘tgan edi.

Bu ayni haqiqatdir. Zero, har qanday Konstitutsiya hayotiy bo‘lishi lozim, ya’ni u mamlakatning ijtimoiy va huquqiy voqeliklariga, xalqning orzu-umidlari va kelajak istiqboliga, xususan, zamon talabiga mos kelishi kerak.

Davlatimiz rahbari yangilanayotgan Konstitutsiyamiz “Xalq — qonunlarning yagona manbai va muallifidir” hamda “Barcha muhim qarorlar bevosita xalq bilan muloqot asosida va jamoatchilik fikrini hisobga olgan holda qabul qilinadi”, degan tamoyillarga asoslanib ishlab chiqilsagina, tom ma’noda xalqimiz xohish-irodasining ifodasi — haqiqiy xalq Konstitutsiyasi bo‘lishini alohida ta’kidladi.

Konstitutsiyaviy komissiya o‘z faoliyatini aynan shu ko‘rsatmalarga hamda ochiqlik va oshkoralik tamoyillariga tayangan holda amalga oshirib kelmoqda.

Bugungi kunda nafaqat xalqimiz, balki jahon hamjamiyati, xorijiy olimlar va ekspertlar ham yangilanayotgan Konstitutsiyamizning asosiy muallifi va ijodkori tom ma’noda O‘zbekiston xalqi ekanini alohida e’tirof etmoqda.

Aholining talab va istaklarini inobatga olgan holda hamda konstitutsiyaviy qonun loyihasini xalqimiz bilan har tomonlama muhokama qilish, loyihani pishiq-puxta maromiga etkazish maqsadida umumxalq muhokamasini o‘tkazish muddati ikki marta uzaytirildi. Negaki har bir fuqaroning qalbidan joy olgan, uning huquq va erkinligini to‘liq kafolatlagan xalqchil Konstitutsiyani yaratish chuqur ilmiy-amaliy tahlilni, munozara, mulohaza va muayyan vaqtni talab qiladi.

Deputatlar tomonidan hududlarga chiqib, davlat va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda yoshu keksa ishtirokida qator uchrashuvlar tashkil etilib, konstitutsiyaviy islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirish ishlari olib borildi. Bundan tashqari, bu boradagi milliy va xalqaro darajadagi anjumanlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlar ham yuqori saviyada tashkil etilmoqda.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasini ishlab chiqish va uning muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan umumxalq muhokamasi jarayonida

“1341” raqamli koll-markaz, fuqarolarning bevosita qabuli orqali, “Meningkonstitutsiyam.uz” platformasi hamda jamoaviy takliflar asosida jami 220 mingdan ziyod taklif kelib tushdi. Bu takliflarning 56 foizi erkaklar, 40 foizi ayollar tomonidan, 4 foizi esa anonim tarzda bildirilgan. Unda xorijdagi vatandoshlar yuborgan takliflar ham inobatga olingan va ilmiy hamjamiyat ishtirokida muhokama qilinib, Konstitutsiyaviy komissiyaga taqdim etilgan. Eng dolzarb takliflar qonun loyihasida o‘z aksini topmoqda.

O‘z navbatida, konstitutsiyaviy qonun loyihasini qonunchiligimizga to‘la mos ravishda tashkil qilingan umumxalq muhokamasi fuqarolar konstitutsiyaviy islohotlar, mamlakatimizdagi demokratik jarayonlarning tashabbuskori va faol ishtirokchisi bo‘lib borayotganini ko‘rsatmoqda. Qonun loyihasi bo‘yicha umumxalq muhokamasi bosqichi tugallanganiga qaramay, fuqarolar hamda keng jamoatchilik tomonidan Konstitutsiyaning turli moddalarini takomillashtirish va unga qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha shu kungacha 2,5 mingdan ortiq taklif yuborilgan bo‘lib, ayni paytda takliflar kelishi davom etmoqda hamda ular deputatlar tomonidan puxta o‘rganilmoqda. Tahlillar ko‘rsatmoqdaki, aholimiz mening Konstitutsiyam mening haq-huquqimni himoya qilsin, farovon kelajak sari intilishimga huquqiy jihatdan yo‘l ochsin, deyapti. Shu bois, konstitutsiyaviy qonuni loyihasini tayyorlashda amaldagi Konstitutsiyada bizga nima to‘g‘ri kelmaydi, undan nimani saqlab qolish lozim, qanday yangi o‘zgartirish kiritish kerak, u xalqimizni huquq va erkinliklarini nechog‘liq ta’minlab beradi, yoshlarimizning talab-ehtiyojlari, qolaversa, kelajakdan umidlari qanday, degan qator dolzarb savollarga javob berishi zarur bo‘ladi.

Binobarin, har tomonlama mukammal, xalqchil, aholining turli qatlamlari vakillarining muammolari echimiga kafolat bo‘la oladigan Konstitutsiyani yaratish uchun xalq bilan bamaslahat ish olib borish kerak. Toki, har bir fuqaro bu bizning Konstitutsiyamiz, uning muallifi — biz, deb baralla ayta olsin.

Nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, huquqshunos olimlar, akademik

hamjamiyat, “aql markazlari”ning konstitutsiyaviy islohotlardagi faol ishtirokini e’tirof etish lozim.

Konstitutsiyaviy islohotlarda jamoatchilik, xususan, fuqarolik jamiyati institutlari ishtiroki — chinakam xalq Konstitutsiyasi garovi.

Negaki “Inson-jamiyat-davlat” konstitutsiyaviy tamoyilini amalga oshirish adolatli va ochiq fuqarolik jamiyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlash, uning institutlari roli va mavqeini oshirish bilan uzviy bog‘liqdir.

Shu o‘rnida ta’kidlash lozimki, jamiyatimizda, xalqimiz hayotida, shuningdek huquqiy poydevori bo‘lgan YAngi O‘zbekiston Konstitutsiyasida demokratiya, inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanar ekan, demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va xalqaro andozalarga mos milliy qonunlarimiz bilan himoya qilinishi shart. Zero, tom ma’nodagi demokratik ijtimoiy davlat deganda, avvalambor, inson, uning qadr-qimmati, inson huquqlari va erkinliklarining qonunlarda mustahkamlanishi hamda qonunlar bilan ta’minlanishi tushuniladi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, **birinchidan,** 2021 yil 17 fevral O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoyishi va 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida - ijtimoiy himoya hamda ushbu yo‘nalishdagi davlatimiz siyosati inson rivojlanishining ajralmas qismi ekanligi e’tirof etilib, aholiga kafolatlangan daromad va ijtimoiy xizmatlarni olish, iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish uchun huquqiy zamin, amaliy harakatlar dasturi yaratildi. 2021-2030 yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasi konsepsiyasi va strategiyasini ishlab chiqish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Taraqqiyot

strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishi aynan “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” deb nomlanganining o‘ziyoq fikrimizning yorqin tasdig‘idir. E’tiborli jihati, “Yangi O‘zbekiston sharoitida davlat boshqaruvining hozirgi kun ehtiyojlari va talablarini hisobga olgan holda yaratilgan o‘ziga xos yondashuvi insonlarni jamoaviy emas, balki individual ijtimoiy himoyasi muhimligini belgilab olinganligida namoyon bo‘ladi”[3].

Ikkinchidan, agar inson huquq va manfaatlarining muhim jihati bo‘lgan ijtimoiy himoya – keng ma’noda, mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilishni ta’minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmuasi; tor ma’noda, davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan ta’minlanmaganligi tufayli yordamga muhtoj fuqarolar to‘g‘risidagi g‘amxo‘rligi hisoblanadi. SHu nuqtai-nazardan, ijtimoiy himoyaning quyidagi: birinchidan, erkin ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishni ta’minlash; ikkinchidan, ish bilan band qilish, kasb tanlash, o‘qish va bilim olish; uchinchidan, ish haqini kafolatlash; to‘rtinchidan, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish; beshinchidan, ijtimoiy ta’minot tizimini takomillashtirish asosida kam ta’minlangan, muhtoj qismiga pensiya va nafaqalar tayinlash kabi qator boshqa yo‘nalishlarini ajratish mumkin.

Uchinchidan, iqtisodiyotning samarali amal qilishiga va xalq farovonligi o‘sishiga imkoniyat yaratuvchi omil mulk hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 41, 47-moddalari va 12-bobi (65-68 moddalari) qoidalarida har bir shaxs mulkdor, uy-joyli bo‘lishga, shuningdek mulkning har qanday shakllariga ruxsat berilgan [4]. E’tiborli jihati, ushbu konstitutsiyaviy qoidalar zamirida bozor munosabatlarini rivojlantirish, halol raqobat uchun shart-sharoit yaratish, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini ta’minlash, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlash orqali fuqarolar farovonligini oshirish bosh maqsad qilib qo‘yilganligidir. Ma’lumki, mulk, birinchidan, kishining ashyoga

nisbatan egalik his-tuyg‘usi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, ushbu ashyo xususida kishilar o‘rtasida vujudga keladigan munosabatdir. Demak, lo‘nda aytganda, mulk - ashyo va unga nisbatan egalik hissi bilan bog‘liq munosabatlardan iborat bo‘lib, qonunlar bilan tartibga solinadi va ularning ta’siri ostida mulkiy huquqiy munosabatlar sifatida namoyon bo‘ladi.

To‘rtinchidan, mazmun-mohiyati “inson-jamiyat-davlat” tamoyili bilan yo‘g‘rilgan ijtimoiy davlat qurishdan iborat bo‘lib, unda jamiyatimiz farovonligiga erishish, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish, odamlar munosib hayoti uchun shart-sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirishdek muhim va dolzarb maqsadlar ham Konstitutsiyada ko‘rsatib o‘tiladi.

Beshinchidan, yana bir muhim holat, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, ta’lim muassasalarini aholi o‘rtasida umuminsoniy qadriyatlar, inson huquqlarini hurmat qilish va unga rioya qilish tamoyillarini ommalashtirish, shuningdek, fuqarolarning huquqiy axborotdan foydalanishini ta’minlash jarayoniga keng jalb etish zarurati yuzaga keldi. Oliy ta’lim muassasalarida, akademik litsey va texnikumlarda inson huquqlari, ayollar huquqlari va bola huquqlariga oid o‘quv kurslari va darsliklar joriy etilganlik holati hamda mazkur mavzularning o‘qitilish sifatini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan monitoring natijalari ko‘ra oliy ta’lim muassasalarida «Inson huquqlarini o‘rganish» maxsus o‘quv kursini o‘qitish to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi, moliyalashtirish masalasi hal qilinmaganligi sababli fanlar mutaxassis bo‘lmagan o‘qituvchilar tomonidan o‘qitilayotganligi qayd etilgandi. Bunday holat jamiyatda inson huquqlari va erkinliklariga hurmat hissining shakllanishi, xalqaro tashkilotlar tavsiyalarining bajarilishi uchun sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat organlari xodimlarining inson huquqlari bo‘yicha malakasini oshirish ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturini qabul qilinishi alohida ahamiyatga molik bo‘lib, dastur inson

huquqlari sohasida axborot berish, ma’rifat va o‘qitish tizimini bosqichma-bosqich kengaytirish va takomillashtirishga, kadrlar tayyorlash tizimini milliy qonunchilik va xalqaro standartlar talablari asosida sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Milliy ta’lim dasturining bosh maqsadi, birinchidan, O‘zbekistonda BMTning Inson huquqlari sohasida ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi Deklaratsiyasi qoidalari hamda inson huquqlari sohasidagi Jahon ta’lim dasturining to‘rtinchi bosqichini amalga oshirish, ikkinchidan, aholi barcha qatlamlarining inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risidagi milliy va xalqaro standartlar to‘g‘risida xabardorligini va, uchinchidan, ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirishdan iborat. Ana shu maqsadga erishish uchun, birinchidan, yoshlarning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xabardorligini oshirish; ikkinchidan, davlat organlari xodimlarining inson huquqlari va gender tenglik sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish; uchinchidan, inson huquqlari sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash; to‘rtinchidan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining inson huquqlari sohasida xabardorligini oshirish; beshinchidan, inson huquqlari bo‘yicha ta’lim sohasida fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish; oltinchidan, zamonaviy texnologiyalar, badiiy asarlar, ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda inson huquqlari sohasida ta’lim va tarbiya tizimining samaradorligini oshirish; ettinchidan, inson huquqlari bo‘yicha ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdek muhim vazifalarni amalga oshirish davr talabidir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 22 iyundagi PF-№6012-son “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. QHMMB,...21.04.2022y., 06/22/113/0330-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-№60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan YAngi

O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. QHMMB,...29.01.2022y., 06/22/60/0082-son.

3. Otaxonov F. Inson qadrini ta’minlash – davlat taraqqiyotining bosh indikatori /”YAngi O‘zbekiston”2022 yil 28 aprel, 84-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.:”O‘zbekiston”, 2023. -80 b.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАКСИ ФУҚАРОЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ ВА УЛАРГА ҲОМИЙЛИК КЎРСАТИШ КАФОЛАТЛАРИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ АСОСЛАРИ

Исмаилов Исамиддин
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети профессор, юридик фанлар доктори,

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасида, шунингдек Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-27-сон Фармони ва унинг 1-иловасига мувофиқ тасдиқланган давлат дастурида Ўзбекистон Республикаси фуқароларига, хусусан меҳнатга лаёқатсизлар ва ёлғиз кексалар, ногиронлиги бўлган шахслар ҳамда аҳолининг ижтимоий жиҳатдан эҳтиёжманд бошқа тоифаларини ҳар томонлама ҳимоя қилиш ва уларга ҳомийлик кўрсатиш чора-тадбирлар аниқ белгиланиб амалга оширилмоқда[1].

Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Конституцияси қабул қилинганлиги Янги Ўзбекистонни барпо этишнинг[2], шу

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn; Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-27-сон Фармони https://lex.uz/pdfs/6396146

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 11.09.2023 йил 11 сентябрдаги ««Узбекистан – 2030» стратегияси тўғрисда»ги ПФ-158-сон Фармони. https://lex.uz/ru/docs/6600404

жумладан ўз ҳудудида ҳам, унинг ташқарисида ҳам ўз фуқароларини ҳимоя қилиш ва уларга ҳомийлик кўрсатишни кафолатларининг конституциявий асосларини мустаҳкамлашга хизмат қилди.

Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 23-моддасининг биринчи қисмига мувофиқ *“Ўзбекистон Республикаси ўз ҳудудида ҳам, унинг ташқарисида ҳам ўз фуқароларини ҳимоя қилиш ва уларга ҳомийлик кўрсатишни кафолатлайди”*[1]. Аввал мазкур қоида Конституциянинг 22-моддасида қуйидаги таҳрирда “*Ўзбекистон Республикаси ўз ҳудудида ҳам, унинг ташқарисида ҳам ўз фуқароларини ҳуқуқий ҳимоя қилиш ва уларга ҳомийлик кўрсатишни кафолатлайди*”[2] деб берилган эди. Мазкур қоидалар матнларини таққослайдиган бўлсак, эски таҳрирдаги матндан янгисида фақатгига “ҳуқуқий” сўзи олиб ташланган.

Мазкур қоидалар мазмунини қиёсий таҳлил қиладиган бўлсак, эски таҳрирда ҳимоя қилиш ва ҳомийлик кўрсатишнинг фақатгина “ҳуқуқий” асосларини яратиш, яъни асосан норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда уларни амалга оширишнинг ҳуқуқий маханизмларини белгилаш кафолатлари назарда тутилган бўлса, янги таҳрирда қонунчилик ҳужжатларида эса белгиланган ҳимоя қилиш ва ҳомийлик кўрсатишга оид давлат, хусусан унинг ваколатли органлари ҳамда мансабдор шахсларининг мажбуриятларини амалда ҳам тўлиқ бажарилишини кафолатлаш талаблари кўзда тутилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси ҳудудида ўз фуқароларини ҳимоя қилиш ва уларга ҳомийлик кўрсатиш кафолатларини таъминлаш қуйидаги йўналишларда амалга оширилмоқда:

биринчидан, жамиятда инсон ҳуқуқлари, эркинликлари ва манфаатларини ҳар қандай кўринишда бузилиши, паймол қилиниши, камситилишининг олдини олиш, бартараф этиш, шунингдек бузилган тақдирда уни тиклашнинг ҳуқуқий асослари ва механизмлари яратиш ҳамда тизимли равишда такомиллаштириб бориш;

[1] Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси https://lex.uz/docs/6445145
[2] Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси// URL: http://www.lex.uz.

иккинчидан, инсон ҳуқуқларнинг ҳар қандай кўринишда бузилиши, паймол қилиниши, камситилишининг олдини олиш, бартараф этиш, бузилган тақдирда уни тиклаш учун ваколатли давлат органлари фаолиятини йўлга қўйиш ҳамда такомиллаштириб бориш;

учинчидан, жамиятда инсоннинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларига қаратилган ҳар қандай кўринишдаги ижтимоий, табиий, техноген ва бошқа таҳдид ҳамда тажовузлардан ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштириб бориш;

тўртинчидан, давлатнинг барча органлари ва уларнинг мансабдор шахсларининг жамият ва фуқаролар олдида масъуллиги ҳамда ўз фаолиятини инсон ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳурмат қилиш, уларга риоя этиш принциплари асосида олиб бориш талаблари амалга ошириш шакл, усул ва механизмларини такомиллаштириб бориш.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунларининг фуқароларни ҳимоя қилиш ва уларга ҳомийлик кўрсатиш соҳасига оид талабларига мувофиқ давлат ўз ҳудудида ҳам, унинг ташқарисида ҳам ўз фуқароларини ҳимоя қилиш ва уларга ҳомийлик кўрсатишни амалда таъминлаш мамлакат ва унинг барча маъмурий-ҳудудий бирликларида инсон ҳуқуқларни, айниқса аҳолининг эҳтиёжманд тоифаларини давлат ҳимоясига олиш ва уларга ҳомийлик кўрсатиш, уларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини тўлақонли амалга ошириш тизимининг мукаммал ишлаш механизмларини такомиллаштириб боришни тақозо этмоқда.

Шунинг учун ҳам «Ўзбекистон — 2030» стратегиясида белгиланган мақсадларга аҳоли талабларига ва халқаро стандартларга тўлиқ жавоб берадиган таълим, тиббиёт ва ижтимоий ҳимоя тизимини ташкил қилиш асосий ғоялардан бири сифатида сингдирилган. Мазкур ғоянинг «Ўзбекистон — 2030» стратегиясининг хусусан, I. Ҳар бир инсонга ўз салоҳиятини рўёбга чиқариши учун муносиб шароитларни яратиш йўналиши бўйича белгиланган: а) таълим тизимини (1-12); б) аҳоли саломатлигини таъминлашни(13-21); в) ижтимоий хизматлар кўрсатиш ва

камбағалликни қисқартиришни(22-29); г) ёшларга оид давлат сиёсати ва спортни(30-38); д) маънавий тараққиётни таъминлаш ва маданият(39-44) соҳаларини ислоҳ қилиш бўйича белгиланган барча мақсадларда[1] Ўзбекистон фуқароларини ҳимоя қилиш ва уларга ҳомийлик кўрсатишни бевосита ёки билвосита назарда тутганлигини кўришимиз мумкин.

Бугунги кунда давлатнинг ўз фуқароларини ҳимоя қилиш ва уларга ҳомийлик кўрсатиш функцияси унинг барча ҳокимият органлари, шу жумладан Ўзбекистон Республикаси Президенти, қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятини амалга оширувчи, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлари томонидан, шунингдек инсон ва болалар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича омбудманлар томонидан Конституция ва қонунларда белгиланган ваколатлар доирасида амалга оширилмоқда.

Ўзбекистонда инсон, шу жумладан ўз фуқароларининг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш ва уларга ҳомийлик кўрсатиш амалда:

а) Конституция ва қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ давлатнинг ваколатли органлари томонидан жамиятдаги ижтимоий муносабатларнинг тартибга солиш;

б) ҳар бир инсонга Конституция ва қонунларда мустаҳкамланган ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш ҳамда ўз салоҳиятини рўёбга чиқариши учун муносиб шароитларни яратиш бўйича мақсадли ва тизимли чора-тадбирларни амалга ошириш;

в) ҳар қандай кўринишдаги таҳдид ва тажовузларнинг барвақт олдини олишга қаратилган тизимли профилактик чора-тадбирларни олиб бориш, уларнинг таъсиридан ишончли ҳимоялаш тизимини яратиш ҳамда уни жамият эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда такомиллаштириб бориш;

г) ҳар бир инсоннинг бузилган ҳуқуқларни ҳимоя қилувчи ва тикловчи институционал тузилмалар фаолиятини йўлган қўйиш,

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 11.09.2023 йил 11 сентябрдаги ««Ўзбекистан – 2030» стратегияси тўғрисда»ги ПФ-158-сон Фармони. https://lex.uz/ru/docs/6600404

шунингдек ҳуқуқни муҳофаза қилиш ҳамда одил судловни амалга ошириш тизимини такомиллаштириш орқали таъминлаб келинмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 50-моддасига мувофиқ ҳар ким таълим олиш ҳуқуқига эга. Давлат фуқаронинг таълим олиш ҳуқуқни қуйидаги йўналишларда:

биринчидан, узлуксиз таълим тизими, унинг ҳар хил турлари ва шаклларини, шунингдек давлат ва нодавлат таълим ташкилотлари ривожлантиришни;

иккинчидан, мактабгача таълим ва тарбияни ривожлантириш учун шарт-шароитлар яратишни;

учинчидан, бепул умумий ўрта таълим ва бошланғич профессионал таълим олишни кафолатлашни;

тўртинчидан, умумий ўрта таълим мажбурийлигини амалга оширишни;

бешинчидан, мактабгача таълим ва тарбияда, умумий ўрта таълимда давлат назоратини;

олтинчидан, таълим ташкилотларида алоҳида таълим эҳтиёжларига эга бўлган болалар учун инклюзив таълим ва тарбияни таъминлайди[1].

Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг таълим олиш ҳуқуқ бўйича мазкур Конституциявий нормалар талабларини амалда таъминлаш борасида «Ўзбекистан – 2030» стратегиясининг:

биринчи “мактабгача таълим тизимини янги босқичга олиб чиқиш ҳамда болаларнинг тўлиқ қамровини таъминлаш” ***мақсадида*:** а) болаларни мактабгача таълим ва тайёрлов гуруҳлари билан тўлиқ қамраб олиш; б) давлат мактабгача таълим ташкилотларини 100 фоиз компьютер синфи билан таъминлаш орқали тарбияланувчиларда бошланғич компьютер саводхонлиги кўникмаларини шакллантириш; в) 100 фоиз мактабгача таълим ташкилотларини тоза ичимлик сув ва замонавий санитария-гигиена инфратузилмаси билан таъминлаш;

иккинчи “умумий ўрта таълим тизимида «Таълим учун қулай муҳит» дастурини амалга ошириш” ***мақсадида*:** а) олис ва чекка

[1] Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси https://lex.uz/docs/6445145

ҳудудларда жойлашган 715 та умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчилари учун бепул автобусларни йўлга қўйиш; б) умумий ўрта таълим муассасаларини **тоза ичимлик сув** ва **замонавий санитария-гигиена** инфратузилмаси билан **тўлиқ** таъминлаш;

тўртинчи “педагог кадрлар мақомини ошириш, уларнинг билими ва малакасини халқаро стандартларга мувофиқлаштириш” ***мақсадида*:** а) 1 000 нафар тарбиячи ва ўқитувчиларни хорижий мамлакатларга малака ошириш ва стажировкага юбориш; б) мактабгача таълим ташкилотлари ва умумий ўрта таълим муассасалари педагог ходимларининг ўртача иш ҳақини 2 баробар ошириш; в) 500 минг нафар мактабгача таълим ташкилотлари ва умумий ўрта таълим муассасалари ходимларининг малакасини узлуксиз ошириш;

олтинчи “профессионал таълим тизимини ривожлантириш орқали ўқувчиларни замонавий билим ва кўникмаларга ўргатиш” ***мақсадида*:** а) 700 та профессионал таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва моддий-техника базасини такомиллаштириш; б) 14 та ҳудудий профессионал тайёргарлик марказларини ташкил этиш, малака тоифасига эга бўлган педагог кадрлар улушини 50 фоизга, масофавий ёки аралаш шаклларда ташкил этиладиган малака ошириш курслари улушини 30 фоизга етказиш; в) Ўрта бўғин мутахассисларини тайёрлашда давлат грантини ахборот технологиялари, қурилиш, транспорт ва логистика йўналишларида 100 фоизга етказиш[1].

Шуни алоҳида қайд этиш жоизки, «Ўзбекистан – 2030» стратегиясида Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг олий таълим, шунингдек таянч докторантура, докторантура ҳамда мақсадли докторантурада таълим олишга бўлган ҳуқуқларини таъминлашга қаратилган мақсадлар ҳам аниқ белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 57-моддасига мувофиқ меҳнатга лаёқатсизлар ва ёлғиз кексалар, ногиронлиги

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 11.09.2023 йил 11 сентябрдаги ««Ўзбекистан – 2030» стратегияси тўғрисда»ги ПФ-158-сон Фармони. https://lex.uz/ru/docs/6600404

бўлган шахслар ҳамда аҳолининг ижтимоий жиҳатдан эҳтиёжманд бошқа тоифаларининг ҳуқуқлари давлат ҳимоясида бўлиб, давлат:

а) аҳолининг ижтимоий жиҳатдан эҳтиёжманд тоифаларининг турмуш сифатини оширишга, жамият ва давлат ҳаётида тўлақонли иштирок этиши учун уларга шарт-шароит яратишга ҳамда уларнинг асосий эҳтиёжларини мустақил равишда таъминлаш имкониятларини кенгайтиришга қаратилган чораларни кўради;

б) ногиронлиги бўлган шахсларнинг ижтимоий, иқтисодий ва маданий соҳалар объектлари ва хизматларидан тўлақонли фойдаланиши учун шарт-шароит яратади, уларнинг ишга жойлашишига, таълим олишига кўмаклашади, уларга зарур бўлган ахборотларни тўсқинликсиз олиш имкониятини таъминлайди.

Қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ ногиронлиги бўлган шахсларни ижтимоий ҳимоя қилиш — ҳаёт фаолиятига доир чекловларни енгиб ўтиш, уларнинг ўрнини қоплаш (компенсация қилиш) учун ногиронлиги бўлган шахсларга шарт-шароитларни таъминлайдиган ҳамда уларга жамият ва давлат ҳаётида иштирок этишнинг бошқа фуқаролар билан тенг имкониятларини яратишга қаратилган, давлат томонидан кафолатланган иқтисодий, ижтимоий ва ҳуқуқий чора-тадбирлар тизими[1]. Мазкур чора-тадбирларни амалга ошириш кафолатлари ҳамда механизмлари Ўзбекистон Республикасининг “Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари тўғрисида”ги қонуни, шунингдек унинг ижроси доирасида қабул қилинган қонун ҳужжатларида белгиланган.

Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини амалга ошириш ва уларнинг ҳимоя қилиш бўйича конституциявий нормаларнинг талабларининг бажарилиши Ўзбекистон Республикасининг “Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари тўғрисида”ги қонун ҳамда унинг ижроси доирасида қабул қилинган қонунчилик ҳужжатлари билан белгиланган тартиб ва механизмлар асосида таъминланади.

[1] Ўзбекистон Республикасининг “Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари тўғрисида”ги қонуни https://lex.uz/acts/5049511

Ўзбекистон Республикаси фуқароларини, айниқса аҳолининг эҳтиёжмант қатламини, шу жумладан ногиронлиги бўлган шахсларни қўллаб-қувватлаш, уларга ижтимоий хизмат кўрсатиш бўйича Конституция ва қонун нормаларининг мазкур талабларини амалда таъминлаш борасида «Ўзбекистан – 2030» стратегиясининг:

йигирма иккинчи "профессионал ижтимоий хизматларни кўрсатиш тизимини тубдан такомиллаштириш" ***мақсадида*:** а) ижтимоий ҳимоя қилиш тизими билан муҳтожларнинг барчаси тўлиқ қамраб олинишига эришиш; б) ижтимоий хизматларни мажмуавий амалга ошириш учун республиканинг барча туман ва шаҳарларида «Инсон» ижтимоий хизматлар марказлари фаолиятини ташкил қилиш;

йигирма учинчи "ногиронлиги бўлган шахсларни қўллаб-қувватлаш бўйича янги тизимни яратиш ҳамда улар учун қулай ва мақбул муҳитни яратиш" ***мақсадида*:** а) ногиронлиги бўлган муҳтож шахсларнинг сифатли ва замонавий протез-ортопедия буюмлари билан таъминлаш даражасини 100 фоизга етказиш; б) ногиронлиги бўлган шахсларни **муносиб иш билан таъминлаш** орқали улар бандлигини **2 баробарга ошириш**; в) ногиронлиги бўлган муҳтож шахсларни **реабилитация хизматлари** билан тўлиқ қамраб олиш; г) ногиронлиги бўлган шахслар учун **мавжуд инфратузилма ҳолатини баҳолаш тизимини** жорий қилиб, қулай ва мақбул муҳитни яратиш; д) **«Тўсиқсиз туризм»** дастури доирасида ҳар бир вилоятдан йилига **1 000** нафардан ногиронлиги бўлган шахсларнинг **Самарқанд, Бухоро** ва **Хивага** бепул саёҳатларини ташкил қилиш[1].

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг "Оила, болалар ва ёшлар" деб номланган XIV бобининг 77-моддасига:

"Ота-оналар ва уларнинг ўрнини босувчи шахслар ўз фарзандларини вояга етгунига қадар боқиши, уларнинг тарбияси, таълим олиши, соғлом, тўлақонли ва ҳар томонлама камол топиши хусусида ғамхўрлик қилишга мажбурдирлар.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 11.09.2023 йил 11 сентябрдаги ««Ўзбекистан – 2030» стратегияси тўғрисда»ги ПФ-158-сон Фармони. https://lex.uz/ru/docs/6600404

Давлат ва жамият етим болаларни ҳамда ота-онасининг васийлигидан маҳрум бўлган болаларни боқишни, тарбиялашни, уларнинг таълим олишини, соғлом, тўлақонли ва ҳар томонлама камол топишини таъминлайди, шу мақсадда хайрия фаолиятини рағбатлантиради” деган бола ҳуқуқларининг кафолатларини таъминловчи янги нормалар киритилди.

Конституциянинг мазкур нормалари талабларидан келиб чиққан ҳолда болалар ҳуқуқлари, эркинликлари ва манфаатларини ҳимоя қилиш кафолатлари Ўзбекистон Республикасининг: “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги қонунда белгиланган бўлиб, уларни амалга ошириш механизмлари бевосита фуқаролик, оила, меҳнат, фуқаролик процессуал, жиноят, жиноят процессуал, маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексларда ва бошва қонунчилик ҳужжатларида аниқ белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 9 августда қабул қилинган «Бола ҳуқуқларининг кафолатларини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6275-сонли Фармони билан Бола ҳуқуқлари бўйича вакили (Болалар омбудсмани) институти ташкил этилди ва фаолияти йўлга қўйилди.

Оила, болалар ва ёшлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва уларга ҳомийлик кўрсатиш бўйича Конституция ва қонун нормаларининг талабларини амалда таъминлаш борасида «Ўзбекистан – 2030» стратегиясининг:

ўн бешинчи “болалар ўртасидаги ирсий касалликларнинг олдини олиш ва даволаш самарадорлигини ошириш” ***мақсадида*:** а) болалар ўртасидаги ирсий касалликларни 2 баробарга қисқартириш; б) чақалоқларда ирсий касалликлар бўйича селектив скрининг текширувлар қамровини камида 50 фоизга ошириш;

ўн олтинчи “оналар ва болалар ўлимини қисқартириш, соғлом болаликни таъминлаш” ***мақсадида*:** а) ҳомиладорлик аниқланган вақтдан бошлаб туғуруқдан сўнг 42 кун ичида аёллар, гўдаклар ва беш ёшгача болалар орасидаги ўлимни 2 баробарга камайтириш; б)

туғуруқ ўринлари сонини 35 фоизга ошириш; в) 6 — 23 ойлик болаларни микронутриент кукуни, 2 — 10 ёшдаги болаларни гельминтоз профилактикаси бўйича махсус препаратлар, 3 — 15 ёшдаги болаларни йод препарати, 15 — 35 ёшдаги хотин-қизларни поливитамин, темир ва фолий кислотаси билан бепул таъминлаш; г) болалар орасидаги юқумли ва юқумли бўлмаган касалликларни 20 фоизга қисқартириш;

йигирма тўртинчи "болаларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштириш" ***мақсадида*:** а) жамиятда болаларга нисбатан тазйиқ ва зўравонликка тоқатсизлик маданиятини шакллантириш; б) ота-она қарамоғисиз қолган болаларни парваришлаш бўйича муқобил ноинституционаллашган шаклларни жорий қилиш[1].

Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига 42-моддасига мувофиқ ҳар ким муносиб меҳнат қилиш, касб ва фаолият турини эркин танлаш, хавфсизлик ва гигиена талабларига жавоб берадиган қулай меҳнат шароитларида ишлаш, меҳнати учун ҳеч қандай камситишларсиз ҳамда меҳнатга ҳақ тўлашнинг белгиланган энг кам миқдоридан кам бўлмаган тарзда адолатли ҳақ олиш, шунингдек ишсизликдан қонунда белгиланган тартибда ҳимояланиш ҳуқуқига эга.

Мазкур Конституциявий кафолатларни таъминлаш бўйича ушбу модданинг иккинчи қисмида давлатнинг зиммасига амалдаги қонунчилик ҳужжатларида меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдори инсоннинг муносиб турмуш даражасини таъминлаш зарурати ҳисобга олинган ҳолда белгилаш мажбуриятини юклайди.

Бундан ташқари мазкур модданинг учинчи қисмига мувофиқ ҳомиладорлиги ёки боласи борлиги сабабли аёлларни ишга қабул қилишни рад этиш, ишдан бўшатиш ва уларнинг иш ҳақини камайтириш тақиқланади.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 11.09.2023 йил 11 сентябрдаги ««Ўзбекистан – 2030» стратегияси тўғрисда»ги ПФ-158-сон Фармони. https://lex.uz/ru/docs/6600404

Давлат мазкур Конституциявий талабларни Ўзбекистон Республикасининг меҳнат кодексига мувофиқ таъминлаш чора-тадбирларини амалга ошириш, шунингдек меҳнат қонунчилиги номаларига қатъий риоя қилинишини текширувчи ва назорат қилувчи органлар, шунингдек меҳнат низоларини кўрувчи органлар ҳамда уларнинг мансабдор шахслари томонидан амалга оширилишини таъминлайди.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 73-моддасига мувофиқ касаба уюшмалари ходимларнинг ижтимоий-иқтисодий ҳуқуқларини ва манфаатларини ифода этадилар ҳамда ҳимоя қиладилар.

Фуқароларнинг, айниқса ёшларнинг меҳнат қилиш ҳуқуқларини таъминлаш, ҳимоя қилиш ва уларга ҳомийлик кўрсатиш бўйича Конституция ва қонун нормаларининг талабларини амалда таъминлаш борасида «Ўзбекистан – 2030» стратегиясининг:

йигирма еттинчи “мамлакатда камбағаллик даражасини қисқартириш” ***мақсадида*:** а) 2026 йилга қадар камбағалликни 2022 йилга нисбатан 2 баробарга, 2030 йилга қадар эса кескин қисқартириш; б) камбағалликка тушиш хавфи мавжуд 4,5 миллион аҳоли даромадини ошириш; в) ижтимоий шериклик асосида 500 минг малакали мутахассис тайёрлаш;

йигирма саккизинчи “аҳолини даромадли меҳнат билан банд қилиш, ижтимоий суғурта тизимини такомиллаштириш” ***мақсадида*:** а) меҳнатга лаёқатли аҳолини, шу жумладан ёшлар ва ногиронлиги бўлган шахсларни барқарор ва самарали бандлигини таъминлаш орқали ишсизлик даражасини 7 фоизгача тушириш; б) ҳомиладорлик ва туғиш, вақтинча меҳнатга қобилиятсизлик, иш берувчи юридик шахс тугатилганда ва тугатилаётган корхонанинг тўловлар учун маблағлари мавжуд бўлмаган ҳолларда ишдан бўшатиш нафақалари, ишлаб чиқаришдаги бахтсиз ҳодисалар оқибатидаги суғурта тўловларини кафолатланган ижтимоий суғурта тизими орқали амалга оширишни ташкил этиш;

йигирма тўққизинчи “фуқароларни давлат ҳисобидан касб-ҳунарга ўқитиш, уларнинг замонавий техника ва технологиялардан фойдаланиш бўйича касбий кўникма ва малакаларини ривожлантириш” ***мақсадида*:** а) 2 миллион нафар фуқароларни касб-ҳунар, тадбиркорлик кўникмалари ва хорижий тилларга ўқитиш; б) касбга ўқитиш марказларининг 1,6 минг нафар ўқитувчиларини халқаро стандартлар асосида малакасини ошириш; в) касб-ҳунарга ўқитишда хусусий сектор улушини 30 фоизга етказиш;

ўттиз иккинчи “ёшларнинг ижтимоий ҳимоясини кучайтириш ва ишсизлик даражасини камайтириш” ***мақсадида*:** а) 400 минг нафар ёшларнинг бандлигини таъминлаш ва муаммоларини ҳал этишга эришиш; б) ёшларнинг ишсизлик даражасини 14 фоиздан 11 фоизга камайтириш;

ўттиз учинчи “ёшлар ўртасида IT соҳасини янада оммалаштириш ҳамда соҳада хизматлар экспортини ошириш” ***мақсадида*:** а) IT соҳасида 300 минг нафар ёшларни иш билан таъминлаш; б) мактаб ўқувчиларини халқаро IT бозорида талаб юқори бўлган замонавий касбларга ўргатиш; в) «Бир миллион дастурчи» лойиҳасини кенгайтириш ва ҳар йили 15 минг нафар энг иқтидорли ёшларни нуфузли халқаро компаниялар талабларига мос дастурлар асосида тайёрлаш[1].

Ўзбекистонда жамиятда инсон ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳар қандай кўринишда бузилиши, паймол қилиниши, камситилишининг олдини олиш, бартараф этиш, бузилган тақдирда эса уни тиклаш учун ваколатли давлат органлари ташкил этилган, уларнинг ҳуқуқий мақомини белгилаб берадиган қонунлар қабул қилинган, шунингдек уларнинг фаолияти йўлга қўйилган. Мазкур давлат органларига ҳуқуқбузарликлар профилактикасини, жамоат хавфсизлигини таъминловчи органларни, фуқаро билан қонун ўртасида низо вужудга келганда ҳимоя қилувчи адвокатура,

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 11.09.2023 йил 11 сентябрдаги ««Ўзбекистан – 2030» стратегияси тўғрисда»ги ПФ-158-сон Фармони. https://lex.uz/ru/docs/6600404

шунингдек одил судловни амалга оширувчи судларни киритишимиз мумкин.

Фуқароларнинг хавфсизлигини таъминлаш бўйича Конституция ва қонун нормаларининг талабларини амалда таъминлаш борасида «Ўзбекистан – 2030» стратегиясининг:

етмиш саккизинчи “давлат бошқаруви органлари фаолиятини «Халқ хизматидаги давлат» тамойили асосида ташкил этиш” ***мақсадида*:** а) давлат органлари раҳбарларининг ўзи раҳбарлик қилаётган идора ёки тизим фаолиятида йўл қўйилган жиддий хато ва камчиликлар учун сиёсий жавобгарлиги институтини жорий қилиш; б) давлат назорат функцияларини фуқаролар ҳаёти, соғлиғи ва хавфсизлигини қатъий таъминлашга йўналтириш;

тўқсон олтинчи “фуқароларнинг ахборотни эркин излаш, олиш ва тарқатишга доир ҳуқуқларини амалга ошириш кафолатларини янада кучайтириш” ***мақсадида*:** а) миллий ахборот майдонида қонунчиликка риоя этилишини таъминлаш, ахборотдан фойдаланиш маданиятини юксалтириш ҳамда аҳолини ёт ва деструктив маълумотлар таъсиридан ҳимоя қилиш, радикаллашувнинг олдини олиш; б) интернет жаҳон ахборот тармоғидан тўсиқларсиз фойдаланиш учун зарур шарт-шароитларни яратиш, миллий интернет маконида киберхавфсизликни таъминлаш ҳамда фуқароларнинг интернетдан фойдаланиш борасидаги саводхонлигини ошириш;

тўқсон саккизинчини “фавқулодда вазиятлар ва глобал иқлим ўзгариши билан боғлиқ аҳоли ҳаётига хавф солувчи офатларнинг олдини олиш” ***мақсадида*:** а) халқаро сейсмик кузатувлар глобал тизими билан интеграциялашув асосида Республикада кучли зилзилалар ҳақида барвақт огоҳлантириш миллий тизимини жорий қилиш; б) сув омборлари ва бошқа хавф даражаси юқори бўлган объектларда фавқулодда вазиятлар мониторинги ва уларни олдиндан прогноз қилиш тизимини яратиш; в) ягона глобал хавфсизликни таъминлаш, фавқулодда вазиятларда ҳаракатланиш салоҳиятини кучайтириш ва минтақанинг барча давлатлари билан тезкор ахборот

алмашиш, қўшма ўқув машғулот ўтказиш каби йўналишларда ҳамкорликни чуқурлаштириш[1].

Ўзбекистонда давлатнинг ўз фуқароларининг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш ва уларга ҳомийлик қилиш бўйича амалий чора тадбирларнинг амалга оширилишини бевоста пандемия шароитида бўлган даврда яққол кўришимиз мумкин[2].

Сўнгги йилларда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштириш, ижтимоий ҳимоя соҳасига Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетидан ажратиладиган маблағлар миқдорини ошириш ва қўшимча ресурсларни жалб қилиш, ижтимоий ҳимоя дастурлари қамровини кенгайтириш ва оилаларни оғир ҳаётий ҳолатлардан олиб чиқишга қаратилган қўшимча механизмларни жорий этиш йўналишларида изчил ислоҳотлар амалга оширилмоқда[3].

Сўнгги беш йил давомида хорижда ишлаётган фуқароларга нисбатан муносабат тубдан ўзгариб, меҳнат мигрантлари билан мулоқот ўрнатилди, уларнинг муаммо ва эҳтиёжларини ўрганиш ҳамда ҳал қилиш бўйича янги тизим жорий қилинди.

Хорижда меҳнат фаолиятини амалга оширувчи шахсларни қўллаб-қувватлаш ҳамда уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш жамғармаси ташкил этилди, меҳнат мигрантларининг ҳаёти ва соғлиғини суғурталаш, уларнинг оила аъзолари учун ипотека кредитларини ажратиш амалиёти жорий қилинди[4].

Давлатнинг ўз фуқароларини Ўзбекистондан ташқарида ҳам ҳимоя қилиш ҳамда уларга ҳомийлик кўрсатишни таъминлаш соҳасида ҳам тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Айниқса уруш учоқлари бўлган, турли хил хусусиятга эга бўлган фавқулодда

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 11.09.2023 йил 11 сентябрдаги ««Ўзбекистан – 2030» стратегияси тўғрисда»ги ПФ-158-сон Фармони. https://lex.uz/ru/docs/6600404

[2] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. //https://president.uz/uz/lists/view/4057

[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 25 июлдаги “Ўзбекистон Республикаси аҳолисини ижтимоий ҳимоя қилиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-175-сон Фармони. // https://lex.uz/uz/docs/6130265

[4] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 2020 йил 15 сентябрдаги «Хавфсиз, тартибли ва қонуний меҳнат миграцияси тизимини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4829-сон қарори // https://lex.uz/docs/4997972

вазиятлар вужудга келган ҳудудлардан жуда ҳам мураккаб шароитда фуқароларимизни Ватанга олиб келиш ва қайтариш, шунингдек уларга ҳомийлик қилиш каби ишларнинг «Меҳр-1, 2, 3, 4, 5» операцияси доирасида, шунингдек пандемия шароитида ва Украинада қуролли мажоралар бошланганда амалга оширилганлиги барча маълум.

Ўзбекистон Президентининг махсус топшириғига мувофиқ ўтказилган «Меҳр-1, 2, 3, 4» операциялари доирасида Сурия, Ироқ ва Афғонистонда оғир аҳволга тушиб, чорасиз қолган 438 нафар аёллар ва болалар Ўзбекистонга олиб келинди. Жумладан, «Меҳр» инсонпарварлик операцияси доирасида 2019 йилда Суриядан 156 нафар ўзбекистонлик, асосан, аёллар ва болалар, 2019 йилнинг октябрида Ироқдан 64 нафар ўзбекистонлик бола, 2020 йилнинг декабрида («Меҳр-3») Суриядан 25 нафар аёл ва 73 нафар бола, 2021 йилдаги «Меҳр-4» операцияда эса 24 нафар фуқаро Афғонистондан Ўзбекистонга қайтарилган эди.

«Меҳр-5» операцияси натижасида Суриядаги уруш кетаётган «қайноқ нуқталарга» бориб қолиб, «Ал-Ҳол» лагерида 3 йилдан ортиқ вақт давомида ушлаб турилган 24 нафар аёл ва 69 нафар болалар Ўзбекистонга қайтарилди. Мазкур операция АҚШ ва бошқа ҳамкор давлатлар кўмаги билан амалга оширилган[1].

Жаҳонда кечаётган мураккаб геосиёсий жараёнлар, коронавирус пандемияси ва глобал иқтисодий инқироз шароитида Ўзбекистон очиқ ва прагматик ташқи сиёсатни фаол олиб бормоқда. Халқаро майдондаги қатъий саъй-ҳаракатларимиз натижасида юртимизнинг нуфузи ва обрў-эътибори тобора юксалмоқда. Ўзбекистон ўз ҳудудида ташқарисида ҳам ўз фуқароларини ҳимоя қилиш ва уларга ҳомийлик кўрсатишни амалда таъминлаш бўйича тизимли ишлар амалга оширилмоқда[2].

---

[1] **«Меҳр-5» операцияси: 93 нафар ўзбекистонлик Суриядан олиб келинди. https://www.gazeta.uz/uz/2021/04/30/mehr/**

[2] Пандемия даврида қанча фуқароларимиз юртимизга қайтарилди? — назорат-таҳлил якунлари// https://xs.uz/uzkr/post/pandemiya-davrida-qancha-fuqarolarimiz-yurtimizga-qajtarildi-nazorat-tahlil-yakunlari;

Ўзбекистон Республикаси хориждаги дипломатик муассасаларининг асосий вазифаларидан бири сифатида ўзи ишлаб турган давлатда Ўзбекистон Республикаси фуқаролари ва юридик шахсларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари, шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг мулкий ҳуқуқлари ҳар томонлама ҳимоя қилинишини таъминлаш деб белгиланган. Мазкур вазифани бажариш учун қуйидаги функцияларни амалга оширади:

а) ўзи ишлаб турган давлатда истиқомат қилувчи ватандошлар ва миллий марказлар билан алоқалар ўрнатиш ва ривожлантиришга кўмаклашади;

б) Ўзбекистон Республикасининг хориждаги фуқаролари ва юридик шахсларига консуллик-ҳуқуқий ёрдам кўрсатади ва ўзи ишлаб турган давлатда Ўзбекистон Республикасига тегишли бўлган мол-мулк бўйича унинг мулкий ҳуқуқларини ҳамда ушбу мол-мулкнинг яхши сақланиши ва ундан оқилона фойдаланилишини таъминлайди[1].

Консуллик фаолияти Ўзбекистон Республикасининг ҳуқуқлари ва манфаатларини ҳимоя қилиш, Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари ва юридик шахслари консуллик муассасаси жойлашган давлатнинг қонунчилигида, Ўзбекистон Республикаси ва консуллик муассасаси жойлашган давлат иштирокчи бўлган халқаро шартномаларда берилган барча ҳуқуқлардан тўлиқ ҳажмда фойдаланиш имкониятига эга бўлиши учун Ўзбекистон Республикаси томонидан чоралар кўриш мақсадида амалга оширилади[2].

Консулликнинг мансабдор шахси консуллик муассасаси жойлашган давлатнинг муассасаларида, агар ушбу давлатда фуқаро ёки юридик шахснинг вакили мавжуд бўлмаса ва у иш юритишни ўзга шахсга топширмаган бўлса ёхуд бошқа сабабларга кўра ўзининг

Хориждаги ватандошлар ва... Бегоналашиш хавфи ҳақида. // http://pravacheloveka.uz/uz/news/xorijdagi-vatandoshlar-va-begonalashish-xavfi-haqida

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 январдаги “Ўзбекистон Республикасининг хориждаги дипломатик ваколатхоналари фаолиятини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-2732-сон қарорининг 1-иловасига мувофиқ тасдиқланган “Ўзбекистон Республикасининг хориждаги муассасалари тўғрисида Низом”. https://lex.uz/docs/3105367

[2] Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 17 январдаги “Ўзбекистон Республикасининг Консуллик уставини тасдиқлаш тўғрисида” ЎРҚ-517-сон Қонуни билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикасининг Консуллик устави”. https://lex.uz/docs/4167683

қонуний манфаатларини ҳимоя қилишга қодир бўлмаса, Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари ва юридик шахслари номидан ишончномасиз вакиллик қилиш ҳуқуқига эгадир. Ушбу вакиллик Ўзбекистон фуқаролари ёки юридик шахслари ўз вакилларини тайинлагунига қадар ёхуд ўз ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишни ўз зиммасига олгунига қадар давом этади.

Консуллик муассасаси консуллик округи ҳудудида вақтинча турган ёки доимий яшаётган Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг ҳуқуқлари, қонуний манфаатлари ва хавфсизлигини таъминлаш мақсадида уларнинг ҳисобини юритади.

Шуни алоҳида қайд этиш жоизки, хорижда истиқомат қилаётган ватандошларни ва қўллаб-қувватлаш, улар билан доимий мулоқот тизимини жорий этиш Ватандошларни нг хавфсизлигини таъминлаш бўйича Конституция ва қонун нормаларининг талабларини амалда таъминлаш борасида «Ўзбекистан – 2030» стратегиясининг:

тўқсон тўртинчи “хорижда истиқомат қилаётган ватандошларни қўллаб-қувватлаш, улар билан доимий мулоқот тизимини жорий этиш” ***мақсадида*:** а) ватандошлар томонидан ташкил этилган жамоат бирлашмалари фаолиятини ҳар томонлама рағбатлантириш ва уларнинг сонини 300 тага етказиш; б) ўзбек тили ва адабиёти, тарих, маданият, санъат ва ҳунармандчилик йўналишидаги олийгоҳларда хориждаги ватандошлар учун 200 та грант ажратиш; в) ватандошлар иштирокида тиббиёт, таълим ва илм-фан соҳаларида 100 та лойиҳани амалга ошириш; г) ватандошлар жамоат бирлашмаларига етказиб бериладиган бадиий адабиётлар сонини 100 мингтага ошириш;

тўқсон бешинчи “ташқи меҳнат миграцияси тизимини такомиллаштириш, хорижда меҳнат фаолиятини юритаётган фуқароларга ҳар томонлама кўмак кўрсатиш” ***мақсадида*:** а) ишга жойлаштириш бўйича хорижий давлатлар билан келишувлар сонини 30 тага ошириш; б) фуқароларни хорижий ҳамкорлар билан биргаликда давлат-хусусий шериклик шартлари асосида касб-ҳунарга ва чет тилларига ўқитиш доирасида 2 мингта хорижий компаниялар

билан касбга ўқитиш ва иш билан таъминлаш тизимини ташкил этиш; в) меҳнат миграциясидан қайтиб келган шахсларни реинтеграция қилиш, шу жумладан, уларнинг бандлигини таъминлаш, касбий малакасини ошириш ва тадбиркорлик ташаббусларини рағбатлантириш; г) ноқонуний ташқи меҳнат миграцияси ва одам савдосига қарши курашиш соҳасида халқаро ҳамкорликни янада ривожлантириш.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, Тараққиёт ва «Ўзбекистан – 2030» стратегияларида белгиланган ҳар бир фуқарога ўз салоҳиятини ривожлантириш учун барча имкониятларни яратиш, соғлом, билимли ва маънавий баркамол авлодни тарбиялаш, глобал ишлаб чиқаришнинг муҳим бўғинига айланган кучли иқтисодиётни шакллантириш, адолат, қонун устуворлиги, хавфсизлик ва барқарорликни кафолатли таъминлаш борасида олиб борилалаётган ислоҳатлар Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси талаблари асосида Ўзбекистоннинг ўз ҳудудида ҳам, унинг ташқарисида ҳам ўз фуқароларини ҳимоя қилиш ва уларга ҳомийлик кўрсатишни кафолатларини амалда таъминлашга хизмат қилади.

ЦЕННОСТНО-ГУМАНИСТИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В ОБНОВЛЕННОЙ КОНСТИТУЦИИ УЗБЕКИСТАНА

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна
доктор юридических наук, профессор
Ташкентского государственного
юридического университета

В последние годы в современном Узбекистане все проводимые реформы служат на благо народа, и идет активный процесс поиска приоритетов общественного развития, главное место среди которых по праву должен занять человек. Опорой человеческой личности, ее глубинной внутренней ценностью является достоинство. По девизом "В Новом Узбекистане – достоинство человека, интересы народа –

наивысшая ценность" цель проводимых реформ. Это величайшее благо составляет основу независимости и свободы, гордости и чести, влияет на становление и постоянное развитие личности. Достоинство - источник прав человека, свидетельство уровня культуры общества.

Гуманистическая идея ценности человеческой личности, ее достоинства является основой концепции конституционного строя Узбекистана. Новая Конституция Узбекистана вобрала в себя самые современные демократические ценности, результаты глубокого анализа международной практики конституционного строительства развитых демократических государств. Конституция Узбекистана провозглашает: «Демократия в Республике Узбекистан базируется на общечеловеческих принципах, согласно которым высшей ценностью является человек, его жизнь, свобода, честь, достоинство и другие неотъемлемые права.

Демократические права и свободы защищаются Конституцией и законами.» (ст. 13), «Честь и достоинство человека неприкосновенны. Ничто не может быть основанием для их умаления.

Никто не может быть подвергнут пыткам, насилию, другому жестокому, бесчеловечному или унижающему достоинство человека обращению либо наказанию.Никто не может быть подвергнут медицинским и научным опытам без его согласия.» (ст. 26). В соответствии со Стратегией развития Нового Узбекистана на 2022−2026 годы нашей приоритетной задачей является углубление коренных реформ с закреплением достигнутых успехов, выдвижение на первый план обеспечения прав и интересов человека, его чести и достоинства.

Сегодня в Новом Узбекистане осуществляются масштабные реформы и преобразования, в том числе в сфере обеспечения прав и свобод человека, уважения чести и достоинства личности. Их результаты можно увидеть в достигнутых за последние годы высоких рубежах, повышении благосостояния народа, росте авторитета страны на мировой арене.

Практическое проявление гуманной политики государства видно на примере обновлений не только в сфере защиты прав и свобод человека, но и в других отраслях. Реформы и демократические преобразования, реализуемые в государственном строительстве, в общественно-политической, социально-экономической и гуманитарной сферах, рост благосостояния и качества жизни населения служат обеспечению прав и интересов человека на высоком уровне.

Законодательство Узбекистана сделало значительный шаг вперед от многовекового неприятия прав человека как реальной самостоятельной ценности, как естественных и неотъемлемых к их признанию и нормативному закреплению в наивысшем конституционном порядке.

На современном этапе развития современный Узбекистан происходит формирование новых общественно-экономических отношений, закладывается основа гражданского общества, правового государства, совершенствуется механизм реализации прав и свобод. Происходящие трансформационные процессы обусловливают необходимость переосмысления многих устоявшихся правовых явлений и ценностей. Важность обращения к нравственно-правовым и политическим свойствам личности подтверждается тем, что именно они могут выступать в качестве одного из важнейших критериев в обосновании характеристики правовой политики. Сказанное в полной мере относится и к категории «достоинство личности».

Признание достоинства человека и его защита является очень актуальной проблемой, темой дискуссии сегодня, а также изученность социальной и юридической природы достоинства личности имеет огромное значение.

Целью нашей статьи заключается в глубоком общетеоретическом ценностно-правовом анализе идеи достоинства человека как исходном нравственном начале права и правовой системы, и его истоки развития.

Как нам известно, достоинство — самоуважение человеческой личности как морально-нравственная категория, характеристика человека со стороны его внутренней ценности, соответствия своему предназначению, основа для формирования правосознания и обретения претензий на материальные и нематериальные права.

Так как в истории государства и права зарубежных стран началом концепции прав человека можно проследить в древних цивилизациях, таких как Месопотамия, Египет и Индия. В Вавилонском царстве Законы Хаммурапи (XVIII век до н.э.) регулировали социальные и экономические отношения, обеспечивая определенную степень защиты для различных слоев общества. Хотя эти законы не предусматривали равенства всех перед законом, они закладывали основы для правовой защиты индивидов.

В античной Греции и Риме зародились идеи естественного права, которые стали основой для развития прав человека. Философы, такие как Сократ, Платон и Аристотель, рассуждали о правах и обязанностях граждан. В Римской империи понятие jus naturale (естественное право) влияло на римское право, обеспечивая защиту гражданских прав и свобод. Логическим продолжением стал средние века значимым документом этого периода является Великая хартия вольностей 1215 года, которая ограничивала власть короля Англии и защищала права баронов и свободных людей. Этот документ стал предшественником конституционных прав и свобод. В эпоха Просвещения (XVII-XVIII века) стала переломным моментом в развитии прав человека. Философы, такие как Джон Локк, Монтескье и Вольтер, продвигали идеи свободы, равенства и прав человека. Важнейшими документами этого периода являются Декларация независимости США (1776) и Декларация прав человека и гражданина (1789) во Франции, которые провозгласили права на жизнь, свободу и стремление к счастью.

XIX век

В XIX веке идеи прав человека получили дальнейшее развитие благодаря борьбе за отмену рабства и расширение избирательных

прав. Конституции многих стран стали включать положения о правах и свободах граждан. В этот период также зарождаются первые международные договоры, направленные на защиту прав человека.

XX век и современность

XX век стал временем значительного прогресса в области прав человека. После Второй мировой войны была создана Организация Объединенных Наций, которая приняла Всеобщую декларацию прав человека (1948). Эта декларация стала основополагающим документом, признающим права и свободы каждого человека независимо от расы, пола, религии и национальности. Международные договоры и институты

В последующие десятилетия были разработаны и приняты многочисленные международные договоры и конвенции, такие как Международный пакт о гражданских и политических правах (1966) и Конвенция о правах ребенка (1989). Были созданы международные органы, такие как Европейский суд по правам человека и Международный уголовный суд, которые обеспечивают соблюдение и защиту прав человека на глобальном уровне.

Если сравнительно проанализировать состояние прав человека в мире то, мировая ситуация с правами человека значительно варьируется от страны к стране. Рассмотрим несколько региональных примеров. Например, европейские страны, особенно члены Европейского союза, демонстрируют высокий уровень соблюдения прав человека. В странах Европейского союза действуют сильные институты, направленные на защиту прав человека, такие как Европейский суд по правам человека. Однако даже здесь существуют проблемы, связанные с миграционным кризисом и ростом популизма.

Если посмотреть в США права человека защищены конституцией и рядом федеральных законов. Тем не менее, страна сталкивается с серьезными вызовами, такими как системный расизм, полицейская жестокость и дискриминация меньшинств. Американские ценности — это идеи и действия, важные для людей в Соединенных Штатах. В каждой стране есть ценности, которые

помогают формировать образ жизни в данной стране и ее законы. У отдельных людей есть свои собственные ценности, которые могут отличаться. В американской Декларации независимости говорится, что «все люди созданы равными». Данная цитата лежит в основе равенства в Америке. Это повлияло на отношение к мужчинам и женщинам в Соединенных Штатах. В США все люди должны получать равное обращение и равные возможности. Американцы ценят неприкосновенность частной жизни и личное пространство. Американцы любят посвящать время себе вдали от других людей. Они могут быть скрытными в отношении некоторых тем, таких как возраст, зарплата или место проживания. Только к человеку как разумному, свободно следующему долгу и доброй воле, применяется понятие достоинства. Именно «..долг человека перед самим собой состоит здесь в запрещении лишать преимущества морального существа, заключающегося в том, чтобы поступать согласно принципам, т.е. в запрещении лишать себя внутренней свободы и тем самым делаться игрушкой одних лишь наклонностей, стало быть, вещью».

Содержание понятия человеческого достоинства, сформировавшееся в исторических концепциях, вошло в социально-политическую и юридическую практику современного общества, одновременно обострив дискуссию, включающую в себя как прежний круг вопросов, так и целый комплекс новых проблем, касающихся содержательных характеристик этой категории.

Но что может являться общим основанием достоинства человека с учетом различий, существующих в многообразных культурных, социальных и этических системах?

Существует некоторый научный консенсус относительно того, что достоинство понимается как качество человеческой личности, которое проявляется в его самоуважении и самоценности, и которое признается ценностью со стороны других. Принципом, обеспечивающим признание за каждым человеком права на личное достоинство, является принцип эгалитаризма, действие которого

распространяется не только на социально-политическое пространство, но и на генетическую природу человека. Обеспечение социально-политического, этнического и культурно-цивилизационного равенства в политика правовых учениях мыслителей Востока как Фараби, Бируни, Амира Тимура, Алишера Наваи и их мысли подкрепляется тезисом о генетическом равенстве людей. Выдающийся ученый энциклопедист Фараби считал хороший нрав и сила ума, оба вместе, являются человеческим достоинством в том смысле, что добродетель каждой вещи состоит в превосходстве и совершенстве в ней самой и в ее действиях. Если они оба [хороший нрав и сила ума] имеют место, то мы получаем превосходство и совершенство в нас самих и в наших действиях, и благодаря им обоим мы становимся благородными, благими и добродетельными: наш образ жизни становится добродетельным, а наше поведение — похвальным. Человек считает он изучает все вещи, благодаря которым достигает этого совершенства или из которых извлекает он пользу при достижении его — а это блага, добродетели, добрые дела — и отличает их от вещей, которые мешают ему в достижении этого совершенства — а это зло, несовершенства и дурные дела…. Мысли о человеческом совершенстве, о том как оно достигается, о важности такого достижения пронизывают многие работы мыслителя. Абу Райхон Мухаммад ибн Ахмад Беруни великий ученый энциклопедист, мыслитель и гуманист. Наследие выдающегося ученого Беруни представляется огромной сокровищницей, в которой находятся ценные идеи о гуманизме. Чем больше знакомимся с произведениями ученого - энциклопедиста, Бируни, тем больше понимаем величие его духовного наследия. В работах Беруни прослеживается концепция гуманистического воспитания, идеи воспитания в людях высоко-нравственных черт, будучи уверенным, что освободить народ от невежества и нищеты можно с помощью науки, распространения знаний в обществе и упорного труда. Достижение знаний он считает большим и упорным трудом, требующим сил, времени и терпения. Знания, по мнению Беруни,

облагораживают человека, делают его добрым и разумным. Кроме чистоты знания», ничего нет. Совершенства можно достичь в процессе повсеместного внедрения высоких интеллектуальных и нравственных норм, воспитываемых при помощи науки, но «достижение спасения через знание возможно только при воздержании от зла.

Известно, что на формирование идей гуманистической культуры огромное воздействие оказало творчество и научная деятельность крупнейшего просветителя Востока Алишера Навои. В представлении Навои человек – самое высшее, благородное существо в мире, а ребенок – это светило, которое освещает дом, приносит радость в семью. Мало любить собственных детей, человек обязан любить всех детей – поколение будущего, Цель воспитания – подготовка подрастающего поколения к дальнейшей созидательной жизни, что невозможно без хорошего образования, овладения лучшими человеческими качествами и борьбы за счастье народа. он пламенно призывал молодежь к изучению науки и развитию интеллекта. «Знание и мудрость – украшение человека». Трудолюбие самое ценное качество настоящего человека. Труд, украшает человека, благодаря труду человек совершенствуется и достигает определенных высот. Вся история общества, материальной и духовной культуры человека представляет собой процесс становления, развертывания и обогащения понятия достоинства. Сравнительный анализ показывает, что, идея уважения достоинства человека составляет стержневую основу системы ценностей, которые позволяют ей полно и всесторонне раскрыться и выразиться в своей сути и содержании. Достоинство как смыслообразующая нравственно-правовая ценность придает праву концептуальный характер, обеспечивает его единство и системность.

Справедливость, равенство, свобода, являющиеся моральными источниками права, могут рассматриваться как стандарт оценки процесса осуществления права только в соотношении с достоинством, занимающим в иерархии нравственно-правовых

ценностей особое место. Ценностный смысл достоинства получает объективное общезначимое выражение в законодательстве.

Достоинство - сущностный элемент современной конституционной идеологии. Конституционное понимание природы достоинства человека отражает его нравственное и правовое содержание, позволяет определить данную конституционную ценность в качестве основного принципа устройства современного Узбекистана общества и государства.

Огромным шагом на пути создания основ Нового Узбекистана и третьего Ренессанса стали практические результаты мероприятий, предусмотренных Стратегией действий, а также воплощение принципа «Во имя чести и достоинства человека».

Народные приемные реально решают проблемы. И это действительно так. В свое время, чтобы решить какой-либо простой вопрос, приходилось бегать по инстанциям от чиновников одного госоргана до работников иных ведомств. Надо признать, что Президент Шавкат Мирзиёев решил эту задачу эффективным и оригинальным способом. Была создана Виртуальная приемная Премьер-министра Республики Узбекистан, а позднее Народные приемные Президента. Глава государства и другие руководители начали вести открытый диалог с населением в регионах. Это кардинально изменило сознание и укрепило дух народа. Ибо через Виртуальные и Народные приемные, а также на живых встречах граждане напрямую доводили до руководства страны свои проблемы, которые стали быстро решаться на местах.

Выводы

Сравнительный анализ показывает, что Узбекистан достиг определенных успехов в улучшении ситуации с правами человека. В то время как некоторые регионы мира демонстрируют высокий уровень защиты прав человека, другие продолжают бороться с систематическими нарушениями.

Рекомендации:

1. Усиление правоприменительных механизмов: Укрепление независимости судебной системы и обеспечение надзора за соблюдением прав человека.

2. Содействие свободе слова и прессы: Обеспечение условий для независимой журналистики и свободного выражения мнений.

3. Борьба с пытками и жестоким обращением: Принятие мер по предотвращению пыток и жестокого обращения в местах лишения свободы, а также привлечение виновных к ответственности.

4. Продвижение гендерного равенства: Принятие мер по улучшению положения женщин в обществе, включая повышение их участия в политике и экономике.

Опыт других стран может служить важным ориентиром для дальнейшего улучшения ситуации с правами человека в Узбекистане. Комплексный подход, включающий законодательные реформы, экономические меры и социальные программы, необходим для достижения устойчивых результатов.

Использованная литература:

1. Всеобщая история государства и права: Учебник / Под ред. проф. К.И.Батыра. – М.: Юристь, 1998. – 456 с.

2. История государства и права зарубежных стран. Учебник 4-издание. К.И.Батыра. –М.: Проспект. 2007. – 496 с.

3. United Nations. (2021). “Universal Periodic Review: Uzbekistan.”

4. Amnesty International. (2022). “Annual Report 2022: Uzbekistan.”

5. Freedom House. (2022). “Freedom in the World 2022: Uzbekistan.”

6. World Bank. (2020). “Poverty Reduction in Uzbekistan.”

7. UNICEF. (2021). “State of the World’s Children 2021: Uzbekistan.”

8. UN Women. (2020). “Gender Equality in Uzbekistan: Challenges and Progress.”

9. European Court of Human Rights. (2022). “Annual Report 2022.”

10. U.S. Department of State. (2021). “Country Reports on Human Rights Practices: United States.”

11. United Nations. (2022). “Human Rights Situation in the Middle East and North Africa.”

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASINING INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINI TA’MINLASHDA TUTGAN O‘RNI VA ROLI

Ziyodullayev Muzaffar
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, professor

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi mustaqil tizim sifatida tashkil etilganiga ko‘p bo‘lmagan bo‘lsa-da, o‘zining tarixiy ildizlariga ega. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 23-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 29-son qarori asosida O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini, fuqarolarning konstitusion huquqlari va erkinliklarini va hududiy yaxlitligini himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 3408-harbiy qismi negizida O‘zbekiston Respublikasining Milliy Gvardiya brigadasi tashkil etilganligi mustaqil O‘zbekiston Milliy gvardiyasining tarixiy asoslarini tashkil etadi[1]. O‘tgan yillar davomida huquq-tartibotni ta’minlash sohasida mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar O‘zbekistonda Milliy gvardiyaning shakllanishi va Qurolli Kuchlar tarkibida alohida o‘rin egallashida muayyan darajada xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-avgustdagi maxsus Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligi va davlat suverenitetini himoya qilish, fuqarolarning konstitusion huquq va

[1]O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 23-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 29-son qarori // Elektron manba: https://lex.uz/ru/docs/379421 (murojaat vaqti 08.01.2024).

erkinliklarini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi IIV Ichki vazifalarni bajaruvchi bo‘linmasi va O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining maxsus brigadasi bazasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tashkil etilganligi bu boradagi tizimli ishlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining tashkil etilishi mamlakatimizda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlarning natijasi sifatida inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolarning konstitusion huquq va erkinliklarini ta’minlashni amalga oshiruvchi yangi o‘ziga xos mustaqil tizim shakllanganligini ko‘rsatdi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvarliyasi faoliyatini tartibga solish maqsadida 2020-yil 18-noyabrda O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-647-son Qonuni qabul qilindi hamda 2021-yil 17-maydan rasman kuchga kirdi. Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining huquqiy maqomi va asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari, faoliyatining asosiy prinsiplari, Milliy gvardiyaning faoliyatini tashkil etish, harbiy xizmatchilar (xodimlar) tomonidan harbiy xizmatni (xizmatni) o‘tash, jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni, o‘qotar qurolni qo‘llash, tashkilotlarning va fuqarolarning transport vositalaridan foydalanish, ularni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish masalalari huquqiy tartibga solindi[1].

Qonunning 3-moddasida belgilanganidek, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo‘shinlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo‘lgan maxsus turi bo‘lib, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish – Milliy gvardiyaning eng birinchi asosiy vazifasi hisoblanadi.

[1]O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 2020. – № 03/20/647/1569.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolarning konstitusion huquq va erkinliklarini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi hamda uning bu boradagi rolini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

1. Mamlakatda jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini amalga oshirish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi o‘ziga yuklatilgan vakolatlari doirasi inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolarning konstitusion huquq va erkinliklarini ta’minlash, ularni turli jinoiy tahdid va tajovuzlardan himoya qilish, aybdor shaxslarga nisbatan jazo muqarrarligini ta’minlash choralarini ko‘radi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar tizimiga kiradi hamda mazkur Konsepsiya bilan bu boradagi uning vakolatlari aniq belgilab berilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasida belgilanganidek, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi mamlakatda jamoat xavfsizligini ta’minlashda jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga chek qo‘yish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshiradi, o‘ziga biriktirilgan jamoat joylarida, shu jumladan Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlaridagi ommaviy tadbirlarda, istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etadi, shuningdek vakolati doirasida favqulodda vaziyatlarda va favqulodda holat e’lon qilingan hududlarda, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda jamoat xavfsizligini ta’minlaydi.

So‘nggi besh (2018–2022) yilda respublikamizda qariyb 437 mingta turli ko‘rinishdagi ommaviy tadbirlar o‘tkazilib, ularda 290 mln. nafarga yaqin ishtirok etganlar qayd etilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi mazkur tadbirlar davomida boshqa vakolatli davlat

organlari bilan birgalikda jamoat tartibini saqlash va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash choralarini ko‘rgan[1].

Sir emaski, 2022 yil 1 iyul kuni Nukus shahrida bir guruh shaxslar soxta shiorlarni o‘ziga niqob qilib olgan holda, fuqarolarning fikrini chalg‘itib, hokimiyat vakillarining qonuniy talablariga bo‘ysunmasdan, tartibsizliklar keltirib chiqardi, mahalliy davlat hokimiyati organlari binolarini egallab olishga urindi. Jamoat tartibini saqlash haqidagi talablarga quloq solmasdan, ular 2 iyul kuni ham buzg‘unchilik ishlarini davom ettirgan. Bu yurish mobaynida Nukusdagi infratuzilma obyektlariga sezilarli zarar yetkazilgan. Binolarning oynalari sindirilib, yong‘inlar sodir etilgan. Bir nechta guruhlar qurol-yarog‘larni qo‘lga kiritish maqsadida Nukus shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi va Milliy gvardiya boshqarmasi binolarini egallashga uringan. Son jihatidan ustunlikdan foydalanib, huquq-tartibot organlari xodimlariga hujum qilgan, ularni ayovsiz kaltaklab, og‘ir tan jarohatlari yetkazgan[2].

Shunday murakkab va mas’uliyatli davrda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalari boshqa davlat organlari bilan birgalikda, yelkama yelka turib, yuzaga kelgan xavf-xatar va tajovuzni bartaraf etish, mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, farzandlarimizning yorug‘ kelajagini ta’minlash uchun bor kuch-quvvatini safarbar etdi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni 9-moddasida belgilanganidek, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tizimiga kiradi hamda ushbu Qonunning 12^2-moddasi va O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonuniga asosan, huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida bir qator vazifalarni amalga oshiradi. Xususan: huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi; huquqbuzarliklar

[1]Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiyasi bo‘linmalarining 2021–2023-yillardagi faoliyati natijalariga doir statistik ma’lumotlar tahlilidan foydalanildi.
[2]*Mirziyoyev SH.M.* Barchamiz uchun Vatan bitta. Bizni yagona, ulug‘ bir maqsad birlashtiradi // Elektron manba: https://president.uz/uz/lists/view/5309 (murojaat vaqti 08.01.2024).

profilaktikasiga doir dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi; huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi; huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan hamkorlik qiladi[1].

2. Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish, surishtiruv o‘tkazish, jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish va ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi o‘ziga yuklatilgan vakolatlari doirasida jazo muqarrarligini ta’minlash va yetkazilgan zararni qoplash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash choralarini ko‘radi.

Amaldagi jinoyat protsessual qonunchilikka muvofiq, bugungi kunda Jinoyat kodeksining 250^1-moddasi birinchi qismida (bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish bilan bog‘liq jinoyatlardan tashqari) va 259^1-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruvni va tergovni amalga oshirish vakolati O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va uning joylardagi bo‘linmalariga berilgan.

Shu bilan birga Milliy gvardiya organlari o‘ziga biriktirilgan javobgarlik hududlarida sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash, ularni fosh etish va vakolatli organlar tomonidan surishtiruv, tergovga qadar tekshiruv va tergov harakatlarini amalga oshirishda yaqindan yoram ko‘rsatadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi javobgarlik hududlarida 2022–2023-yillar davomida 1128 ta jinoyat aniqlangan bo‘lib, ularning 88,7 foizi bozorlar, 8,7 foizi istirohat bog‘lari, 1,5 foizi xiyobonlar va 1,1 foizi ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan obyektlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Tarkibiga ko‘ra aniqlangan jinoyatlarning 73,8 foizi, ya’ni qariyb har to‘rttadan uchtasini o‘g‘rilik jinoyatlari tashkil etsa, 11,3 foizini bezorilik jinoyati, 8,9 foizini turli darajadagi tan jarohati yetkazish jinoyatlari va 3,6 foizini talonchilik jinoyati tashkil etadi.

[1]O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2014. – № 20. – 221-m.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 248^1-moddasiga muvofiq, ushbu Kodeksning 63-moddasida, 72-moddasining birinchi va to‘rtinchi qismlarida (suvlarni ifloslantirish yoki bulg‘atish, suvto‘plagich inshootlarida suvni muhofaza qilish rejimini buzish, suv obyektlariga oqova suvlarni oqizishga yo‘l qo‘yish shartlari to‘g‘risidagi talablarni buzishga oid qismida, bundan yer osti suvlariga doir huquqbuzarliklar mustasno), 79-moddasining birinchi va uchinchi qismlarida, 88-moddasida (bundan bitum eritish chog‘ida atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya etmaslik mustasno), 90-moddasining birinchi qismida, 91-moddasida (sanoat chiqindilarini, maishiy chiqindilarni va boshqa chiqindilarni to‘plash, tashish chog‘ida tabiatni muhofaza qilish talablarini buzishga oid qismida), 91^1-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 91^2, 161-moddalarida, 187-moddasining birinchi qismida, 188, 188^2 va 192-moddalarida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish hamda ma’muriy jazo choralarini qo‘llash vakolati O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlariga berilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlarining mansabdor shaxslari Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 61-moddasida, 79-moddasining ikkinchi qismida, 90-moddasining ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi qismlarida, 901-moddasida, 911-moddasining to‘rtinchi qismida, 183, 1842, 1843, 185-moddalarida, 1851-moddasida (bundan bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar mustasno), 1852, 1853, 186-moddalarida, 187-moddasining ikkinchi qismida, 1881, 1883, 189, 1891, 191, 1941, 1951-moddalarida, 196-moddasida (O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlariga taalluqli qismida) va 2101-moddasida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklarni aniqlagan taqdirda, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzadi hamda belgilangan tartibda uni ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lgan organga (mansabdor shaxsga) ko‘rib chiqish uchun yuboradi.

Bu boradagi statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari tomonidan birgina

2023-yil davomida vakolatiga tegishli 29 turdagi ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha 28 minga yaqin ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirilgan bo‘lib, ularning 33,4 foizini belgilanmagan joylarga qattiq maishiy chiqindilarni va qurilish chiqindilarini tashlash, shuningdek suyuq maishiy chiqindilarni to‘kish (91^1-modda) huquqbuzarligi, 29,7 foizini shaharlarni va boshqa aholi punktlarini obodonlashtirish qoidalarini buzish (161-modda) huquqbuzarligi, 17,8 foizini jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste’mol qilish (187-modda) huquqbuzarligi va 8,6 foizini atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya qilmaslik (88-modda) huquqbuzarligi tashkil etadi.

3. Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash amalga oshirish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi o‘ziga yuklatilgan vakolatlari doirasi inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolarning konstitusion huquq va erkinliklarini ta’minlash, ularni turli ekstremistik, terrorchilik tahdid va tajovuzlardan himoya qilish choralarini ko‘radi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi jangovar bo‘linmalari terrorizm va ekstremizm tahdidlariga qarshi kurash, terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o‘tkazish va mamlakat ichidagi ekstremistik guruhlarga qarshi kurashda vakolatli davlat idoralari bilan hamkorlikda faol ishtirok etadi. Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash sohasida Milliy gvardiyaning roli uning nafaqat, terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o‘tkazishdagi ishtirokida, qolaversa terrorizm va ekstremizm tahdidlarining oldini olish hamda barvaqt profilaktika qilishda ham namoyon bo‘ladi.

4. Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshirish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi o‘ziga yuklatilgan vakolatlari doirasi inson va fuqarolarning mulkiy huquqlarini ta’minlash, ularni turli jinoiy tahdid va tajovuzlardan himoya qilish choralarini ko‘radi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi o‘ta muhim hamda toifalangan obyektlarni, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlari va yuridik shaxslarning obyektlari bilan bir qatorda shartnoma asosida jismoniy shaxslarning xonadonlarini, mol-mulklarini qo‘riqlash bo‘yicha maxsus vazifalarni bajaradi.

Bu boradagi statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘riqlash xizmati bo‘linmalari tomonidan 50 minga yaqin turli darajadagi obyektlar qo‘riqlanayotgan bo‘lsa, 33 minga yaqin fuqarolarning xonadonlari qo‘riqlovga olinib, ularning mulkiy xavfsizligi ta’minlanmoqda. Milliy gvardiya qo‘riqlash bo‘linmalari tomonidan 2021–2023 yillarda davomida biriktirilgan obyekt va xonadonlarda qo‘riqlash faoliyatini amalga oshirish jarayonida 130 ga yaqin jinoiy holatlarning oldi olingan.

5. Favqulodda vaziyatlarda insonlarni qutqarish va yordam ko‘rsatish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi o‘ziga yuklatilgan vakolatlari doirasida inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolarning konstitusion huquq va erkinliklarini ta’minlash choralarini ko‘radi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi favqulodda vaziyatlarda va favqulodda holat e’lon qilingan hududlarda vakolati doirasida jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etadi, shuningdek tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar, falokatlar, katta avariyalar yoki boshqa favqulodda vaziyatlarda bo‘linmalari evakuatsiyani tashkil etish, tibbiy yordam ko‘rsatish, muhim infratuzilmani himoya qilish va jamoat tartibini saqlash orqali aholiga yordam beradi.

Buni 2020 yilning aprel-may oylarida Buxoro viloyatining Olot va Qorako‘l tumanlari hamda Sirdaryo viloyatining Sardoba tumanida yuz bergan tabiiy ofatlarda Milliy gvardiya xizmatchilari avariya va tiklash ishlariga keng jalb etilib, odamlarimiz hayotini saqlab qolish va evakuatsiya qilishda Favqulodda vaziyatlar, Ichki ishlar va Mudofaa vazirliklari bilan birgalikda tengma teng turib fidoyilik ko‘rsatganida ham ko‘rish mumkin. O‘rni kelganda aholini xabardor qilish va qutqaruv ishlarini olib borish jarayonida Milliy gvardiyaning 2 nafar xodimini kuchli suv oqimi olib ketganini, ular o‘z jonini fido qilib, yuzlab, minglab insonlar hayotini saqlab qolishganini ham e’tirof etish lozim[1].

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi mudofaa va xavfsizlikni ta’minlashda muhim hamkor sifatida boshqa davlat organlariga yaqindan yordam ko‘rsatadi. Xususan, Milliy gvardiya

[1] *Mirziyoyev SH.M.* Suv toshqini biz uchun achchiq saboq bo‘ldi // Elektron manba: https://president.uz/uz/lists/view/3543 (murojaat vaqti 08.01.2024).

jangovar tuzilmalari O‘zbekiston Respublikasining hududiy mudofaasi tizimida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini jangovar qo‘llash rejalari bo‘yicha maxsus vazifalarni hal etish, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo‘shinlariga O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo‘riqlash hamda himoya qilishda ko‘maklashadi[1].

Binobarin, sohada amalga oshirilgan tizimli va izchil chora-tadbirlar natijasida, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “qisqa vaqt ichida Milliy gvardiya mamlakat xavfsizligini ta’minlash tizimidagi muhim bo‘g‘inga aylandi va Qurolli Kuchlar tarkibiy qismlari bilan yaqin hamkorlik o‘rnatdi”[2].

Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, mamlakatda jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida huquqni muhofaza qilishga doir muhim vazifalarni amalga oshirish barobarida inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, ularni turli tahdid va tajovuzlardan himoya qilishda muhim va ko‘p funksiyali o‘rin tutadi.

INSON HUQUQLARI HAQIDAGI XALQARO-HUQUQIY NORMALARNING AXLOQIY ASOSLARI

Muxammadiyev Ayubxon Abduraxmonovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti fuqarolik-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yu.f.d., professor

Yangi O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasining 54-moddasida insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi.

[1] *Selimanova S., Ziyodullayev M.* Tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashning muhim bo‘g‘ini // Gvardiya. – 2024. – 19-yanv.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi // Elektron manba: https://president.uz/uz/lists/view/1419 (murojaat vaqti 08.01.2024).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 1992 yil 8 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan-ligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasida “Bosh Qomusimiz Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro hujjatlar talablariga to‘la mos holda, inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini kafolatlab berdi”deb alohida ta’kidlagan edilar.

Odil sudlov *davlat faoliyatining bir turi hisoblanadi. Odil sudlovni amalga oshirish insonning huquq va manfaatini himoya qilishga, adolatni ta’minlashga chaqiriladi.* Bunday muhim vazifani bajarish uchun esa odil sudlov huquqiy va axloqiy asoslarga suyanishi kerak bo‘ladi. Odil sudlovda esa qonuniylik bilan axloqiylik ajratib bo‘lmas birlikda bo‘ladi.

Inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarning axloqiy mazmuni qiziqish uyg‘otadi, chunki *ularda mujassamlangan axloqiy tamoyil va normalar O‘zbekiston qonunchiligini isloh qilish asosiga qo‘yilgan*. Bu holat O‘zbekistonda inson huquqlari sohasida ijobiy ishlar olib borilayotganligining belgisidir. **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiya**siga binoan ushbu huquq va erkinliklar oliy qadriyat hisoblanadi, qonunlarni qo‘llashning mazmunini, mohiyatini, davlat hokimiyati organlarining faoliyatini aynan ular aniqlab berishi lozim. O‘rganilganda inson huquqlari bo‘yicha har davrlarda, turli xil mamlakatlarda qabul qilingan yuridik aktlar o‘rganib chiqilganda ildizi inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro huquqdan kelib chiqib qabul qilinganligini bildiradi. Faqat *sud hukmi bilan aybdor deb topish, huquqbuzarlik bilan jazoning mutanosibligi, aybsizlik prezumpsiyasi, so‘zga chiqish erkinligi, so‘z erkinligi, matbuot erkinligi, vijdon erkinligi, mamlakatdan chiqib ketish va qaytib kelish, mansabdor shaxslarning fuqarolarning huquqlarini buzganligi uchun javobgarligi* birinchi marotaba **Buyuk ozodlik xartiyasi**da *(1215)* kiritilgan edi, Angliyaning **Huquqlar to‘g‘risidagi Bill**da, **Fuqaro va inson huquqlari Deklaratsiyasi**da rivojlantirilgan. Bu o‘rinda qadimgi grek faylasuflarining ijtimoiy adolat va tenglik to‘g‘risidagi g‘oyalarni aytib o‘tish o‘rinli bo‘ladi. Davlatlarning inson huquqlari bo‘yicha hamkorligiga

Ikkinchi jahon urushidan keyin **Birlashgan Millatlar Tashkiloti**ning tashkil etilishi bilan asos solindi. *Birlashgan Millatlar Tashkilotining* ***Ustavida*** iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va insonparvarlik xususiyatidagi muaommalarni hal qilish bo‘yicha xalqaro munosabatlarni amalga oshirish va barchaning millati, jinsi, tili, dinidan qat‘i nazar inson huquqlariga va asosiy erkinliklariga hurmatni rag‘batlantirish va kuchaytirish belgilab qo‘yilgan.

Xalqaro munosabatlar tarixida inson huquqlari bo‘yicha davlatlarning keng hamkorligiga asos solgan ko‘p tomonlamalik birinchi shartnoma bu ***BMT****ning Ustavi* bo‘ldi. ***BMT****ning Ustavi* davlatlar zimmasiga biron-bir kamsitishlarga yo‘l qo‘ymasdan insonning asosiy huquq va erkinligiga rioya qilish yuridik majburiyatini yuklagan. 1948-yilning 10-dekabrda ***BMT*** *Bosh Assambleyasi* tantanali ravishda **Inson huquqlari bo‘yicha umumjahon deklaratsiyasi**ni qabul qildi. O‘sha paytdan boshlab 10-dekabr butun dunyoda inson huquqlari kuni tariqasida nishonlanib kelmoqda. Inson huquqlari bo‘yicha Umumjahon deklaratsiyasi tomonidan e‘lon qilingan demokratik normalar va tamoyillar milliy qonunchilikning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Urushdan keyingi Italiya, Yaponiya, GFR konstitutsiyalarida inson huquqlari alohida maxsus bo‘limlarda berilgan. Fransiyada asosiy siyosiy va fuqarolik huquqlari 1946-yildagi Konstitutsiyasining muqaddimasida berilgan.

Butunjahon Deklaratsiyasini qabul qilgandan ko‘p o‘tmay Bosh Assambleya o‘zining birlamchi qarorini bekor qilib, inson huquqlaribo‘yicha bitta Pakt o‘rniga ikkita Pakt qabul qilishni taklif etgan. Natijada Bosh Assambleya ***1966-yilda ikkita shartnoma qabul qildi, bular Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Pakt va Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi Pakt.*** Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Paktga asosan Inson huquqlari bo‘yicha Komitet tuzilgan bo‘lib, Paktda tan olingan huquqlarni hayotga tatbiq etish bo‘yicha ko‘rilgan choralar bo‘yicha hisobotlar, ayrim shaxslarning, shuningdek davlatlararo shikoyatlarni ko‘rib chiqadi. 1989-yilning 15-dekabrida Bosh Assambleya Xalqaro Paktda o‘lim jazosini bekor qilish haqidagi ikkinchi fakultativ Protokolni qabul qildi. 1949-yilda tashkil etilgan *Yevropa*

Kengashi eng birinchi regional tashkilotlardan hisoblanadi. Bu tashkilot doirasida inson huquqlari bo‘yicha 150 dan ortiq konvensiya va bayonnomalar qabul qilingan. *Yevropa Konvensiyasi* 1948-yildagi Inson huquqlari bo‘yicha Umumjahon Deklaratsiyasining o‘ziga xos davomi va rivoji bo‘ldi. Ammo, Umumjahon Deklaratsiyadan farqli o‘laroq Konvensiya nafaqat asosiy huquqlarni e’lon qildi, balki ularni himoya qilishning mexanizmini ham ishlab chiqdi. Avval boshda bu mexanizm o‘z ichiga uchta organni oldi, qaysikim Konvensiya ishtirokchi davlatlar tomonidan majburiatlarga amal qilishni nazorat qildi. Bular *Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa Komissiyasi, inson huquqlari bo‘yicha Yevropa Sudi, Yevropa Kengashining ministrlar komiteti*. 1998-yilning 1-noyabridan boshlab birinchi ikki organ doimiy harakatda bo‘lgan inson huquqlari bo‘yicha *Yevropa Sudi* bilan almashtirilgan. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa Sudi Strasburgda (Fransiya) Inson huquqlari Saroyida joylashgan.

INSON HUQUQLARINI TA’MINLASHDA IJTIMOIY DAVLAT FENOMENI

Gaziyev Shaxrux Murodaliyevich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi professori
yuridik fanlar doktori, dotsent;
Ilyasova Ozoda, Sharipov Asadbek
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
201-guruh talabalari

O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

O‘zbekiston “ijtimoiy davlat” yo‘lini tanlar ekan, “ijtimoiy” so‘zining lug‘aviy ma’nosini, ijtimoiy davlatning maqsad va vazifalarini, ijtimoiy davlat fenomeni o‘zining qachon vujudga kelgani va o‘zbek xalqi ushbu yo‘lni tanlar ekan, kelgusida ijtimoiy davlat siyosatining mazmun-mohiyati nimalardan iborat bo‘lishligini aniqlab olish ayni muddao bo‘ladi.

Yurisprudensiya, iqtisodiyot, sotsiologiya va boshqa yo‘nalishdagi adabiyotlarda va ilmiy ishlarda kuzatilishicha “ijtimoiy siyosat”, “ijtimoiy himoya tizimi”, “ijtimoiy davlat” kabi tushunchalar uchraydi, “ijtimoiy” so‘zining ma’no-mazmunini aniqlashga harakat qilinadi.

M.Xojimatovning qayd etishicha, u asli, arabcha “jam’” degan so‘z o‘zagidan yasalgan ekan. “Jam’” – “ko‘pchilik”, “to‘planish” degan ma’nolarni anglatadi. “Jamoa”, “jamoat”, “jamiyat” so‘zlari ham bevosita “jam’” o‘zagidan yasalgan. Tilshunoslik nuqtai nazaridan “jamiyat” so‘zi - ot so‘z turkumiga kiradi. Sifat yasash uchun unga odatdagi “iy” sifat yasovchi qo‘shimchasini qo‘sha olmaymiz, ya’ni tilimizda “jamiyatiy” degan so‘z shakli yo‘q. Shu sabab “jamiyat” so‘zining arab tilidagi sifat shaklini – “ijtimoiy” so‘zini ishlatamiz. Bu aynan “jamiyatga, ya’ni ko‘pchilikka tegishli” degan ma’noni anglatadi [1].

Ayrim olimlar “ijtimoiy davlat” haqidagi g‘oyalarning shakllanishining kelib chiqishini T.Gobbs va J.Lokkning ilmiy farazlari natijasida paydo bo‘lgan nazariyalariga borib taqalishini e’tirof etishadi. Ba’zi tadqiqotchilar esa mazkur atamaning Lorens fon Shteyn tomonidan 1850 yilda muomalaga kiritilganini ta’kidlashadi.

Lorens fon Shtaynning so‘zlariga ko‘ra, davlat o‘z fuqarolarining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ko‘maklashishga majburdir, chunki yakuniy tahlilda, birining rivojlanishi ikkinchisining rivojlanishi uchun shart. U: davlatning vazifasi ijtimoiy tenglik va shaxsiy erkinlikni o‘rnatish, quyi va kam ta’minlangan tabaqalarni boylar va kuchlilar darajasiga ko‘tarishdan iborat deb hisoblardi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, bu kabi klassik g‘oyalar o‘zbek davlatchiligi tarixida ham bor. Xalqning jamoaviy turmush tarzi, o‘zaro mehr-shafqat va sahovat singari noyob qadriyatlari ijtimoiy davlatchilik ildizlari Markaziy Osiyoda ham mavjud bo‘lganidan darak beradi, go‘yo.

Ayniqsa, “Avesto”dagi siyosiy va huquqiy g‘oyalar, o‘rta asrlarda vujudga kelgan islom mafkurasi, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Navoiy singari allomalarning ta’limotlari, Amir Temur va Bobur singari lashkarboshilarning milliy davlatchilikni barpo etish va ijtimoiy

siyosat yurgizish borasidagi tuzuklari ushbu farazlarimizni ilgari surishga asos bo‘la oladi [2].

Masalan, “Temur tuzuklari”dagi sohibqironning: “Yana buyurdimki, har bir mamlakat fath etilgach, u yerning gadolarini to‘plab, kundalik yemish-ichmishlar bilan ta’minlab, ularga biron ish bersinlar” mazmunida aytgan o‘giti rivojlangan davlatlarda ishsiz va boshpanasiz qolgan yoki kambag‘al aholi toifasini hozirgi kunda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chorasi sifatida ko‘rilmoqda [3].

E’tirof etish joiz, insoniyat sivilizatsiyasining keyingi asrlari tarixida, ijtimoiy davlat g‘oyasi ta’siri ostida Yevropa jamiyati jadal siyosat yuritishga kirishdi. Masalan, Germaniyada 1873-yildayoq ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash, tibbiy sug‘urta yoki ishsizlik nafaqalari joriy etish dasturlari amal qildi. AQShda ham davlat jamoatlar, kasaba uyushmalari huquqlarini himoyalash ishlarini boshladi, ipoteka dasturlarini joriy qildi.

Ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan keyin davlat ijtimoiy siyosati yurgizish faollashdi. Masalan, Buyuk Britaniyada siyosiy arbob G.Beverij ishsizlikka qarshi choralarni ilgari surdi, boshqa g‘arb mamlakatlarida ham ijtimoiy davlat mexanizmlari: "ijtimoiy xizmatlar jamiyati", "ijtimoiy bozor iqtisodiyoti" g‘oyalari ommaviy mavqega ega bo‘ldi, Shvetsiya, Norvegiya, Shveysariya ijtimoiy davlat maqomini ola boshladi.

Masalan, Yevropa mamlakatlaridan 1949-yilda Germaniya, 1958-yilda Fransiya, keyin Ispaniya, Polsha, 1983-yilda Turkiya, MDH mamlakatlaridan 1993-yilda Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, 1994-yilda Belarusiya kabi davlatlar o‘z Konstitutsiyalarida o‘zini “ijtimoiy davlat” deb e’lon qilgan.

Akademik A.Saidov qayd qilganidek, hozirda “Ijtimoiy davlat” atamasi Yevropa, Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi davlatlarining ko‘plab konstitutsiyalarida mavjud. Biroq, ularning aksariyatida faqat “ijtimoiy davlat” atamasi mavjud bo‘lib, uning mazmun-maqsadlari to‘liq yoritilmagan. Asosiy qonunlarida faqat “ijtimoiy davlat” iborasi mavjud bo‘lgan ko‘plab mamlakatlardan farqli o‘laroq, Rossiya Konstitutsiyasida uning mazmuni quyidagicha belgilangan: “Rossiya Federatsiyasi —

siyosatining maqsadi insonning munosib hayoti va erkin rivojlanishini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy davlatdir”. Bir tomondan, bunday ta’rif siyosiy maqsad sifatida berilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, unda ijtimoiy davlatning ustuvor asoslari: insonning munosib hayoti va erkin rivojlanishi ko‘rsatib o‘tilgan [4].

Endi, bu borada O‘zbekiston tajribasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 1992-yil qabul qilingan Konstitutsiyamizda “ijtimoiy davlat” tushunchasi ishlatilmagan edi [5].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirda davlat rahbari tomonidan: “O‘zbekiston ijtimoiy davlat va adolatli jamiyat qurish sari dadil bormoqda. Shu sababli “Yangi O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” degan tamoyilni konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlashning vaqti-soati yetdi, deb o‘ylayman” deya g‘oya ilgari surildi [6]. Keyinchalik bu g‘oya O‘zbekiston Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan 2022-yil 20 iyunda o‘tkazilgan uchrashuvda qaytadan ko‘tarildi.

Unda Prezident Sh.Mirziyoyev: “Inson qadri” tushunchasi «ijtimoiy davlat» tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy davlat – ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish bo‘yicha samarali siyosat olib boradigan davlat modelidir. Ijtimoiy davlat muhtojlarga uy-joy, yashash uchun zarur bo‘lgan iste’mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo‘yilishini nazarda tutadi. U shaxs va uning oilasi munosib hayot kechirishi uchun yetadigan ish haqi, kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratishni talab qiladi. Shu bilan birga, ishsizlikdan himoyalanish, kafolatlangan sifatli ta’lim, malakali tibbiy yordam, barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash ham ijtimoiy davlatning asosiy vazifasidir» deya ijtimoiy davlatga xos asosiy masalalarni sanab o‘tish barobarida, - “ijtimoiy davlatda hech kim e’tibordan chetda qolmaydi, o‘z muammolari bilan yolg‘iz tashlab qo‘yilmaydi” – deya qat’iy ta’kidlab o‘tdi [7].

Shu tariqa milliy davlatchilikning tarixiy ildizlariga tayanilgan, xalqaro hamjamiyat tajribasiga asoslangan, ijtimoiy taraqqiyotning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish maqsad-muddaosini o‘zida jam qilgan holda yangi Konstitutsiyada “ijtimoiy davlat” ustuvor g‘oyasi o‘z ifodasini topdi.

Zero, ijtimoiy himoya milliy davlatchilikning tarixiy an’anasi bo‘lib, professor A.Azizxo‘jayev qayd etganidek, “har bir mamlakat milliy davlatchilik an’analarini saqlab qololmasa, u chinakamiga o‘ziga xos demokratik davlat bo‘la olmaydi. Milliy davlatchilik asoslarimizni chuqur va mukammal tatdiq etish esa, uning uchun zarur an’analarini hayotga joriy qilish bizning dozarb vazifamizdir [8].

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalqi ijtimoiy davlatchilik tarixiy tajribalarini zamon va makonga mos yangi islohotlar mazmuni bilan boyitib, yanada yuqori marralarni ko‘zladi. Mamlakatimiz ijtimoiy hayoti ulkan o‘zgarishlar jarayonida. Ijtimoiy himoya – ijtimoiy davlatning asl mazmun-mohiyatidir. Ulug‘vor maqsadlar esa mustahkam huquqiy poydevorga tayanishi kerak. Bu borada dunyoda ko‘pgina davlatlar o‘z konstitutsiyalarida siyosiy-huquqiy mavqeyini “demokratik davlat” deb e’lon qilgan bo‘lsada, lekin faqat sanoqli mamlakatlargina o‘zini “ijtimoiy davlat” deya e’lon qilishga jazm etgan.

O‘zbekiston ham o‘z qarorini qabul qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xojimatov M. Ijtimoiy himoya yili: mazmun va mohiyati. – T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007. - 89 b.
2. Boboyev X., Xasanov S. «Avesto-ma’naviyatimiz sarchashmasi». – T.: Adolat. 2001.
3. Temur tuzuklari. – T.: O‘zbekiston, 2019 yil. – 234 b.
4. Saidov A. Zamonaviy konstitutsionalizm: milliy va xorijiy tajriba / Xalq so‘zi gazetasi. 2021 yil 14 dekabr.
5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi”, 1993 yil, 1-son, 4-modda.
6. Xalq so‘zi gazetasi / 2022-yil 21 iyun.

7. Miziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021 yil. – 424 b.

Azizxo‘jayev A. Davlatchilik va ma’naviyat. – Toshkent: “Sharq”, 1997. – B 82.

XOTIN-QIZLARNING HUQUQLARI VA QONUNIY MANFAATLARINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Axmedova Muqaddasxon Tursunovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yu.f.d., dotsent;
Raimova Diyora,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kursanti

O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasi erishgan barcha ijobiy yutuqlarni, gumanitar qadriyatlarni, xalqaro huquqiy mezonlar va talablarni e’tirof etgani holda aholini ijtimoiy himoyalash sohasida xalqaro andozalarga mos keladigan faoliyat yuritishga intilib kelmoqda. Bu faoliyat, eng avvalo, inson manfaatlariga yangicha yondashishda uning huquqiy negizini yaratish, insoniyat taraqqiyotida erishilgan ijobiy qoidalarni o‘z milliy tizimimizga joriy etilishida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Bugungi kunda yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida davlat va jamiyatning ayollarga nisbatan munosabati bilan bog‘liq muammo dolzarbligicha qolmoqda. Chunki, davlat va jamiyat taraqqiyoti, vatan ravnaqi, xalq farovonligi, farzandlarimizning komil inson bo‘lib voyaga etishi shu jamiyat hayotida ayollarning tutgan o‘rni va roli bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababdan, bugungi kun yangi islohotlar bosqichida demokratik huquqiy davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishni o‘zining pirovard maqsadi sifatida tanlagan yangi O‘zbekistonda ayollarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ularning ijtimoiy hayotdagi mavqeini yuksaltirish, davlat boshqaruvidagi rolini oshirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, ayollarga oqilona munosabat masalasiga ijtimoiy-siyosiy islohotlar jarayonida jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida respublikamiz xotin-qizlari faol ishtirok etib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev haqli ravishda ta’kidlaganidek, “davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o‘rni va mavqeini yanada mustahkamlash - islohotlarimizning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biridir”[1].

Ayollar va bolalar har vaqt ijtimoiy himoyaning muhim subyektlaridan hisoblangan. Umuminsoniy qadriyatlar yuqori darajada baholanadigan mamlakatlarda mazkur toifaga alohida kafolat va imtiyozlar berib kelinadi. Chunki ayollar jamiyatning muhim bo‘g‘ini bo‘lib, ularning jismoniy hamda ruhiy imkoniyatlari alohida e’tibor va afzalliklarni taqozo etadi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlash, mehnat huquqini kafolatlash va ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash borasida keng ko‘lamli ishlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagi PQ–4235-sonli “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun, 2022 yil 22 iyuldagi “Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2022 yil 7 martdagi PF-87-son “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlarning qabul qilinishi ayollarni ijtimoiy-mehnat sohasida himoya qilishga va gender tenglikni ta’minlashga jiddiy munosabatda bo‘linayotganligini anglatadi.

Bugungi kunda jamiyatimizda ayollarga bo‘lgan etibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Xususan, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. // Халқ сўзи, 2020 йил 30 декабрь

ayollarni ish bilan ta’minlash, jamiyatda o‘z o‘rnini topish uchun qo‘llab-quvvatlashning huquqiy kafolatlari ishlab chiqildi. Qabul qilingan qonunlarimizda ayollar huquqlariga inson huquqining ajralmas qismi sifatida qarala boshlandi. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasinng 58-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidir”[1], - deb e’tirof etilishi, mamlakatimizda ayollar jamiyatimizning faol a’zosi sifatida barcha sohalarda keng qamrovli ishtirok etishining huquqiy kafolati etib belgilanganidan dalolat beradi.

Shuningdek, davlatimizni inson huquqlari bo‘yicha umum e’tirof etilgan xalqaro hujjatlarga, jumladan 1995 yil 18 avgustdagi “Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi Konvensiyaga qo‘shilishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021 yil 28 maydagi “2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida Gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi SQ-297-IV-sonli qarori ham mamlakatimizda xotin-qizlar masalasiga jiddiy e’tibor berilayotganligini ko‘rsatadi. Bunda belgilandiki, Gender strategiyasini 2023-2030 yillarda bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun har yilda alohida-alohida kompleks chora-tadbirlar dasturlari tasdiqlanadi[2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevralda “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-sonli Farmoni[3] e’lon qilingan bo‘lib, unga ko‘ra mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-

[1] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023. – Б. 36.

[2] Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2021 йил 28 майдаги “2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида Гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида”ги СҚ-297-IV-сонли Қарори.

[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 февралда “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5325-сонли Фармони // (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.02.2018 й., 06/18/5325/0653-сон; 25.05.2018 й., 06/18/5447/1269-сон, 13.12.2018 й., 06/18/5597/2300-сон; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.09.2019 й., 06/19/5840/3826-сон, 23.11.2019 й., 06/19/5880/4044-сон; 01.01.2020 й., 06/20/5898/4258-сон)

quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida “Xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishi bugungi kunning dolzarb masalasidir. Milliy siyosatimiz markazida turadigan eng ezgu maqsad – oilalar mustahkamligini, ayollarimizning huquqiy himoyasi va osoyishta hayotini ta’minlashdan iborat”[1], - deb ta’kidlagan.

Vatanimiz taraqqiyotida, oila va jamiyat hayotida xotin-qizlarning o‘rni muhim va mavqei baland hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini tashkil etadigan xotin-qizlar ijtimoiy-ma’naviy, siyosiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida xususan, davlat boshqaruvi va vakillik organlarida, ishlab chiqarish, tadbirkorlik, fermerlik, sog‘liqni saqlash, ta’lim, ma’rifat, madaniyat va boshqa ijtimoiy sohalarda samarali mehnat qilib kelmoqda.

Hozirgi kunga qadar mamlakatimizning xotin-qizlari orasida 514 nafar fan doktori, 6 nafar akademik, 15 nafar O‘zbekiston Qahramoni, 17 nafar senator, 15 nafar Qonunchilik palatasi deputati borligi, shu o‘rinda, mahalliy Kengashlar deputatlarining 23 foizidan ziyodini hamda ilm-fan, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san’at sohalarida mehnat qilayotganlarning 72 foizini aynan ayollar ya’ni xotin-qizlar tashkil etishini alohida ta’kidlash lozim.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy sohalardagi faolligini oshirish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq ushbu sohadagi ishlarning holati xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil etish, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash va

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар ташкилоти Бош ассамблеясининг 78-сессиясидаги нутқи. Янги Ўзбекистон газетаси 2023 йил 20 сентябрь.

sog‘lomlashtirishning samarali mexanizmini yaratishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatmoqda[1]. Ayniqsa ta’lim muassasalarida rahbar ayollarning o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish sohasidagi olib borayotgan ishlari tahsinga sazovordir. Ammo xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganiga qaramay, bu boradagi ayrim muammolardan ko‘z yumib bo‘lmaydi:

birinchisi, ayollarning spirtli ichimlik, giyohvandlik va psixotrop moddalar iste’mol qilishga ruju qo‘yishi;

ikkinchisi, ayollar tomonidan qonunga xilof ravishda, ya’ni jinoiy yo‘l bilan daromad topishni kasbiy faoliyatga aylantirayotganliklari;

uchinchisi, ayollarning o‘zlariga nisbatan ishlatilgan zo‘rlik, ya’ni jismoniy jazolash, ruhiy va ma’naviy ozor berish, majburan erkinlikdan mahrum etish harakatlari sodir etilganda masalaning yechimi sifatida jinoyatga qo‘l urushi;

to‘rtinchisi, ayollarning ayollik xususiyatlari va ijtimoiy maqomi hamda jamiyatda tutgan o‘rnidan foydalanish maqsadida erkaklar tomonidan ularni qo‘rqitish, aldash kabi ta’sirlar orqali jinoyat sodir etishga majburan jalb qilish, turli giyohvand va psixatrop moddalarni chegaradan noqonuniy tarzda olib o‘tishga majburlash, qo‘poruvchilik, terrorchilik harakatlarini sodir etishga majburlash holatlari achinarlidir. Ayollarning ijtimoiy-siyosiy jihatdan faollashuvi, jamiyat hayotining turli sohalarida ularning ishtirok etishi oldingi davrlarga nisbatan sezilarli oshdi.

Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta’minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini tizimli va doimiy oshirib borish lozim.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2028 йил «Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида’’ги ПФ – 5325-сон Фармони // (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.02.2018 й., 06/18/5325/0653-сон; 25.05.2018 й., 06/18/5447/1269-сон, 13.12.2018 й., 06/18/5597/2300-сон; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.09.2019 й., 06/19/5840/3826-сон, 23.11.2019 й., 06/19/5880/4044-сон; 01.01.2020 й., 06/20/5898/4258-сон)

Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish zarur. Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun ta’lim va tarbiya ularning jismoniy va aqliy rivojlanishini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Misol uchun, ularga surdo tarjimonlar, ko‘zi ojizlar uchun Brayl alifbosidagi darsliklar, zarur bo‘lgan texnik moslamalar, maxsus bilim va malakaga ega o‘qituvchi-pedagoglar jalb etilishi kerak.

Shuningdek ta’lim olish jarayonida ularni biror-bir shaklda kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi, ularning sog‘lom bolalar qatoridan o‘rin olib o‘z qobiliyatlarini ko‘rsata olish imkoniyatini yaratib berish lozim. Pirovardida, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning sifatli ta’limga bo‘lgan huquqi ta’minlash talab etiladi.

Shuni inobatga olgan holda surdo teatrlarini tashkil etish va ularni aktyorlik mahoratlarini oshirish uchun O‘zbekiston San’at va madaniyat institutida kadrlarni tayyorlash uchun Maxsus fakultetlarni tashkil etish lozimligini aytib o‘tish zarur. Bu bilan mamlakatimizda bunday bolalar uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi, ularning ma’naviy-ma’rifiy tomonlama ozuqa olishlari, surdo teatlarida maroqli dam olishi va yengil darajadagi nogironligi bor bolalar sog‘lom bolalar qatoriga qo‘shilishi uchun zamin yaratadi.

AYOLLARNI MEHNAT SOHASIDA HUQUQIY HIMOYA QILISH SHAKLLARI VA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Axmedova Muqaddasxon Tursunovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yu.f.d., dotsent;
Baxtiyorov Faxriyor, Xolbo‘tayeva Dinara,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlari

So‘nggi yillarida mahalla, oila, xotin-qizlar va yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash, bandligini ta’minlash, kambag‘allikning oldini olish, davlat va jamiyat taraqqiyotida xotin-qizlarning faolligini oshirish kabi masalalarga oid 100 ga yaqin huquqiy-me’yoriy hujjatlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi nufuzi ko‘p jihatdan inson huquqlari, ayniqsa ayollar huquqlariga rioya qilishga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi 1979 yil 18 dekabrda Nyu-Yorkda qabul qilingan “Ayollarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi Konvensiyaga qo‘shilgan. Mazkur Konvensiyada ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat sohasida erkaklar bilan teng huquqqa ega bo‘lishi uchun barcha zarur chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozimligi ta’kidlangan. Konvensiya va boshqa xalqaro huquqiy hujjatlarda bayon etilgan ayollarning huquqlariga oid qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda mehnat qonunchiligida to‘liq aks ettirilgan. Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda iqtisodiy faol aholi tarkibida ayollar ulushi 45,7 foizni tashkil etmoqda. Ayrim sohalarda ishlayotgan xodimlar tarkibida ayollarning ulushi yuqori ekanligini ko‘rish mumkin. Masalan, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasida ularning ulushi 76,6 foiz, ta’lim sohasida 75,6 foiz, ya’ni 10 nafar xodimning 7 nafari xotin-qizlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 42-moddasiga ko‘ra: Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi.

Bandlik va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra 2023 yilning birinchi yarim yilligida mehnat organlariga xotin-qizlardan aholi bandligi va mehnatni muhofaza qilishga oid 3 ming 330 ta murojaat kelib tushgan. O‘rganishlar natijasida 2 ming 23 ta ariza bo‘yicha tushuntirishlar berilib, 1 ming 307 nafar ayolning buzilgan mehnat huquqlari tiklangan. Hisobot davrida ayollarni ishga qabul qilishda gender nuqtai nazardan 274 ta, ishdan bo‘shatishda 319 ta, mehnatga haq to‘lashga oid 2 ming 59 ta, xotin-qizlarning kamsitilishiga taalluqli 432 ta qonunbuzilish holatlari aniqlangan. Jumladan, 39 ta holatda ayollar majburiy mehnatning turli shakllariga jalb etilgani ayon bo‘lgan. Ijtimoiy himoyaga muhtoj 24,7 ming nafar ayol, jumladan, ta’lim muassasalarini bitirgan qizlar, kichik yoshdagi bolali ayollar, yolg‘iz onalar hamda 14 yoshgacha va nogiron farzandi bor ayollar ishga joylashtirilgan[1].

Mazkur statistik ma’lumotlar hamda mavjud amaliyot ayollarni, ayniqsa, homilador va farzand tarbiyasi bilan mashg‘ul ayollarni ishga qabul qilish, boshqa ishga o‘tkazish, mehnatiga haq to‘lash, mehnatni muhofaza qilish, ijtimoiy to‘lovlarni amalga oshirish bilan bog‘liq vaziyatlarda kamsitilayotganligidan darak beradi.

Yuqoridagilarga qaramasdan ayollarni mehnat sohasida huquqiy himoya qilish shakllari va mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruriyati mavjud. Xususan, hozirgi vaqtda Xalqaro mehnat tashkiloti ekspertlari tomonidan ayollarning mehnat sohasida erkaklar bilan tengligini ta’minlash maqsadida ularning mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qonunchilikda belgilangan ayrim cheklovlarni olib tashlash, ayollarga oiladan ajralmagan holda kasanachilik, masofaviy xizmat kabi ishlarda bandligini ta’minlash, ayollarni ishga qabul qilishda kamsitishlar bilan bog‘liq suiiste’molchiliklarga barham berish, ayollarni munosib mehnat bilan ta’minlash, ularga ijtimoiy vazifalarni amalga oshirish munosabati bilan lozim darajada shart-sharoitlarni yaratib berish, g‘ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o‘tkazish va ishdan bo‘shatishlarning oldini olishga qaratilgan qonunchilikni yanada takomillashtirish talab etilmoqda.

[1] https://kun.uz/news/2023/07/26/1300dan-ortiq-ayollarning-buzilgan-mehnat-huquqlari-tiklandi-vazir-orinbosari

Ayollar va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg‘ul shaxslar mehnat sohasida qo‘shimcha ijtimoiy muhofaza qilinadigan xodimlar toifasi hisoblanadi. Ayollarning fiziologik tuzilishi, reproduktiv funksiyasi hamda farzandlarni tarbiyalash kabi ijtimoiy vazifani bajarishi ularni ayrim toifadagi xodimlar qatoriga kiritish uchun asos bo‘ladi. Shuningdek, oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg‘ul shaxslarni ham qo‘shimcha ijtimoiy muhofaza qilishga ehtiyoj mavjud. Natijada ularga nisbatan ham mehnat sohasida kafolat va imtiyozlarni belgilab beruvchi maxsus normalar tatbiq etiladi.

Albatta, huquqiy hujjatlarda erkak va ayollarning teng huquq va erkinliklari qayd etilgan bo‘lsada, erkaklarning jamiyatdagi o‘rni va mavqe’i ayollarga nisbatan ustun ko‘rilishi yoki teng huquqlilik niqobi ostida ayollarga ularning fiziologik jihatlariga to‘g‘ri kelmaydigan mehnat munosabatlariga jalb qilinishi kabi masalalar borki, ayol huquqlarini ko‘tarishga, ularning huquqlari belgilangan normalarni hayotga faol tatbiq qilishga, ayollarning himoyalanganlik darajasini yuksaltirishga undaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 25-bobi 1-paragrafida ayollar va oilaviy vazifalar bilan mashg‘ul bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy-mehnat sohasida bir qator taqiq va cheklovlar, shuningdek qo‘shimcha kafolat va imtiyozlar belgilangan. Mazkur bobni tahlil qilish orqali ayollar va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg‘ul shaxslar mehnatini tartibga solish xususiyatlarini nazarda tutuvchi normalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1) ayollarga taalluqli bo‘lgan;

2) homilador ayollarga taalluqli bo‘lgan;

3) ikki yoshga to‘lmagan farzand tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lgan ayollarga taalluqli bo‘lgan;

4) uch yoshga to‘lmagan farzand tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lgan ayollarga taalluqli bo‘lgan;

5) farzand tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lgan boshqa shaxslarga taalluqli bo‘lgan;

6) boshqa oilaviy majburiyatlarni bajarayotgan xodimlarga taalluqli bo‘lgan.

Boshqa davlatlar mehnat qonunchiligi bo‘yicha ham bunday tasniflanishlar amalga oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, huquqshunos L.V.Zayseva Rossiya mehnat qonunchiligi asosida ayollar va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg‘ul shaxslar mehnatini tartibga solish xususiyatlari belgilangan normalarni quyidagicha tasniflagan:

1) organizmning fiziologik xususiyatini hisobga olgan holda yoshi yoki reproduktiv yoshidan qat’i nazar barcha ayollar;

2) zarur mehnat sharoitlarini ta’minlash, yuqori darajada ishlab chiqarishning zararli omillarini istisno etilishini talab etuvchi homilador ayollar;

3) bola tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lgan onalar, otalar, shuningdek oilaning boshqa a’zolari;

4) mehnat munosabatlarini maxsus huquqiy tartibga solishni talab qiladigan oilaviy majburiyatlarni bajaruvchi boshqa shaxslar[1].

Ta’kidlash lozimki, ayollar va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg‘ul shaxslarni tashkil qiluvchi turli toifadagi xodimlar uchun mehnatni tartibga solish xususiyatlari ham turlicha bo‘ladi. Shu munosabat bilan ularning har biri mehnatini tartibga solishning xususiyatlarini alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Qisqa qilib aytganda, mehnati maxsus huquqiy tartibga solingan birinchi guruhga “ayollar” taalluqlidir. Ayollar yoshidan (reproduktiv yoki fertil yoshi) qat’i nazar organizmning fiziologik xususiyatlaridan kelib chiqib himoya qilinadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining mehnat va mashg‘ulot sohasida kamsitishning taqiqlanishi, jamoa shartnomasining mazmuni va tuzilishi, ta’tillarni berish tartibi, shuningdek, xomiladorlik va tug‘ish ta’tillariga oid imtiyoz va kafolatlar “ayollar”ga nisbatan amalga oshiriladi. Ya’ni, bu yerda ayol jinsiga mansublik ushbu imtiyozli huquqlarni olish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

[1] Зайцева Л.В. Трудовой договор: особенности регулирования труда отдельных категорий работников. Учебное пособие. – Тюмень: ТГУ, 2008. –С.35.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ СОҲАСИДАГИ ХАЛҚАРО МАЖБУРИЯТЛАРНИНГ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ: ЯНГИ МУАММОЛАР ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМЛАРИ

Очилов Ўткир Сайфуллаевич,
Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази бўлим бошлиғи, юридик фанлар доктори, доцент

Янги Ўзбекистон сиёсатида инсон қадри ва ҳуқуқларини таъминлаш марказий ўринни эгаллайди. Инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро мажбуриятларнинг бажарилиши давлат фаолиятининг муҳим элементи бўлиб ҳисобланади. “Ўзбекистон инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро мажбуриятларига қатъий содиқ қолади” [1,70], - деб таъкидлайди Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев.

Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясида инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро мажбуриятларни амалга ошириш механизми кучайтирилди. Жумладан Конституцияда:

Ўзбекистон ратификация қилган халқаро шартномалар халқаро ҳуқуқнинг умумэътироф этилган принцип ва нормалари билан бир қаторда Ўзбекистон ҳуқуқий тизимининг таркибий қисми эканлиги;

Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномасида Ўзбекистон қонунида назарда тутилганидан бошқача қоидалар белгиланган бўлса, халқаро шартнома қоидалари қўлланилиши;

халқаро шартномаларни ратификация қилиш тўғрисидаги қонунлар Президент томонидан имзолангунига қадар уларнинг Конституцияга мувофиқлигини аниқлаш тартиби;

ҳар ким агар давлатнинг ҳуқуқий ҳимояга доир барча ички воситаларидан фойдаланиб бўлинган бўлса, ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилувчи халқаро органларга мурожаат этишга ҳақли эканлиги;

инсон ҳуқуқлари бўйича миллий институтлар инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилишнинг мавжуд шакллари ҳамда воситаларини тўлдириши мустаҳкамланди.

Ҳозирги вақтда Ўзбекистон инсон ҳуқуқлари бўйича 80 дан ортиқ халқаро ҳужжатга қўшилган, жумладан, БМТнинг инсон ҳуқуқлари бўйича 18 та асосий халқаро шартномалардан 11 тасини ратификация қилган. Ўзбекистон инсон ҳуқуқлари бўйича давлатларнинг мажбуриятлари бажарилишини назорат қиладиган органлар, жумладан БМТнинг Инсон ҳуқуқлари кенгаши, БМТнинг Инсон ҳуқуқлари бўйича олий комиссари бошқармаси, инсон ҳуқуқлари бўйича универсал ҳисобот тизими, инсон ҳуқуқлари бўйича БМТнинг шартномавий қўмиталари, инсон ҳуқуқлари бўйича махсус маърузачилар институти билан яқиндан ҳамкорлик қилиб келмоқда. Шунингдек, инсон ҳуқуқлари соҳасидаги ислоҳотларни рўёбга чиқаришда БМТнинг ЮНИСЕФ, ЮНЕСКО, ХМТ каби ихтисослаштирилган ташкилотлари, ЕХҲТ, МДҲ, ИҲТ каби минтақавий ташкилотлар, шунингдек хорижий давлатларнинг инсон ҳуқуқлари бўйича миллий институтлари билан ҳамкорликнинг муҳим ўрнини таъкидлаш лозим.

Ўзбекистон инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш жараёни нафақат уларни кафолатлаш ва шарт-шароитларни яратиш босқичини, балки ушбу ҳуқуқ ва эркинликлар бузилган тақдирда уларни ҳимоя қилиш, яъни бузилган ҳуқуқларни тиклаш, уларни бузганликда айбдорларни жавобгарликка тортиш босқичини ҳам такомиллаштирмоқда. Инсон ҳуқуқларининг амалга оширилиши учун шарт-шароит яратиш, бузилган ҳуқуқларни ҳимоя қилиш босқичига нисбатан бирламчи хусусиятга эга. Чунки инсон ҳуқуқларининг амалга оширилиши учун шарт-шароитлар яратилиши инсон ҳуқуқлари бузилиши ҳолатларини камайтиришга хизмат қилади.

Инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро мажбуриятларни бажариш доирасида Ўзбекистонда хотин-қизлар ва болалар ҳуқуқларини ишончли ҳимоя қилиш, уларга нисбатан зўравонликнинг барча турларига барҳам бериш тизимини такомиллаштириш, ногиронлиги бўлган шахслар учун шарт-шароитлар яратиш, қийноққа солишнинг олдини олиш бўйича миллий превентив механизмнинг қонуний асосларини шакллантириш, инсон ҳуқуқлари ва эркинликлари

соҳасидаги халқаро стандартларни давлат органларининг, хусусан ҳуқуқни муҳофаза қилиш фаолиятига жорий этиш, мажбурий меҳнат ва болалар меҳнатига барҳам бериш, ҳарбий можаро ҳудудларидан хотин-қизлар ва болаларни юртимизга қайтариш, уларнинг қайта ижтимоий интеграциялашуви учун барча зарур шароитлар яратиш, фуқаросизликни қисқартириш бўйича кенг миқёсли ишлар амалга оширилди. 2030 йилгача мўлжалланган Барқарор ривожланиш мақсадлари мамлакатимизда ҳар бир инсоннинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини таъминлашни кўзда тутадиган “ҳеч кимни эътибордан четда қолдирмаслик” тамойили асосида амалга оширилмоқда.

2022-2023 йилларда инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномаларнинг бажарилиши юзасидан Ўзбекистон Республикасининг 4 та даврий ҳисоботи БМТ шартномавий қўмиталарига тақдим қилинди.

БМТнинг инсон ҳуқуқлари бўйича устав ва шартномавий органлари ҳамда бошқа механизмлари Ўзбекистоннинг даврий ҳисоботларини кўриб чиқиш якунлари бўйича якуний мулоҳаза, таклиф ва тавсияларини бажариш учун мамлакатимизга тақдим қилган. Бу мулоҳаза ва тавсияларни бажариш учун Ўзбекистоннинг миллий ҳаракат режалари Олий Мажлис палаталари томонидан тасдиқланиб келмоқда. Ўзбекистоннинг инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро мажбуриятларини амалга оширишда Инсон ҳуқуқлари бўйича миллий стратегия, Инсон ҳуқуқлари соҳасидаги таълим бўйича миллий дастур каби махсус ҳужжатлар билан бир қаторда миллий ҳаракат режалари ҳам муҳим аҳамиятга эга.

2022-2023 йилларда 6 та миллий ҳаракатлар режалари тасдиқланиб, ҳозирги кунда бажариб келинмоқда.

1. БМТ Ногиронлар ҳуқуқлар бўйича конвенциясини амалга ошириш бўйича 2023–2025 йилларга мўлжалланган Миллий ҳаракатлар режаси;

2. БМТ Хотин-қизларни камситишнинг барча шаклларига барҳам бериш тўғрисидаги халқаро конвенциясини бажариш

юзасидан 2022–2025 йилларга мўлжалланган Миллий ҳаракатлар режаси;

3. БМТ Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактни бажариш бўйича 2022–2026 йилларга мўлажалланган Миллий ҳаракатлар режаси;

4. Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция бажарилиши юзасидан 2024-2027 йилларга мўлжалланган Миллий ҳаракатлар режаси;

5. БМТ Инсон ҳуқуқлари бўйича олий комиссарининг Ўзбекистонга ташрифи якунлари юзасидан тавсияларини амалга ошириш бўйича «Йўл харитаси»;

6. БМТнинг Терроризмга қарши курашиш шароитида инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликларини рағбатлантириш ва ҳимоя қилиш бўйича махсус маърузачисининг Ўзбекистонга ташрифи якунлари юзасидан тавсияларини амалга ошириш бўйича Миллий ҳаракатлар режаси [2;3].

Миллий ҳаракат режаларида илғор хорижий тажрибани ўрганиш, мавжуд ҳолатни таҳлил қилиш ва тадқиқотлар ўтказиш, миллий қонунчилик ва амалиётни такомиллаштириш, тегишли институтларни ташкил этиш, уларнинг моддий-техника базасини кучайтириш, ходимларнинг малакасини ошириш, аҳоли орасида тушунтириш ишларини олиб бориш каби чора-тадбирлар белгиланган.

Масалан, Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция бажарилиши юзасидан 2024-2027 йилларга мўлжалланган миллий ҳаракатлар режаси жами 100 та банддан иборат чора-тадбирларни ўз ичига олиб, унда боланинг қарашларини ҳурмат қилиш, болаларга нисбатан зўравонликка қарши курашиш, оилавий муҳитдан маҳрум бўлган болаларнинг ҳимоясини таъминлаш, ногиронлиги бўлган болаларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш, боланинг таълим олиш, дам олиш ва маданий фаолиятда иштирок этиш бўйича ҳуқуқларини таъминлаш ҳамда бошпана излаётган ва қочқин болалар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш каби йўналишларни ўз ичига олган.

Бугунги кунда инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро мажбуриятларнинг амалга оширилиши билан боғлиқ қуйидаги муаммолар мавжудлигини кўриш мумкин.

Биринчидан. Инсон ҳуқуқлари ўзининг бутун инсоният учун умумий бўлган умуминсоний универсал қадриятлар мазмунига эга бўлиши билан бирга ҳар бир миллат ўзлиги билан боғлиқ миллий маданий мазмунга ҳам эга. Шунинг учун инсон ҳуқуқлари соҳасидаги муаммоларга ечим топиш учун тайёр хулоса ва ғояларни хориждан механик қабул қилиб бўлмайди, чунки улар миллий-маданий қадриятларга бегона маданият асосида яратилган бўлиши мумкин. Бу борада жаҳон илмий доираларида икки асосий методологик ёндашув мавжуд: биринчи ёндашувга кўра, инсон ҳуқуқларини фақат муайян жамиятдаги маданият, қадриятлар мазмуни асосидагина тушуниш мумкин; иккинчи ёндашувга кўра эса, инсон ҳуқуқлари мутлақо универсал бўлиб, миллий хусусиятлардан қатъи назар давлатлар уларни ўз жамиятларига жорий қилишга мажбур .

Агар инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро стандартларни миллий қонунчиликка имплементация қилиш нуқтаи назаридангина ёндашилса, халқаро стандартларни миллий қонунчиликка имплементация қилиш пировард мақсадга айланади. Бунинг натижасида эса, инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро стандартларнинг ўзи ҳам номукаммал бўлиши мумкинлиги ва муайян миллий маданиятга эга жамиятда инсон қадрига ҳурмат ҳолатининг яхшиланишига олиб келмаслиги мумкинлиги масаласи эътибордан четга қолади. Инсон ҳуқуқ ва эркинликлари устуворлигини таъминлашга фундаментал ёндашилганда эса, инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро стандартларни миллий қонунчиликка имплементация қилиш – бу инсон қадрига ҳурматни таъминлайдиган ягона восита эмаслиги, балки воситалардан фақат бири эканлиги, унинг миллий маданий қадриятлар билан боғлиқ бошқа воситалари ҳам борлиги аниқланиши мумкин.

Иккинчидан. Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро ҳуқуқда мавжуд айрим атама ва иборалари миллий қонунчиликда қўлланиладиган

атама ва иборалар билан тўла мувофиқ келмайди. Натижада воқеликларни турлича талқин қилиш ҳолатлари юз беради. Бу ҳолат халқаро ҳуқуқ нормаларининг миллий қонунчиликка имплементация қилинишини қийинлаштиради. Масалан, Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисида конвенциядаги “универсал дизайн” ибораси ёки Қийноқларга қарши конвенциянинг “қийноққа солиш ва шафқатсиз муомала ва жазо турлари” конструкцияси, “ақлий ногиронлиги бўлган шахсларни муомалага лаёқатсизлиги” ва бошқалар.

Учинчидан. XXI асрда инсон ҳуқуқларининг тўртинчи авлоди шаклланмоқда, уларнинг ривожланиш тенденциялари ҳали тўлиқ ўрганилмаган. Бироқ улар илм-фаннинг мисли кўрилмаган тараққиёти, интернет ва ижтимоий тармоқларнинг ривожланиши муносабати билан инсоннинг меҳнат қилиш, таълим олиш, соғлиқни сақлаш, ахборот олиш, шахсий хавфсизлик ва дахлсизлик, экологик ва муаллифлик ҳуқуқларини ҳимоя қилиш муаммоларига янги мазмун беради. Шунингдек, халқаро терроризмга қарши курашиш, иқлим ўзгариши, сунъий интеллект ва рақамли технологияларнинг тобора ривожланиши, демографик муаммоларнинг доимий равишда ўсиб бориши ва табиат неъматларидан фойдаланиш имкониятлари мураккаблашиши инсон ҳуқуқларини таъминлаш масаласига янгича ёндашувни талаб қилмоқда.

Тўртинчидан. Ратификация қилингандан кейин инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартнома талабларини миллий қонунчилик ва амалиётга имплементация қилиш муайян вақтни талаб қилади, айтиш мумкинки бу узлуксиз давом этадиган жараёндир. Халқаро шартномани ратификация қилишдан олдин миллий қонунчилик ва амалиётни унга дастлабки мувофиқлаштириш ишлари амалга оширилади. Масалан, Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция 2021 йилда ратификация қилинишидан олдин 2020 йилда Ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқлари тўғрисидаги қонун қабул қилинган. Мазкур халқаро шартнома ратификация қилингандан кейин унинг талабларини жорий қилиш бўйича 43 банддан иборат миллий ҳаракат режаси қабул қилинди. Миллий ҳаракат режасида

қонунчилик ва ҳуқуқий амалиётни такомиллаштириш, транспорт, бинолар, таълим олиш, тиббий хизмат олиш, ахборотдан фойдаланиш ва бошқа ҳуқуқлардан тўсиқсиз фойдаланишини таъминлаш бўйича шароитлар яратиш, аҳоли хабардорлигини ошириш тадбирлари белгиланди. Лекин ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқларини таъминлаш бўйича бирламчи муаммолар ҳал қилиниши билан, тараққиётнинг ўзи янги муаммоларни яратаверади. Бунда биз жараённинг муайян босқичлари якунлари тўғрисида гапиришимиз мумкин. Шунинг учун инсон ҳуқуқлари соҳасида халқаро мажбуриятлар бажарилишига узлуксиз ва тизимли давом этадиган воқелик сифатида ёндашиш керак.

Бешинчидан. Инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро шартнома нормаларининг судлар ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан қўллаш масаласида ягона тўхтам йўқ. Бу масалада икки ёндашув мавжуд. Биринчи ёндашувга кўра, халқаро шартнома нормаси аввал миллий қонунчилика имплементация қилинади, кейин қўлланилади, иккинчи ёндашувга кўра, халқаро шартнома нормасининг тўғридан-тўғри қўлланилишини амалиёти жорий қилиш керак. Мазкур масалада Олий суд пленумининг тегишли қарорининг қабул қилиниши талаб қилинади.

Олтинчидан. Ўзбекистон Фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 2-факультатив проколини ратификация қилган. Унга кўра, мазкур конвенция қоидалари бузилган деб ҳисобланган тақдирда фуқаролар барча миллий инстанциялар томонидан кўриб чиқилгандан кейин, БМТнинг Инсон ҳуқуқлари бўйича қўмитасига индивидул хабарнома билан мурожаат қилишлари мумкин. Бунда қўмита кўриб чиқиш жараёни якуни бўйича ҳуқуқ бузилганлиги тўғрисида қарор чиқарса, Ўзбекистон фуқаронинг бузилган ҳуқуқларини тиклаш тўғрисидаги Қўмита тавсияларини бажариши керак бўлади. Лекин Қўмитанинг қарорларини бажариш бўйича миллий механизм мавжуд эмас. Натижада Инсон ҳуқуқлари қўмитасининг тавсиялари бажарилмай

қолмоқда. Мазкур механизмни белгилайдиган норматив-ҳуқуқий ҳужжатни ишлаб чиқиш талаб қилинади [4, 53-54].

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2022. – 440 б.

2. Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази 2022 йилда / Масъул муҳаррир А. Х. Саидов. – Тошкент: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2023. – 155 б.

3. Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази 2023 йилда / Масъул муҳаррир А. Х. Саидов. – Тошкент: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2024. - 208 б.

4. 2023 йилда Ўзбекистон Республикасида инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро мажбуриятларга риоя қилинишининг ҳолати тўғрисида ахборот. – Тошкент: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2024. – 56 б.

AYOLLARNING MEHNAT VA IJTIMOIY HIMOYA HUQUQLARINI TA’MINLASH MASALALARI

Usmanova Muborak Akmaldjanovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi professori, yu.f.d., professor;
Muinova Nilufar Abdukarimovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida respublikamiz xotin-qizlari ham faol ijtimoiy kuch sifatida ishtirok etib SH.M.Mirziyoev haqli ravishda ta’kidlaganidek, “davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning

o‘rni va mavqeini yanada mustahkamlash - islohotlarimizning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biridir”[1].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida, “Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega.

Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta’minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi”[2], - deb belgilanishi so‘nggi yillarda sohada olib borilayotgan ishlarning pirovard natijasidir.

Yuqoridagi moddaning uchinchi qismi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga kiritilishi homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishini alohida belgilab berdi. Ushbu norma orqali davlatimizda ish beruvchi bilan munosabatlarida ayollar, ayniqsa homiladorlar zaifroqdir, ular mehnat bozorida munosib o‘rin egallashda qiyinchiliklarga duch kelishini oldini oladi. Ish beruvchilar ayollarni homiladorligi yoki bolasi borligi ularning ish samaradorligiga salbiy ta’sir qiladi degan yanglish fikrda bo‘lib ushbu toifa fuqarolarni ishga olinishiga to‘sqinlik qilayotgan edi.

Ayni vaqtda xotin-qizlarning ulushi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohalarida **82** foizni, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, madaniyat va san’at sohalarida **72** foizni, sanoatda **38** foizni, tadbirkorlikda **35** foizni, oliy ta’limda **46** foizni tashkil etishi ham ularning sohalar rivojidagi egallagan munosib o‘rnidan dalolatdir. Homilador va yosh bolali ayollarning mehnat

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. //Халқ сўзи, 2020 йил 30 декабрь

[2] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023. – Б. 27.

qilishiga to‘sqinlik qilish ularning jamiyat hayotidan ajralib, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lib qolishiga sabab bo‘ladi.

Konstitutsiyamizga yangi kiritilgan mazkur norma ijtimoiy davlatning eng muhim talabini davlat siyosati darajasiga ko‘taradi hamda fuqarolarning ayniqsa homiladorligi yoki bolasi bor ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishini kafolatlaydi. Mazkur toifadagi aholi qatlamini ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirishni taqiqlanishi davlatimizning har bir fuqarosi, ayniqsa homilador yoki bolasi bor ayollar alohida e’tiborda ekanligini amalda ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi nufuzi ko‘p jihatdan inson huquqlari, ayniqsa ayollar huquqlariga rioya qilishga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi 1979 yil 18 dekabrda Nyu-Yorkda qabul qilingan “Ayollarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi Konvensiyaga qo‘shilgan. Mazkur Konvensiyada ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat sohasida erkaklar bilan teng huquqqa ega bo‘lishi uchun barcha zarur chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozimligi ta’kidlangan. Ushbu konvensiya va boshqa xalqaro huquqiy hujjatlarda bayon etilgan ayollarning huquqlariga oid qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda mehnat qonunchiligida to‘liq aks ettirilgan. Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda iqtisodiy faol aholi tarkibida ayollar ulushi 45,7 foizni tashkil etmoqda. Ayrim sohalarda ishlayotgan xodimlar tarkibida ayollarning ulushi yuqori. Masalan, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasida ularning ulushi 76,6 foiz, ta’lim sohasida 75,6 foizdan iborat, ya’ni 10 nafar xodimning 7 nafari xotin-qizlar hisoblanadi.

Bandlik va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra 2023 yilning birinchi yarim yilligida mehnat organlariga xotin-qizlardan aholi bandligi va mehnatni muhofaza qilishga oid 3 ming 330 ta murojaat kelib tushgan. O‘rganishlar natijasida 2 ming 23 ta ariza bo‘yicha tushuntirishlar berilib, 1 ming 307 nafar ayolning buzilgan mehnat huquqlari tiklangan. Hisobot davrida ayollarni ishga qabul qilishda gender nuqtai nazardan 274 ta, ishdan bo‘shatishda 319 ta, mehnatga haq

to‘lashga oid 2 ming 59 ta, xotin-qizlarning kamsitilishiga taalluqli 432 ta qonunbuzilish holatlari aniqlangan. Jumladan, 39 ta holatda ayollar majburiy mehnatning turli shakllariga jalb etilgani ayon bo‘lgan. Ijtimoiy himoyaga muhtoj 24,7 ming nafar ayol, jumladan, ta’lim muassasalarini bitirgan qizlar, kichik yoshdagi bolali ayollar, yolg‘iz onalar hamda 14 yoshgacha va nogiron farzandlari bor ayollar maxsus zaxiralangan ish o‘rinlariga ishga joylashtirilgan[1].

Mazkur statistik ma’lumotlar hamda mavjud amaliyot ayollarni, ayniqsa, homilador va farzand tarbiyasi bilan mashg‘ul ayollarni ishga qabul qilish, boshqa ishga o‘tkazish, mehnatga haq to‘lash, mehnatni muhofaza qilish, ijtimoiy to‘lovlarni amalga oshirish bilan bog‘liq vaziyatlarda kamsitilayotganligidan darak beradi.

Yuqoridagilarga qaramasdan ayollar va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg‘ul shaxslarni mehnat sohasida huquqiy himoya qilish shakllari va mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati mavjud. Xususan, hozirgi vaqtda Xalqaro mehnat tashkiloti ekspertlari tomonidan ayollarning mehnat sohasida erkaklar bilan tengligini ta’minlash maqsadida ularning mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qonunchilik tomonidan belgilangan ayrim cheklovlarni olib tashlash, ayollarga oiladan ajralmagan holda kasanachilik, masofaviy xizmat kabi ishlarda bandligini ta’minlash, ayollarni ishga qabul qilishda kamsitishlar bilan bog‘liq suiiste’molchiliklarga barham berish, ayollarni munosib mehnat bilan ta’minlash, ularga ijtimoiy vazifalarni amalga oshirish munosabati bilan lozim darajada shart-sharoitlarni yaratib berish, g‘ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o‘tkazish va ishdan bo‘shatishlarning oldini olishga qaratilgan qonunchilikni yanada takomillashtirish talab etilmoqda.

Ta’kidlash lozimki, ayollar va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg‘ul shaxslarni tashkil qiluvchi turli toifadagi xodimlar uchun mehnatni tartibga solish xususiyatlari ham turlicha bo‘ladi. Shu munosabat bilan ularning har biri mehnatini tartibga solishning xususiyatlarini alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

[1] https://kun.uz/news/2023/07/26/1300dan-ortiq-ayollarning-buzilgan-mehnat-huquqlari-tiklandi-vazir-orinbosari

Huquqshunos D.Atajanovaning ta’kidlashicha, mazkur normativ-huquqiy hujjat, avvalo, ayollarning fiziologik xususiyatidan kelib chiqib, ular mehnat qilishi qisman yoki butkul taqiqlanadigan lavozimlarni nazarda tutadi. Bunda shuni yodda saqlash lozimki, mazkur taqiq ayolning ixtiyoridan tashqaridadir. Ya’ni ro‘yxatda keltirilgan lavozimlarda ayol ishlashni xohlagani taqdirda ham yuqoridagi normativ hujjatga asosan u bilan mehnat shartnomasi tuzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. SHunisi ahamiyatliki, ushbu masalada G‘arb davlatlarida boshqacha yondashuv, ya’ni mehnat munosabatlarida gender tenglik kuzatilib, unga ko‘ra ayollar erkaklar bilan bab-baravar turli lavozimlarda ishlay olishi belgilangan. Butun dunyoda ayollar huquqlarining himoyachilari mehnat muhofazasi sharoitlari ta’minlagan taqdirda ularning biron-bir kasb egallashlariga bo‘lgan cheklovlarni olib tashlash tarafdoridirlar. Xususan, huquqshunos D.Atajanovaning fikricha, Ayollar mehnati to‘liq yoki qisman qo‘llanilishi taqiqlanadigan mehnat sharoiti noqulay bo‘lgan ishlar Ro‘yxatini qayta ko‘rib chiqish va hozirgi davr sharoitiga moslashtirish lozim. Masalan, hozirgi kunda ayol haydovchilar soni kundan-kunga ortib ketyapti. Og‘ir yukli avtomobillarni haydash ham ko‘pchilik ayollarga qiyinchilik tug‘dirmayapti. Shu tufayli ro‘yxatning II qismida belgilangan 14 o‘rindiqdan ortiq bo‘lgan avtobuslarni, yuk ko‘tarish hajmi 2.5 tonnadan ortiq bo‘lgan avtomobillarni haydashni taqiqdan chiqarib tashlash lozim[1].

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagi PQ-4235-sonli qarorida 2019 yil 1 maydan ayollar mehnatini muayyan soha yoki kasblarda qo‘llash bo‘yicha taqiqlarni bekor qilish, tavsiyaviy xarakterdagi ayollar sog‘lig‘iga salbiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan soha yoki kasblar ro‘yxatini tasdiqlashni amalga oshirish belgilab qo‘yildi[2].

Ayollarning dam olish huquqi haqida gap ketganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 45-moddasiga nazar tashlasak, unda “Har kim dam olish huquqiga ega.

[1] Атажанова Д.С. Аёллар ва оилавий вазифаларни бажариш билан машғул шахслар меҳнатини ҳуқуқий тартибга солишнинг хусусиятлари. PhD илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. –Т.: ТДЮУ, 2018. –Б.76.

[2] Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.03.2019 й., 07/19/4235/2727-сон.

Yollanib ishlovchilarga dam olish huquqi shu vaqtining davomiyligi, dam olish va ishlanmaydigan bayram kunlari, haq to‘lanadigan har yilgi mehnat ta’tilini belgilash orqali ta’minlanadi”[1], - deb mustahkamlangan. Ushbu huquq inson huquqlari sohasidagi asosiy xalqaro-huquqiy hujjatlarda ham belgilangan. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (24-modda) va Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (7- modda)da har bir shaxsning dam olish va bo‘sh vaqtga ega bo‘lish huquqi, xususan, ish kunining oqilona cheklanishi va haq to‘lanadigan davriy ta’tilga ega bo‘lish huquqi nazarda tutilgan[2]. “Ayollarga nisbatan barcha shakldagi kamsitishlarni tugatish to‘g‘risida”[3] gi konvensiya (11-modda)ga muvofiq, ayollarni onalik yoki turmush qurganligi sababli kamsitishning oldini olish va samarali mehnat qilishga bo‘lgan huquqini kafolatlash uchun ishtirokchi davlatlar haq to‘lanadigan ta’tillarni yoki shunga qiyosan avvalgi ish joyini saqlagan holda homiladorlik va tug‘ishga oid ijtimoiy nafaqalari kiritish bo‘yicha barcha choralarni ko‘radi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ilk bor dam olish huquqi[4] belgilangani ish faoliyatining xususiyatlaridan qat’iy nazar, har kim belgilangan tartibda dam olish imkoniyatiga ega ekanligini mustahkamlab qo‘yadi, dam olish paytida uni ish bilan mashg‘ul qilish holatlariga chek qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining XIV bobi dam olish vaqtini huquqiy tartibga solishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda dam olish vaqtining quyidagi turlari belgilangan: ish kuni (smena) davomidagi tanaffuslar, dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan tanaffuslar hamda ish vaqtiga qo‘shilmaydigan tanaffuslar. Dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan tanaffusning boshlanish va tugash vaqti ichki mehnat tartibi qoidalarida, ish smenasi jadvallarida yoki ayol bilan ish beruvchi

[1] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023. – Б.28.
[2] Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар. //Масъул муҳаррир А.Х.Саидов. –Т.:Адолат, 2004, 30-55-бетлар
[3] Международные конвенции по защите прав человека и борьбе с преступностью. //Сборник международных документов. Составитель Ю.С.Пулатов. –Т.:ИПК «Шарк», 1995, 104-118-бетлар
[4] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023. – Б. 28.

o‘rtasidagi kelishuvga binoan bevosita mehnat shartnomasida belgilab qo‘yiladi[1].

Ishlab chiqarishning texnik sharoitiga ko‘ra yoki aholiga muntazam uzluksiz xizmat ko‘rsatish taqozosi oqibatida ishni to‘xtatish mumkin bo‘lmagan korxonalarda, shuningdek uzluksiz ishlab chiqarishga asoslangan korxonalarda dam olish kunlari soni korxonada joriy etilgan ish haftasi turiga qarab, tegishli ravishda olti kunlik yoki besh kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlarga belgilangan muddatidan kam bo‘lishi mumkin emas. Bayram kunlari – bu mamlakat hayoti, uning tarixi yoki xalqi uchun muhim ahamiyatga molik voqea-hodisaga bag‘ishlab belgilangan tartibda e’lon qilingan kalendar sanadir.

O‘zbekiston Respublikasida Mehnat kodeksining 208-moddasiga ko‘ra quyidagi kunlar bayram (ishlanmaydigan) kunlari deb hisoblanadi: 1 yanvar - Yangi yil; 8 mart - Xotin-qizlar kuni; 21 mart - Navro‘z bayrami; 9 may - Xotira va qadrlash kuni; 1 sentyabr - Mustaqillik kuni; 1 oktyabr - O‘qituvchi va murabbiylar kuni; 8 dekabr - Konstitutsiya kuni; Ro‘za hayit (Iyd al-Fitr) diniy bayramining birinchi kuni; Qurbon hayit (Iyd al-Adha) diniy bayramining birinchi kuni[2]. Jamoa kelishuvlarida yoki korxonaning jamoa shartnomasida qo‘shimcha bayram kunlari belgilanishi mumkin (masalan, korxona tashkil topgan yoki o‘zining ma’lum bir mahsulotini ishlab chiqargan kunning yubiley sanasi va shu kabilar). Ilgari qonunda belgilangan bayram (ishlanmaydigan) kunlarini ish beruvchi ish kuni deb e’lon qilishga yoki ularni boshqa bir kunga ko‘chirishga haqli emas edi, biroq yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining ushbu moddasiga ko‘ra, dam olish kuni ishlanmaydigan bayram kuniga to‘g‘ri kelgan taqdirda, dam olish kuni bayramdan keyingi ish kuniga ko‘chiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat qonunchiligiga binoan ayollarga yillik haq to‘lanadigan mehnat ta’tili, o‘qish bilan bog‘liq ta’tillar, shuningdek ish haqi saqlanmagan holda ta’tillarni berish nazarda

[1] Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодекси. – Т.: Ўзбекистон, 2023. – Б.78. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.10.2022 й., 02/22/798/0972-сон; 12.04.2023 й., 03/23/829/0208-сон; 29.11.2023 й., 03/23/880/0905-сон

[2] Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодекси. – Т.: Ўзбекистон, 2023. – Б.80. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.10.2022 й., 02/22/798/0972-сон; 12.04.2023 й., 03/23/829/0208-сон; 29.11.2023 й., 03/23/880/0905-сон

tutilgan. Unga ko‘ra, barcha ayollar, shuningdek o‘rindoshlar ham qaerda ishlashi va qanday ishni bajarishidan qat’i nazar ish joyi va o‘rtacha ish haqi saqlangan holda yillik mehnat ta’tilini olish huquqiga egalar.

Mehnat qonunchiligiga binoan ikki yoshga to‘lmagan bolasi bor ayollarga dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan tanaffusdan tashqari, bolani ovqatlantirish uchun qo‘shimcha tanaffuslar ham beriladi. Bu tanaffuslar kamida har uch soatda bir marta har biri o‘ttiz minutdan kam bo‘lmagan muddat bilan beriladi. Ikki yoshga to‘lmagan ikki va undan ortiq bolasi bo‘lgan taqdirda tanaffusning muddati kamida bir soat qilib belgilanadi.

Darhaqiqat, ayollarni ishsizlikdan himoyalash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, kambag‘allikni qisqartirish insonparvar, ijtimoiy davlat siyosatining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qoladi. YAngi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish orqali 2026 yilgacha kambag‘allikni kamida ikki baravarga kamaytirish belgilangani. Buning uchun, norasmiy ishlayotgan 2,5 mln. fuqaroning bandligini legallashtirish, ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 baravarga kamaytirish, kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravarga oshirish, ya’ni 1 mln. nafar ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish, ish bilan band bo‘lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish, shuningdek, hududlarda xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda 3,5 mln. yangi ish o‘rinlarini yaratish ko‘zda tutilgani fikrimizning isbotidir.

Fuqarolarning, ayniqsa, ayollar bandligini ta’minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish bo‘yicha muammolar bugungi kunga qadar o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Konstitutsiyamizga yangi norma kiritilishi ish bilan ta’minlanmagan fuqarolar haqida davlatning muntazam g‘amxo‘rlik qilishiga, ishsizlikni kamaytirish bo‘yicha choralar ko‘rishiga konstitutsiyaviy kafolat sifatida xizmat qiladi. Fuqarolarning bandligini ta’minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni kuchaytirish maqsadida fuqarolarning bandligini ta’minlash haqidagi normani qo‘llab-quvvatlash orqali ishsizlik muammolari hamda kambag‘allikni qisqartirish

masalalarini hal qilishni Davlatning zimmasiga yuklanishiga va kelgusida aholi bandligini ta’minlash, kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha davlat tomonidan aniq amaliy choralar ko‘rilishiga erishamiz.

ПРОЦЕССЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Юлдашева Говхержан,
док. юрид. наук, профессор,
профессор кафедры Специальных правовых
дисциплин и военной дипломатии Университета
общественной безопасности Национальной гвардии
Республики Узбекистан

На современном этапе, одним из ведущих мест в системе защиты прав человека принадлежит национальным институтам по правам человекам и их роли в поощрении и защите прав человека, которая получила всемирное признание.

Декларация о праве и обязанности отдельных лиц, групп лиц и органов общества поощрять и защищать общепризнанные права человека и основные свободы, принятая Генеральной Ассамблеей ООН 8 марта 1999 года подчеркивает обязанность каждого отдельного государства защищать, поощрять и осуществлять все права человека и основные свободы, и обязывает государства принимать законодательные, административные и иные меры, необходимые для обеспечения эффективных гарантий прав и свобод человека [1].

В соответствии с Парижскими Принципами Национальные институты по правам человека, наделяются полномочиями для защиты и поощрения прав человека и все больше рассматриваются всеми вовлеченными сторонами как ключевые фигуры в данной сфере [2].

Что касается определения Национальных институтов по правам человека, то А.Х. Саидов и М.А.Тиллабаев отмечают, что под эти

институты подпадают различные организации: национальные комиссии по правам человека, институты, центры по правам человека, омбудсмены и др. [3]. В юридической литературе встречаются следующие определения «национальные учреждения по правам человека», «национальный институты по правам человека», «национальный комитет по правам человека» или национальная организация по правам человека. В **150 государствах** учреждены около **200 национальных институтов по правам человека**.

За годы независимости в Узбекистане создана система государственных органов, занимающихся защитой прав человека. В дополнение к судебным и правоохранительным органам учреждена система национальных институтов по правам человека:

- Уполномоченный Олий Мажлиса Республики Узбекистан по правам человека (Омбудсман);

- Уполномоченный Олий Мажлиса Республики Узбекистан по правам ребенка (Детский омбудсман);

- Уполномоченный по защите прав и законных интересов субъектов предпринимательства при Президенте Республики Узбекистан (Бизнес-Омбудсман);

- Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека.

Сегодня в 140 странах мира осуществляют свою деятельность более 1000 институтов омбудсменов. В Узбекистане должность Уполномоченного по правам человека была учреждена в 1995 году, на тот момент отсутствовали соответствующей нормы в Конституции и специальный закон об Омбудсмене. 27 августа 2004 года принят Закон «Об Уполномоченном Олий Мажлиса Республики Узбекистан по правам человека (Омбудсмене)» [4] в новой редакции с учетом реформирования высшего законодательного органа и процессов либерализации и демократизации общественной жизни.

В течении 2017-2023 гг. законодательно усилены полномочия парламентского Омбудсмена. В 2017 и 2019 гг. приняты законы, которые усилили правовой статус института Омбудсмена, наделив

его правом обращения в Конституционный суд и внедрив элементы национального превентивного механизмы предупреждения пыток [5].

Что касается конституционно-правовых основ становления и развития национальных институтов по правам человека, то следует отметить, что в новой редакции нашей Конституции, нормы по правам человека увеличены более чем в три раза.

В статье 20 нашего Основного закона: «Права и свободы человека имеют прямое действие. Права и свободы человека определяют сущность и содержание законов, деятельности государственных органов, органов самоуправления граждан и их должностных лиц.

Важным аспектом является то, что обновленная Конституция гарантирует право каждого человека обращаться в национальные и международные институты для защиты своих прав. Институт конституционного обжалования был усилен до конституционного уровня, и граждане получили право обращаться непосредственно в Конституционный суд.

Основными направлениями деятельности Омбудсмана являются: содействие совершенствованию законодательства Pei публики Узбекистан о правах человека и приведению его в соответствие с нормами международного права; рассмотрение обращений граждан и восстановление их нарушенных прав; развитие международного сотрудничества, а также содействие повышению правовой культуры граждан в области прав человека. С 2000 года в Узбекистане функционирует институт регионального представителя Омбудсмена.

Институт Омбудсмена по делам детей - это новое, быстро развивающееся явление, и его создание является неотъемлемым элементом мониторинга соблюдения страной своих обязательств в соответствии с Конвенцией о правах ребенка.

В Узбекистане 40% населения составляют дети до 18 лет, а 64% - молодежь до 30 лет. В рамках реализации Конвенции ООН о правах ребенка приняты законы «О гарантиях прав ребенка», «Об опеке и

попечительстве», «О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних», «О профилактике правонарушений», в которых развиты основные принципы и положения Конвенции о правах ребенка, определяющей конкретные обязанности государства и общества по их обеспечению и реализации.

В 2019 году учреждена должность заместителя Уполномоченного Олий Мажлиса Республики Узбекистан по правам человека (Омбудсмена) - Уполномоченного по правам ребенка.

В 2021 году в целях кардинального совершенствования институциональных и правовых основ надежной защиты прав, свобод и законных интересов детей вместо должности заместителя Уполномоченного Олий Мажлиса по правам человека учрежден институт Уполномоченного Олий Мажлиса по правам ребенка (Детский омбудсмен) [6].

В 2017 г. принят Указ Президента Республики Узбекистан «Об учреждении института Уполномоченного при Президенте Республики Узбекистан по защите прав и законных интересов субъектов предпринимательства» [7], который определил основные задачи и направления деятельности нового института защиты прав предпринимателей.

В соответствии с Законом «Об Уполномоченном при Президенте Республики Узбекистан по защите прав и законных интересов субъектов предпринимательства» [8]. институт бизнес-омбудсмена стал независимым органом по развитию предпринимательской деятельности и является новым, внесудебным механизмом защиты прав предпринимателей.

Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека создан Указом Президента Республики Узбекистан от 31 октября 1996 года [9], и является государственным органом, обеспечивающим взаимодействие государственных органов и других организаций по выполнению международных обязательств Республики Узбекистан, подготовку национальных докладов в

области прав человека, расширение сотрудничества с международными организациями по защите прав человека [10].

Центр осуществляет свои полномочия самостоятельно и независимо от всех государственных органов и организаций, их должностных лиц, и ежегодно представляет Президенту Республики Узбекистан, палатам Олий Мажлиса Республики Узбекистан, Кабинету Министров Республики Узбекистан информацию о состоянии соблюдения международных обязательств Республики Узбекистан в области прав человека.

Центр содействует деятельности государственных органов, институтов гражданского общества, образовательных, научно-исследовательских и иных организаций по вопросам выполнения международных обязательств Республики Узбекистан в области прав человека.

Выводы и заключения.

1. Национальные институты по правам человека учреждены в Узбекистане в целях обеспечения гарантий государственной защиты прав и свобод граждан, их соблюдения и уважения государственными органами, органами местного самоуправления, должностными лицами и государственными служащими.

2. Деятельность Национальные институты по правам человека дополняют существующие средства защиты прав и свобод граждан, не отменяет и не влечет пересмотра компетенции государственных органов, обеспечивающих защиту и восстановление нарушенных прав и свобод.

3. Независимость от исполнительной ветви власти является качеством, которое наиболее четко подкрепляет легитимность, доверие и эффективность национальных институтов по правам человека. В зависимости от мандата, состава, а также политических и правовых традиций, в которых они существуют, национальные институты по правам человека могут принимать различные формы.

4. Парижские Принципы определяют роль национальных институтов по правам человека как плюралистическую и

направленную на сотрудничество с рядом групп и институтов, и в частности, с государственными органами, неправительственными организациями (НПО), судебными органами и профессиональными объединениями.

5. Национальным институтам по правам человека следует выдвигать предложения и рекомендации правительству по различным вопросам, касающимся прав человека, и в частности, по законодательным рамкам и практике в сфере прав человека, при этом указывая на конкретные нарушения.

Список использованной литературы:

1. Декларация о праве и обязанности отдельных лиц, групп лиц и органов общества поощрять и защищать общепризнанные права человека и основные свободы, принятая Генеральной Ассамблеей ООН 8 марта 1999 года. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/defender.shtml

2. Принципы, касающиеся статуса национальных институтов, занимающихся поощрением и защитой прав человека (Парижские Принципы), принятые резолюцией Генеральной Ассамблеи ООН 20 декабря 1993 года. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv-/conventions/paris.shtml

3. Саидов А.Х., Тиллабаев М.А. Конституция и национальные институты по правам человека (на узбек, анлийском и русском языках). Т., Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий марказ. 2023. С. 88.

4. Собрание законодательства Республики Узбекистан. 2004. № 38-39. Ст. 420.

5. См.: Закон Республики Узбекистан от 14.03.2019 г. «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан в связи с совершенствованием механизмов защиты прав осужденных и лиц, находящихся под стражей»; Закон Республики Узбекистан от 29.08.2017 г. «О внесении изменений и дополнений в Закон Республики Узбекистан "Об Уполномоченном Олий Мажлиса Республики Узбекистан по правам

человека (омбудсмане)».

6. См.: Указ Президента Республики Узбекистан от 9 августа 2021 года N° УП-6275 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы обеспечения гарантий прав ребенка» // Национальная база данных законодательства, 10.08.2021 г., № 06/21/6275/0781, 09.11.2021 г., № 06/21/3/1037; 24.05.2023 г,, № 06/23/75/0292.

7. *См.:* Указ Президента Республики Узбекистан от 5 мая 2017 г. № УП-5037 «Об учреждении института Уполномоченного при Президенте Республики Узбекистан по защите прав и законных интересов субъектов предпринимательства» // Собрание законодательства Республики Узбекистан. 2017. № 19. Ст. 333.

8. *См.:* Закон Республики Узбекистан от 29 августа 2017 г. «Об Уполномоченном при Президенте Республики Узбекистан по защите прав и законных интересов субъектов предпринимательства» // Собрание законодательства Республики Узбекистан. 2017. № 35. Ст. 915.

9. *См.:* Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан. 1996. № 10. Ст. 202.

Постановление Президента Республики Узбекистан от 10 декабря 2018 года N9 ПП-4056 «О совершенствовании деятельности Национального центра Республики Узбекистан по правам человека» // Национальная база данных законодательства, 11.12.2018 г., № 07/18/4056/2294; 23.06.2020 г., № 06/20/6012/0953; 27.01.2021 г., № 06/21/6146/0065; 18.03.2022 г., № 07/22/168/0228.

СУДЕБНАЯ ЗАЩИТА ПРАВ ЧЕЛОВЕКА - МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ СУД УЗБЕКИСТАНА

Огай Дмитрий Алексеевич,
кандидат юридических наук (PhD)

Сегодня признание и исполнение решений иностранных судов и международных арбитражей на территории Республики Узбекистан не имеет правового регулирования и единой правоприменительной практики, которая учитывает интересы как сторон, так и государства.

Однако, как отметил Президент страны Шавкат Мирзиёев уже «скоро в нашей стране при Международном центре цифровых технологий начнет работу Международный коммерческий суд. Он займет особое место в судебно-правовой системе Узбекистана. Для этого в ближайшее время мы примем специальный закон. Также внесем в процессуальные кодексы нормы, направленные на полное исполнение решений Международного коммерческого суда» [1].

Создание такого судебного органа будет базироваться на международных договорах и национальном законодательстве. При этом, естественно, будет учтена имеющаяся судебная практика, и, соответственно, разработана единая методика рассмотрения подобных споров.

Так, например, Вашингтонская Конвенция налагает на государства-участников обязательство рассматривать решения, вынесенные арбитражем Международного центра по урегулированию инвестиционных споров (МЦУИС), в качестве обязательных, признавая за ними юридическую силу решений, вынесенных судами этого государства [2].

Нормы и положения международных и региональных документов в данной области полностью инкорпорированы в национальное процессуальное законодательство и суды рассматривают дела на основании норм и положений процессуального законодательства Узбекистана.

16 февраля 2021 года принят Закон «О международном коммерческом арбитраже», вступил в силу 18.08.2021 г. (далее – «Закон») [3]. В результате, Узбекистан стала 85-й страной и 118-й юрисдикцией, которая приняла законодательный акт на основе Типового закона Комиссии ООН по праву международной торговли (ЮНСИТРАЛ) о международном коммерческом арбитраже (далее – «Типовой Закон ЮНСИТРАЛ»).

Данный Закон нацелен на установление отдельного правового режима, применимого в отношении международного коммерческого арбитража, максимальное повышение эффективности арбитражного разбирательства, а также минимизирование судебного вмешательства.

Закон применяется только на международный коммерческий арбитраж, место которого находится в Республике Узбекистан. В международный коммерческий арбитраж могут передаваться споры, возникающие из всех отношений коммерческого характера.

Однако, Типовой Закон ЮНСИТРАЛ не устанавливает порядок создания постоянных арбитражных учреждений.

Кроме того, практика зарубежных стран показывает, что они закрепляют порядок создания постоянно действующих арбитражных учреждений в своем законодательстве, либо отдельным законодательным актом, либо законодательным актом, регулирующим деятельность третейских/арбитражных судов на территории.

При этом, отсутствие порядка создания постоянно действующих арбитражных учреждений может вызвать трудности с признанием создаваемых постоянных арбитражных учреждений.

В то же время, порядок создания отдельных арбитражных учреждений может быть предусмотрен решениями Президента страны или Правительства. Примером является Ташкентский Международный Арбитражный Центр (TIAC) при Торгово-промышленной палате Республике Узбекистан (далее – Центр), созданный Постановлением Президента Республики Узбекистан [4].

В составе Центра действует Арбитражный суд Центра, который является полностью автономным органом и единственным органом в структуре Центра, который управляет спорами в соответствии с Арбитражным регламентом в условиях полной независимости от Центра, его учредителей, директора. Арбитражному суду помогает Секретариат Центра [5].

При этом, еще в 2011 году решением Исполнительного комитета Торгово-промышленной палаты Республики Узбекистан (ТПП) от 1 февраля 2011 года был образован Международный коммерческий арбитражный суд при ТПП [6].

Учитывая характер деятельности международных арбитражных судов, постоянные арбитражные учреждения предусматривалось создавать в форменегосударственных некоммерческих организаций и предусматривается, что арбитражные центры освобождаются от представления отчетов в органы юстиции о своей деятельности [7].

Вопрос создания Международного коммерческого суда был озвучен еще в Послании Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана (20.12.2022г.) [8].

Далее 27 апреля 2023 года на открытии второго Ташкентского международного инвестфорума Шавкат Мирзиёев подчеркнул, что планируется организовать деятельность Международного коммерческого суда при поддержке зарубежных экспертов [9].

Кроме того, 17 мая т.г. на ежегодном форуме Европейского банка реконструкции и развития в Самарканде в своем выступлении Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев напомнил, что до конца года совместно с международными экспертами впервые в истории Узбекистана будет налажена деятельность Международного коммерческого суда [10].

Посильную помощь в этом направлении оказал советник Президента Шавката Мирзиёева по вопросам экономического развития, эффективного управления и международного сотрудничества Сума Чакрабарти. В рамках своей работы он

обсуждал перспективы создания международного коммерческого суда и внедрения других инструментов, нацеленных на повышение конкурентоспособности и привлекательности различных сфер и отраслей экономики страны.

Таким образом, в нашей стране создается один из уникальных органов, который послужит повышению обеспечения интересов граждан и субъектов предпринимательства, и станет инструментом в развитии механизмов международной правовой помощи, внедрении международных стандартов, формировании единой правоприменительной практики и повышении доверия международного сообщества к судебно-правовой системе страны.

Используемые источники и литература

1. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на III Ташкентском международном инвестиционном форуме (02.05.2024г.). https://president.uz/ru/lists/view/7194.

2. Республика Узбекистан является участником указанной Конвенции, а также наша страна заключила более 50 двусторонних соглашений о защите и поощрении инвестиций (на сегодняшний день, действует 48 соглашений).

3. Закон Республики Узбекистан «О международном коммерческом арбитраже». https://lex.uz/ru/docs/5294087.

4. Постановление Президента Республики Узбекистан от 5 ноября 2018 года № ПП-4001 «О создании Ташкентского Международного арбитражного центра (TIAC) при Торгово-промышленной палате Республики Узбекистан». https://lex.uz/ru/docs/4039518.

5. Сайт Арбитражного суда TIAC. https://www.tiac.uz.

6. Регламент Международного коммерческого арбитражного суда при Торгово-промышленной палате Республики Узбекистан утвержден Протоколом № 5 Исполнительного комитета Торгово-промышленной палаты Республики Узбекистан от 30 мая 2022 года (зарег. органом юстиции 15 февраля 2011 года). https://chamber.uz/ru/page/5558.

7. Постановление Президента Республики Узбекистан от 17 июня 2020 года за № ПП-4754 «О мерах по дальнейшему совершенствованию механизмов альтернативного разрешения споров». https://lex.uz/uz/docs/4859442.

8. https://president.uz/ru/lists/view/5774.

9. https://www.spot.uz/ru/2023/04/27/commerce-court.

10. https://samcity.uz/news/3113-prezident-uzbekistana-shavkat-mirzijoev-17-maya-vystupil-na-ezhegodnom-forume-ebrr-v-samarkande.

11. https:// UzDaily.uz.

YANGI KONSTITUTSIYADAGI O‘ZGARISHLAR VA IMKONIYATLAR

Axmedov Davron Kuvondiqovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
yuridik fanlar doktori, professor
Nuridullayev Asliddin Axrorovich
Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘i,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Bugungi kunda mamlakatni yanada demokratlashtirish, sudyalarni, mahalliy hokimiyat organlarini saylash va mahalliy hokimiyat tarmoqlarini ajratishning huquqiy asoslarini yaratdi. Prezidentimiz urg‘u berib qayd etganidek, yangi Uyg‘onish davri haqida gapirar ekanmiz, uning hal qiluvchi omillaridan biri dunyoga ochiqlik va tashqi aloqalarning keng qamrovliligidir. Bugun yangilangan O‘zbekistonning tashqi siyosati aynan ochiqlik va tashqi aloqalarning hamma yo‘nalishini birdek rivojlantirishga qaratilgani bejiz emas.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan yangi Konstitutsiyaning vazifasi xususiy mulk huquqlarini himoya qilish, agrar islohot uchun huquqiy shart-sharoit yaratishdan iborat. Shuningdek, Konstitutsiya nomarkazlashtirishni, jumladan, soliq siyosatini davom ettirish, davlat boshqaruvi tizimini amalga oshirish, byudjet siyosatini shakllantirish va amalga tatbiq etish, hududlar mustaqilligini oshirish, ichki va tashqi investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratishi lozim. Ma’muriy

boshqaruv tizimini takomillashtirish, hokimiyat funktsiyalarini qayta taqsimlash, davlat apparatini keskin qisqartirish muhim masala bo‘lib qolmoqda. Davlat xizmatchilarini tanlashning raqobat tizimini joriy etish juda zarur. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, yuqori va o‘rta darajadagi kadrlar tayyorlash darajasi yetarli emas. Kadrlar tomonidan islohotlarning mazmun-mohiyati, zarurligi, strategik maqsad va vazifalarini chuqur anglash bo‘yicha tizimli ishlarni kuchaytirish muhimligi yangi Konstitutsiyada o‘z aksini topgan.

Biz huquqiy davlat barpo etyapmiz. Konstitutsiya yuridik mazmun va mohiyatga ega bo‘lgan huquqiy hujjat bo‘lib, davlatning Asosiy qonuni sifatida butun huquqiy va qonunchilik tizimlarining o‘zagini tashkil etadi, jamiyat va davlat hayotining, davlat organlari tashkil etilishi va faoliyatining asosiy printsiplarini mustahkamlaydi. Shu sababli jamiyatdagi barcha huquqiy hayot va yuridik amaliyot, shu jumladan odil sudlov amaliyoti konstitutsiyaviy qoidalar asosida shakllanadi.

Konstitutsiya xalqning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Unda jamiyat taraqqiyotiga turtki beruvchi, muhim ma’naviy omil bo‘lib xizmat qiluvchi g‘oyalar o‘z ifodasini topadi. Konstitutsiyada mujassamlashgan mafkura jamiyatni, xalqni muayyan maqsadlar sari etaklaydi, ularni uddalash uchun safarbar qiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi milliy istiqlol g‘oyasi va mustaqillik mafkurasining huquqiy asosini tashkil etib, xalqimizning istiqlolga, erkinlikka bo‘lgan intilishini, milliy axloqiy-ma’naviy qadriyatlarini aks ettirgan hamda ularni jamiyat ongiga, ayniqsa, yosh avlod ongiga singdirishga xizmat qiladi.[1]

Yangi konstitutsiya umumxalq muhokamasida kelib tushgan ko‘p sonli takliflarni inobatga olgan holda ishlab chiqildi. U xalqaro standartlarga, eng muhimi, O‘zbekiston xalqining xohish-irodasi va orzu-istaklariga to‘liq mos keladi.

Shuningdek, Yangilangan Konstitutsiyada alohida modda yoshlar huquqlariga bag‘ishlangan. Unga ko‘ra, davlat yoshlarning shaxsiy,

[1] Алмуратова Д.У. Сурхондарё вилоят суди судьяси “Yangilanayotgan konstitutsiya imkoniyatlar”

siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi.

Konstitutsiyaviy qonunga muvofiq oliy ta’lim tashkilotlariga akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar olib borish va o‘qitish erkinligi huquqi berilishi ham quvonarlidir. Oliy ta’lim tizimi bilan bog‘liq masalalarning Konstitutsiya darajasida belgilanayotgani oliy ta’lim jarayoniga tashqi aralashuvlarni cheklash, oliy 2023-yil 30-aprel kuni “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo‘yicha umumxalq referendumi o‘tkaziladi. Senat majlisida ta’kidlanganidek, konstitutsiyaviy islohotlar mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarning ajralmas qismi bo‘lib, ular uchun mustahkam huquqiy asos yaratib, Asosiy qonunni jamiyatdagi bugungi kun voqeligiga, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar mantiqiga moslashtiradi. Konstitutsiyaviy qonun loyihasining umumxalq muhokamasi chog‘ida uni takomillashtirish bo‘yicha 220 mingdan ortiq taklif kelib tushgan bo‘lib, shundan har to‘rtinchisi loyihada o‘z aksini topgan. Konstitutsiyaviy qonun loyihasini tayyorlash jarayonida BMT, YEXHT, ShHT, Evropa Ittifoqi, Turkiy davlatlar tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan 400 dan ortiq xalqaro hujjatlar, 190 ga yaqin davlat konstitutsiyalari puxta tahlil qilindi. Yangiliklardan biri O‘zbekiston davlatining huquqiy maqomi bilan bog‘liq fundamental normalardir. Birinchi marta Konstitutsiyada O‘zbekiston suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekanligi o‘zgarmas qoida sifatida belgilandi. Boshqa yangi konstitutsiyaviy normalar mustahkamlanmoqda.

Konstitutsiyaga kiritilayotgan o‘zgartishlarning aksariyati jamiyat va davlatning o‘zaro hamkorligi tizimini takomillashtirish, davlat organlari tizimini optimallashtirish va takomillashtirishga qaratilgan. Masalan mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining vazifalarini ajratish to‘g‘risidagi masala ko‘rildi, bu hozirda hokimlar qo‘lida. Bu tizim o‘zgartiriladi.

Parlament faoliyatiga taalluqli juda jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, ularning roli ancha jiddiy oshiriladi. Parlament yangi vakolatlarni oladi. Xususan, nomzodi Prezident tomonidan parlamentdagi siyosiy partiyalar fraktsiyalari bilan maslahatlashuvlardan so‘ng taklif etilgan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini kelishish va tasdiqlash tartibi yanada aniq belgilandi. Bu O‘zbekistonda super-prezidentlik modelini bosqichma-bosqich o‘zgartirish va prezidentlik-parlament respublikasiga o‘tishga qaratilgan muhim qoidalardir.[1]

Yana bir qator jiddiy o‘zgarishlar, Konstitutsiyada O‘zbekistonning dunyoviy davlat, ijtimoiy davlat ekanligi to‘g‘risidagi qoidalar mustahkamlangan. Bular O‘zbekistonda jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-gumanitar sohalarida modernizatsiya siyosatini amalga oshirishga qaratilgan ulkan o‘zgarishlardir.

Ularning barchasi O‘zbekistonni samarali iqtisodiy va siyosiy tizimga ega suveren davlat sifatida mustahkamlashga qaratilgan. Agar biz shu nuqtai nazardan o‘zgarishlarni ko‘rib chiqsak, unda, albatta, O‘zbekiston dunyoda ro‘y berayotgan aksariyat jarayonlarga o‘z nuqtai nazariga ega va uni himoya qilish niyatida bo‘lgan davlat sifatida Asosiy qonunining yangi tahriri bilan chiqadi.

Konstitutsiyaning yangi tahririda O‘zbekiston davlatlar suvereniteti va hududiy yaxlitligini ta’minlashning xalqaro miqyosda e’tirof etilgan tamoyillariga rioya etish tarafdori ekanligi haqidagi qoida o‘z ichiga olgan – bu ham O‘zbekistonning xalqaro huquq tizimi qanday bo‘lishi kerakligi borasida o‘zining printsipial pozitsiyalariga ega ekanligining ko‘rsatkichidir. Mamlakat BMT Nizomida belgilangan asosiy tamoyillar O‘zbekiston Konstitutsiyasida ham mustahkamlanganini tasdiqlaydi. Bu juda muhim.

Konstitutsiyada mamlakat tashqi siyosatini, mamlakat tashqi savdosini amalga oshirishning aniq shakllari belgilanmagan. Bu erda boshqa jarayonlar mavjud. Konstitutsiyaning qabul qilinishi bilan, masalan Rossiya, Xitoy va Qozog‘istonni o‘z ichiga olgan O‘zbekistonning asosiy tashqi savdo sheriklari ro‘yxatini o‘zgartirish mumkin emas. Bu obyektiv

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni “Toshkent-2023 y”

haqiqatdir. O‘zbekiston esa iqtisodiyot va iqtisodiy pragmatizmga asoslanib, o‘zining tashqi siyosatini amalga oshiradi, tashqi savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantiradi. Konstitutsiyadagi o‘zgarishlar, masalan, G‘arb davlatlari bilan munosabatlarga qanday ta’sir qilishini hozir aytish qiyin. G‘arb davlatlari O‘zbekistonga bo‘lgan munosabatda uning Konstitutsiyasida yozilgan yoki yozilmagan narsalarga amal qilishlari dargumon. Ularning ham o‘z pragmatik, iqtisodiy va geosiyosiy manfaatlari bor va O‘zbekiston bilan munosabatlarda mamlakat faqatgina Konstitutsiyasida yozilganlarga emas, balki har tomonlama manfaatlarni inobatga olib ish ko‘radi.[1]

Shubhasiz, O‘zbekiston Asosiy qonunning yangi tahririni qabul qilar ekan, mintaqaviy hamkorlik, sheriklik va integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etadigan davlat bo‘lib qolishi juda muhim. Mamlakat bugungi kunda Yangi O‘zbekiston siyosatini amalga oshirish jarayonida bo‘lib, unda Markaziy Osiyo O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi ekanligi yozilgan. Yangi O‘zbekistonning ana shu dasturidan kelib chiqqan holda, Konstitutsiya O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi qo‘shni davlatlarning hududiy yaxlitligini tan olishini aniq ko‘rsatuvchi hujjatdir. O‘zbekiston qo‘shni davlatlarning rivojlanishi, iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlanishidan manfaatdor. Bu hududiy nizolar mintaqaning etnik, davlatlararo va millatlararo qarama-qarshilik va nizolar joyiga aylanishiga sabab bo‘lib qolmasligi uchun zarur asosdir.

Shu urinda aytishimiz mumkinki O‘zbekiston mustaqil davlatlarning hududiy yaxlitligi va suvereniteti tamoyillariga rioya etish tarafdori ekanini, bu qoidani o‘z Konstitutsiyasida rasman belgilab qo‘yganligini e’lon qilgan holda, O‘zbekiston shu orqali Markaziy Osiyo bilan munosabatlarni faqat teng huquqlilik asosida, hududiy yaxlitlik va suverenitetga hurmat asosida qurishini ma’lum qiladi. Bu qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yish uchun Konstitutsiyada belgilanishi shartligini aytishimiz mumkin.

[1] Qonunchilik ma’lumotlar milliy bazasi 2023 yil 1-may 03/23/837/0241-son.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Almuratova D.U. Surxondaryo viloyat sudi sudyasi “Yangilanayotgan konstitutsiya imkoniyatlar”
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni “Toshkent-2023 y”
3. Qonunchilik ma’lumotlar milliy bazasi 2023 yil 1-may 03/23/837/0241-son.

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYANING MAZMUN MOHIYATI VA ORTGA QAYTMAS ISLOHOTLAR

Zakurlayev Abdumutal Karimovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yuridik fanlar doktori, professor

Xalqimizning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar doimiy rivojlanishda bo‘ladigan bir vaqda. Milliy taraqqiyot hamda zamonaviy tendentsiyalarni inobatga olgan holda ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalarni ham zamon bilan hamnafas takomillashtirib borish hozirgi zamon talablaridan biri bulib qolmoqda shu sababli mamlakatimizda yanigi konstetutsiyaning qabul qilinishi dolzarb ekanligi bilan ahamiyatga molikdir.

Avvalambor, konstitutsiyaviy “bino”ni qurishda uch ming yillik milliy davlatchilik tajribasiga tayanilgan. Bugungi O‘zbekiston qadimgi Xorazm va So‘g‘diyona, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, o‘zbek xonliklari, xalqimizning tarixiy an’analari va uning mustaqil davlat haqidagi ko‘p asrli orzusini mujassam etgan. Qolaversa, manfaatlarimiz va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, Asosiy Qonunimiz Sharq va G‘arb, Janub va Shimolning 97 ta mamlakati to‘plagan ilg‘or konstitutsiyaviy tajribani hisobga olib yaratilgan.[1]

Bosh qomusimizning fazilatini, mohiyati hamda tabiatini uning normalari va tartib-qoidalari, Konstitutsiyaning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, unda inson huquqlari nechog‘lik himoya qilinganligini e’tirof etgan holda, O‘zbekiston Respublikasi

[1] www.meningkonstitutsiyam.uz internet portalidan.

Konstitutsiyasini dunyodagi eng demokratik konstitutsiyalardan biri deb ta’kidlash mumkin.

Konstitutsiya – (lotincha **conctitutio** – o‘rnatish, tuzilish) moddiy ma’noda avvalo inson va fuqarolar huquq va erkinliklarini e’lon qiluvchi va kafolatlovchi, shuningdek, ijtimoiy tuzum asoslarini, hokimiyat markaziy va mahalliy organlarini tashkil etish asoslarini, ularning vakolatlari va o‘zaro munosabatlarini, davlat ramzlari va poytaxtni belgilovchi qonun hujjati, hujjatlari yoki konstitutsiyaviy odatlar majmuidir.

Konstitutsiya tom mohiyatiga ko‘ra yuridik-huquqiy hujjat bo‘lib, u davlatning bosh qonuni, butun davlat tizimini, ijtimoiy hayotni qonuniy-huquqiy me’yorlab beradi. Rasmiy ma’noda esa barcha qonunlarga nisbatan oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan eng oliy huquqiy shakl bo‘lib, unda konstitutsiyaviy tuzum qadriyatlari, institutlari va normalari, davlat hokimiyatining ijtimoiy aloqalari mustahkamlab qo‘yilgan asosiy qonundir.

Asosiy qonun butun xalq yoki jamiyat barcha ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini va irodasini o‘zida ifodalovchi hujjat sifatida muayyan mamlakatdagi davlat va jamiyat qurilishini o‘zida jamlovchi oliy yuridik kuchga va majburiy xarakterga ega bo‘lib, u mamlakat qonunchiligini boshlang‘ich hamda ta’sis etuvchi mamlakat milliy huquq tizimining asosiy manbaidir.

Bosh qomus o‘z mazmun va mohiyatiga ko‘ra ham davlat, ham jamiyatning oliy hujjati sifatida davlat va jamiyat hayotining eng muhim masalalari – hokimiyat, mulkchilik shakllari, shaxs maqomi va davlat qurilishi tartib va tamoyillarini o‘zida aks ettiradi.

Konstitutsiyani qabul qilinishida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy xarakterdagi omillar muhim ahamiyat kasb etib, birinchi navbatda tegishli jamiyatda qanday mulk va iqtisodiy faoliyat shakllari mavjudligini hamda ularga fuqarolarning munosabatini o‘zida aks ettiradi, shuningdek, insonlarning jamiyat va davlat hayotidagi ishtirokini asosiy qoidalarini, ularning muhim huquqlari, erkinliklari va majburiyatlarini mustahkamlaydi. Davlatning asosiy qonuni tegishli mamlakatdagi davlat

hokimiyatining tashkil etilishi tizimini, vakolatlar doirasini, davlatning ichki tuzilishini, davlat organlari tizimini hamda fuqarolarning mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv asoslarini belgilaydi.

Shu o‘rinda, Konstitutsiyaning funktsiyalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ular ta’sis etuvchi (asos soluvchi), tashkiliy, siyosiy, mafkuraviy va yuridik funktsiyalardan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu funktsiyalar muayyan ijtimoiy jarayonlar natijasida vujudga kelib,davlat va jamiyatning keyingi taraqqiyot bosqichlarida rivojlanishining siyosiy-huquqiy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Asosiy qonunning “Ta’sis etuvchi” funktsiyasi ikki xil ma’noni, ya’ni, insoniyat yutuqlarini mustahkamlovchi yoki jamiyatda etilib turgan, biroq zaruriy huquqiy bazasiz ommalashmagan yangi ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunda Konstitutsiyaning mazkur funktsiyasi nafaqat mavjud bo‘lgan, erishilgan yutuqlarni aks ettirishda, balki, davlat va jamiyat oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo‘yishda ham ifodalanadi.

Asosiy qonunning “Siyosiy funktsiyasi” shunda namoyon bo‘ladiki, u nafaqat davlatning ichki hayotidagi munosabatlarni, balki bir vaqtning o‘zida davlat tashqi siyosatining huquqiy poydevori, asosi hamdir. Bunda jamiyat siyosiy tizimining qonunchilik asoslari aks etadi, g‘oyalar, qoidalar va tamoyillar asosida davlatning konstitutsiyaviy-huquqiy siyosati shakllantiriladi.

Bugungi kunda “Inson qadri uchun” tamoyili amalda ro‘yobga chiqishi, har bir fuqaro kundalik hayotidan rozi bo‘lib yashashida amaldagi barcha qonunlar va boshqa hujjatlar uchun asos bo‘luvchi konstitutsiyaviy normalarning takomillashtirilishi hamda ularning hayotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va to‘liq tadbiq etilishi muhim amaliy ahamiyatga ega.

Albatta, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy mezoni ham Bosh qomusda davlatning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lini qat’iy belgilab olishi, jamiyatdagi barchaning manfaatlari mushtarakligini nazarda tutuvchi insoniy qadriyatlarning mustahkamlab qo‘yilishiga bog‘liq. Chunki, aynan, Konstitutsiyada “shaxs-jamiyat-davlat” tamoyili asosida barcha ijtimoiy munosabatlardagi o‘zaro huquq va majburiyatlar hamda ularning kafolatlari aniq-ravshan belgilab beriladi.

“O‘zbekistonda milliy qonunchilik inson huquqlari va demokratlashtirish sohasida xalqaro standartlarga mos bo‘lishi uchun barcha zarur chora-tadbirlar ko‘rilmoqda, – deydi Frantsiya Davlat kengashi a’zosi, Xalqaro konstitutsiya huquqi assotsiatsiyasi prezidenti Dide Mos. – Mamlakatingiz mustaqillikka erishganidan buyon ushbu oliy maqsadlar sari dadil intilmoqda. Albatta, bu uzoq davom etadigan jarayon. Ammo shunisi muhimki, O‘zbekistonda inson huquqlarini ta’minlash samaradorligini oshirishga qaratilgan siyosiy iroda mavjud. Dunyoda barcha uchun mutlaqo yagona tizim bo‘lmaganidek, bir-biriga o‘xshash demokratiya tizimlari ham mavjud emas. Har bir davlat o‘z yo‘li, o‘z tajribasiga egadir. Qonunchilikni yaratishda milliy sharoitlarni inobatga olish, shuningdek, Konstitutsiya va qonunlarga kiritiladigan o‘zgartishlar O‘zbekistonda bo‘lgani kabi, izchil taraqqiyotga mos bo‘lishi kerak”.[1]

Bu o‘rinda, yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasida jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlari inobatga olingani, Yangi O‘zbekistonni qurish g‘oyasi atrofida butun jamiyat jipslashayotgani, Bosh Qomusimiz tom ma’noda xalq Konstitutsiyasi bo‘layotganini alohida e’tirof etish joiz.

Avvalo, tariximizda ilk bor O‘zbekiston ijtimoiy davlat, deb belgilanmoqda. Ya’ni, insonga e’tibor hamda g‘amxo‘rlik davlat va jamiyatning eng asosiy burchi ekani konstitutsiyaviy norma darajasida mustahkamlanmoqda.

Yangilanayotgan Bosh qomusimizda davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq normalar 3 barobar ko‘paytirilib, xususan, bandlikni ta’minlash, ishsizlikdan himoya qilish, kambag‘allikni qisqartirish, har kimning uy-joyli bo‘lish huquqiga oid qator majburiyatlar kiritilmoqda.

Shuningdek, loyihada aholi salomatligini asrash bilan bog‘liq normalar 4 barobar ko‘paygan. Bu esa aholi sog‘lig‘ini ishonchli muhofaza etish hamda onalar va bolalar o‘limi, turli yuqumli kasalliklar xavfini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, fuqarolarining munosib hayot kechirishlari hamda hayoti va salomatlik darajasini yanada yaxshilash maqsadida atrof-muhitni

[1] www.konstitutsiya.uz internet portalidan.

yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash, umuman, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha kompleks choralar belgilanmoqda.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasining umumxalq muhokamasi chog‘ida uni takomillashtirish bo‘yicha 220 mingdan ortiq taklif kelib tushgan bo‘lib, shundan har to‘rtinchisi loyihada o‘z aksini topgan. Konstitutsiyaviy qonun loyihasini tayyorlash jarayonida BMT, EXHT, ShHT, Evropa Ittifoqi, Turkiy davlatlar tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan 400 dan ortiq xalqaro hujjatlar, 190 ga yaqin davlat konstitutsiyalari puxta tahlil qilindi.

Yangiliklardan biri O‘zbekiston davlatining huquqiy maqomi bilan bog‘liq fundamental normalardir. Birinchi marta Konstitutsiyada O‘zbekiston suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekanligi o‘zgarmas qoida sifatida belgilandi. Boshqa yangi konstitutsiyaviy normalar mustahkamlanmoqda.

Asosiy qonunga kiritilgan o‘zgartirishlarning asosiy mazmun-mohiyati nimada, bu O‘zbekistonning hamkor davlatlar, jumladan mintaqadagi qo‘shnilari, Rossiya va uzoq xorij davlatlari bilan munosabatlariga ta’sir qilishi mumkinmi? Ma'no tadqiqot tashabbuslari markazi direktori Baxtiyor Ergashevdan ushbu mavzular bo‘yicha o‘zining ekspert fikrini so‘radik.

Shubhasiz, O‘zbekiston Asosiy qonunning yangi tahririni qabul qilar ekan, mintaqaviy hamkorlik, sheriklik va integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etadigan davlat bo‘lib qolishi juda muhim. Mamlakat bugungi kunda Yangi O‘zbekiston siyosatini amalga oshirish jarayonida bo‘lib, unda Markaziy Osiyo O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi ekanligi yozilgan. Yangi O‘zbekistonning ana shu dasturidan kelib chiqqan holda, Konstitutsiya O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi qo‘shni davlatlarning hududiy yaxlitligini tan olishini aniq ko‘rsatuvchi hujjatdir. O‘zbekiston qo‘shni davlatlarning rivojlanishi, iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlanishidan manfaatdor. Bu hududiy nizolar mintaqaning etnik, davlatlararo va millatlararo qarama-qarshilik va nizolar joyiga aylanishiga sabab bo‘lib qolmasligi uchun zarur asosdir.

O‘zbekiston mustaqil davlatlarning hududiy yaxlitligi va suvereniteti tamoyillariga rioya etish tarafdori ekanini, bu qoidani o‘z Konstitutsiyasida rasman belgilab qo‘yganligini e’lon qilgan holda, O‘zbekiston shu orqali Markaziy Osiyo bilan munosabatlarni faqat teng huquqlilik asosida, hududiy yaxlitlik va suverenitetga hurmat asosida qurishini ma’lum qiladi. Bu qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yish uchun Konstitutsiyada belgilanishi shart.

Yangilanayotgan Konstitutsiyamizda bu kabi tamoyillarning aniq ifoda etilishi, ushbu yo‘nalishlardagi ko‘plab muammolarga mukammal huquqiy echimlar topishga xizmat qiladi.

Har bir davlat o‘z rivojlanish yo‘lini tanlashga haqli, ammo demokratiyaning qonun ustuvorligi kabi umumiy printsipi mavjud, – deydi Xalqaro prokurorlar assotsiatsiyasi prezidenti Jeyms Xamilton (Irlandiya). – Bu esa jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta’minlaydigan Konstitutsiya bilan tasdiqlanishi lozim. Uning qoidalari amalda samarali qo‘llanishi ham g‘oyat muhimdir. Har qanday inson o‘z huquqlari buzilganda sudga murojaat qilishi va sud ularni himoya qilishiga amin bo‘lishi darkor. Bu esa Konstitutsiyaning amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi. O‘zbekistonda so‘nggi yigirma yilda konstitutsiyaviy qurilish sohasida katta yutuqlarga erishildi. Mamlakatingizning Asosiy Qonuni umume’tirof etilgan barcha jahon standartlariga mos keladi. Yana shunisi muhimki, O‘zbekistonda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga ham alohida e’tibor berilmoqda. Negaki, Konstitutsiyada mustahkamlangan o‘z huquqlarini biladigan, tushunadigan va ulardan foydalanadigan odamlargina mamlakatda demokratik jarayonlarni takomillashtirishda ishtirok etishi mumkin”.

“Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi insonni oliy qadriyat, uning huquqlari, erkinligi va manfaatlarini ta’minlash ustuvorligini e’lon qildi, – deydi Konrad Adenauer nomidagi jamg‘armaning Markaziy Osiyo bo‘yicha vakolatxonasi rahbari Tomas Kuntse (GFR). – Ushbu hujjat qabul qilinganiga atigi 20 yil bo‘lsada, unda mustahkamlangan va mamlakatingiz taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan asosiy printsiplarning amalga oshirilishi salmoqli natijalar berayotganining

guvohi bo‘lmoqdamiz. Ayniqsa, dunyoning, jumladan Evropaning ko‘pgina rivojlangan davlatlari konstitutsiyasi ulardagi qoidalarni amalga tatbiq etish jarayoni kabi ko‘p asrlik tarixga ega ekanini hisobga oladigan bo‘lsak, bu juda katta yutuqdir. Mamlakatingizda mustaqil rivojlanish davrida tinchlik va osoyishtalik saqlanib turganini ham alohida qayd etish joiz. Bu investitsion muhit uchun ham, uzoq muddatli iqtisodiy hamkorlik uchun ham juda muhim. Butun Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va tinchlik saqlanayotganida O‘zbekistonning xizmati kattadir va buni e’tirof etmasdan bo‘lmaydi.[1]

Shu o‘rinda aytishimz mumkinki asosiy qonundagi barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishini ta’minlashga oid normalar esa fuqarolar farovonligini oshirishga yo‘naltirilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi, mulkdorlar qatlamini kengayishida ahamiyatli sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. www.meningkonstitutsiyam.uz internet portalidan.
2. www.konstitutsiya.uz internet portalidan.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni “Toshkent-2023 y”

ISLOM HUQUQIDA INSON HUQUQLARI MASALALARI

Raxmanov Abdumuxtor Rejjabbaevich
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasi professori, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

Azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharafli burchimizdir. Islom – haqiqatni anglash demakdir, u odamzotni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo‘lishni o‘rgatadi.

Sh.M. Mirziyoyev

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni “Toshkent-2023 y”

Hozirgi zamonamizda ham inson huquqlariga rioya etish masalalari alohida ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Inson huquqlariga bo‘lgan munosabat hozirgi dunyo mamlakatlari demokratik madaniyatining mezoniga aylangan.

Ko‘p asrlik tarixiy-huquqiy meros bo‘lgan va hozirda aksariyat islom mamlakatlar qonunchiligida amaliyotda bo‘lgan islom huquqi tizimining chuqur o‘rganilishi va jahon demokratiya tajribasida foydalanilishi kerak bo‘lgan ko‘pgina an’analari bor.

Islom ta’limotiga ko‘ra, inson huquqlari va erkinliklari manbai ilohiy manbadir. Inson Alloh tomonidan yaratilgan mavjudotlarning gultojidir. Alloh mutloq suverenitet – cheksiz hokimiyat egasi, barcha odamlar esa unga va uning talablariga bo‘ysunishlari shart.[1]

Inson huquqlari mavzusi islom huquqida qadimdan o‘rganilgan haq-huquq nazariyasining uzviy tarkibiy qismidir. Bir shaxsga xos bo‘lish va o‘zidan boshqaga o‘tmaslik yo‘li bilan shariat sohibi tomonidan sobit bo‘lgan manfaatga “haq” deyiladi. Arab tilida haq ko‘plik formasi “huquq” deyiladi, ya’ni haq va huquq bir ma’noda keladi. Haq-huquq o‘z mohiyatiga ko‘ra, shaxsning o‘ziga tegishli bo‘lgan, undan begonalashtirilmagan, boshqa shaxsga o‘tkazilishi mumkin bo‘lmagan shaxsiy huquqlar turkumi (yashash huquqi, sha’n, qadr-qimmatga, shaxsiy daxlsizlikka bo‘lgan huquqlar, mualliflik huquqi va h.k.) deb aytish mumkin. Lekin haq-huquqlar mazmuni nisbatan keng va rang-barangdir.[2]

Bundan o‘n to‘rt asr muqaddam Islom insoniyatga inson huquqlarining ideal kodeksini berdi. Ushbu kodeksdan asosiy maqsad – ekspluatatsiya, jabr-zulm vaadolatsizlikni bartaraf qilib, insoniyatga or-nomus va qadr-qimmat kafolatlarini berishdan iborat bo‘lgan.

Islomda inson huquqlari konsepsiyasi barcha inson huquqlarining manbasi va qonunlarning muallifi yolg‘iz Alloh ekanligiga ishonishga asoslanadi. Alloh in’om qilgan inson huquqlari ilohiy kelib chiqishga ega ekanligi sababli biron-bir hukumat, rahbar yoki qandaydir rahbarlik qiladigan guruh tomonidan qisqartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas. Ularni hech kim o‘z ixtiyoricha o‘zgartirish huquqiga ega emas.

Islomda inson huquqlari islom huquqi tizimining ajralmas qismini tashkil qiladi.[3]

Islom dini va huquqi Sharqdagi bir qator mamlakatlarda jumladan mamlakatimiz hududida davlat va huquq rivojlanishiga, ayniqsa, ushbu mamlakatlardagi inson huquqlari va erkinliklariga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Ularning yuridik va mafkuraviy omil sifatida amal qilish sohasi bizning zamonda ham juda keng bo‘lib qolmoqda. Bu esa islom huquqining bugungi kungacha musulmon mamlakatlaridagi aholi qatlamlari dunyoqarashi uchun deyarli hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan diniy tizim bo‘lmish islom bilan chambarchas aloqada ekanligidan kelib chiqadi.[4] Mamlakatimiz xududida 12 asrdan ko‘proq vaqt mobaynida amaliyotda bo‘lgan shariat me’yorlari hozirda ham ko‘p jihatlari odat sifatida saqlanib qolganligi hammamizga ma’lum.

Islom dinining buyukligi, qonunlarining ulug‘vorligi, uning iqtisodiy tizimining inson ehtiyojlari va jamiyat manfaatlari haqida g‘amxo‘rlik qilishi shariatda belgilangan hamda maqsadi shaxs va jamiyat manfaatlarini ta’minlashdan iborat bo‘lgan boyliklarni taqsimlashni e’tirof etishda ayniqsa yorqin namoyon bo‘ladi.

Inson va boshqa tirik mavjudotlar huquqlariga adolatli va universal islomiy qarashning mavjudligi haqidagi xulosa, xususan, Qur’onda keltirilgan quyidagi oyatlarni o‘z ichiga olgan:

“Batahqiq, Biz Bani Odamni azizu mukarram qilib qo‘ydik” (Isro surasi, 70) “Biz o‘z payg‘ambarlarimizni hujjatlar bilan yubordik va ular bilan birga Kitob hamda odamlar adolatni barpo qilishlari uchun mezon tushirdik. Yana biz temirni tushirdik. Unda quvvat va odamlar uchun manfaatlar bordir. Alloh o‘ziga va payg‘ambarlariga g‘oyibona yordam beradigan kishilarni bilish uchun ham (temirni yaratdi). Albatta, Alloh kuchli va Qudratlidir” (“Hadid”, 25-oyat).[8]

Inson huquqlari va erkinliklari masalasida fuqarolik jamiyatining shakllanishi, huquqiy davlat va bozor iqtisodiyotining barpo etilishi bilan u yoki bu tarzda bog‘laydigan tadqiqotchi-tahlilchilarning katta faolligi sezilib turibdi. Masalan, islomshunos olim A.K. Broxi insonning ajralmas huquqlari qatoriga nafaqat barcha kishilarning yashash, mulkka ega bo‘lish

va o‘zaro teng bo‘lish huquqini, balki so‘z va fikr erkinligi, diniy e’tiqod va vijdon erkinligi, nihoyat “har bir musulmonning boshqa dindoshlarini ezgulikka yo‘naltirish va yovuzlikdan saqlash huquqini” kiritgan.[9]

So‘nggi yillarda musulmon dunyosida islomning asosiy qadriyatlarini umuminsoniy axloqiy ideallar ruhida anglashga harakat kuchayib bormoqda. Masalan, jazoirlik mashhur islomshunos olim Ali Malik musulmon dunyosini boshqa mamlakatlar uchun ochiq bo‘lishga, musulmon bo‘lmaganlar bilan foydali muzokara qilishga chaqiradi. Uning nazarida, islom prinsiplari, birinchi navbatda, madaniy birdamlik va ma’naviylik g‘oyasini, shuningdek, boshqa dindagilarga toqat qilish, diniy farq va begonalashuvni yengishga intilishni, quvg‘inga ham, kamsitishga ham, milliy qadr-qimmatini va fuqarolik huquqlarini poymol etishga ham yo‘l qo‘ymaslikni o‘z ichiga oladi.

Bunday nuqtai nazar tarafdorlari barcha musulmonlarning Alloh oldida mutlaq tengligi qoidasidan kelib chiqib, har bir shaxs huquqlarining ustuvorligini ta’kidlaydi. Muhammad (SAV) o‘zining vidolashuv xutbasida:

“Ey odamlar! Barchangizning Robbingiz birdir. Arabning ajamdan, ajamning arabdan, qoraning qizildan, qizilning qoradan taqvodan boshqa narsada ortiqligi yo‘q. Allohning nazdida eng mukarramingiz eng taqvodoringizdir”, “hammangiz taroq tishlaridek tengdirsiz”, – deb aytgan.[10]

Bunday qarash musulmonlar orasida butun dunyo tarixiy taraqqiyoti xilma-xilligini, notekisligini anglash o‘ziga yo‘l ochib borgani sayin mustahkamlanib bormoqda. Eng asosiysi, islom huquqi va madaniyatida namoyon bo‘lgan o‘zaro ta’sir etib turishi va o‘zining ma’naviy merosiga tayanishini, uning birlamchi prinsiplarini dunyoviy sivilizatsiyaning gumanistik, umuminsoniy mazmuni bilan muvofiqlashtirayotganligini tushunish o‘sib bormoqda.

Hozirda ko‘pgina Sharq mamlakatlari konstitutsiyalariga binoan, islom huquqi - qonunchilikning asosiy manbaidir.

Islom huquqida shaxsning huquqiy holati tushunchasi borasida fikr bildirsak, u o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lib, ushbu xususiyatlar islom

huquqining tabiati, unda islom huquqi tuzilishi va ta’limotining, uning manbalari tarixiy rivojlanishining aks etganligi bilan bog‘liqdir.

Ham yuridik, ham umumiy qoidalarni o‘z ichiga oladigan islom huquqining ikki yoqlama tabiati oqibatida, islomda shaxs maqomi nafaqat huquq bilan, balki din orqali ham belgilanadi. Ushbu fikrni ham ikki xil ma’noda tushunish mumkin: bir tomondan, musulmon va nomusulmon shaxslarning huquqiy holati ya’ni ular zimmasiga yuklatiladigan majburiyatlar muayyan ma’noda farqlanadi; ikkinchi tomondan, shaxsning huquqiy holati nafaqat huquqiy normalar, balki sof diniy normalar orqali ham belgilanadi.

Islom dini taraqqiyotining ilk davrlarida, jumladan, arab mamlakatlarida shaxs maqomining tadrijiy o‘zgarishi, mustaqillikka erishilganidan keyin arab mamlakatlarida shaxs huquqiy maqomining yuksalishi butun Sharq musulmon mamlakatlaridagi singari, huquqiy tizimlar rivojlanishidagi umumiy qonuniyatlarni aks ettiradi.

Vaqt o‘tishi bilan arab mamlakatlarida shaxs maqomiga inson huquqlariga doir xalqaro hujjatlar ham ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir arab mamlakatlarining xalqaro tashkilotlar doirasida inson huquqlariga doir hujjatlarni ishlab chiqish orqali, ushbu hujjatlar asosida o‘z davlatlari qonun hujjatlarini birxillashtirishga va o‘zaro yaqinlashtirishga intilishlarida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu hujjatlardan ayrimlari masalan, Inson huquqlari arab deklaratsiyasi dunyoviy xususiyatga ega, boshqalari Inson huquqlari islom deklaratsiyasi, Islom konstitutsiyasiga islomiy shakl berilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, “Islom xuquqi qotib qolgan aqida, u aslo inson xuquqlarini o‘zining tarkibiy qismi sifatida qabul qilmaydi”, degan qarashlar asossiz ekanligini isbotlashga urinish yotadi. Islom xuquqining o‘z tarixiy shart-sharoitlari doirasidagi normalari (masalan, qulchilikka yo‘l qo‘yilishi, ayollar xuquqlari sohasidagi ba’zi cheklashlar) ni mutlaqo o‘zgarmas normalar sifatida qarash to‘g‘ri emas. Jamiyat rivojlanib, taraqqiy etib, kengayib boradi. Agar islom huquqshunosligi aqida sifatida qabul qilinsa, u holda biz al - Buxoriy, at - Termiziy, al -

Marg‘inoniy kabi allomalarning fiqh - huquqshunoslik ilmiga doir boy ma’naviy merosidan mahrum bo‘lamiz.

Islomning yuksak axloqiy huquqiy va ma’naviy-madaniy qadriyatlari o‘z ahamiyatini saqlab qolgan holda, madaniyatni rivojlantirish, davlatchilikni mustahkamlash, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois islomni shariat asoslarini bilishning diniy tizimi – islom qonunlarining tizimlashtirilgan to‘plami sifatida o‘rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bu ayniqsa, Respublikamiz hayotining barcha jabhalarida tub islohotlar olib borilayotgan davrda davlat va jamiyat qurilishining huquqiy tizimini rivojlantirish, iqtisodiyotni bozor munosabatlari amaliyoti, dunyoviy davlat qurilishini rivojlanishida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Inson huquqlariga oid islom konsepsiyasi musulmon va nomusulmon fuqarolar bilan o‘zaro munosabatini tartibga soluvchi hamda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan islomda yo‘l qo‘yiladigan me’yorlar majmuasidan iborat. Inson huquqlariga oid islom konsepsiyasining manbalarini Qur’on, Sunna, Ijmo, sud qarori va inson huquqlariga doir boshqa islomiy bitimlar tashkil etadi.

Biz har bir jamiyatda mavjud va ustun bo‘lgan ezgulik, adolat, ozodlik va insoniylik haqidagi subyektiv tasavvurlar shaxs xatti-harakatini boshqaruvchi umumiy qoidalar sifatida maydonga chiqadigan va keng tarqalgan psixologik munosabatlar bo‘lib, huquqiy idealdir, deb hisoblaymiz. Bu esa huquqiy ongda o‘z aksini topadi. Bunday munosabatlar huquqiy ta’limot negizini tashkil qiladigan hukmron huquqiy ongda namoyon bo‘ladi.

Xalqaro tashkilotlar inson huquqlari va erkinliklarini rag‘batlantirishda katta ahamiyatga ega, ular xalqaro shartnomalarda belgilangan inson huquqlari sohasida universal standartlarni mustahkamlashga hamda himoya qilishga ko‘maklashadi. Shu bois, barcha mamlakatlarda fuqarolarining huquqlarini himoyalashning huquqiy mexanizmini yaratishda tutgan ahamiyatini yanada kuchaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 *Muhammad Yusuf.* (Tarix fiqh ul islamiya). O‘zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik instituti. Bosma usulda. № 17349. B. 120–132. (arab tilida)

2 Islom huquqshunosligi // Islom huquqshunosligida inson huquqlari va shaxs maqomi // Dissertatsiya // A.Raxmanov // T. 2002- B. 93-104.

3 Inson huquqlari islom deklaratsiyasi https://www.islamonline.uz/

4 A. Raxmanov, H. Yunusov, M. Qaratash Islom huquqi Darslik TDYUU 2021 y. -B. 211-233.

5 Shayx Muhammad Sodiq Muhammad YUsuf Tafsiri hilol - T. “HILOL-NASHR” 2023. 6 tom.

6 G. Yuldasheva, A. Raxmanov. Islamskoe pravo Uchebnik dlya vuzov T. Izd. “Lesson Press”, 2022 g. - S. 18-55.

7 Shayx Muhammad Sodiq Muhammad YUsuf Tafsiri hilol - T. “HILOL-NASHR” 2023. 6 tom.

8 Shayx Muhammad Sodiq Muhammad YUsuf Tafsiri hilol - T. “HILOL-NASHR” 2023. 6 tom.

9 *Brohi A. K.* Human Rights and Duties in Islam. Islam and the Contemp. Porary Society. London–New York, 1992. - P. 246.

10 Imom al-Buxoriyning “Al-Jomi’ as-Sahih” asari - T. “HILOL-NASHR” 2019. - B. 542.

SUDGA MUROJAAT QILISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSI

Yuldashov Sodiq Oqbayevich,
Jamoat xavfsizligi universitet dotsenti,
yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Konstitutsiyaning yaratilishi bashariyat tarixining yorqin ifodasidir. Chunki, har qanday Konstitutsiyaning oliy maqsadi — inson huquq va erkinliklarining ustuvor ekanligini e’tirof etish bo‘lib, bu barcha Konstitutsiyalarning o‘ziga xos xususiyatidir.

Ammo, Konstitutsiyada huquq va erkinliklarning belgilab qo‘yilishi va ornatilishi masalaning bir tomoni bo‘lsa, ikkinchi va muhim tomoni

uning amaliy ijrosini ta’minlashga yo‘naltirilgan aniq chora-tabdirlar ko‘rilganligida namoyon bo‘ladi.

Eng e’tiborlisi, Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan huquq va erkinliklarni ro‘yobga chiqarish kafolatlari bo‘lib, buning ifodasi Konstitutsiyaning 2-moddasida nazarda tutilgan “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar”, degan qoidada o‘z aksini topdi. Shuningdek, “Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari” deb nomlangan X bobida inson huquqlarini kafolatlashga doir alohida normalar (43-46 mm.) belgilab qo‘yildi. Mamlakatimiz taraqqiyotining o‘tgan davrida inson huquqlari kafolatlari sohasiga doir huquqiy baza kengaytirilib, uni amalga oshirish mexanizmlari shakllantirildi.

Xalqimiz takliflari va istaklari asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasiga “choralar ko‘radi” va “ko‘maklashadi” kabi kafolatning yangi turlari kiritilib, ushbu Konstitutsiyada o‘z aksini topgan davlatning inson huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan majburiyatlari 8 ta, ya’ni “shart-sharoit yaratadi”, “kafolatlaydi”, “ta’minlaydi”, “g‘amxo‘rlik qiladi”, “rag‘batlantiradi”, “choralar ko‘radi”, “ko‘maklashadi” va “imkoniyat yaratadi” kabi ma’nolarda ifodalangan.

Konstitutsiyaning markaziy qobig‘ini tashkil etuvchi inson huquq va erkinliklariga doir normalar 3 barobariga ko‘payishi fonida bu huquq va erkinliklar kafolati 3,1 barobarga yoki 17 tadan 53 tagacha oshirildi. Kafolatlar turlari kesimida tahlil etilganda, shart-sharoitlar yaratish 1 tadan 13 taga, kafolatlash 8 tadan 13 taga, ta’minlash 4 tadan 12 taga, g‘amxo‘rlik qilish 1 tadan 4 taga, rag‘batlantirish 1 tadan 4 taga ko‘paygan. Konstitutsiya normalari choralar ko‘rish (4 ta) va ko‘maklashish (2 ta) kabi kafolatning yangi turlari bilan to‘ldirilgan bo‘lib, bu chin ma’noda, Konstitutsiyaning 54-moddasida belgilangan “Insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir”, degan normaning amaliy ifodasidir.

Konstitutsiyaning bo‘limlari misolida olib qaralganda, kafolat turlari “Asosiy prinsiplar” deb nomlangan birinchi bo‘limga 1 taga, “Inson va

fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlangan ikkinchi bo‘limga 34 taga, “jamiyat va shaxs” deb nomlangan uchinchi bo‘limga 17 taga va “Davlat hokimiyatining tashkil etilishi” deb nomlangan beshinchi bo‘limga 1 taga to‘g‘ri kelgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va davlat hokimiyati organlari tomonidan ham vakolatlari doirasida inson huquq va erkinliklarini ta’minlashning kafolatlari Konstitutsiyada belgilab qo‘yilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Konstitutsiyaning 108 va 109-moddalarida Prezident fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini kafolatlash va ularni amalga oshirishning zaruriy chora-tadbirlarini ko‘rishga oid normalar belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, Konstitutsiyaning 115-moddasida Vazirlar Mahkamasi va 139-moddasida Sud hokimiyatining inson huquq va erkinliklarini kafolatlashga doir qoidalar qayd etilgan.

Konstitutsiyaning 20-moddasida nazarda tutilgan “Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi.

Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun etarli bo‘lishi kerak.

Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi”, degan normalar mutlaqo yangi va ishonchli kafolatdir.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 21-moddasida qayd etilgan “Hech kimga uning roziligisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas”, degan qoida inson huquq va erkinliklari ustuvorligi davlat tomonidan e’tirof etilganligidan dalolat beradi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning “Inson hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlari” deb nomlangan X bobi (54-58 mm.)da kafolatlar alohida belgilandi. Jumladan, 54-moddada nazarda tutilgan

“Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi”, degan qoidaning asl mohiyati Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan barcha huquq va erkinliklarni ta’minlashni davlat o‘z zimmasiga olganligini, bu davlatning mas’uliyat (majburiyat)i ekanligini anglatuvchi tushunchadir.

Konstitutsiyaning 55-moddadasida qayd etilgan “Har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi”, degan demokratik normalar huquq va erkinliklarni amalga oshishini ta’minlashga yo‘naltirilgan kuchli vosita bo‘lib, Konstitutsiyaning o‘zida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatib qo‘yildi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan sudga murojaat qilish huquqi instituti inson huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda qonuniy manfaatlarini ta’minlashning ishonchli kafolatidir. Ayniqsa, ushbu moddaning 4-qismi “Har kim O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli”, degan qoida bilan to‘ldirilishi murojaat qilish huquqi institutining xalqaro huquq standartlari talablari asosida yanada kengayganligi va bir muncha takomillashganligidan dalolat beradi.

Buni amalga oshirish tartib-taomillari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 22 iyundagi PF-6012-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo‘yicha ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalari xabarnomalari va qarorlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi davlat organlarining o‘zaro hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM”[1]da batafsil berilgan.

Unga ko‘ra, inson huquqlari bo‘yicha quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

[1]Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 30.04.2021 й., 06/21/6218/0398-сон,

arizachi — BMTning inson huquqlari bo‘yicha ustav organi yoki shartnomaviy qo‘mitasiga yakka tartibdagi xabarnomani taqdim qilgan shaxs yoki uning vakili;

BMTning ustav organlari (Bosh Assambelya, Xavfsizlik kengashi, Iqtisodiy va Ijtimoiy kengash, Xalqaro sud, Vasiylik kengashi va Kotibiyat[1]) va shartnomaviy qo‘mitalari — inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi tomonidan tan olingan BMTning organlari (Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mita; Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari bo‘yicha qo‘mita; Irqiy kamsitishlarni barcha turlariga barham berish bo‘yicha qo‘mita; Ayollarni kamsitishlarini barcha turlariga barham berish bo‘yicha qo‘mita; Qiynoqlarga qarshi qo‘mita; Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mita; Nogironlar huquqlari bo‘yicha qo‘mita; Mehnat muhojirlari va ularni oila a’zolarini huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qo‘mita; Majburiy yo‘qolishlar bo‘yicha qo‘mita; Qiynoq va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy va qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazoning oldini olish bo‘yicha qo‘yi qo‘mita[2] va boshqalar).

BMTning inson huquqlari bo‘yicha ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalarining qarori — BMTning inson huquqlari bo‘yicha tuzilmasi hujjati bo‘lib, xabarnoma mazmuni bo‘yicha qaror yoki mulohaza ko‘rinishida qabul qilinadi;

BMTning inson huquqlari bo‘yicha ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalari tartib-taomillarida (protseduralarida) o‘rnatilgan mezonlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) arizachi huquqiy himoyaning mavjud milliy vositalaridan, jumladan sud himoyasidan foydalanganligi;

b) arizachi tomonidan dalil qilib ko‘rsatilayotgan inson huquqlarining buzilishi holati tegishli xalqaro shartnoma O‘zbekiston Respublikasi uchun kuchga kirgandan keyin yuz bergan bo‘lishi;

v) xabarnoma anonim bo‘lmasligi, shuningdek, tegishli xalqaro shartnomalarning ishtirokchisi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasi ostidagi shaxslardan yuborilgan bo‘lishi;

[1]Gafurova N., Sattarov D. Xalqaro tashkilotlar huquqi. Darslik. – T.: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2023.—B.80.
[2]Gafurova N., Sattarov D. Xalqaro tashkilotlar huquqi. Darslik. – T.: Toshkent davlat yuridik universiteti,2023.—B.115.

g) shaxs tegishli xalqaro shartnoma buzilishi oqibatida jabrlanganligining yetarli darajada asoslanganligi (tasdiqlovchi dalillarning keltirilganligi, tegishli hujjatlarning ilova qilinganligi);

d) ayni bir ish bo‘yicha murojaat takroran amalga oshirilmagan bo‘lishi (agar avval BMTning inson huquqlari bo‘yicha shartnomaviy qo‘mitasi ayni shu murojaat yuzasidan inson huquqlari buzilishi holati mavjud emasligi to‘g‘risida qaror chiqargan bo‘lsa, shikoyat maqbul emas deb topiladi);

e) xabarnoma ishni hal qilishning boshqa xalqaro tartib-taomiliga muvofiq ko‘rib chiqilmasligi.

Ishchi guruh davlat organlaridan kelib tushgan ma’lumotlarni belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqadi va O‘zbekiston Respublikasining asoslangan javobini tayyorlaydi.

Xabarnomaning maqbulligi to‘g‘risidagi javob markaz tomonidan, o‘z navbatida, BMTning inson huquqlari bo‘yicha ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalariga taqdim etilishi uchun Tashqi ishlar vazirligiga yuboriladi.

Xabarnoma maqbul emasligi sababli rad etilgan taqdirda, uning asoslari tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan holda ko‘rsatiladi.

Agar BMTning inson huquqlari bo‘yicha ustav organlari yoki shartnomaviy qo‘mitalari xabarnomaning maqbul emasligi to‘g‘risida qaror qabul qilsa, ishchi guruh faoliyati tugatiladi.

Markaz besh ish kuni ichida ko‘rib chiqish uchun maqbul deb topilgan xabarnomani tahlil qiladi va uning mazmunidan kelib chiqib, tegishli davlat organlari uchun savollarning asosiy ro‘yxatini belgilaydi va qo‘yilgan masalalar yuzasidan axborot taqdim qilish uchun so‘rovnomalar yuboradi.

Tegishli davlat organlari o‘n besh ish kuni ichida qo‘yilgan masalalar yuzasidan asoslangan dalillarni va tayyorlangan axborotni tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga markazga taqdim etadi.

Markaz zarurat tug‘ilganda (javoblar etarli bo‘lmasa, tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lmasa), aniqlik kiritish maqsadida qo‘shimcha so‘rovnomalar yuboradi.

Markaz Adliya vazirligi bilan birgalikda bir oy ichida davlat organlaridan olingan axborotni umumlashtiradi, O‘zbekiston Respublikasining javobi loyihasini tayyorlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining javobi markaz tomonidan, o‘z navbatida BMTning inson huquqlari bo‘yicha ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalariga taqdim etilishi uchun Tashqi ishlar vazirligiga yuboriladi.

BMTning inson huquqlari bo‘yicha ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalari tomonidan tegishli xabarnoma yuzasidan qabul qilingan qaror kelib tushgan vaqtidan boshlab o‘n kun ichida Tashqi ishlar vazirligi tomonidan markazga yuboriladi.

Markaz BMTning inson huquqlari bo‘yicha ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalari tomonidan tegishli xabarnoma yuzasidan qabul qilingan qarorni sud tartibida ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga yuboradi.

Qabul qilingan yoki rejalashtirilgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi axborot Markaz tomonidan, o‘z navbatida, BMTning inson huquqlari bo‘yicha ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalariga taqdim etilishi uchun Tashqi ishlar vazirligiga yuboriladi.

BMTning inson huquqlari bo‘yicha ustav organi yoki shartnomaviy qo‘mitasi qarorida belgilangan zararni qoplash uchun to‘lov (kompensatsiya) miqdori sud tartibida belgilanadi.

Kelib tushgan xabarnomalar hamda BMTning inson huquqlari bo‘yicha ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalari qarorlarining ijro etilishi ustidan monitoring Markaz tomonidan amalga oshiriladi.

Muxtasar aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada murojaat qilish huquqi doirasini yanada kengayishi, kafolatlarning yuqori darajada oshishi, uni ta’minlash mexanizmlarining kuchaytiriliganligi pirovard natijada fuqarolar o‘z hayotida Konstitutsiya ruhini his etishiga, xalqning davlat hokimiyati organlariga bo‘lgan ishonchi kuchayishiga, eng muhimi Konstitutsiya normalarini hayotda real o‘rnini topishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Konstitutsiyasi (Asosiy qonuni). – T.: “O‘ZBEKISTON”, 1990. – B.16.

2.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O‘ZBEKISTON” NMIU, 2017, 2018, 2019, 2021.

3.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “Adolat”, 2023.

4.Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2023 y., 06/23/67/0269-son.

5.Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son.

6.Gafurova N., Sattarov D. Xalqaro tashkilotlar huquqi. Darslik. – T.: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2023.—B.80.

INSONPARVARLIK TAMOYILLARINI YOSHLAR TOMONIDAN SODIR ETILAYOTGAN HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISHDAGI AHAMIYATI

Olimjonov Xushnudbek Maxamadsalim o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, yu.f.b.f.d., (PhD);
Yusupboyeva Dinora Ilhombek qizi,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus fakul’tet 104-guruh talabasi

Hozirgi globallashuv davrida zamon shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Jamiyatga turli xil tahdidlar xavf solmoqda. O‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviyatiga mafkuraviy hurujlar ta’siri kuchayib bormoqda. Mamlakatimizda ulg‘ayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik tuyg‘ulari yetarli darajada yetishmasligi natijasida turli hil qonun buzilishi holatlari yuz bermoqda.

Yoshlarni barkamol avlod qilib tarbiyalash dolzarb vazifadir. Javobgarlikni kuchaytirish, jazoni og‘irlashtirish bilan yoshlar tarbiyasini to‘g‘irlab bo‘lmaydi. Barchasiga yoshlikdan bolalikdagi ta’lim-tarbiyadan

boshlash kerak. Yoshlarni o‘zligini anglashi, ota-bobolari kimligi, kimning avlodi ekanliklarini anglatmoq zarur. Shundagina biz oldimizga qo‘ygan maqsadimizga erishamiz.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev jamiyatda adolatni qaror toptirish masalasini quyidagicha izohlaydi: “Shu sababli ana shu Qonun talablarini bajarmayotgan rahbar va mansabdor shaxslarni nafaqat ma’muriy, balki jinoiy javobgarlikka tortish zarur, deb hisoblayman.

Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak va bu haqiqatni, avvalo, barcha bo‘g‘indagi rahbarlar yaxshi tushunib olishi zarur”[1]. Davlatimiz rahbari jamiyatda adolatni qaror toptirishda huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga alohida e’tibor qaratib, unda huquqiy ma’rifat, mahalla va uchastka profilaktika inspektorlarining faoliyatini samarali tashkil etishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi.

Yoshlar o‘rtasida sodir etilayotgan jinoyat va huquqbuzarliklarning dastlabki tahlili jinoyat tushunchasining mohiyatidan boshlash masalaning yechimini oydinlashtirishga yordam beradi. Yuridik ensiklopedik lug‘atda: “**Jinoyat** – Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli, ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb hisoblanadi. Jinoyat boshqa qoida buzarliklardan o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Bu qilmishning ijtimoiy xavfsizligidir. Chunki jinoyat natijasida jamiyat va shaxs uchun ham moddiy, ham ma’naviy zarar yetkaziladi. Shuning uchun jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi jinoiy oqibatda aks etadi”[2] deb ta’rif beriladi. Demak, jinoyat tushunchasi ijtimoiy xavfli qilmishni og‘ir ko‘rinishi hisoblanib, ushbu xatti-harakatni sodir etganlarga nisbatan qonun doirasida jazo belgilangan ekan.

Yuridik adabiyotlarda “**jinoyatchilik** – 1) davlat va huquq nazariyasi, kriminologiya asoslariga ko‘ra, jinoyatchilik keng ma’noda u yoki bu jamiyatdagi barcha qonunbuzarliklarning umumlashgan tushunchasi sifatida qo‘llaniladi; 2) tor ma’noda jinoyat va uning mavjudligi tushuniladi va aynan jinoyatchilikka oid qonunlarni buzish jinoyatchilik deb ham o‘rganiladi”[2] degan ta’rif berilgan.

Shu nuqtai nazardan hozirgi kunda mamlakatimizda yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar va huquqbuzarliklarni vaqti va joyiga, usul va mexanizmiga, yoshi va jinsiga koʻra sodir etilishini sabab va sharoitlarini ilmiy jihatdan tahlil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlar oʻrtasida jinoyatlarni tahlili yuzasidan Sirdaryo viloyati Baxt shahridagi Respublika oʻgʻil bolalar oʻquv-tarbiya muassasasi tarbiyalanuvchisi bilan suhbatlashganimizda sodir etgan huquqbuzarlikni oqibati ijtimoiy xavfli qilmish ekanligi haqida bilmasligini, maktabda huquqshunoslik darsi yetarli darajada oʻtilmasligini aytdi. Shaxrixon tumanidagi xalq taʼlimi boʻlimiga qarashli 70 ta umumtaʼlim maktablari mavjud boʻlib, barchasida bir nafardan huquqshunoslik fani oʻqituvchilari faoliyat yuritadi, shulardan 20 nafari 28,5 foizi huquqshunos mutaxassis, qolgan 50 nafari 71,5 foizi tarix fani oʻqituvchi mutaxassisligidagi kadrlarni tashkil etmoqda.

Ushbu koʻrsatkichlardan tashqari Shaxrixon tumanida huquqbuzarlik sodir etib, Ichki ishlar idoralarida profilaktik hisobda turgan 19 nafar yoshlar mavjud boʻlib, 78,5 foizini oʻgʻil bolalar, 21,5 foizini qiz bolalar tashkil etayotganligi ushbu hisobda yosh qizlarimizni mavjudligini koʻrsatmoqda.

Har qanday inson hayotga jinoyatchi boʻlib tugʻilmaydi. Inson ulgʻayotgan zaminda boʻlayotgan voqea hodisalar, atrofdagilarni tasiri va boshqa tashqi omillar yoshlarni maʼnaviyati buzilishiga, ularni bilib-bilmay jinoyat olamiga kirib qolishiga sabab boʻlmoqda. Mana shunday kamchiliklarga yoʻl qoʻymaslik uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda ota-onalar, taʼlim muassasalari, oʻzini oʻzi boshqarish organlari vakillari birdek masʼulligini unutmasligimiz lozim.

Yoshlar huquqbuzarligi boʻyicha statistik maʼlumotlar respublikamizda yoshlar va voyaga yetmaganlar tomonidan hamda ular ishtirokidagi sodir etilgan jinoyatlar oʻtgan yillar davomida kamayganini koʻrishimiz mumkin. Buning sababi yurtimizda jinoyatchilikni barvaqt oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasi yoʻnalishida bir qator tegishli chora-tadbirlar belgilangani hamda ularning

oldini olish bo‘yicha muayyan amaliy ishlar qilingani bilan izohlashimiz mumkin.

Shu o‘rinda yoshlar jinoyatchiligi mavzusida xorijiy davlatlar amaliyotiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Rossiya davlatida “Союзи молодёжьи” tashkiloti tomonidan jinoyatchilikka moyil yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar uchun respublikadagi taniqli estrada yulduzlari va yuksak natijalarga erishgan sportchilar ishtirokida individual uchrashuvlar tashkil etilgan. Bu orqali esa ushbu toifadagi yoshlarga motivatsiya berish nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, rivojlangan Yevropa davlatlarida yoshlar o‘rtasida jinoyatlar sodir etilishining oldini olish bo‘yicha xorijda yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishga, ota-onalar ko‘proq vaqt ajratib ularni turli sport to‘garaklariga hamda boshqa turdagi tadbirlar hamda kompyuter o‘yinlariga jalb qilishmoqda, hamda o‘rta ta’lim maktablarida 5-sinfdan huquqshunoslik fanlari o‘qitilmoqda. Bu esa, yoshlar ongida “Jinoyat”, “Huquqbuzarlik” degan tushunchalarga yoshligidanoq bilimga ega bo‘lishlariga sharoit yaratib bermoqda.

Yoshlar jinoyatchiligining genezisini O‘zbekiston xalq yozuvchisi, yoshlar jinoyatchiligini o‘rganish bo‘yicha yirik mutaxassis Tohir Malik quyidagicha ta’riflaydi: “Xuligan” – angliyalik bir bezorining nasabi (familiyasi), hech kimga so‘z bermay, janjal qilishda nom chiqargan bu yigitning nasabi dunyo bo‘yicha atamaga aylanib qolgan. Avvallari bezori bolalarni “samarska” deb ham atashardi. O‘ttizinchi yillarda Samara shahridan yopirilib kelgan och-yupun bolalar o‘g‘irlik, talonchilik bilan shug‘ullanishgan. Xalq shularga o‘xshagan bolalarni “samarska” deb atagan. Bunday bolalarni sho‘xlik bilan jinoyatchi orasidagi toifa desak ham bo‘lar. Sho‘xlik me’yoridan oshsa, shumlik boshlanadi, bu vaqtda to‘xtatilmasa, jinoyat eshiklarini ochadi. Shu sababli ham xalqda “Sho‘x bo‘lsa mayli-yu, shum bo‘lmasin” degan gap bor” [3].

Bundan ko‘rinib turibdiki yoshlar jinoyati sho‘xlik, nazoratsizlik, e’tiborsizlik kabi arzimagan sabablari natijasida kelib chiqadi.

Globalistika xalqaro ensiklopedik lug‘atida qayd etilishicha, 1995 yildan 2005 yilgacha dunyoda 15 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lganlar 1

mlrd. 25 mln. dan 1 mlrd. 153 mln.gacha o‘sgan. XXI asrning boshigacha yoshlar dunyo umumiy aholisining 18 foizni tashkil etgan. Dunyo bo‘yicha yoshlarning 130 mln. savodsiz, 88 mln. ishsiz va 10 mln. VICH/SPID kasaliga chalingan. Yoshlar tomonidan jinoyat sodir etish ayrim mamlakatlarda 30 foizga oshgan[4].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, yoshlar jinoyatchilini oldini olish maqsadida, xorijiy mamlakatlar tajribasidan kengroq foydalanish, ta’lim muassasalarida huquqshunos fanidan dars o‘tadigan pedagoglarni lozim darajada tayyorlash, qayta tayyorlash, hudud ehtiyojidan kelib chiqib kadrlar tayyorlash, huquqshunoslik yo‘nalishidagi o‘quv darsliklarini takomillashtirish, o‘zini o‘zi boshqarish organlari mas’uliyatini kuchaytirish, ota-onalarni farzand tarbiyasidagi nazoratsizlikni oldini olish uchun qonuniy jazo turlarini kuchaytirish kabi takliflarni ilgari suramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi gazetasi, 2016 yil 8 dekabr.

2. Yuridik ensiklopediya / Yuridik fanlar doktori, professor U.Tadjixanovning umumiy tahririda. – T.: Sharq, 2001. – B. 156 (656).

3. Malik Tohir. Jinoyatning uzun yo‘li. – T.: “DAVR PRESS”NMU, 2016 – B.18.

4. Глобалистика: Международный междисциплинарный энциклопедический словарь \ Гл. ред.: И.И.Мазур, А.Н,Чумаков. – М.: «ЕЛИМА», ИД «Питер», 2006. – С. 577.

TEZKOR QIDIRUV FAOLIYATIDA INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARIGA RIOYA ETISH

Payziyev A.M.,

Maxsus-huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi dotsenti, yu.f.b.f.d.(PhD), podpolkovnik

Ishmuratov E.I.

Maxsus-huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi o‘qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining[1] 13-moddasida O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi, demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinishi belgilab qo‘yilgan.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev 2016-yil 1-noyabrda Andijon viloyati saylovchilari bilan o‘tkazgan uchrashuvida: “Biz o‘z faoliyatimizda qonun ustuvorligi, tartib intizom, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga alohida e’tibor beramiz. Yurtimizda barpo etilayotgan huquqiy demokratik davlatda adolat buzilishiga hech qachon yo‘l qo‘ymaymiz. Qonun va adolat himoyasi hokimiyatning barcha bo‘g‘inlari, eng avvalo davlat boshqaruv organlari, ayniqsa huquqni muxofaza qilish idoralarining birinchi darajali vazifasi bo‘lib, ayni paytda butun jamiyatimizning kuch va imkoniyatlarini shu yo‘lda safarbar etishi shart, deb hisoblaymiz”[2] deb ta’kidlab o‘tgan edilar.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish konsepsiyasini amalga oshirish borasida 2012-yil 25-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi[3] qonuni qabul qilingan.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn]: rasmiy nashr – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 128 b.

[2] Мирзиёев, Шавкат Миромонович. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият ьилан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Ташкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 592 б.

[3] Ўзбекистон Республикасининг 2012 йил 25 декабрдаги «Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида»ги ЎРҚ-344-сон Қонуни, https://lex. uz/mobileact/2107763

O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilinguniga qadar fuqarolarning huquq va erkinliklarini cheklashi mumkin bo‘lgan huquqni muhofaza qilish faoliyatining tezkor-qidiruv faoliyatidan boshqa barcha turlari qonunchilikda tartibga solingan edi. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish huquqi berilgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ularni xodimlari faoliyatining shakl, vosita va usullari turli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan edi, bu esa tezkor-qidiruv faoliyatining ayrim institutlari bir xil tushunilmasligi va binobarin, bir xilda qo‘llanmasligiga olib kelar edi.

“Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi hozirgi sharoitda mamlakatimizda huquqiy-demokratik davlat barpo etilayotganligining amaliy ifodalaridan biridir, chunki tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy vazifa va prinsiplari qonun darajasida tartibga solindi, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish vakolatiga ega organlar, ularning huquq va majburiyatlari belgilandi, vakolatlari va cheklovlari ajratildi. Bundan tashqari, tezkor-qidiruv tadbirlarining ro‘yxati, ularni o‘tkazish asoslari va shart-sharoitlari belgilandi. Tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarini ijtimoiy-huquqiy himoyalash masalalari qonun bilan tartibga solindi, mazkur faoliyatning qonuniyligi ustidan amalga oshiriladigan idoraviy va prokuror nazoratlari mustahkamlab qo‘yildi.

Ma’lumki, tezkor-qidiruv faoliyati ilgari jinoyatchilikka qarshi kurash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlashning samarali va zaruriy vositasi bo‘lgan va shunday bo‘lib qolishi tabiiy.

Tezkor-qidiruv faoliyatida axborot olishning vosita va usullari o‘ziga xosligi, ko‘proq yashirin xususiyatga egaligi, tezkor-qidiruv tadbirlari, huquq va erkinliklarni cheklash bilan kechishi, jumladan, shaxslarning nooshkora asosdagi ko‘magidan foydalanilishi tufayli, huquqshunoslar, faylasuflar, siyosatchilar, huquq himoyachilari va oddiy fuqarolarning tanqidi, bahs-munozaralari va katta qiziqishi mavzui bo‘lib qolmoqda.

Buning asosiy sababi barcha sirli holatlar har doim ham qiziqish, shubha uyg‘otishi, tezkor qidiruv faoliyatida suiste’molliklar uchun sharoit mavjudligi sababli inson huquqlarini himoyasi mavzusi nafaqat huquqiy,

balki axloqiy baho obyektiga aylanadi.

Bu borada, fuqarolarni soxta dalillar, tuhmat va bo‘htonlar asosida javobgarlikka tortishdek hukm surib kelgan nomaqbul amaliyotga chek qo‘yishga qaratilgan bir qator amaliy ishlar qilinganligini e’tirof etishimiz lozim.

Davlatimiz rahbari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017-yilning 13-iyunida Sud xodimlari bilan uchrashuvda sud-tergov sohasidagi mavjud kamchiliklar va nomaqbul usullarni tanqid qila turib, salbiy holatlarni bartaraf qilib, amaldagi qonunchiligimizda mustaxkamlab qo‘yilgan sud ishlarini ko‘rib chiqishda sud tergovi davomida tekshirilgan va o‘z tasdig‘ini topgan dalillarga asoslanishi kerakligi to‘grisidagi talablarni ilgari surgan edilar.

Buning amaliy natijasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sud va tergov organlarining haqiqatni va ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa holatlarni aniqlash, shuningdek, qonuniy, asoslantirilgan va adolatli qaror qabul qilish borasidagi mas’uliyatini oshirish maqsadida 2017-yilda 30-noyabrdagi “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5268-sonli Farmonni[1] qabul qilinganligini e’tirof etish mumkin.

Mazkur Farmonda protsessual qonunchilikni jiddiy buzgan holda yoki noqonuniy uslublar bilan, shu jumladan, jinoyat protsessi ishtirokchilari yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish, psixologik va jismoniy tazyiq va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoxud qadr-qimmatni kamsituvchi muomala turlarini ko‘llagan holda; gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining himoyaga bo‘lgan huquqini, shuningdek, tarjimon xizmatidan foydalanish huquqini buzgan holda; jinoyat protsessida ishtirok etayotgan shaxsga huquq va majburiyatlarini tushuntirmaslik oqibatida uni chalg‘itgan holda, mazkur jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritishni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lmagan shaxs tomonidan protsessual harakatlarni o‘tkazish oqibatida, noma’lum manbadan yoxud jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritish jarayonida

[1] «O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi», https://lex.uz.

aniqlash mumkin bo‘lmagan manbadan, dastlabki tergov jarayonida jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining sudda mavjud dalillar majmui bilan o‘z tasdig‘ini topmagan ko‘rsatuvlaridan, mavjud dalillar majmui bilan tasdiqlangan hollardan tashqari, jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining taxmin, faraz yoki mish-mishlarga asoslangan ko‘rsatuvlaridan olingan hamda tegishli ravishda yuridik kuchga ega bo‘lmagan ma’lumotlardan jinoyat ishlari bo‘yicha dalil sifatida foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi ko‘zda tutilib, mazkur Farmon asosida jinoyat-protsessual kodeksi normalariga qo‘shimchalar kiritildi.

Davlatimiz raxbari tashabbuslari bilan 2018-yilda 24-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24-sonli “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘grisida”gi[1] Qarori qabul qilindi. Jumladan, ushbu Qaror bilan, agarda dalillar O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida nazarda tutilgan talablar buzilgan holda to‘plangan bo‘lsa, dalilning maqbul emas deb topilishiga asos bo‘lishi to‘g‘risida rahbariy tushuntirish berildi.

Shunga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yilda 10-avgustdagi №6041-sonli “Sud tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ximoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora tadbirlari to‘grisida”gi Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmon bilan tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari tomonidan shaxsni g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etishga undash va bunday undash oqibatida sodir etilgan jinoyat uchun uni ayblash ta’qiqlanishi belgilandi. Mazkur Farmon asosida O‘zbekiston Respublikasining 2021-yildagi 18-fevraldagi O‘RQ-675-son Qonuniga muvofiq JPKning 81-88-moddalariga qo‘shimcha ravishda bandlar kiritildi.

Mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarining eng muhim kafolati sifatida 2023-yil 30-aprelda Umumxalq Referundimi asosida O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

[1] «O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi», https://lex.uz.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 31-moddasida “har kim yozishmalari, telefon orkali so‘zlashuvlari, pochta, elektron va boshka xabarlarni sir saqlanishi huquqiga ega” ekanligi, ushbu huquqni cheklanishiga fakat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yilishi belgilab qo‘yildi. Shunga ko‘ra Konstitutsiyaning 16-moddasidan kelib chiqib, 2023-yil 1-maydan boshlab “Tezkor qidiruv faoliyati to‘grisida”gi Qonunning 14-moddasida nazarda tutilgan shaxsning erkinliklari va shaxsiy daxlsizligi bilan bog‘lik bo‘lgan tezkor qidiruv tadbirlari faqatgina sudning qarori asosida o‘tkazilishi belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tezkor-qidiruv faoliyatining huquqiy asosi hisoblanadi. Konstitutsiya normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi haqidagi konstitutsiyaviy qoida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishga bevosita aloqadordir. Chunki: birinchidan, jinoyat va jazoga oid siyosatning demokratizm va insonparvarlik ruhi singdirilgan, qonuniylikka qat’iy amal qilish bilan yo‘g‘rilgan tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar faoliyatining prinsiplari Konstitutsiya asosida shakllantiriladi;

ikkinchidan, u jamiyatni, shuningdek fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga qaratilgan asosiy qoidalarni tartibga soladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari va fuqarolar qonuniylikka rioya etishlari, jamiyat manfaatlari, fuqarolarning huquq va erkinliklari qo‘riqlanishini ta’minlashlari shart. Mazkur qoidalarga davlat organlari, mansabdor shaxslar, shuningdek fuqarolarning jamiyat va uning a’zolari manfaatlarini qo‘riqlashga xizmat qiluvchi konstitutsiyaviy majburiyatlari sifatida qarash lozim. Ushbu qoidalar tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar va ularning mansabdor shaxslariga ham taalluqlidir.

Konstitutsiyaning 19-moddasida barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, teng ekanliklari belgilab qo‘yilgan. Konstitutsiyaning 25-35-

moddalarida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsiy huquq va erkinliklariga rioya etilishi kafolatlangan. Shubhasiz, ushbu qoidalar davlat organlari, jumladan, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar faoliyatida ham qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda “Tezkor qidiruv faoliyati to‘grisida”gi Qonundan tashqari jinoyat-protsessual kodeksi ham tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy qoidalarini belgilovchi qonunchilik hujjatlari hisoblanadi.

Jinoyat-protsessual kodeksida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish vakolati berilgan organlarga tergovga qadar tekshiruv organlari maqomi berilganligi qayd qilingan.

Jumladan, JPKning[1] 39^1-moddasi 2-qismiga ko‘ra “Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar” zimmasiga zarur choralar ko‘rish vazifasi, shu jumladan jinoyat alomatlarini va jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, ushbu Kodeksning qoidalariga muvofiq tekshirib chiqilganidan so‘ng jinoyat ishi yuzasidan dalil tariqasida foydalanish mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy-texnika vositalaridan foydalangan holda, zarur choralar ko‘rish vazifasi yuklatiladi. Ichki ishlar, Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, Bojxona xizmati organlari shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi hamda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va ularning joylardagi bo‘linmalari shu maqsadda tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishga haqli ekanligi belgilab qo‘yilgan.

“Tezkor-qidiruv faoliyati to‘grisida”gi Qonunning 15-moddasida tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish uchun asoslar keltirib o‘tilgan bo‘lib, bu belgilar bo‘lmaganida tezkor-qidiruv faoliyati amalga oshirilishi mumkin emas.

Jinoyat-protsessual kodeksi jinoyatni tergov qilishda tergovchi va tezkor xodimning hamkorlik qilish tartibi, dastlabki tergov o‘tkazilishi shart bo‘lgan jinoyatlar ro‘yxati, jinoyat ishi bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar, dalillarni to‘plash, tekshirish, baholash usullarini belgilab

[1] O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (2022-yil 1-iyungacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan) –T., 2022 y.– 488 b. https://lex.uz/acts/111460.

beradi.

“Tezkor qidiruv faoliyati to‘grisida”gi Qonunning 17-moddasida tezkor-qidiruv faoliyatida bir qator cheklovlar o‘rnatilgan bo‘lib, shulardan biri tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tomonidan fuqarolarni huquqbuzarliklar sodir etishga og‘dirish va undash ta’qiqlangan edi.

Qonunchilikka kiritilgan qo‘shimchaga muvofiq JPKning 81-moddasi 3-qismida agar tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalari faqat qonun talablariga muvofiq olingan bo‘lsa, ushbu kodeks normalariga muvofiq tekshirilgan va baholanganidan keyin, hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining yoki tezkor-qidiruv tadbirida ishtirok etgan boshqa shaxslarning harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan holda shaxsda jinoyat sodir etish uchun shakllangan qasd mavjud bo‘lganligidan dalolat bersa, ushbu natijalar dalil sifatida tan olinishi mumkinligi va JPKning 88-moddasi 2-kismi 4-bandida esa isbot kilishda shaxsni g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etishga undash va bunday undash oqibatida sodir etilgan jinoyat uchun uni ayblash ta’qiqlab qo‘yildi.

Qonunning bu talabi tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar xodimlari tomonidan tezkor qidiruv tadbirlari obyektini nafaqat jinoyat, balki boshqa g‘ayriqonuniy harakatlar (huquqbuzarliklar)ga og‘dirish va undash ham man etiladi.

Masalan, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar xodimlari yoki tezkor qidiruv tadbirida ishtirok etayotgan boshqa shaxslar tezkor qidiruv tadbiri obyekti bo‘lgan shaxsda ma’lum bir jinoyatni sodir etish uchun shakllangan qasd mavjud bo‘lmagan holda, u g‘ayriqonuniy harakatlar sodir qilishga og‘diriladi va buning natijasida u shaxs jinoyat sodir qiladi.

Tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishda tadbir obyekti xatti-harakatini tanlash imkoniga ega bo‘lmaydigan sharoitlar yaratilishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Agar shaxsda jinoyat sodir etish niyati bo‘lmasa, uni jinoiy harakatlarga undash yoki boshqa shaxsni keyinchalik fosh etish maqsadida uni muayyan jinoyatga jalb qilishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Buning ma’nosi shuki, jinoyat sodir etish tashabbusi tezkor-qidiruv faoliyatini

amalga oshiruvchi organlar xodimlaridan yoki ularga ko‘maklashuvchi shaxslardan emas, balki faqat tezkor-qidiruv tadbiri obyektidan kelib chiqishi lozim.

Agarda shaxsda jinoyat sodir qilish niyati bo‘lmasdan, u jinoyat sodir qilishga undalgan yoki og‘dirilgan bo‘lsa, bunday holatda shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Chunki, bunday tarzda dalil to‘plash Konstitutsiyaning 29-moddasi, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 17-moddasi, JPKning 81, 88-moddalariga zid ravishda amalga oshirilgan hisoblanib, JPKning 95^1-moddasiga qo‘ra nomaqbul dalil hisoblanadi.

Binobarin, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 29-moddasida qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog‘ida foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilab qo‘yilgan.

Hozirda amal qilayotgan qonunlar hayotimizning huquqiy asosini tashkil etadi hamda kuchli huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qiladi desak mubolog‘a bo‘lmaydi.

EKOLOGIK MIGRANTLARNING XALQARO HAMDA MILLIY HUQUQIY TAHLILI

Nurullayev Farrux Umidjonovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va inson huquqlari
kafedrasi o‘qituvchisi

Insoniyatning ekologiyaga ta’siridan tashqari, tabiiy ekologik hodisalar ham insoniyat turmush-tarziga ta’sir qilmay qolmaydi. Bu tabiiy o‘zgarish va balki ofatlar aholi migratsiyasini ham keltirib chiqaradi. Bunday jarayon ishtirokchilari ekologik migrantlardir. Ekologik migratsiya tushunchasi tabiiy ofatlar, iqlim o‘zgarishlari, atrof-muhitning ifloslanishi va boshqa ekologik sabablarga ko‘ra odamlarning harakatini anglatadi. Uning paydo bo‘lish tarixi tabiiy ofatlar sonining ko‘payishi, iqlim o‘zgarishi va inson hayotiga ta'sir ko‘rsatadigan boshqa ekologik omillar bilan bog‘liq. Ekologik migratsiyaning birinchi holatlari qadimgi

davrlarda, toshqinlar, qurg‘oqchilik, vulqon otilishi va boshqalar kabi tabiiy ofatlar tufayli odamlar o‘z yashash joylarini tark etishga majbur bo‘lganlarida qayd etilgan. Biroq, aholi sonining ko‘payishi va sanoatning rivojlanishi bilan ekologik migratsiya muammolari yanada keskin va dolzarb bo‘lib bordi.

Ekologik migrantlar – mahalliy yoki mintaqaviy muhitning tubdan yoki uzoq vaqtga o‘zgarishi sababli o‘z yashab turgan hududini tark etishga majbur bo‘lgan shaxslardir [1]. Ushbu o‘zgarishlar ular hayotining farovonligi yoki yashash tarzini xavfga qo‘yadi va bu o‘zgarishlar qurg‘oqchilikning kuchayishi, cho‘llanish, dengiz sathining ko‘tarilishi va mavsumiy ob-havoning buzilishi hamda mussonlar kabilarni qamrab oladi.

Ekologik muammolar sabab qochganlarning asosiy qismi yaqin masofalarga va odatda qisqa muddatga, ma’lum vaqtga ko‘chib ketishadi. “Ekologik qochqin” [2] atamasi Lester Braun (1976) tomonidan ilk bor taklif qilingan. Xalqaro migratsiya tashkiloti esa ekologik migrantlar uchun quyidagi ta’rifni taklif qiladi: “Atrof-muhit migrantlari — bu ularning hayotiga va turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan, tabiatning to‘satdan o‘zgarishi oqibatida uzrli sabablarga ko‘ra doimiy yashash joylarini tashlab ketishga majbur bo‘lgan yoki vaqtincha balki doimiy tarzda shunday qilishni tanlagan shaxslar guruhlari hisoblanadi”. “Iqlim migrantlari — bu iqlim o‘zgarishining uchta ta’siridan kamida bittasi bilan bog‘liq tabiiy muhitning to‘satdan yohud sekin o‘zgarishi oqibatida ko‘chishga majbur bo‘lgan ekologik migrantlar [3]. Uchta ta’sir deganda dengiz sathining ko‘tarilishi, ekstrimal ob-havo hodisalari, qurg‘oqchilik va suv tanqisligi nazarda tutiladi”. Iqlim o‘zgarishi ichki migratsiyani harakatga keltiruvchi buyuk kuch hisoblanib, u aholining daromad manbalariga mustahkam bog‘liq va uning ta’siri eng ko‘proq seziladigan hududlarda aholining hayot sifatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. BMT muntazam ravishda iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hisobotlarni nashr etadi [4], shuningdek, dunyoda sodir bo‘layotgan jarayonlar haqida ma’lumotlar berib boradi. Iqlimshunoslarning fikriga ko‘ra, so‘nggi 200 yil ichida sodir bo‘lgan deyarli barcha global isishning asosiy sababchisi odamlardir [5].

Xalqaro atrof-muhit huquqini o‘rganar ekanmiz – xalqaro standartlardagi ekologik qonunlar, prinsiplar va xalqaro huquqiy normalarni tartibga solib, tabiatni muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash, turli xil manbalardan tabiatga zararlarning oldini olish, dunyo xalqlariga, Yerdagi kelajak avlod manfaatlarini hisobga olib, qulay tabiiy sharoit va yuksak tabiatni ta’minlab berishga qaratilgan normalar majmui ushbu xalqaro atrof-muhit huquqini tashkil qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonning e’tiborini ko‘proq Orol dengizini emas, balki uning atroflarida yashovchi odamlarni, shu bilan birga, mavjud eko-tizimlarni saqlab turishga qaratmoqda. Negaki birdan bir yechim endi uni tiklashdan ko‘ra, bu yerni yon atrofga salbiy ta’sirini kamaytirgan afzalroq. Aksincha holat kuzatilsa, ushbu masala bundanda kattaroq muammolarga olib keladi. Iqlim tez-tez o‘zgarib turgan vaqtda dengizning holati tobora og‘irlashmoqda [6]. Ushbu vaziyat faqatgina bitta davlatning muammosi emas, balki, bugungi kunning jahon miqyosidagi muammosidir. Ushbu masala doirasida, 2021-yil 18-may sanasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida Orolbo‘yi mintaqalarini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e’lon qilish to‘g‘risidagi rezolyutsiya ovoz berishsiz joriy qilindi. Unda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirzoyiyev nutq so‘zladi, hamda o‘z nutqida ekologik muammolarning yechimini topish (Orol bo‘yi mintaqasini rivojlantirish, sanoatda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, energiya resurslaridan oqilona foydalanish, Orol dengizi qurishining oldini olish) muammolarini ham nazarda tutdi.

Boshqalar qatorida Orolbo‘yida tabiatni imkon qadar sog‘lomlashtirish hamda tabiiy yaxshilanishiga ko‘maklashish, tabiiy boyliklarni asrash va aholi yashashi sifat darajasini yaxshilashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot va ilmiy maslahat faoliyatini, a’zo davlatlar, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimining fondlari, dasturlari va agentliklari, xalqaro moliya institutlari (XMT) hamda boshqa tomonlar Orolbo‘yi mintaqasida qo‘shma fanlararo tadqiqotlar va ilmiy-innovatsion hamkorlikni amalga oshirish uchun, Orol dengizi inqirozi oqibatlarini bartaraf etish va

Orolbo‘yida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, yanada cho‘llanishning oldini olish va salbiy ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni yumshatish bo‘yicha qo‘shma harakatlarni amalga oshirishda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashni, 2030-yilgacha barqaror rivojlanish kun tartibining 17.7-maqsadiga muvofiq ekologik xavfsiz texnologiyalarni, barqaror, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o‘sishni, energiyani hamda suv sarfini tejaydigan texnologiyalar ishlab chiqishni va joriy etishni rag‘batlantirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil avgustida Orolni saqlab qolish xalqaro jamg‘armasini tashkil qiluvchi davlatlari rahbarlarining majlisida birinchi marta Orol dengizini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e’lon qilish tashabbusi bilan chiqildi. U mazkur qaror hudud sa’y-harakatlarini birlashtirish hamda ekologik toza texnologiyalar, energiya va suvni tejovchi texnologiyalarga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish uchun shart-sharoit yaratish, qurg‘oqchilikning ortishi va ekologik migratsiyaning oldini olish, ekoturizmni rivojlantirish va boshqa ko‘maklashishini ta’kidladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, **birinchidan,** ekologik migratsiyaning xalqaro huquqiy tartibga soluvchi alohida xarakterdagi huquqiy hujjatni ishlab chiqish lozim. Bunda ekologik migratsiya hamda ekologik migrantlarning huquqiy statusi belgilanishi alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, ekologik migrantlarning ijtimoiy huquqlarini aniq belgilash hamda bunday huquqlarni xalqaro standart sifatida tan olinishi – inson huquqlarini muayyan jihatdan xalqaro huquqiy ta’minlanishiga ulkan hissa qo‘shadi.

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-790-son Qonuni aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu qonunning 4-bobida fuqarolarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi huquq va majburiyatlari belgilangan bo‘lib, uning 16-moddasida fuqarolarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza

qilish sohasidagi huquqlari keltirilgan. Ushbu moddani quyidagi tartibda qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish taklif qilinadi. Bunda favqulodda vaziyatlarda, ya’ni ekologik kollaps yuz berganda, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish huquqini ta’minlash berilishi nazarda tutiladi. Bunda fuqaro ekologik zarar tufayli ikkinchi joyga ko‘chganda, uy-joy bilan ta’minlanishi belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулова И. Т. и др. Трансграничные миграции и принимающее общество: механизмы и практики взаимной адаптации. – Издательство Уральского университета, 2009.
2. Что такое изменение климата? https://www.un.org/ru/climatechange/what-is-climate-change
3. Climate Change 2021: Summary for All https://www.ipcc.ch/report/ar6/wg1/downloads/outreach/IPCC_AR6_WGI_SummaryForAll.pdf
4. Askar o‘g‘li A. M. Davlatning ekologik funksiyasini amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklikning roli va ahamiyati //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – S. 85-103.
5. Brown, L., Mcgrath, P., and Stokes, B., (1976). Twenty two dimensions of the population problem, Worldwatch 5-b., https://www.glogov.org/?pageid=80 (elektron resurs: 13.05.2024 y.)
6. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida nutq so‘zladi, https://strategy.uz/index.php?news=1083&lang=uz – 23-09-2020.
7. The 1951 Refugee Convention, https://www.unhcr.org/about-unhcr/who-we-are/1951-refugee-convention
8. The 1967 Protocol relating to the status of refugees, https://www.unhcr.org/ph/wp-content/uploads/sites/28/2017/03/3.3-1967-Protocol-relating-to-the-status-of-refugees.pdf

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ЗАЩИТЫ ЖЕРТВ ТОРГОВЛИ ЛЮДЬМИ

Есемуратов Алишер Избасарович,
старший преподаватель Правоохранительной Академии Республики Узбекистан

Сегодня одним из наиболее серьезных проблем для всего мира является торговля людьми, в том числе и для Республики Узбекистана. Ежегодно тысячи людей преимущественно, женщины и дети, становятся жертвами торговли людьми. На сегодняшний день все показатели свидетельствуют о росте числа жертв торговли людьми. В связи с этим данная проблема привлекает к себе внимание всех стран мира, так как торговля людьми представляет угрозу фундаментальным правам человека и ценностям демократического общества.

Торговля людьми с попавшими в ее ловушку жертвами, представляет собой современную форму всемирной работорговли, в котором человек становится лишь предметом купли-продажи, его заставляют принудительно трудится, как правило, в секс индустрии, сельскохозяйственном производстве, на иных тяжелых легальных и нелегальных работах, за мизерную оплату или просто даром. Большинство выявленных жертв торговли составляют женщины, однако мужчины также могут стать жертвами торговли людьми. Кроме того, многие жертвы – это молодые люди, а зачастую и дети.

Комплексностью проблемы торговли людьми, многообразием форм и способов ее совершения обусловлена возможность ее рассмотрения с позиций транснациональной организованной преступности, рабства, сексуальной эксплуатации, принудительного труда, незаконной миграции и т. д. Можно выделить два подхода к определению сущности торговли людьми. В национальном законодательстве большинства государств, а до недавнего времени и в международном праве торговля людьми рассматривалась исключительно как преступление, что влекло репрессивный подход к

противодействию. Только в последние годы обозначился более широкий подход к торговле людьми — как к нарушению прав человека (во время совершения самого преступления и впоследствии). Оба эти подхода не являются взаимоисключающими, но тяготение к тому или иному предопределяет содержание стратегий противодействия и выстраивание институциональной системы. Если раньше ввиду глобализационной тенденции увеличения миграционных потоков, особенно нелегальной их составляющей, и в отношении жертв торговли людьми превалировала карательная иммиграционная политика, то теперь в международном праве устанавливается новая тенденция — применение правозащитного подхода к пониманию противодействия торговле людьми, учитывающего гендерные и возрастные аспекты защиты жертв.

Что касается международно-правовых основ защиты жертв торговли людьми, то оно стало формироваться в начале XX века, когда стало возникать осознание необходимости защиты жертв, наряду с криминализацией и пенализацией деяния. Еще при подготовке первых международных соглашений о борьбе с торговлей белыми рабынями в начале XX в. ставился вопрос защиты жертв торговли людьми. Здесь можно вспомнить вывод В. Ф. Дерюжинского, сделанный по итогам Парижской конференции 1902 г. о том, что для эффективного противодействия торговле людьми принятия одних только репрессивных мер недостаточно, требуется «также обеспечить своевременную и действительную защиту жертв этого промысла»[1].

Де-юре в международном праве трех-аспектный подход, включающий предупреждение рассматриваемого преступления, наказание виновных и защиту жертв, окончательно оформился с принятием Протокола о предупреждении и пресечении торговли людьми, особенно женщинами и детьми, и наказании за нее, дополняющего Конвенцию ООН против транснациональной

[1] Дерюжинский В. Ф. Международная борьба с торговлей женщинами // Журнал Министерства юстиции. 1902. № 7—8. С. 204.

организованной преступности, 2000 г. (далее - Палермский протокол)[1].

Почему же тогда в настоящее время мы можем говорить пока только о формировании правозащитного подхода? Дело в том, что в Палермском протоколе, установившем обязательство криминализовать торговлю людьми и предусмотревшем ряд мер, способствующих осуществлению международного сотрудничества государств в данной сфере, значительно меньше внимания уделено защите прав жертв торговли людьми. Положения Протокола о защите жертв оставляют на усмотрение самих государств решение вопроса о целесообразности принятия соответствующих внутригосударственных мер. Подтверждением служат формулировки ст. 6 «Помощь жертвам торговли людьми и их защита» Палермского протокола:

«В надлежащих случаях и в той мере, в какой это возможно согласно его внутреннему законодательству, каждое Государство-участник обеспечивает защиту личной жизни и личности жертв торговли людьми...»;

«Каждое Государство-участник рассматривает возможность реализации мер по обеспечению физической, психологической и социальной реабилитации жертв торговли людьми...»;

«Каждое Государство-участник стремится обеспечивать физическую безопасность жертв торговли людьми в период нахождения таких жертв на его территории»[2].

В результате имплементация норм Палермского протокола в национальное законодательство государств *(вступил в силу для Республики Узбекистан 11 сентября 2008 года)* осуществляется в большинстве случаев фрагментарно. Так, к моменту вступления в силу данного международного договора торговля людьми считалась

[1]Протокол о предупреждении и пресечении торговли людьми, особенно женщинами и детьми, и наказании за нее, дополняющий Конвенцию Организации Объединенных Наций против транснациональной организованной преступности. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/protocol1.shtml

[2] Протокол о предупреждении и пресечении торговли людьми, особенно женщинами и детьми, и наказании за нее, дополняющий Конвенцию Организации Объединенных Наций против транснациональной организованной преступности. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/protocol1.shtml

преступлением по законодательству менее половины стран мира, а по истечении 10 лет после его принятия таких государств стало более 90%[1]. В то же время столь положительной динамики не наблюдается в отношении норм о защите прав жертв. Во многих странах по-прежнему нет ни специального законодательства о защите прав жертв, ни даже законодательного закрепления понятия «жертва торговли людьми».

Конвенция Совета Европы 2005 г., как и Палермский протокол, не исключает возможности признания жертвы торговли людьми беженцем «согласно международному праву, включая международное гуманитарное право и международное право в области прав человека и, в частности, когда это применимо, Конвенцию 1951 года и Протокол 1967 года, касающиеся статуса беженцев» (ст. 14 Протокола и ст. 40 Конвенции)[2]. Так, например, статус беженца был предоставлен жертве торговли людьми из Нигерии, не согласной с решением о выдворении из Великобритании[3].

В Содружестве Независимых Государств в 2008 г. разработаны и приняты модельные законы «О противодействии торговле людьми» и «Об оказании помощи жертвам торговли людьми».

Что касается вопросов предупреждения и защиты жертв торговли людьми Республикой Узбекистан, то следует отметить, что проблема торговли людьми угрожает национальной безопасности государства, его развитию, выводит из строя экономические основы, наносит серьёзный вред правам и интересам человека. Борьба с торговлей людьми в Республике Узбекистан остаётся одним из приоритетных направлений государственной политики.

---

[1] United Nations Office on Drugs andCrime Executive Director Yury Fedotov: Message on World Day against Trafficking in Persons, 30 July 2014. URL: http://www.unodc.org/endht/en/ statements.html

[2] См. также: доклад Управления Верховного комиссара ООН по делам беженцев HCR/GIP/06/07 от 7 апреля 2006 г. Рекомендации по международной защите № 7: Применение статьи 1a(2) Конвенции 1951 г. и/или Протокола 1967 г., касающихся статуса беженцев, к жертвам торговли людьми и лицам, которые подвергаются риску стать жертвами торговли людьми. URL: http://www.unhcr.org/443b626b2.html

[3] Постановление ЕСПЧ от 18 февраля 2014 г. по делу «O. G.O. противСоединенногоКоролевства» (жалоба№ 13950/12).

Анализ правовых основ защиты жертв торговли людьми в Республике Узбекистан позволил разделить правовые основы на следующие две группы: на международно-правовые основы и на национально-правовые основы.

Международно-правовые основы в свою очередь можно подразделить на следующие виды универсальные, региональные и двусторонние международно-правовые основы.

На сегодняшний день **Республика Узбекистан** в целях координации своих действий в сфере борьбы с торговлей людьми **ратифицировала следующие 10 универсальных международных документов:** Конвенция против транснациональной организованной преступности; Протокол о предупреждении и пресечении торговли людьми, особенно женщинами и детьми, и наказании за нее; Конвенция МОТ №29 о принудительном или обязательном труде; Конвенция МОТ №105 об упразднении принудительного труда; Конвенция о гражданских аспектах международного похищения детей; Конвенция МОТ №182 о запрещении и немедленных мерах по искоренению наихудших форм детского труда; Конвенция о борьбе с торговлей людьми и с эксплуатацией проституции третьими лицами; Факультативный протокол к Конвенции о правах ребенка, касающийся торговли людьми, детской проституции и детской порнографии (Нью-Йорк, 25 мая 2000 года); Конвенция МОТ №144 о трехсторонних консультациях для содействия применению международных трудовых норм (Женева, 21 июня 1976 года); Протокол к Конвенции МОТ №29 Международной организации труда 1930 о принудительном труде (Женева, 11 июня 2014 года).

Вторую группу международно-правовых основ ***в сфере борьбы с торговлей людьми*** Республики Узбекистан составляет международные документы принятые ***на региональном уровне, среди которых можно отметить следующие важные международно-правовые документы:*** Соглашение о сотрудничестве в области трудовой миграции и социальной защиты трудящихся-мигрантов и

протокол к нему (Москва, 15 апреля 1994 года); Соглашение о сотрудничестве государств-участников Содружества Независимых Государств в борьбе с незаконной миграцией (Москва, 6 марта 1998 года); Конвенция о борьбе с терроризмом, сепаратизмом и экстремизмом (Шанхайская Конвенция, Шанхай, 15 июня 2001 года); Соглашение о сотрудничестве государств – участников содружества независимых государств в борьбе с торговлей людьми, органами и тканями человека (Москва, 25 ноября 2005 года); Соглашение о сотрудничестве государств – участников содружества независимых государств в борьбе с торговлей людьми, органами и тканями человека (Москва, 25 ноября 2005 года); Соглашение о сотрудничестве государств-участников Содружества Независимых Государств в борьбе с незаконной миграцией (Москва, 6 марта 1998 года); Конвенция о правовой помощи и правовых отношениях по гражданским, семейным и уголовным делам (Минск, 22 января 1993 года).

Третью группу ***международно-правовых основ в сфере борьбы с торговлей людьми*** Республики Узбекистан составляет международно-правовые документы и межведомственные соглашения, принятые на двухстороннем уровне, со следующими странами Азербайджан, Афганистан, Грузия, ОАЭ, Пакистан, Российская Федерация, КНР, Казахстан, Кыргыстан, Республика Корея, Латвия, Литва, Турция и Турменистан.

Что касается национально-правовых основ борьбы с торговлей людьми то следует, отметить что в Узбекистан в целях предупреждения преступлений торговли людьми, защиты жертв, устранения последствий данных преступлений разработаны и приняты ряд законодательных и нормативно-правовых актов.

Одним из важных национально-правовых основ борьбы с торговлей людьми является Закон Республики Узбекистан «О противодействии торговле людьми» от 17 август 2020 года в новой редакции. Закон вводит новые понятия, такие как «жертва торговли людьми», «лицо, подозреваемое в том, что стало жертвой торговли

людьми», «идентификация жертв торговли людьми», и определяет их права. В соответствии с этим жертва торговли людьми или лицо, подозреваемое в ее принадлежности, имеет право на временное убежище, медицинскую, психологическую, юридическую помощь и другую необходимую помощь, включая практическую помощь в возвращении в страну происхождения или государство постоянное место жительства[1].

Кроме этого в соответствии с данным Законом, идентификация жертв торговли людьми осуществляется в два этапа. **При первичной идентификации** получаются, изучаются и оцениваются сведения для принятия решения о признании лица предполагаемой жертвой торговли людьми. **При окончательной** - принимаются решения о признании или отказе в признании лица жертвой торговли людьми.

Лицо признается предполагаемой жертвой по результатам первичной идентификации в срок не более пяти суток с момента обращения в компетентные госорганы.

Предполагаемая жертва имеет право на временный кров, медицинскую, психологическую, правовую и другую необходимую помощь, а также на услуги бесплатного переводчика. Предполагаемой жертве дается не менее 30 суток для физического и психологического восстановления и принятия решения о сотрудничестве с правоохранительными органами в связи с совершенным в отношении нее преступлением.

Лицо признается жертвой торговли людьми по результатам окончательной идентификации территориальной комиссией. Лицо, признанное жертвой торговли людьми, имеет право на социальную реабилитацию и адаптацию.

В новой Конституции страны гарантирован запрет на принудительный труд[2].

Необходимо отметить, что в пункте 5.1 приложение №1 проекта Указа Президента Республики Узбекистан О стратегии «Узбекистан-2030» предусмотрено совершенствование системы внешней трудовой

[1] Закон Республики Узбекистан «О противодействии торговле людьми» от 17 август 2020 года.....
[2] Конституция Республики Узбекистан 2023 год. https://lex.uz/docs/6445147

миграции, оказание всемерной помощи гражданам, работающим за рубежом, а также дальнейшее развитие международного сотрудничества в сфере противодействия незаконной трудовой миграции и торговле людьми[1].

В целях дальнейшего усиления гарантий защиты интересов несовершеннолетних внесены изменения и дополнения в Уголовный кодекс, Уголовно-процессуальный кодекс и Кодекс об административной ответственности Республики Узбекистан.

В результате виновные в использовании детского труда были привлечены к ответственности за свои первоначальные действия, а уголовная ответственность за использование детей для проституции, поощрение их к участию в незаконных общественных объединениях и их вовлечение в принудительный труд была увеличена.

Мы считаем, что все это будет способствовать дальнейшему согласованному подходу правоохранительных органов и органов государственного управления, тесному взаимодействию компетентных органов страны с международными организациями и соседними странами, которые обеспечат положительные результаты в вопросах защиты жертв торговли людьми.

INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA FUQAROLIK INSTITUTLARINING TUTGAN ROLI

Shomurotov Ma’ruf Abdusamat o‘g‘li
Bojxona qo‘mitasi Bojxona instituti
o‘qituvchisi

Dastavval, fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, fuqarolik jamiyati institutlari – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga xizmat qiladigan nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, oila, mahalla, ijtimoiy harakatlar va boshqa tuzilmalar majmuidir [1]. 2023-yil 1-maydan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobining “Fuqarolik

[1] Указ Президента Республики Узбекистан О стратегии «Узбекистан-2030». https://lex.uz/uz/docs/6600404

jamiyati institutlari” deb nomlanishi va konstitutsiyaviy institut darajasigacha ko‘tarilishi bu tashkilotlarning jamiyat hayotida qanchalik katta o‘rin egallashiga yana bir isbotdir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 69-moddasida “Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi”[2] deb belgilangan. Ushbu norma fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini bevosita tartibga soluvchi hamda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlariga doir qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirishga xizmat qilmoqda, shuningdek, bir qancha davlat funksiyalarini bosqichma-bosqich ushbu institutlarga yuklash natijasida ularning faolligini oshirishga turtki bo‘lmoqda[3].

Fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakat hayotidagi o‘rni va ahamiyati aholining turli ijtimoiy guruhlari manfaatlarini ifoda etishda, fuqarolar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishda, mamlakatda ro‘y berayotgan demokratik o‘zgarishlarning ko‘lamini kengaytirish va chuqurlashtirishda, davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borishning asosiy vositasi, butun jamiyat ahamiyatiga molik masalalarni hayotga tatbiq etishda davlatning teng huquqli ijtimoiy sherigi, hamkori sifatida namoyon bo‘ladi. “Sud binosiga kelgan har bir inson O‘zbekistonda adolat borligiga ishonib chiqib ketishi kerak” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida odil sudlovni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida yangragan bu ta’kid sohaga oid bugungi kunning barcha talablarini o‘zida mujassamlashtiradi[4].

Xususan, bir statistikaga nazar tashlaydigan bo‘lsak, joriy yilning o‘tgan 5 oyi davomida tergov organlari tomonidan asossiz ayb qo‘yilgan 323 nafar fuqaro sudlar tomonidan oqlanib, 1 ming 854 nafar shaxsga nisbatan qo‘yilgan asossiz ayblovlar olib tashlangan. O‘tgan yilning o‘zida

oqlangan 236 nafar shaxsga davlat hisobidan 6,7 milliard so‘mlik moddiy va ma’naviy zarar to‘lab berilgan. Islohotlarga salbiy ta’sir o‘tkazayotgan bu kabi holatlarni bartaraf etish maqsadida mamlakatda sud tizimida inson huquqlarini himoya qiladigan fuqarolik jamiyati institutlarini tashkil etish, ularga bu vazifalarni to‘liq va og‘ishmay bajarishlari uchun bugungi kun talabiga mos ravishda huquqlar berish fuqarolar va jamiyat uchun muhimdir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o‘zining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli asarida “Erkinlik va ochiq fuqarolik jamiyati” mavzusida fuqarolik jamiyati institutlariga to‘xtalib o‘tgan[5]. Xususan, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, mazkur institutlarning jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish kabi yuksak vazifalar ko‘rsatib o‘tilgan.

Bundan tashqari, 2021-yil 4-mart sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-mart kuni “2021—2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 6181-farmoni qabul qilinganligi ham bejiz emas.

BMT Inson huquqlari kengashining 2017-yilgi hisobot bo‘yicha fuqarolik jamiyati institutlari inson huquqlarini himoya qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish, kambag‘allikni qisqartirish, global ochlikning oldini olish kabi muammolarni hal etishda muhim vosita sifatida e’tirof etilgan. Chunki ijtimoiy muammolarni hal qilishda fuqarolik jamiyati institutlari katta salohiyatga ega.

Umuman olganda, fuqarolik institutlari adolatlilik, tenglik va javobgarlik tamoyillarini qo‘llab-quvvatlagan holda adolatli jamiyatning hal qiluvchi tayanchi bo‘lib xizmat qiladi. Ularning faoliyati huquqiy tizimning yaxlitligini ta’minlash va barcha uchun adolat madaniyatini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega. Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida adolatni ta’minlash va qonun ustuvorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydigan kuchli fuqarolik institutlari tashkil etilgan. Hozirgi kunda dunyoning eng demokratlashgan davlati deya etirof etiladigan AQSHni

oladigan bo‘lsak, bu davlatda ta’siri kuchli bo‘lgan fuqarolik insituti Amerika fuqarolik erkinliklari ittifoqi (ACLU) fuqarolar erkinliklari va huquqlarini himoya qilish va himoya qilish uchun ishlaydigan taniqli fuqarolik institutidir[6]. Amerika fuqarolik erkinliklari ittifoqi (ACLU) Amerika Qo‘shma Shtatlarida joylashgan notijorat tashkilot bo‘lib, AQSh Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilish va saqlash uchun ishlaydi.

Fuqarolik institutlarining jamiyatning har bir sohasida inson huquqlarini amalga oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynashi uchun ular quydagi sohalarga ham alohida e’tibor qaratishi lozim:

1.Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni milliy darajada baholash natijalari bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi loyihasini muhokama qilishga xalqaro ekspertlarni, davlat organlarini va fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etish;

2.Odil sudlovdan foydalanish imkoniyati: Fuqarolik institutlari ijtimoiy-iqtisodiy mavqeidan qat’i nazar, har bir insonning qonuniy vakilli va yordam olish imkoniyatini ta’minlash uchun ishlashi hamda adolat hamma uchun har yerda mavjud bo‘lishini ta’minlash;

3.Ilg‘or tajribalarni chuqurlashtirish maqsadida repatriatsiya (shaxsni o‘z Vataniga qaytarish) bo‘yicha davom etayotgan sa’y-harakatlarda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish;

4.Nizolarni hal qilish: Fuqarolik institutlari, jumladan, vositachilik va arbitraj xizmatlari, jismoniy shaxslar va jamoalarga nizo va nizolarni an’anaviy sud tartibidan tashqarida hal qilishda yordam berish;

5.Targ‘ibot va ta’lim: Fuqarolik institutlari huquqiy islohotlarni ilgari surish va aholini o‘zlarining qonuniy huquq va majburiyatlari to‘g‘risida tushuntirish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlari bilan shug‘ullanish;

Umumlashtirib aytganda, amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar samaradorligiga erishish nafaqat davlat organlari, balki nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan ham faollik, tashabbuskorlikni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Matyaqubov X. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent. 2021. – 75-b.

2.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.Rasmiy nashr.-Toshkent: “O‘zbekiston”nashriyoti,2023. –26-bet

3.Asatov A. “Fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakat taraqqiyotidagi roli”. Huquq va burch jurnali.2023-yil 11-son.

4. https://www.uzreport.news. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 30 iyun kuni odil sudlovni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi.

5.Asatov A. “Fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakat taraqqiyotidagi roli”. Huquq va burch jurnali.2023-yil 11-son.

6.www.aclu.org

O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM OLISH HUQUQINI TA’MINLASH: UMUMIY KO‘RINISH

Sharapov Shuxrat Shokirovich
O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo‘yicha
Milliy markazning mustaqil izlanuvchisi

Oliy ta’lim milliy va shaxs taraqqiyotining asosiy tayanchi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonda oliy ma’lumot olish huquqi ham konstitutsiyaviy kafolat, ham mamlakat taraqqiyot strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu maqola bu huquqni ta’minlash bilan bog‘liq mexanizmlar, siyosat va muammolarni o‘rganib, so‘nggi islohotlar, hukumat tashabbuslari va xalqaro standartlarni mahalliy ta’lim tizimiga integratsiyalashuviga e’tibor qaratadi.

Tarixiy kontekst va hozirgi manzara

O‘zbekistonda oliy ta’limning rivojlanishini Sovet Ittifoqi davridan kuzatish mumkin, bunda Sovet Ittifoqining sanoat ehtiyojlarini qondirish uchun birinchi navbatda texnik va kasb-hunar ta’limiga e’tibor qaratilgan edi. Mustaqillikka erishgandan so‘ng O‘zbekiston ta’lim tizimini jahon standartlari va rivojlanish maqsadlariga muvofiqlashtirish uchun tubdan isloh qilish yo‘lini boshladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda “Oliy

ma’lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta’lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi.” [1]

Konstitutsiyaviy va huquqiy asos

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 50-moddasida har bir fuqaroning ta’lim olish huquqi kafolatlangan. 51-moddasida fuqarolarning davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olish huquqi belgilangan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va o‘nlab qonun osti aktlari oliy ta’limning huquqiy asoslarini belgilab beradi. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” Strategiyasining 7-, 8- maqsadlari oliy ta’limga bag‘ishlangan.

Ushbu hujjatlar oliy ta’lim olish imkoniyatini ta’minlashda davlatning rolini belgilab, muassasalar, pedagoglar va talabalarning ham mas’uliyati, ham huquqlarini belgilab beradi

Hukumat tashabbuslari va siyosati

O‘zbekistonda so‘nggi yillar davomida Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi sanalmish Taraqqiyot strategiyasi doirasida, rivojlangan davlatlar kabi uzluksiz ta’lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta’lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo‘yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi. [2]

Bundan tashqari O‘zbekiston hukumati oliy ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va uning sifatini oshirishga qaratilgan ko‘plab tashabbuslarni ilgari surdi. Asosiy tashabbuslardan ba’zilari quyidagilardan iborat:

Oliy ta’lim muassasalarini (OTM) ko‘paytirish: Hukumat geografik tafovutlarni kamaytirish va qishloq joylarda OTMlarga kirish imkoniyatlarini yaxshilash uchun butun mamlakat bo‘ylab OTMlar sonini ko‘paytirmoqda.

Davlat-xususiy sheriklikni (DXSh) joriy etish: Ta’lim sohasini diversifikatsiya qilish va o‘qitishning innovatsion uslublarini joriy qilish uchun hukumat O‘zbekistonda ham mahalliy, ham xalqaro xususiy

universitetlarning tashkil etilishiga olib kelgan DXShlarni rag‘batlantirmoqda.

O‘zbekistonda 2023 yilda 7 ta yangi oliy ta’lim muassasasi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan va ularning soni jami 213 taga yetgan. 213 ta OTMdan 116 tasi davlat, 67 tasi nodavlat, 30 tasi esa xorijiy oliy ta’lim muassasasi hisoblanadi.

Hozirda 213 ta oliygohda 1 mln 300 ming nafardan oshiq talaba tahsil olib, bu ko‘rsatkich orqali yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 2022 yilgi 38 foizdan 42 foizga oshgan.

2023/2024 o‘quv yili uchun 48 ta davlat oliy ta’lim muassasasining 20 ta xorijiy mamlakat bilan hamkorlikdagi qo‘shma ta’lim dasturlari ekspertizadan o‘tkazildi. Ijobiy xulosa berilgan 289 ta qo‘shma ta’lim dasturi uchun 6 818 ta kvota kelishib berilgan. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekistonda 1,3 million nafardan oshiq talaba tahsil olmoqda. [3]

Stipendiya dasturlari: Iqtidorli talabalarni nufuzli xorijiy muassasalarda oliy ta’lim olishda qo‘llab-quvvatlovchi turli stipendiya dasturlari joriy etildi. Jumladan, 2018 yil 25 sentabr. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5545-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” Farmoni qabul qilindi. 2022 yilda Jamg‘arma tomonidan xorijiy davlatlarning nufuzli ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan stipendiatlar 479 tani tashkil etgan.[4]

O‘quv dasturlari bo‘yicha islohotlar: Amalga oshirilayotgan islohotlar oliy ta’limning mamlakat mehnat bozorining joriy va istiqboldagi ehtiyojlariga mos kelishini ta’minlash uchun o‘quv dasturlarini yangilash va xalqarolashtirishga qaratilgan.

Oliy ta’limdan foydalanish va tenglik muammolari ham ijobiy hal qilinmoqda.

Jahon bankining 2018 yil 27 dekabrdagi O‘zbekiston Ta’lim sektori tahlili bo‘yicha yakuniy hisobotida 2016-yilda bakalavriat yo‘nalishlari bitiruvchilarining atigi 4,5 foizi mamlakatda magistratura bosqichida

o‘qishni davom ettirganligi ko‘rsatilgan.[5] Biroq Yangi O‘zbekistonda “Adolatli tanqid — kelajakning mevasi, undan chiqarilgan to‘g‘ri xulosa — bugunning mevasi” zaylida ish yuritilib bu sohadagi islohotlar yanada jadallashtirildi. Xususan, xuddi bakalavrdagi kabi ayrim abituriyentlarga beriladigan imtiyozlar magistraturada ham berildi. Qator toifadagi talabalar magistraturaga imtihonsiz grant asosida o‘qishga kiradi:

Prezidentning davlat stipendiyalari va nomli davlat stipendiyalari sovrindorlari;

Zulfiya nomidagi Davlat mukofotlari sohibalari;

“Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti sohiblari; fan olimpiadasi g‘oliblari;

Ta’lim vazirligi o‘tkazadigan fan olimpiadasi g‘oliblari (3 ta o‘rin)

Kimyo va biologiya, informatika va axborot texnologiyalari yo‘nalishini “qizil”ga bitirganlar "o‘z yo‘nalishiga" imtihonlarsiz to‘lov-kontrakt asosida qabul qilinmoqda.

Jahon bankining hisobotida “Oliy ta’lim olish imkoniyatiga ta’sir ko‘rsatadigan yana bir muammo erkaklarnikiga nisbatan ayollar sonining kamligidir. 2017/18 o‘quv yilida O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarning atigi 37 foizini (103 299 nafarini) ayollar tashkil etishi keltirilgan (YUNESKO 2018).” [5]

Ushbu kamchilikni ham bartaraf etish uchun hukumat qator islihotlarni amalga oshirmoqda. Xususan, 2019-yil 2-sentabrda “Ayollar va erkaklarning teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning 26-moddasida davlat ayollar va erkaklarning ta’lim olish huquqini ro‘yobga chiqarishi uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashi ko‘rsatilgan.

Bundan tashqari, 2022-2026-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning yangi strategiyasining 69 va 85-maqsadlari ayollarni qo‘llab-quvvatlash, gender tengligi, ayollarning ta’lim va kasbiy mahoratini oshirishga bag‘ishlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdagi 447- son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat oliy ta’lim muassasalarining magistratura bosqichiga to‘lov-kontrakt asosida qabul qilingan va ta’lim olayotgan xotin-qizlarning to‘lov-kontrakt summasini

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplab berish tartibi to‘g‘risida Nizom”ga asosan, 2022/2023-o‘quv yilidan boshlab davlat oliy ta’lim muassasalarining magistratura bosqichiga to‘lov-kontrakt asosida qabul qilingan va ta’lim olayotgan xotin-qizlarning o‘quv yili uchun to‘lov-kontraktning to‘liq summasini O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplab berish tartibi belgilangan.

O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi so‘nggi islohotlar ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ayni paytda mamlakatdagi ayollar huquqlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi gender tafovutlarini bartaraf etishga qaratilgan. Bu islohotlar hukumat tomonidan millatni modernizatsiya qilish va teng imkoniyatlarni ilgari surish maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning bir qismidir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda oliy ta’lim olish huquqi mustahkam qonunchilik bazasi va davlat tomonidan ta’lim olish va sifatni oshirishga qaratilgan qator tashabbuslar bilan quvvatlanadi. Muhim yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, tenglik, sifat va global ta’lim standartlariga moslashish kabi mavjud muammolarni hal qilish uchun doimiy harakatlar talab etiladi. Strategik sarmoyalar va islohotlar orqali O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirishi va shu orqali barcha fuqarolarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shishi va undan foyda olish imkoniyatini ta’minlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2020 yil 23-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni 11-modda

2. Ta’lim sohasidagi islohotlarni davom ettirish – ustuvor vazifa. Eldor Tulyakov, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi ijrochi direktori. 14 Apr. 2023 y. https://strategy.uz/index.php?news=1725&lang=uz

3. O‘zbekistondagi oliygohlar va ulardagi talabalar soni ma’lum qilindi. URL:https://kun.uz/news/2024/02/14/ozbekistondagi-otm-va-ularda-talim-olayotgan-talabalar-soni-malum-qilindi.

4. Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha «El-yurt umidi» jamg‘armasining faoliyati hamda 2023 yilgi 1-ochiq stipendiya tanlovi to‘g‘risida taqdimot. URL: https://eyuf.uz/admin/uploads/2023/03.04. _.pdf

5. Jahon bankining 2018 yil 27 dekabrdagi O‘zbekiston Ta’lim sektori tahlili bo‘yicha yakuniy hisoboti.51-bet.URL: https://documents1.worldbank.org/curated/en/379211551844192053/pdf/Uzbekistan-Education-Sector-Analysis.pdf

THE FEATURES OF THE FORMATION OF WOMEN'S POLITICAL RIGHTS IN UZBEKISTAN

Rakhmonova Sabrina
Doctoral student (PhD) of the National
Center for Human Rights of the Republic of Uzbekistan

The evolution of women's political rights in Uzbekistan is a multifaceted narrative, deeply intertwined with the nation's historical, cultural, and socio-political fabric. This article delves into the progression of these rights, examining the influence of legislative reforms, societal shifts, and the role of international advocacy in shaping the current state of women's political participation in Uzbekistan. Through this exploration, we aim to understand the complexities and challenges faced by women in the political arena and to highlight the ongoing efforts towards gender equality.

The journey towards women's political rights in Uzbekistan can be traced back to the early 20th century, under Soviet influence. The Soviet era introduced radical changes in the status of women, including the right to vote, access to education, and participation in the workforce. These reforms marked the beginning of women's political engagement in Uzbekistan, setting the stage for their future involvement in governance and public affairs. However, the transition from Soviet policies to an independent Uzbekistan in 1991 brought about new challenges and opportunities for women's political rights. The early years of independence

were marked by a resurgence of traditional values, which had both positive and negative implications for women's roles in society and politics.

Political ideas expressed within the women's movement should be considered starting no earlier than the 19th century. In earlier periods, such expressions of women's political will could be found, but they were rare. An example of such participation in the political life of Uzbek society can be served by the Hujum [1]. One vivid example was the "Hujum" [2] campaign, aimed at fighting for women's rights. At that time, women began to get education and professional training, which subsequently allowed them to occupy positions in various fields, including politics. In the 1970s, Yadgar Nasridinova was the second most important person in the country after Sharaf Rashidov, but due to political intrigues and the "Cotton Case," her political career was destroyed as rapidly as it had risen. During her student years, she held leadership positions at the construction sites of the Great Fergana Canal, the Kattakurgan Reservoir, and the Tashkent-Angren railway. Yadgar was the only woman in a leadership position of that time [3].

Despite this, in the early 1990s, the social status of women began to bsharply increase. In the process of national revival, alongside genuine national and human values, concepts that relegated women to a respected, yet subordinate role were revived. On March 2, 1995, following the Decree of the first President of the Republic "On Increasing the Role of Women in State and Social Construction of the Republic of Uzbekistan"[4] the country resumed the tradition of state protection, which began to support the social status of women. 1999 was declared the Year of Women, and a National Program to Strengthen the Role of Women in Society was adopted. This, of course, had a significant positive impact and halted the disintegration process of the country's women's movement [5].

Since independence, Uzbekistan has undertaken significant legislative reforms aimed at enhancing women's rights and representation in political life. The Constitution of Uzbekistan guarantees equality between men and women, including the provision for women's representation in government bodies and institutions. Subsequent laws and

national action plans have been developed to further promote gender equality and to combat discrimination against women.

Key among these reforms is the Law on Guarantees of Equal Rights and Opportunities for Women and Men, which serves as a legal basis for ensuring gender parity in various spheres, including politics. Additionally, Uzbekistan's commitment to international conventions, such as The Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (CEDAW), has reinforced the country's efforts to improve women's political rights.

Societal Attitudes and the Role of International Organizations. Societal attitudes towards women's political participation have been evolving, albeit slowly. Traditional views on gender roles still persist, often hindering women's active engagement in politics. However, increased awareness and education, coupled with the influence of international organizations, have contributed to a gradual shift in perceptions. International organizations and NGOs have played a pivotal role in advocating for women's political rights in Uzbekistan. Through various programs and initiatives, these organizations have supported capacity-building, leadership training for women, and campaigns aimed at increasing women's political participation and representation.

The formation of women's political rights in Uzbekistan is a dynamic and ongoing process, reflecting the nation's broader struggles and achievements in the realm of gender equality. While substantial challenges remain, the strides made thus far are indicative of a promising trajectory towards more inclusive and equitable political participation for women. As Uzbekistan continues to navigate its path of political and social reform, the empowerment of women in the political sphere will be crucial for the country's overall development and progress towards gender equality.

References:

1. Тохтаходжаева, Марфуа. XX век глазами женщин Узбекистана. Серия: Евразия. Новые исследования Издательство: Наталис. 2008 г. 304 с.

2. Алимова Д.А. Хужумга зарурат бормиди?. Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси. Тошкент. 1992.

3. Женщины-первопроходцы в истории Узбекистана // URL: https://www.gazeta.uz/ru/2023/03/08/they-were-the-first/

4. Указ Президента Республики Узбекистан, от 02.03.1995 г. № УП-1084 «О Мерах По Повышению Роли Женщин В Государственном И Общественном Строительстве Республики Узбекистан». Акт утратил силу 28.09.2020 // URL: https://lex.uz/docs/181380.

5. Туйчиева, Г.У. Независимость и женское движение Узбекистана: цели, задачи и содержание трансформации. // URL: https://ayk.gov.tr/wp-content/uploads/2015/01/TUY%C3%-87%C4%B0-EVA-G.-U.

INTERNETGA KIRISH HUQUQI INSON HUQUQLARINIG AJRALMAS QISMI

Teshayeva Gulira’no Asomddin qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ommaviy axborot vositalari huquqi magistratura
mutaxassisligi talabasi

Inson huquqlari masalalari har doim hayotda ham, siyosiy va huquqiy doktrinada ham katta o‘rin tutgan. Insoniyat tarixining turli davrlarida inson huquqlari tashqi muhitga, ya’ni shaxs mavjud bo‘lgan ommaviy “qobiq” (qabila, jamoat, siyosat, davlat) ga bog‘liq bo‘lgan va ma’lum darajada mavjud bo‘lgan. Insoniyat inson huquqlari rivojlana boshlashi va sivilizatsiyalashgan davlatlarda e’lon qilinishi, balki eng yuqori qadriyat sifatida amalga oshirilishi uchun uzoq va qiyin yo‘lni bosib o‘tdi. Ko‘rinib turibdiki, inson huquqlari fenomenini tahlil qilishga aksiologik yondashuv to‘g‘ri ko‘rinadi, chunki u bir tomondan shaxsning erkinligi o‘lchovini, ikkinchi tomondan, davlatning e’lon qilingan prinsiplar va me’yorlarga rioya qilishga tayyorlik darajasini o‘lchashga imkon beradi.

Inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi fundamental g‘oyalar hamda tamoyillarning barcha zamonaviy ro‘yxati antik davrda, qisman o‘rta asrlarda shakllantirilgan bo‘lib, zamonaviy dunyoning tegishli g‘oyalari va tushunchalarini shakllantirish hamda tasdiqlash uchun asos bo‘lib xizmat qilgan [1]. Inson huquqlari deyarli har qanday davlatning demokratik rivojlanishining eng muhim sharti rolini o‘ynashda davom etmoqda [2].

Global axborot-kommunikatsiya tarmog‘i sifatida qaraladigan Internet bir qator muhim xususiyatlarga ega. Birinchidan, bu axborot almashinuvini osonlashtiradi. Ikkinchidan, axborot aloqa tarmoqlari orqali uzatiladi. Uchinchidan, uning miqdori amalda na hajm, na qiziqish sohalari bilan cheklanmaydi. To‘rtinchidan, hech bir davlat yoki tashkilotga tegishli bo‘lmagan Internet milliy cheklovlarsiz turli axborot tizimlari va telekommunikatsiya tarmoqlarini birlashtiradi. Beshinchidan, uzatilayotgan ma’lumotlarning iste’molchilari tarmoqning har qanday subyekti - foydalanuvchilari bo‘lishi mumkin. Oltinchidan, Internet ishlayotgan qoidalarning aksariyati tarmoqning turli yo‘llar bilan ishlashini ta’minlaydigan protokollardir.

Internet tarixi 1969-yilda AQSh Mudofaa vazirligi tashabbusi bilan turli shaharlarda joylashgan kompyuterlar o‘rtasida birinchi marta ma’lumotlar almashinuvi amalga oshirilgan ARPANET kompyuter tarmog‘ining yaratilishi bilan boshlangan. Keyin shaxsiy tarmoqlar paydo bo‘ldi, ularning har biri oz sonli kompyuterlarni bog‘laydi. Ammo bir necha yil o‘tgach, ularning barchasi ARPANETga integratsiya qilindi va ma’lumotlarni uzatish protokoli nomi tufayli yagona tarmoq “Internet” nomini oldi. AQSh harbiy va ilmiy muassasalari uchun yopiq tizim sifatida paydo bo‘lgan Internet global xususiyatga ega bo‘lib, tobora ko‘payib borayotgan mavzular doirasiga kirish imkoniga ega bo‘ldi.

Birinchi bosqichda Internetni huquqiy tartibga solish tarmoq ishlab chiquvchilari tomonidan texnik standartlarni belgilovchi hujjatlarni qabul qilish orqali amalga oshirildi. Masalan, Internet provayderlarining ochiq forumi (OFISP) “Tarmoqlardan foydalanish standartlari”ni ishlab chiqdi. Ular, xususan, har bir tarmoq foydalanuvchisining faoliyati boshqa

foydalanuvchilarning ishiga xalaqit bermasligini ta’minlashga qaratilgan Internetda ishlashning umumiy qabul qilingan standartlari haqida gapiradi. Bundan tashqari, Ochiq Jamiyat Instituti 1996-yilda turli mamlakatlardagi nufuzli siyosiy doiralarni Internetga oid siyosatni belgilashda Internet hamjamiyatining istak va talablarini inobatga olishga undash uchun “Ochiq Internet siyosati tamoyillari” deb nomlangan tavsiyalar chiqargan. Shuningdek, tarmoq ishlab chiquvchilar uyushmalari (Internet konfiguratsiyasini boshqarish kengashi, Internet arxitektura kengashi, Internet dizayn ishchi guruhi, Internet jamiyati va boshqalar) tuzildi. Shu bilan birga, Internetni boshqarish masalalarini markazlashtirilgan tartibga solish yo‘q edi.

Keyinchalik, sanoat muammolarini hal qilish uchun, birinchi navbatda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tarkibida tuzilgan alohida xalqaro tashkilotlar tomonidan hujjatlar qabul qilina boshladi (BMTning Xalqaro savdo huquqi bo‘yicha komissiyasi, Xalqaro elektr aloqa ittifoqi, Jahon intellektual mulk tashkiloti, Axborot texnologiyalari bo‘yicha doimiy komissiyasi, Xalqaro Savdo palatasi, Yevropa iqtisodiy komissiyasi, Savdo va elektron biznes markazi va boshqalar).

Muayyan masalalar nafaqat Internetning o‘zi faoliyati sohasida, balki u orqali bir qator inson huquqlarini amalga oshirishda ham to‘planganligi sababli, Birlashgan Millatlar tashkiloti 2003-yilda Jenevada va 2005-yilda Tunisda axborot jamiyati masalalari bo‘yicha jahon uchrashuvlarini o‘tkazishni boshladi. Natijada, “Axborot jamiyatini qurish – yangi ming yillikdagi global vazifa” tamoyillari Deklaratsiyasi va Harakatlar rejasi, shuningdek, axborot jamiyati uchun Tunis majburiyati va Tunis harakatlar dasturi qabul qilindi. Bundan tashqari, har yili internetni boshqarish bo‘yicha Forum tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Forumning vazifalari Internetni rivojlantirishga ko‘maklashish, uning xavfsizligi va barqarorligini ta’minlash bo‘ldi.

Jeneva tamoyillari deklaratsiyasida har kim axborot va bilim yaratishi, foydalanishi, foydalanishi va almashishi mumkin bo‘lgan axborot jamiyatini rivojlantirishga sodiqligini yana bir bor tasdiqladi, bunda insonlar o‘zlarining barqaror rivojlanishiga ko‘maklashish, ularning

bilim sifatini oshirish orqali o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishlari mumkin bo‘lib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining maqsad va tamoyillariga asoslangan va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga to‘liq mos keladi. 2003 yilgi Butunjahon sammiti ishtirokchilarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida qabul qilingan ko‘plab hujjatlarda ham (Mingyillik rivojlanish maqsadlari, Yoxannesburg deklaratsiyasi va amalga oshirish rejasi, Monterrey konsensusi, Vena deklaratsiyasi) sodiqligi e’tirof etildi.

Internetning globalligini va shu bilan birga davlatlarning unga kirishni cheklash qobiliyatini hisobga olgan holda, 2011-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining navbatdagi hisobotida (Report of the Special Rapporteur on the promotion and protection of the right to freedom of opinion and expression) insonning ajralmas huquqlari ro‘yxatiga Internetga kirish uchun yangi huquq qo‘shilganligi qayd etildi. Internet inson huquqlarini amalga oshirishning kuchli vositasiga aylangani, davlat hokimiyati undan foydalanishda shaffof bo‘lib qolishi, shuning uchun axborotni tarqatish imkon qadar erkin bo‘lishi kerakligi, bu esa kimningdir huquqlarini buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlar bundan mustasnoligi ko‘rsatib o‘tildi. 2011-yil iyun oyidan ma’lum hududlarning Butunjahon Internet tarmog‘idan uzilishi inson huquqlarining buzilishi sifatida baholanmoqda. Hujjatda aytilishicha, “Internetda ma’lumot olish uchun imkon qadar kamroq to‘siqlar bo‘lishi kerak, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro konvensiyalarga muvofiq, ayrim istisno va qat’iy belgilangan holatlar bundan mustasnodir” [3].

Hisobotda Internetni o‘chirish shartlari sanab o‘tilgan: cheklov qonun bilan ko‘zda tutilgan bo‘lishi kerak, bu aniq va hamma uchun ochiq bo‘lishi kerak (prognozlash va shaffoflik tamoyillari); cheklash “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro paktning 19-moddasi 3-bandida ko‘rsatilgan maqsadlardan birini (boshqalarning huquqlari va obro‘sini himoya qilish, davlat xavfsizligini yoki jamoat tartibini, aholi salomatligi yoki ma’naviyatini himoya qilish) ko‘zda tutilishi kerak, cheklash zarurligini isbotlash kerak (uni maqsadga erishishning eksklyuziv vositasi sifatida ishlatish (zarurat va mutanosiblik tamoyillari).

Internetdan foydalanishni qonuniy tartibga solishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xavf tug‘dirishini hisobga olish zarur. Shu munosabat bilan davlatlar o‘z suveren hududi doirasida tahdidlarni kamaytirish uchun cheklovlar qo‘llaydilar.

Internet senzurasini joriy qiluvchi birinchi qonun 1995-yilda Janubiy Koreyada qabul qilingan (maxsus cheklovlar Shimoliy Koreyaga nisbatan hamdardlik bildiruvchi bayonotlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Misrda 2018 yilning yozida milliy xavfsizlikni ta’minlash maqsadida “Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, internet ustidan davlat nazorati kuchaytirildi [4].

Hindistonda Axborot texnologiyalari to‘g‘risidagi qonun 2007-yilda qabul qilingan va qisman senzura joriy etilgan. Bunga Mumbaydagi teraktlar sabab bo‘ldi, shuning uchun cheklovlar birinchi navbatda siyosiy va ekstremistik resurslarga ta’sir qildi.

Zamonaviy axborot dunyosida Internet foydalanuvchilari shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish huquqi bilan bog‘liq yana bir muhim muammoga duch kelishadi. Bu masala, ayniqsa, transchegaraviy axborot almashinuvi jarayonida dolzarb bo‘lib qoladi. Bugungi kunda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish huquqi inson huquqlarining muhim elementi sifatida tan olingan. U dastlab Umumjahon deklaratsiyasida mustahkamlangan bo‘lib, unda odamlar shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va yozishmalar maxfiyligi huquqiga ega ekanligi ta’kidlangan. Shunday qilib, har qanday uchinchi shaxslar (fuqarolar, tashkilotlar, davlat organlari) tomonidan shaxsning irodasiga qarshi shaxsiy ma’lumotlarning buzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bu huquq boshqa xalqaro hujjatlarda (1966-yilgi Xalqaro pakt, 1950-yilgi Yevropa konvensiyasi va boshqalar), shu jumladan maxsus hujjatlarda ham nazarda tutilgan. Xususan, Yevropa Parlamentining “Axborotlashtirishning rivojlanishi munosabati bilan shaxs huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qarori (1979), unda tegishli mamlakatlarga shaxsiy ma’lumotlar huquqlarini himoya qilish sohasida milliy qonunlarni qabul qilish tavsiya etiladi. 1985-yilda Yevropa Kengashi Shaxsiy ma’lumotlarni avtomatik qayta ishlash bo‘yicha jismoniy shaxslarni

himoya qilish bo‘yicha Yevropa konvensiyasini qabul qildi. Ushbu hujjat shaxsiy ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlashda inson huquqlariga rioya qilishni kafolatlaydi, ushbu ma’lumotlarni saqlash va ulardan foydalanish tamoyillarini, ma’lumotlarni jismoniy himoya qilish usullarini belgilaydi, shuningdek irqi, dini, siyosiy qarashlari haqidagi ma’lumotlarni qonuniy asoslarsiz qayta ishlashni istisno qiladi.

2018-yilda Inson huquqlari bo‘yicha Kengashning 34/7-rezolyutsiyasi doirasida inson huquqlari bo‘yicha Oliy Komissarning hisoboti tayyorlandi. Unda har bir mamlakat inson huquqlari sohasidagi xalqaro me’yorlarga mos keladigan shaxsiy hayotni (va maxfiy ma’lumotlarni) himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilikni qabul qilishi, mutanosiblik va zarurat tamoyillari bilan cheklanishi kerakligi ta’kidlanganligi, katta ma'lumotlar tizimlarini shakllantirish (biometrik ma'lumotlarni yig‘ish va saqlashni nazarda tutadi) [5].

Internetda huquqlar nafaqat amalga oshirilishi, balki buzilishi ham mumkin. Internetdagi barcha noqonuniy harakatlar, ular kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda yoki ularga qarshi qilinganligidan qat’i nazar, odatda kiberjinoyatlar deb ataladi.

2003-yilda “Internetda muloqot erkinligi to‘g‘risida”gi deklaratsiya qabul qilindi, unda Internetdagi ma’lumotlarning mazmuniga hech qanday cheklovlar qo‘yilmaydi; Internetda o‘z-o‘zini tartibga solishni rag‘batlantirish; jamiyatning ayrim qatlamlari uchun internetga kirishga yoki internet-saytlar yaratish va ularning faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi to‘siqlarni bartaraf etish; anonimlik huquqini kafolatlash; iste’molchilar huquqlarini himoya qilish; tovarlar va xizmatlar harakatini, iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish yoki bitimlar tuzish imkoniyatini cheklamaslik.

Yevropada qabul qilingan hujjatlar, shuningdek, Internetda inson huquqlarini amalga oshirishning ayrim jihatlarini tartibga solishga bag‘ishlangan. Jumladan:

Yevropa parlamenti va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish kengashining masofaviy shartnomalar (masofaviy sotish) bo‘yicha Direktivasi (1997);

Telekommunikatsiya sohasida shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash va maxfiylikni himoya qilish bo‘yicha Yevropa Parlamenti va Kengash Direktivasi (1997);

Yevropa Parlamenti va Kengashning elektron imzolar uchun hamjamiyatning huquqiy asoslari bo‘yicha Direktivasi (1999);

Yevropa Parlamenti va Kengashning ichki bozorda axborot jamiyati xizmatlarining, shu jumladan elektron tijoratning ayrim huquqiy jihatlari bo‘yicha Direktivasi (2000);

Yevropa Parlamenti va Kengashning elektron pul institutlarini tashkil etish va faoliyati hamda ularning faoliyatini prudensial nazorat qilish to‘g‘risidagi Direktivasi (2000);

Elektron aloqa sohasida shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash va maxfiylikni himoya qilish bo‘yicha Yevropa Parlamenti va Kengash Direktivasi (2002);

Internet va yangi onlayn texnologiyalardan xavfsiz foydalanish bo‘yicha Yevropa Parlamenti rezolyutsiyasi (2004);

Yevropa Parlamenti va Kengashning onlayn savdoni soliqqa tortishning yangi qoidalari va tartiblari to‘g‘risidagi direktivasi (2004).

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo davlatlarning hamkorligi doirasida internetni boshqarish masalalariga oid turli hujjatlar ham qabul qilinmoqda. 1999-yilda “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi namunaviy qonun tasdiqlangan. Ushbu “shaxsiy ma’lumotlar” atamasini ishlab chiqdi, bu ma’lum bir shaxs bilan ishonchli tarzda identifikatsiyalangan moddiy vositaga joylashtirilgan shaxs haqidagi ma’lumotni anglatadi. Bu nafaqat shaxsiy ma’lumotlar, balki oila, lavozim, biznes, hisob va depozitlar va sog‘liq haqidagi barcha ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Hujjat shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashni tartibga solish standartlarini qamrab oladi va operatorlarning huquq va majburiyatlari qanday belgilanishini tushuntiradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, turli xalqaro tuzilmalar tomonidan qabul qilingan ko‘plab hujjatlar (Xalqaro elektr aloqa ittifoqi Nizomi, Okinava Xartiyasi, Yevropa Kengashi Vazirlar Qo‘mitasining Internetni boshqarish

tamoyillari to‘g‘risidagi deklaratsiyasi va boshqalar) tavsiyaviy xususiyatga ega.

BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Kengashi tomonidan bir necha bor qabul qilingan “Onlayn huquqlar” (2012, 2014), “Internetda so‘z erkinligi huquqi” (2016), “Internetda so‘z erkinligini qo‘llab-quvvatlash” (2018) qarorlari tasdiqlaydi. Ular arzon va ochiq Internet tarmog‘ining muhimligini ta’kidlaydilar, internetda erkin gapiradigan odamlarga nisbatan zo‘ravonlik, ta’qib va boshqa qoidabuzarliklar uchun aybdorlarni javobgarlikka tortish zarurligiga e’tibor qaratadilar. Bundan tashqari, hujjatlarda alohida mamlakatlar tomonidan Internetdagi huquqlarning aniq buzilishi ko‘rsatilgan.

Yuqoridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, xalqaro huquqda internetga kirish va undan foydalanish bo‘yicha yetarlicha xalqaro hujjatlar ishlab chiqilgan hamda qo‘llanilib kelinmoqda. Ushbu xalqaro hujjatlar internet tarmog‘ida inson huquqlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Петренко Н.И., Азимова Э.Б. Эволюция конституционных прав и свобод человека и гражданина // Марийский юрид. вестн. 2015. № 2. С. 11.
2. Пашенцев Д.А. Права и обязанности в правовом статусе личности: проблемы взаимоотношений // Евразийский юрид. журн. 2008. № 6. С. 4-5.
3. Смирнов С. ООН причисляет доступ в Интернет к основным правам человека // URL: www.vedomosti.ru.
4. URL: https://rtvi.com/news/egypt-president-ratifies-law-imposing-internet-controls.
5. URL: https://undocs.org/ru/A/HRC/39/29.

O‘ZBEKISTON PARLAMENTINING HUKUMAT FAOLIYATI USTIDAN NAZORATINI KUCHAYISHI

Eshbekov Durbek Sherali o‘g‘li,
O‘zDJTU tayanch doktoranti

So‘nggi yillarda davlat boshqaruvi organlari faoliyati, qonunlar ijrosi, mamlakatni eng muhim sotsial-iktisodiy, ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish davlat dasturlarining so‘zsiz bajarilishi ustidan ta’sirchan parlament nazoratini o‘rnatish va uni tubdan yaxshilashga alohida e’tibor qaratildi.

Muhtaram Prezidentmiz Sh.M.Mirziyoyev “Shu o‘rinda Hukumatning parlament bilan qonun ijodkorligi va nazorat-tahlil sohasidagi hamkorligini yanada samarali tashkil qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlisda doimiy asosda faoliyat ko‘rsatadigan vakili lavozimini ta’sis etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.”[1] deb aytgan fikirlari parlament nazoratining nechog‘lik dolzarb etanligini aglashimiz munkun.

Shu munosabat bilan parlamentning kundalik xayotida parlament eshituvlarini tashkil etish, hukumat a’zolarining, davlat va xo‘jalik boshkaruvi organlari rahbarlarining qonun hujjatlari talablarini bajarish bo‘yicha ishlarning axvoli to‘grisidagi hisobotini muntazam eshitib borish, parlament va deputat so‘rovlariga atroflicha va o‘z vaqtida javoblar olishni ta’minlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ko‘rildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan markazda va joylarda ijro etuvchi hokimiyat organlarining qonun hujjatlari talablariga so‘zsiz rioya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim dasturlarini bajarish borasidagi faoliyati ustidan samarali parlament nazoratini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Quyi palataning bu boradagi faoliyati fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan ishlarning samaradorligini oshirishga, shuningdek joylarda aholi tomonidan kutarilayotgan hayotiy dolzarb muammolarni hal etishga muayyan darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘tgan davrda Qonunchilik palatasida **16 ta parlament eshituvi** o‘tkazildi. Xususan: Oliy Majlisning Inson

huquqlari buyicha vakilining (Ombudsman) 2017 yildagi faoliyati to‘g‘risidagi hisoboti eshitildi va tasdiqlandi.

Bosh vazir hisoboti va vazirlikka nomzodlarni muhokoma qilish amaliyotining ahamiyati dolzarb bo‘lib bu amaliyot takomillashib bormoqda.

Ma’lumki, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida «Biz yangi yildan boshlab siyosiy hayotimizda yana bir amaliyotni joriy etamiz. Kirib kelayotgan yilning hujjati bo‘lgan Murojaatnomada bayon qilingan har bir ustuvor yo‘nalish buyicha Bosh vazir va hukumat a’zolari amalga oshirilgan ishlar haqida Senat va qonunchilik palatasi oldida har chorakda hisobot berib boradi. Bu jarayon ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilishi lozim. Shu tarqa fuqarolar Murojaatnomada belgilab berilgan vazifalarni bajarish buyicha hukumat qanday ish olib borayotganidan xabardor bo‘ladi»[2], *deb ta’kidlagan edi. Ushbu vazifalardan kelib chiqib, qonunchilikka tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi.*

Parlament tarixida ilk bor 2019 yildan boshlab Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasidan kelib chiqadigan, tegishli yilga muljallangan davlat dasturi bajarilishining borishi to‘g‘risidagi hisobotini ko‘rib chiqish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Mazkur yangi institutni amaliyotga tatbiq etish ishlari boshlandi. Xususan, 2019 yil 18 may kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasida ilk bor Vazirlar Mahkamasining 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishi buyicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 2019 yil birinchi choragida bajarilishining borishi to‘g‘risidagi hisoboti eshitildi.

Aytib o‘tish lozimki, ushbu yangilik o‘z navbatida Hukumatning xalq vakillari oldidagi mas’uliyatini oshirishi barobarida, parlament a’zolarining islohotlarni amalga oshirish jarayonida faol qatnashishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, 2019 yildan boshlab parlament quyi palatasi faoliyatida ilk bor Vazirlar Mahkamasi a’zoligiga nomzodlar u mas’ul qo‘mita, fraksiyalar va deputatlar guruhlari tomonidan dastlabki tarzda ko‘rib chiqilganidan keyin Qonunchilik palatasining majlisida ko‘rib chiqish va ma’qullash amaliyoti joriy etildi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma’lumki, parlament nazoratini amalga oshirish jarayonlarida davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlari, ularning o‘zaro nisbatlari hamda bir-biriga ko‘rsatadigan ta’sir darajalari nuqtai nazaridan hokimiyat taqsimoti jarayonlari ro‘y beradi. Markaziy davlat hokimiyati organlarining «hokimiyatlar bo‘linishi» vositasida cheklanishi hozirgi davrdagi davlat-huquq institutlarining tadrijiy rivojlanishi natijasidir.

Hukumatga ishonch masalasini ko‘rib chiqish. Moldova, Armaniston, Qirg‘iziston va O‘zbekiston, Ukrainada parlamentning hukumatga bo‘lgan ishonchini yo‘qotish ikkinchisining vakolatlarini muddatidan oldin tugatishga olib keladi. Turkmaniston, Tojikiston, Ozarbayjon va Qozog‘istonda hukumat parlament ishonchiga umuman muhtoj emas, garchi Ozarbayjon va Qozog‘istonda parlament hukumatga ishonch masalasini hal qilishi mumkin, ammo davlat rahbari uchun bunday qaror tavsiya xarakteriga ega bo‘ladi.

Hukumat faoliyatini nazorat qilish. U parlament yoki uning quyi palatasi tomonidan hukumatning turli hisobotlarini ko‘rib chiqishdan iborat bo‘lib, barcha MDH mamlakatlarida amalga oshiriladi. Rossiya Federatsiyasida Hukumat Davlat Dumasiga har yili o‘z faoliyati natijalari to‘g‘risida, shu jumladan, Davlat Dumasi tomonidan qo‘yilgan masalalar bo‘yicha hisobot taqdim etadi. Savollar fraksiyalar tomonidan ishlab chiqiladi va tegishli qo‘mitaga yuboriladi, u ularni umumlashtiradi va Davlat Dumasi Kengashiga yuboradi. Ikkinchisi ularning yakuniy ro‘yxatini tasdiqlaydi, keyin esa Hukumatga yuboriladi. Eng katta savol, bizning fikrimizcha, Davlat Dumasi tomonidan qo‘yilgan savollardir, chunki bu Hukumatga har qanday shaklda hisobot tayyorlashga imkon beradi, shu o‘rinda qonunda hisobot tuzilishiga aniq va lo‘nda talablar belgilanmagan.

Xulosa o‘rinda shuni aytish munkunki, hukumatning parlament oldida faoliyati to‘g‘risida hisoboti huquqiy demokratik davlat qurushning asosiy ko‘rinishi deyish munkun. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan markazda va joylarda ijro etuvchi hokimiyat organlarining qonun hujjatlari talablariga so‘zsiz rioya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim dasturlarini bajarish borasidagi faoliyati ustidan samarali parlament nazoratini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Quyi palataning bu boradagi faoliyati fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan ishlarning samaradorligini oshirishga, shuningdek joylarda aholi tomonidan ko‘tarilayotgan hayotiy dolzarb muammolarni hal etishga muayyan darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt tarqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent – “O‘zbekiston”-2017.-9. B;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- 2018-yil 28-dekabr.

3. “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi 2007-yil 11-aprel,O‘RQ-88-son // lex.uz

4. «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabr qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – 1997

INSON HUQUQLARINI TA’MINLASHDA REABILITATSIYANING QONUNCHILIK ASOSLARINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Babakulov B.,
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Dunyoda odilsudlov mamlakatlarning xalqaro maydondagi demokratiya va huquq ustuvorligi indekslarini baholashning asosiy omillardan biri bo‘lib, odilsudlovning buzilishi jiddiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Dunyo bo‘yicha ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarning har uchtadan bittasi tergov va sudsiz qamoqda saqlanayotgani, har yili jinoyat ishlarini tergov va sudda yuritish doirasiga taxminan 55 mln. kishi jalb qilinishi, 11,7 mln. inson ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgani, jami hukm qilingan shaxslarning 1% aslida aybsizligi aniqlangan [2].

Odilsudlov indeksi yuqori reytinglarni egallab kelayotgan ayrim rivojlangan xorijiy davlatlarda inson huquqini himoyalash va noqonuniy jinoiy ta’qib natijasida buzilgan huquqlarni tiklashning samarali mexanizmlari mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Noqonuniy jinoiy ta’qib natijasida huquqlari buzilgan har bir shaxsga o‘z huquqlarini himoya qilish va tiklashi uchun yetarli kafolatlarni ta’minlash, asossiz jinoiy ta’qib va protsessual majburlov choralarini qonunga hilof ravishda qo‘llaganlik uchun davlatning va mansabdor shaxslarining mas’uliyatini oshirish, reabilitatsiya etilgan shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash borasida mavjud muammolarning ilmiy-nazariy va amaliy yechimini topish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan xorijiy mamlakatlarida reabilitatsiya huquqiy instituti bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy-nazariy ishlanmalar mavjud.

Ayniqsa, G.Amirbekova, A.Bajanov, S.Betrozov, YE.Veretennikova, R.Gavrilyuk, M.Maksimenko, T.Malenko, A.Matveyev, V.Nikolyuk, A.Orlova, M.Palexin, A.Podoprigora, D.Prokazin, S.Rogachyov,

A.Y.Saidov, D.Tatyanin, T.Teterina, D.A.Taziyev, D. Xamadishin, T.Sharifovlar tomonidan reabilitatsiyaning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha maxsus izlanishlar olib borilgan .

Biroq reabilitatsiya instituti milliy huquqiy adabiyotlarda va ilmiy yo‘nalishlarda O‘zbekistonda yetarlicha tadqiq etilmagan. Jinoyat protsessual huquqi fani bo‘yicha chop etilgan darslik va boshqa o‘quv adabiyotlarida huquqshunos olimlardan G‘.Abdumajidov, Z.Inog‘omjonova, D.Mirazov, F.Muhitdinov, S.Saxaddinov, G.To‘laganova, T.Tillayev, D.To‘rayevalar tomonidan ushbu mavzuning ayrim jihatlari protsessual nazariyada umumiy tarzda yoritilgan.

Tadqiqot obyektiga aloqador muammolar huquqshunoslik maktabining ko‘proq protsessualist olimlari e’tiborini jalb qilgan. Xususan, T.Tajiyev sovet jinoyat protsessidagi reabilitatsiya muammolarni (Tashkent, 1991), N.Y.Shilo dastlabki tergovda reabilitatsiya muammolarini (Ashxabad, 1981), D.Kamalxodjayev jinoyat protsessida reabilitatsiya masalalarini (Toshkent, 1996), A.Sattarov esa jinoyat protsessida reabilitatsiya institutini amalga oshirish mexanizmlarini (Toshkent, 2023) tadqiq etib, jinoyat protsessida reabilitatsiya institutining ilmiy-nazariy asoslarini rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shganlar.

Respublikamizda ham 2017 yildan 2023 yilgacha umumiy hisobda jami 5561 nafar shaxs sudlar tomonidan oqlangan. O‘sib borish tartibida yillar kesimida 2017 yil 263 kishi, 2018 yilda 867 ta, 2019 yilda 859 ta, 2020 yil 781 ta, 2021 yilda 932 ta, 2022 yilda 1010 nafarga va 2023 yilda 1244 nafarga oshganligini ko‘rishimiz mumkin [3].

Prezident SH.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Qonun – muqaddas, har qanday holatda ham adolatni qaror toptirish shart!” degan qarash jamiyatning har bir a’zosi, ayniqsa, mansabdorlar uchun hayot qoidasiga aylanishi kerak. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish uchun sudlarning odil va mustaqil ish yuritishini albatta amalda ta’minlashimiz zarur [1].

Yuqoridagilardan ko‘ribi turibdiki, reabilitatsiyaning qonunchilik asoslarini va uni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish hozirgi

kunda inson huquqlarini ta’minlash sohasidagi islohotlarning muhim mavzularidan biri ekanligini ayon bo‘ladi.

Etimologiyada “rehabilitatio” lotincha iborai “tiklash” ma’nosini berib, yurisprudensiyadan tashqari ijtimoiy hayot boshqa turli sohalarda ham ishlatiladi. Masalan, tibbiyotda “re**abilitatsiya” –** organizmning buzilgan faoliyatini, bemorlar hamda nogironlaning mehnat qobiliyatini tiklashga qaratilgan tibbiy, pedagogik va ijtimoiy chora-tabirlar majmui sifatida qaraladi.

Sotsiolog olimlar esa “ijtimoiy reabilitatsiya” deganda shaxsning mustaqil va oilaviy turmush sharoitlariga moslashishi, tiklanishi jarayonini va tizimini nazarda tutishadi. Shuningdek, ijtimoiy reabilitatsiya deganda nogironlik, migratsiya, odam savdosi, ishsizlik va boshqa shu kabi muammolar oqibatida jamiyatda shaxs yoki shaxslar guruhining yo‘qolgan yoki cheklangan ijtimoiy huquqlarini tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui tushuniladi. Tarixdan ham ma’lumki, sho‘rolar davridagi qatag‘on qurbonlari, o‘z vatanidan olis joylarga majburiy ko‘chirilgan fuqarolar reabilitatsiya etilgan.

Pedagogikada “pedagogik reabilitatsiya” tushunchasi ostida bolaning zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lishini va ta’lim olishini ta’minlashga qaratilgan faoliyatga ko‘proq ahamiyat qaratilsa, psixologiyada “psixologik reabilitatsiya” deganda individning shaxsiy va ijtimoiy mavqeini tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuiga nisbatan ishlatiladi.

D.Prokazin o‘z ilmiy ishida “reabilitatsiya” iborasi 2 tildan kelib chiqqanligini, ya’ni lotin tilidagi “*re*” – qaytish ma’nosidagi sifat qo‘shimchasi va “*habilitas*” – layoqat ma’nosini beruvchi o‘zakdan iboratligini, nemis tilida esa “*rehabilitation*” – oldingi holatga qaytish ma’nosini beruvchi so‘zdan yuzaga kelganligini qayd etadi [4].

*Huquqshunos olimlardan A.Sattarovning mualliflik ta’rifiga ko‘ra, “re*abilitatsiya – shaxsning noqonuniy jinoiy javobgarlikka tortilganligi yoki sudlanganligi, asossiz protsessual majburlov yoki tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanganligini rasman e’tirof etish va noqonuniy jinoiy javobgarlikka tortish, shuningdek hukm qilish natijasida yetkazilgan

mulkiy ziyonni qoplash, boshqa huquq va qonuniy manfaatlarini tiklash tartibidan iborat”.

A.A.Orlovaning fikri bo‘yicha “reabilitatsiya” instituti uning huquqiy va ma’naviy oqibatlarini to‘liq qamrab ololmasligi sababli jinoyat protsessi nazariyasida uning reabilitatsiya konsepsiyasini yaratish lozim [5].

Muallifning *fikriga qo‘shilgan holda qayd etishimiz mumkinki, reabilitatsiya huquqiy institutning yuridik tabiati va huquqiy oqibatlarini protsessual qonunchilikda va ilmiy nazariyada to‘liq ochib berilmaganligi kelgusida reabilitatsiya konsepsiyasini yaratish haqida mushohada yuritishga turtki bo‘lishi mumkin. Darvoqe, “*O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish **konsepsiyasi”da re**abilitatsiya institutini qo‘llash asoslarini va uni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi ilgari surilgan [6].

*Olimlarning yuqoridagi fikr-mushohadalaridan kelib chiqib, biz quyidagicha mualliflik ta’rifimizni ilgari suramiz, ya’ni “Re*abilitatsiya bu - O‘zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual qonunchiligida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha to‘liq oqlangan hamda noqonuniy jinoiy javobgarlikka tortilgan yoki sudlangan, shuningdek protsessual yohud boshqa yo‘sindagi majburlov choralari asossiz qo‘llanilgan deb rasman e’tirof etilgan shaxsning barcha siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini tiklash, shuningdek yetkazilgan mulkiy zararlarini qoplash, ma’naviy ziyon oqibatlarini bartaraf etish” deb hisoblaymiz.

Oqlov hukmi e’lon qilinishi bilan shaxsning asosiy huquqlari tiklansada, amaldagi mavjud reabilitatsiyaning qoidalari insonning barcha erkinliklari, o‘z vaqtida ololmay qolgan ijtimoiy imtiyozlari yoki boshqa kafolatlarni barchasini olish imkonini bermayapti. Masalan, reabilitatsiya institutiga oid normalarida siyosiy huquqlar tartibga solinmagan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 4-moddasiga ko‘ra, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas. Shuningdek og‘ir va o‘ta og‘ir

jinoyatlar sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko‘ra ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sudning qarori asosida mahrum etilishi mumkin [7]. Demak, *qonunchilikda belgilangan muddatda nomzod sifatida ro‘yxatga olinmay qolgan fuqaro h*atto oqlov *hukmi chiqqan taqdirda bu huquqidan foydalana olmaydi.*

Yoki masalan, “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 244-bandiga muvofiq “Noqonuniy sudlanganligi sababli harbiy unvonidan mahrum etilgan fuqaro, uning oqlanganligi yoki noqonuniy hukm bekor qilingani to‘g‘risidagi sud qarori kuchga kirgandan so‘ng o‘rnatilgan tartibda harbiy unvondan mahrum etilgan kundan boshlab avvalgi harbiy unvoniga qayta tiklanadi [8]. Fuqaroni oldingi harbiy unvoniga tiklash uchun asoslar mavjud bo‘lganda mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limi boshlig‘i zarur hujjatlarni rasmiylashtiradi va ularni shaxsiy tarkib bo‘yicha buyruq chiqarish uchun uni harbiy unvondan mahrum etgan vazirlikka yuboradi. Bunday holatda fuqaroni harbiy unvonda tiklash uni harbiy unvondan mahrum qilgan vazirlik rahbarining buyrug‘i bilan amalga oshirilishi mumkin” deb belgilangan.

Demak, sudda harbiy xizmatchining reabilitatsiyasiga doir ish ko‘rilgan taqdirda ham navbatdagi unvoni emas, balki shaxsning “avvalgi harbiy unvoni” tiklanadi, lekin bunda “boy berilgan muddat” navbatdagi harbiy unvonni olish uchun xizmat staji sifatida ichki idoraviy hujjatlarda inobatga olinmagan.

Reabilitatsiya masalasidagi paradoksal normalar tushunchaning ilmiy ta’rifidan ko‘ra rasmiy ta’rifini berishda murakkablik tug‘diradi. Jinoyat protsessi nazariyasida va qonunchilikda ham mazkur tushuncha bo‘yicha turlicha holatlarni kuzatish mumkin.

Professor Z.Inog‘omjonova o‘rinli ta’kidlaganidek, adabiyotlarda, qonun hujjatlarida, huquq nazariyasi va fuqarolarning ongida reabilitatsiyaning yagona tushunchasi yo‘q [9].

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksida “Reabilitatsiya etilgan shaxs”, “Reabilitatsiya qilingan harbiy

xizmatchilar” iboralari ishlatilsada, 7-bo‘limda *“reabilitatsiya” so‘ziga tushuncha yoki ta’rif berilmagan. Bizdan farqli ravishda, ayrim xorijiy davlatlarning protsessual qonunchiligida ushbu masalada ilg‘or tajribalarni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Rossiya va Qirg‘iziston jinoyat protsessual kodekslari 5-moddasida “reabilitatsiya”, “reabilitatsiyalangan shaxs” so‘zlariga alohida-alohida ta’riflar ishlab chiqilgan* [10, 11].

*A.Sattarovning mulohazasi bo‘yicha “*qonun chiqaruvchi xam JPKning 301-moddasida oqlov hukmi, shuningdek, JPKning 83-moddasida nazarda tutilgan holatlar shaxsni reabilitatsiya etishga asos bo‘lishini belgilab qo‘ygan. Biroq “reabilitatsiya etilgan shaxs” maqomini qo‘lga kiritish va barcha huquqlarini amalda tiklash orasida uzoq muddat bo‘lishi mumkin. Ya’ni ushbu maqom e’tirof etilganda, u amalda reabilitatsiya qilinmaydi, u faqatgina reabilitatsiya etilish huquqini qo‘lga kiritadi [12].

Demak, ilmiy jamoatchilik fikriga mushohada yuritgan holda xulosa chiqarish mumkinki, reabilitatsiyani 2 xil ma’noda, ya’ni “poymol etilgan huquq va manfaatlarni tiklashga bo‘lgan oqlangan shaxs huquqi” va shu “huquqlarni tiklash tartibi” sifatida baholash mukin. Shunday bo‘lsada, nazarimizda reabilitatsiya tushunchasi va uning yuridik tabiati murakkabligicha qolib, ilmiy bahs-munozaralar mavzusi bo‘lib kelaveradi.

Qonunchilikda “reabilitatsiya etilgan shaxs” tushunchasi, uning protsessual huquqiy maqomi belgilanmaganligini, bu esa amaliyotda inson huquqlarini to‘laqonli ta’minlashda ta’sir ko‘rsatayotganini inobatga olib, JPKga quyidagicha 54^1-modda kiritishni taklif etamiz:

*“Re*abilitatsiya etilgan shaxs – noqonuniy va asossiz jinoiy ta’qib natijasida buzilgan huquq va manfaatlari davlat tomonidan tiklangan, yetkazilgan mulkiy ziyon hamda ma’naviy zarar oqibatlari to‘liq bartaraf etilgan shaxsdir.

Reabilitatsiya etilgan shaxs: mehnat qilish, pensiya olish va uy-joydan foydalanish va boshqa huquqlarini tiklash; mol-mulkni qaytarish yoki uning qiymatini to‘lash to‘g‘risidagi talab qilish; yetkazilgan mulkiy ziyonni undirish, ma’naviy zarar oqibatlari bartaraf etilishini talab qilish;

o‘z huquqlarini tiklashni so‘rab da’vo ishini yuritish tartibida sudga murojaat qilish; tergov organlari va sudda ko‘rsatuvlar berish; dalillar taqdim qilish; iltimosnoma berish va rad qilish; o‘z ona tilidan va tarjimon xizmatidan foydalanish; o‘z ona tilidan hamda tarjimon xizmatidan foydalanish; o‘zining himoyalanish huquqini shaxsan hamda vakili orqali amalga oshirish; dalillar taqdim etish; reabilitatsiyaga oid barcha ish materiallari bilan tanishib chiqish hamda undan zarur ma’lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o‘z hisobidan ko‘chirma nusxalar olish; sud muhokamasida va sud majlislarida ishtirok etish; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish; sud majlisining bayonnomasi bilan tanishish hamda u haqda o‘z mulohazalarini bildirish; ish bo‘yicha keltirilgan shikoyatlar, protestlardan xabardor bo‘lish va ularga nisbatan e’tirozlar bildirish huquqiga egadir.

Reabilitatsiya etilgan shaxs: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir bo‘lishi; haqqoniy ko‘rsatuvlar berishi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo‘q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko‘ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to‘sqinlik qilmasligi; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning talabi bo‘yicha dalillar taqdim qilishi; ishning tergovi va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Reabilitatsiya etilgan shaxsning ushbu moddada ko‘rsatilgan huquq va majburiyatlari uning vafoti munosabati bilan ushbu kodeks 304-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangilangan Konstitutsiyamiz Uchinchi renessansni barpo etish yo‘lida mustahkam huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. https:// president.uz/uz/lists/view/6277
2. https://innocenceproject.org/
3. https://stat.sud.uz. 2023 yil 9 oy.pdf

4. *Prokazin D.L. Reabilitatsiya: osnovaniye, usloviya i soderjaniye v ugolovnom sudoproizvodstve: avtoref…diss. kand. yurid. nauk. – Moskva, 2006 g. – S.12.*

5. Orlova A.A. Konsepsiya reabilitatsii i organizatsionno-pravoviye mexanizmi yeyo realizatsii v rossiyskom ugolovnom protsesse*: avtoref…diss. dok-ra. yurid. nauk. - Moskva, 2013 g. – S.36.*

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi “Jinoyat va Jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3723-sonli qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018 y., 07/18/3723/1225-son.

7. O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.06.2019 yil, 03/19/544/3337-son.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni taqdislash haqida”gi PQ-4447-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.www.lex.uz.

9. Jinoyat protsessi (umumiy qism). Darslik. Z.Inog‘omjonovaning umumiy tahriri ostida. Toshkent: TDYUI nashriyoti, 2007. – 46 b.

10. "Ugolovno-protsessualniy kodeks Rossiyskoy Federatsii" ot 18.12.2001 N 174-FZ (red. ot 27.11.2023). https://www.consultant.ru.

11. Kodeks KR ot 28 oktabrya 2021 goda № 129 "Ugolovno-protsessualniy kodeks Kirgizskoy Respubliki" (minjust.gov.kg) 112308ysclid.

12. Sattarov A.Y. Reabilitatsiya va qisman reabilitatsiya asoslari tahlili // Jamiyat va innovatsiyalar – Obshestvo i innovatsii – Society and innovations. Special Issue – 10 (2021).

HARBIY PENSIYALAR – HARBIY XIZMATNING MUHIM IJTIMOIY KAFOLATI

Hakimov Oybek Akramovich,
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Harbiy pensiya - bu uzoq yillik xizmat muddatini o‘tagan yohud sog‘lig‘i tufayli nogiron bo‘lib xizmatdan bo‘shatilgan harbiy xizmatchiga, shuningdek harbiy xizmatchining xizmatda halok bo‘lgan (vafot etgan)ligi munosabati uning qaramog‘ida sanalgan oila a’zolariga tayinlanadigan va to‘lanadigan pul to‘lovlari hisoblanib, olimlar qayd etganidek, ushbu harbiy pensiyalar azaldan fuqarolarni harbiy xizmatga jalb qilish asosiy omillaridan biri bo‘lib kelgan.

Masalan, sobiq Ittifoq davrida va hozirda ham harbiy xizmatchilarga pensiyalar tayinlanib to‘lanmoqda. Lekin, SSSR Oliy Kengashi tomonidan jangovar operatsiyalarda qatnashgan, hozirgi kundagi til bilan aytganda terroristik va ekstremistik operatsiyalarda, noqonuniy tuzilmalarni bartaraf etishda qatnashgan, davlat muhofazasida alohida o‘rnak ko‘rsatgan, qahramonlik namoyon qilgan harbiy xizmatchilarga xizmatlari uchun alohida pensiyalar (pensiza osobie zaslugi) tayinlangan.

Bunday imtiyozlar harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynagan, aynan hozirgi kunda ham bunaqa imtiyozlarni qo‘llashning ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Aslida 1956-yil 14-iyulda sobiq Ittifoq Oliy Soveti “Davlat pensiyalari to‘g‘risida”gi qonuniga asosan harbiy xizmatchilar davlat pensiyasi huquqiga ega bo‘ldilar. Qonun asosida harbiy xizmatchilar fuqarolar singari 3 xil toifa pensiyani olish huquqidan foydalanib kelishgan. 1990-yil 28-aprelda “Harbiy xizmatchilarning pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi bilan, unda uzoq yillik xizmat tushunchasi ishlatiladi va yoshga doir pensiya o‘rniga uzoq yillik xizmat pensiyasi joriy qilinadi. Bu hol ilm-fanda yangi tushunchalarni paydo qildi.

Masalan, A.Inoyatovning qayt etishicha, harbiy va boshqa maxsus davlat xizmati davrlari, shuningdek ayrim sohalarda ishlagan davrlar

qonunchilikda uzoq yillik xizmat davri deyilsa, ayrim normativ huquqiy hujjatlarda ushbu faoliyat ham mehnat staji deb yuritiladi [1].

Huquqshunos olim Y.Tursunov: “davlat xizmatining muayyan turlari bilan band bo‘lgan fuqarolar, shuningdek qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan hollarda ma’lum lavozimda yoki faoliyatning muayyan turi bilan band bo‘lgan hollarda bu davrlar mehnat stajiga hisoblanishidan tashqari qo‘shimcha imtiyozlar berilishiga asos bo‘lishi mumkin” deb ta’kidaydi va – “Bunday davr uzoq yillik xizmat davri deb nomlanadi” deydi [2].

Yuridik adabiyotlarda “uzoq yillik pensiya”, “yoshga doir pensiya” tushunchalari yonma-yon ishlatilsada, bir-biridan farqli jihatlari ochib berilmagan.

Masalan, umumiy asosda yoshga doir pensiya olish uchun erkaklarga 25 yillik mehnat staji va 60 yosh kategoriyasi harbiy xizmatdagilarga talab sifatida qo‘llanilmaydi. Sababi harbiy xizmat xususiyati (masalan, harbiy xizmatda bo‘lishning maksimal yosh chegarasi belgilangan, xizmatning bir kuni 3 kunga teng hisoblanadigan davrlari bor), yuqori jangovar shaylik, fiziologik chiniqishlar, his-hayajon va boshqa holatlar imkon bermaydi.18 yoshdan harbiy xizmatga chaqirilib, 60 yoshda pensiyaga chiqish uchun 42 yil xizmat qilish juda mushkul masala.

Shu bois harbiy xizmatchilar pensiya ta’minoti haqida to‘xtalganda, birinchi navbatda uzoq yillik xizmat pensiyasi xususida fikr yuritiladi.

Jumladan, A.Inoyatov “uzoq yillik xizmat uchun beriladigan pensiya- odatda, yoshidan va mehnat qobiliyatining haqiqiy holatidan qat’iy nazar, ma’lum darajada maxsus staji bo‘lganda belgilanadigan pensiya bo‘lib, undan maqsad bunday fuqarolarni ular ko‘p yillik mobaynida ishlab kelgan ishini davom ettirish zaruratidan xalos etish, boshqa ishga o‘tishlari yoxud mehnat faoliyatini butunlay to‘xtatishlari munosabati bilan ular yo‘qotgan ish haqining kattagina qismini qoplashdan iborat”, deb ta’kidlaydi.

Taassufki, bugungi kunda harbiy xizmatchilarning ushbu huquqlari sobiq Ittifoq davrida qabul qilingan eski qonunchilik asosida amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, harbiy xizmatchilar pensiyasi bugungi kunda SSSR Oliy Sovetining 1468-1-son qarori bilan 1990-yil 28-aprelda

tasdiqlangan “Harbiy xizmatchilarning pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonuni bilan tartibga solinib kelinmoqda.

Mazkur qonun eskirgan bo‘lib, zamonaviy pensiya ta’minotidan ortda qolgan, harbiy qism va muassasalarda kadrlar bo‘limi tomonidan xizmatdan bo‘shash vaqtida xizmat muddatini hisoblashda hamda Moliya-iqtisod boshqarmalarining Ijtimoiy ta’minot bo‘limi tomonidan pensiya tayinlash amaliyotida o‘ziga xos muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Masalan, harbiy pensiyalarni tayinlash jarayonida ish haqi yakka koeffitsientini qo‘llagan holda hisoblab chiqishning markazlashtirilgan elektron reestri bazasi Qurolli Kuchlar tizimida mutlaqo yo‘q, pensiya ta’minoti bo‘limlari davlat xizmatlari markazlari yoki interaktiv davlat xizmatlari modullari (my.gov.uz, Government to Citizens)ga ulanmagan, shu paytgacha ular orqali zarur ma’lumot va hujjatlarni olish imkoniyati yaratilmagan.

Shu jihatdan ko‘ra, huquqshunos olim M.Ziyadullayevning “fuqarolik pensiyalari qulay” degan fikriga qo‘shilmaslikning iloji yo‘q [3].

Chunki, Qurolli Kuchlarda hozirgi vaqtga qadar harbiy pensiya ta’minoti bo‘yicha haligacha eskicha tartibda ishlanadi, ma’lumot kerak bo‘lib qolsa pochta orqali murojaat qilinib, bunga o‘rtacha 10 kun muddat ketadi, pensionerlar bilan ishlaydigan maxsus bo‘lim esa hududlarda yo‘q, ish hajmi katta, maxfiylik tariboti bahonasida davlat soliq qo‘mitasi, xalq banki yoki davlat xizmatlari markazlari elektron axborot bazalari bilan integratsiya yo‘lga qo‘yilmagan.

Pensiya olish uchun kontrakt asosidagi harbiy xizmatchilar iste’foga chiqayotganda kadrlar bo‘limi orqali hujjatlarni rasmiylashtirib, Qurolli Kuchlar tarkibidagi vazirlik va idoralarning Moliya-iqtisod boshqarmalariga murojaat qilishsa, muddatli askarlar tuman pensiya bo‘limlariga ariza berishadi. Bunaqa tartib O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tarkibidagi barcha harbiy tuzilmalarga xos, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Eng qizig‘i, bu boradagi xorijiy tahlillarimiz aksariyat MDH davlatlarida bir xil tartib mavjudligini ko‘rsatadi. Xususan, professor N.Antipeva Rossiyada ham “shunaqa tartib amal qilishi”ni ta’kidlaydi [4].

Rossiya olimlaridan R.Razov, A.Chayev va V.Arxipovlar esa Rossiyada ham “harbiy pensiyalarni hisoblash murakkab ekanligigini, undagi muammolar pensiya hamda pul ta’minoti miqdorlari o‘rtasida katta yo‘qotishlar keltirib chiqarayotgani”ni qayd etishadi [5].

Bu borada AQSH tajribasi e’tiborga molik bo‘lib, unda 2016-yildan joriy qilingan aralash pensiya tizimi (NDAA, Unifformed Services) orqali xizmatni 2 yilidan to 26 yil to‘lguniga qadar badallar ajratish (TPS) va tegishli ballarni (4320 ball) yo‘li bilan kelgusida kamida 85-100% pensiya bilan ta’minlanish huquqini qo‘lga kiritish mumkin bo‘ladi. Eng qizig‘i, harbiy xizmatchilar yaratilgan virtual portal (virtual MPF yoki pensiya va nafaqalar bo‘yicha rasmiy sayt - Family Advocacy Program) orqali barcha jarayondan xabardor bo‘lib turadi [6].

Bizda hozircha bunaqa elektron imkoniyatlar yaratilmagan, hatto oxirgi xizmat yili to‘liq 12 oyni tashkil etmasa, mazkur yil staj tariqasida yaxlitlanmaydi.

Harbiy pensiya harbiy xizmatchi pul ta’minoti miqdoriga nisbatan foizlar nisbatida aniqlanadi. Uni aniqlash tartibi “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonun asosida belgilab berilishi ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, harbiy xizmatning umumiy kalendar va imtiyozli hisobdagi davrlari alohida-alohida hisoblanadi.

Masalan, DXX, Mudofaa vazirligi, IIV, FVV, Davlat bojxona qo‘mitasi singari vazirlik va idoralarda xizmat qilib, boshqa vazirlikka harbiy xizmatga qabul qilingan yoki ko‘chirilgan fuqarolar pensiyaga chiqayotganida imtiyozli xizmat davrlarini hisoblashda mazkur idoralardagi xizmat yillarini aniqlash bo‘yicha muammolar kelib chiqadi.

Bunga esa mavjud qonunchilik bo‘shliqlari va shundan foydalangan holda taqdim etiladigan ma’lumotnomalar ba’zan sabab bo‘ladi.

Xususan, qoidaga binoan, jangovar harakatlar, terroristik tashkilotlarning qurollangan tuzilmalarini aniqlash va yo‘q qilish bo‘yicha maxsus operatsiyalarni o‘tkazish davomida jangovar vazifalarni bajarishda qatnashgan, shu jumladan, yuqorida ko‘rsatilgan harakatlarda qatnashish davrida yarador bo‘lgani sababli davolash muassasalarida bo‘lgan harbiy

xizmatchilarga xizmat yili har bir kuni 3 kunga imtiyozli ravishda pensiya tayinlashda hisoblanadi.

Lekin, hozirgi vaqtda jamoat xavfsizligiga tahdid soladigan xavf-xatarlar bo‘yicha barcha operatsiyalarni “urush” fenomeniga tenglashtirib bo‘lmaydi, alohida davr yoki maxsus operatsiya esa Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni qarori bilan joriy qilinadi. Bunday vaziyatlarda imtiyozli davrlarni hisoblash qiyinchilik tug‘diradi va qo‘shimcha hujjatlarga murojaat qilishga undaydi.

Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 13-oktabrdagi “Xususiy mulk va tadbirkorlikni korrupsiya, reket va uyushgan jinoyatchilikning boshqa turlaridan himoya qilishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 505-son qaroriga asosan tashkil etilgan IIV Korrupsiyaga, reketga va terrorchilikka qarshi kurash Bosh boshqarmasi boshliqlar tarkibining, Korrupsiya, reket va terrorchilikka qarshi kurash boshqarmasi boshlig‘ining hamda uning o‘rinbosarlarining uzoq muddat ishlaganlik yillari ularning faqat pensiyaga chiqish vaqtidagina 1 oyi 1,5 oy sifatida hisobga o‘tishi belgilangan.

Ammo, ushbu qaror Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining o‘z ahamiyatini yo‘qotgan ayrim qarorlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi 87-sonli qaroriga asosan 2021-yil 22-fevral sanasidan boshlab bekor qilinganligini inobatga oladigan bo‘lsak, demak, faqat 1994-yil oktabrdan – 2021-yil fevral oyiga qadar xizmat davrlari pensiyaga imtiyozli tarzda tatbiq qilinadi. Tag‘in, bu qoida barcha xodimlarga emas, faqatgina ushbu Boshqarmaning boshliqlar tarkibidagi (yoki o‘rinbosar hisoblangan) xodimlariga tegishli hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, aslini olganda uzoq yillik xizmat davrini hisoblashdagi imtiyozli davrlarni yoki shunga o‘hshash mintaqaviy koeffitsientlarni qo‘shib aniqlash qonunchilikning hozirgi zamon huquqiy muammolaridan biriga aylangan.

Sababi, milliy qonunchiligimizda Hukumat qarorlari bilan yangidan-yangi mintaqaviy koeffitsientlar miqdori belgilab berilayotgan bo‘lsa [7], ayrim hududlar bo‘yicha hamon esa eski hujjatlar amalda [8].

Masalan, SSSR Ministrlar Sovetining 1990-yil 15-dekabrdagi 1290-sonli qarorining 1-ilovasiga ko‘ra O‘zbekiston hududida Buxoro viloyatining Qorovulbozor, Kogon tumanlari, Qashqadaryo viloyatining Muborak tumani, Samarqand viloyatining Kattaqurg‘on tumani, Surxondaryo viloyatining Angor, Jarqo‘rg‘on, Termez, Sherobod tumanlari va Termez shahri, Navoiy viloyatining Zarafshon shahri va Uchquduq tumani 1985-yildan e’tiboran 1 yillik xizmat 1,5 yil xizmat hisobida inobatga olinishi belgilangan [9].

Yuqoridagi imtiyozli xizmat yillarini aniqlash, hisoblash va karralab qo‘shish tartibi amalda kadrlar malakasiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Harbiy qism va muassasalardagi kadrlar bo‘limi mas’ul shaxslari bu borada zarur bilim va ko‘nikmaga ega emasligi, qonunchilik yangiliklaridan bexabarligi esa ayrim hollarda xizmat yilini noto‘g‘ri hisoblanishiga, oxir-oqibat xizmatdan bo‘shagan harbiy xizmatchi pensiyasiz qolishiga muayyan darajada sabab bo‘ladi.

Qisqa qilib aytganda, eski sobiq Ittifoq qonuni bugungi taraqqiyot darajasi va talablari darajasiga javob bermay qo‘ydi, qonunning havolaki qoidalari amaliyotda murakkabliklar paydo qilmoqda. Shu bois, sohaga oid qonunchilikni yangilash, pensiya bo‘limlari faoliyatini elektronlashtirish, xususan xizmat yilini avtomatik ravishda elektron yuritishga o‘tish, ish yuritishni allaqachon zamonaviy raqamlashtirish lozim, deb hisoblaymiz. Pensionerlar uchun “PENSIY.MG.UZ” mobil ilovalarini joriy qilishni taklif etamiz.

Zero, hozirgi kunda shunaqa innovatsion ishlanmalar yoki ilg‘or qonunchiliksiz harbiy pensiya ta’minotini zamonaviy asosda isloh qilishga va takomillashtirishga erisha olmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy ta’minot huquqi. Mas’ul muharrir A.Inoyatov. Darslik – T.: TDYUI, 2005. – B. 77.
2. Tursunov Y. Ijtimoiy ta’minot huquqi.-T.: O‘qituvchi, 2013.-B. 37.
3. Ziyadullaev M. O‘zbekistonda ijtimoiy ta’minot huquqi va pensiya ta’minoti sohasida 2017-2021-yillarda amalga oshirilgan tub islohotlar. // Jamiyat va innovatsiyalar. 2001. - №8. – B.125.

4. Antipeva N.V. Sotsialnoe obespecheniye voyennoslujashix: problemi pravovogo regulirovaniya: avtoref. diss. dok-ra.yurid.nauk. Sankt-Peterburg, 2010. - S.34.

5. R.Razov, A.V.Chayev, Arxipov V.A. Sovremennoye sostoyaniye sotsialnoy zashiti voyennoslujashix VS RF // “Servis plyus” nauchniy jurnal. 2012. - №1. – S.84.

6. https://www.nationalguard.mil/About-the-Guard/Historical-Publications.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-sentabrdagi 743-son qarori bilan tasdiqlangan “Tabiiy-iqlim va maishiy sharoitlari og‘ir va noqulay bo‘lgan joylarda ishlovchi xodimlar mehnatiga haq to‘lashga tuman koeffitsientlarini, shuningdek, ularga har yili beriladigan qo‘shimcha ta’tilning eng kam muddatini belgilash va qo‘llash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. www.lex.uz.

8. Postanovleniye Soveta Ministrov SSSR ot 15-dekabrya 1990-goda “O visluge let dlya naznacheniya pensiy litsam ofitserskogo sostava, praporshikam, michmanam i voyennoslujashim sverxsrochnoy slujbi, litsam nachalstvuyuhego i ryadovogo sostava organov vnutrennix del i posobiyax etim voyennoslujashim, litsam nachalstvuyuhego i ryadovogo sostava i ix semyam” za №1290.

9. Prilojeniye №1 k postanovleniyu Soveta Ministrov SSSR ot 15-dekabrya 1990-goda “Perechen otdalyonnix mestnostey SSSR, v kotorix slujba lits ofitserskogo sostava, praporshikov, michmanov i voyennoslujashix sverxsrochnoy slujbi zashitivayetsya v vislugu let dlya naznacheniya pensii na lgotnix usloviyax.

JINOYAT PROTSESSIDA HUQUQIY MAQOMI BELGILANMAGAN SHAXSLAR BO‘YICHA ISH YURITISHNI RAD ETISH YOKI TUGATISH

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbaevich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Jinoiy-huquqiy fanlar” kafedrasi dotsenti,
yu.f.b.f.d (PhD), mayor

Dunyoda jinoiy jazolarni liberallashtirish, aybsiz shaxslarni javobgarlikka tortmaslik va javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash, inson sha’ni va qadr-qimmatini asrashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shaxslarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha ish yuritishni rad etish yoki tugatishda huquqiy maqomi belgilanmagan shaxslarning vafoti bilan bog‘liq hollarda xam jinoyat protsessual muammolar mavjudligini kuzatishimiz mumkin.

Jumladan, amaldagi JPKning 84-moddasi birinchi qismi 3-bandiga muvofiq, basharti, ayblanuvchi, sudlanuvchi vafot etgan bo‘lsa, uning aybliligi to‘g‘risidagi masala hal etilmay jinoyat ishi tugatilishi belgilangan. Amaliyotda mazkur holatlar ko‘plab uchrashi sababli, bu boradagi muammolar ham o‘ziga hoslikni kasb etmoqda. Hususan, IIV Tergov Departamenti va uning quyi bo‘linmalari tomonidan 2017-2021 yillar davomida jami **1 829 ta** jinoyat ishlari ayblanuvchilarning vafot etganligi sababli tugatilgan.[1] Bu ko‘rsatkich sudlarda **269 ta** jinoyat ishlari va ularda jami **343 nafar** vafot etgan sudlanuvchilarga nisbatan tugatilgan jinoyat ishlarini tashkil etadi.[2] Biroq amaliyotda gumon qilinuvchi yoki tergovga qadar tekshiruv davomida vafot etgan shaxslar bilan bog‘liq holatlar yana katta raqamlarni tashkil etmoqda, bu esa o‘z navbatida mazkur masalalarda qonunchilikni takomillashtirish zaruratini taqozo etmoqda.

S.Maxmudov [3] va B.Murodovlar [4]ning ta’kidlashicha, JPKning 84-moddasi birinchi qismi 3-bandida ayblanuvchi va sudlanuvchidan tashqari gumon qilinuvchining ham qayd etilmaganligi amaliyotda turli tushunmovchiliklarga sabab bo‘lmoqda. Har ikki tadqiqotchilar Kodeks

84-moddasi birinchi qismining 3-bandida “ayblanuvchi” va “sudlanuvchi” bilan bir qatorda, “gumon qilinuvchi”ni ham qayd etishni lozim, deb hisoblaydilar.

Yuqoridagi mualliflarning fikriga qo‘shilgan holda shuni aytish mumkinki, haqiqattan ham amaliyotdagi holatlar bevosita vaziyatdan kelib chiqib, qaror qabul qilishni talab etganligi bois, ko‘p hollarda jinoyat-protsessual qonunchilikka mutanosib bo‘lavermasligi, jinoyat-protsessual kodeksining qonuniylik prinsipiga ziddir. Biroq yuqoridagi olimlar fikrlarida jinoyat ishi qo‘zg‘atilgach, ishni yuritish davomida gumonlanuvchining vafot etganligi holati nazarda tutilmoqda holos. Ammo, tergovga qadar tekshiruv davomida ham jinoyat subekti sifatida jalb etilishi lozim bo‘lgan shaxsning o‘z joniga qasd qilganligi yoxud boshqa sabablarga ko‘ra (yo‘l-transport hodisasi vaqtida va hk.) vafot etgan vaziyatlarda, tergovga qadar tekshiruv yuzasidan qaror qabul qilish lozim bo‘lganida, hech qanday maqomga ega bo‘lmagan shaxsga nisbatan jinoyat ishini ayblilik masalasini hal etmay turib tugatish uchun qaror qabul qilinishi albatta jinoyat-protsessual qonunchiligiga ziddir.

Bu borada B.Murodov xam 84-modda birinchi qismining 3-bandida nafaqat “gumon qilinuvchi”ni balki “ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxs”ni ham aks ettirish lozimligini ta’kidlagan.[4]

Albatta tergovga qadar tekshiruv – protsessual nuqtai nazardan jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi bilan yakunlanuvchi bosqich bo‘lganligi sababli, bunda shaxsning biror-bir maqomda e’tirof etishning imkoni bo‘lmaydi. Shunday bo‘lsada, jinoyat ishi bo‘yicha tergov harakatlarini ham davom ettirishlik ham tergov yuzasidan maqsadga muvofiq bo‘lmaydi. Basharti tergovga qadar tekshiruv vaqtida kelgusida ayblanuvchi tariqasida jalb etilishi lozim bo‘lgan shaxs vafot etgan taqdirda, uning mazkur maqomini JPKning 84-moddasi 1-qismi 3-bandida mustahkamlash lozim bo‘ladi. Bunda mazkur shaxsning aybi to‘plangan tergovga qadar tekshiruv hujjatlari bilan o‘z isbotini topishi xam muhim sanaladi, chunki marhumning qarindoshlari tomonidan ish rad etilishi yoki tugatilishi ustidan shikoyat qilish huquqi saqlanganligi bilan bir qatorda,

surishtiruvchi va tergovchilar uchun ishni ossongina hal etish borasida omil sifatida xizmat qilmasligi kerak.

Shu bilan birga mazkur normalar o‘rtasida kollizion tafovvut boriligini xam kuzatishimiz mumkin bo‘ladi. Chunonchi, JPKning 84-moddasi birinchi qismi 3-bandida faqatgina ayblanuvchi va sudlanuvchi vafot etgan taqdirdagina ishni ayblilik masalasini hal etmay turib tugatish mumkinligi belgilab qo‘yilgan. JPKning 333-moddasida, 84-moddasi birinchi qismining 1,3–8-bandlarida nazarda tutilgan holatlar aniqlangan taqdirda, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risida qaror chiqarishi lozimligi belgilangan. Mantiqiy nuqtai nazardan yuqorida keltirib o‘tganimizdek tergovga qadar tekshiruv vaqtida mazkur vafot etgan shaxsning biror maqomi belgilanmaydi, buning imkoni ham mavjud emas. Ya’ni JPK talablarida shaxsni faqatgina jinoyat ishi doirasidagina gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi sifatida ishga jalb etish mumkin, tergovga qadar tekshiruv vaqtida esa uning ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligini va kelgusida jinoyat ishi qo‘zg‘atilganidan so‘ng ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etilishini mantiqan anglasakda, ushbu shaxsga hech bir maqomda bo‘lmaganligi sababidan protsessual choralar ko‘rilmaydi. JPKning 84-moddasi 1-qismi 3-bandida faqatgina ayblanuvchi va sudlanuvchi maqomidagi shaxsning vafot etganligi holati ishni tugatishga asos sifatida belgilab qo‘yilgan, tergovga qadar tekshiruv natijasi bo‘yicha esa bunday shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etishning imkoni mavjud bo‘lmaydi, qolaversa JPKning 333-moddasida jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish borasidagi holatlar tergovga qadar tekshiruv natijasi uchun nazarda tutilgandir.

F.Yu.Vasilev, o‘zining tadqiqotlarida Rossiya qonunchiligi nuqtai nazaridan reabilitatsiya etilmaydigan asoslarga ko‘ra jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish borasida, gumon qilinuvchi va ayblanuvchini vafot etganligi holati boshqa norma bilan huddi shunday shaxslarning tergovga qadar tekshiruv davomida vafotini aks ettirishi lozimligini, bunda ularning yaqin qarindoshlari qaror va hujjatlar bilan tanishtirilishi va qaror ustidan

shikoyat qilish huquqi tushuntirilishi lozimligini, biroq ularning qarordan roziligini olish sharti bo‘lishi maqsadga nomuvofiqligini bildirib o‘tgan[5]. Mazkur fikrlarga qo‘shilish mumkin, chunonchi yaqin qarindoshlarning bu boradagi huquqlari tushuntirilishi yetarlidir, ularning roziligini olish shart qilib belgilanishi surishtiruv va tergov jarayonida qiyinchiliklarni va protsessual muddatlarning cho‘zilishiga olib keladi.

S.Peretokin esa bunday shaxslarning vafot etganida, ularga nisbatan reabilitatsiya etilmaydigan asoslarga ko‘ra ishni tugatishda ularning yaqin qarindoshlari roziliklarini olishni majburiy tartibi belgilab qo‘yilishi lozimligini bildirgan[6].

S.Peretokinning fikrlariga qo‘shilishning imkoni yo‘q, sababi bu jarayonda vafot etgan shaxsning yaqin qarindoshlari uning “pok nomi”ni saqlab qolish motivida bo‘lishi tabiiydir va bu sun’iy ravishda ishning cho‘zilib ketishiga olib keladi. Vafot etgan shaxsning yaqin qarinoshlariga shunday qaror ustidan shikoyat qilish huquqi tushuntirilishi va keyingi harakatlar mexanizmi qonunchilik bilan belgilanishi albatta kifoya qiladi degan fikrdamiz.

Bu borada surishtiruv va tergov idoralarida xizmat olib boruvchi respondentlar o‘rtasida o‘tkazilgan anketa so‘rovnoma natijalariga ko‘ra ham ko‘pchilik respondentlar tomonidan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida jalb etilishi lozim bo‘lgan shaxs vafot etganda, jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilishdan oldin mazkur vafot etgan shaxsning yaqin qarindoshlaridan rozilik olish bo‘yicha biror hujjat rasmiylashtirmasliklarini bildirib o‘tdilar[7].

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 36-moddasida “Agar fuqaroning qaerda turganligi haqida uning yashash joyida uch yil mobaynida ma’lumot bo‘lmasa, basharti u o‘lim xavf solib turgan yoki muayyan baxtsiz hodisadan halok bo‘lgan deb taxmin qilish uchun asos bo‘ladigan vaziyatlarda bedarak yo‘qolgan bo‘lib, uning qaerdaligi haqida olti oy mobaynida ma’lumotlar bo‘lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud uni vafot etgan deb e’lon qilishi mumkin.

Harbiy harakatlar munosabati bilan bedarak yo‘qolgan harbiy xizmatchi yoki boshqa fuqaro harbiy harakatlar tamom bo‘lgan kundan e’tiboran kamida ikki yil o‘tgandan keyin sud tomonidan vafot etgan deb e’lon qilinishi mumkin.

Fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish bunday fuqaroning huquq va burchlari borasida uning o‘limi olib kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni vujudga keltiradi.”[8] deya belgilab qo‘yilgan.

Mazkur fuqaroviy sud tomonidan shaxsni vafot etgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi qarorning jinoyat-protsessual qonunchilikda aks etmaganligi bu boradagi huquqiy bo‘shliq mavjudligi bilan izohlanadi. Huquq nazariyasiga ko‘ra va amaliyot nuqtai nazaridan “qonunda nimaiki taqiqlanmagan bo‘lsa, ruhsat berilishi”[9] tamoyiliga ko‘ra ish yuritilganligi bois fuqarolik va fuqarolik protsessual qonunchilikdagi shaxsni vafot etgan deb e’lon qilish bilan bog‘liq munosabatlar jinoyat protsessual qonunchiligiga tadbiq etilmoqda. Biroq shaxsning fuqaroviy sud tomonidan vafot etgan deb e’lon qilishi uning vafotini faktik ekanligini anglatmaydi va bu ba’zi shaxslarning osongina jinoiy ta’qibdan qutilib ketishiga imkon beradi.

Ilg‘or xorijiy davlatlarning protsessual qonunchiliklarida bu borada belgilangan qoidalariga nazar tashlasak, Rossiya Federatsiyasi JPKning 24-moddasi 1-qismi 4-bandida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi vafot etgan taqdirda unga nisbatan yuritilgan tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishi xamda jinoiy ta’qib tugatilishi belgilangan bo‘lib, istisno tariqasida vafot etgan shaxsning reabilitatsiya qilinishi lozim bo‘lgan hollarda bunday ishlarni tugatilishiga yo‘l qo‘yilmasligi mustahkamlab qo‘yilgan. Bunday murojaatlarni, vafot etganning yaqin qarindoshlari, qarindoshlari yoki unga yaqin bo‘lgan boshqa shaxslar berishi mumkinligi belgilangan[10].

Rossiya Federatsiyasi JPKning yuqorida nazarda tutilgan normasida faqatgina tergovga qadar tekshiruv, jinoiy ta’qib va jinoyat ishi tugatilishi borasida vakolat berishini inobatga olgan holda sudlanuvchi maqomini kiritmagan deb o‘ylaymiz, biroq mazkur JPK sud ishini tugatilishini alohida asoslarini nazarda tutmaganligi bois bu bo‘shliq tushunarsizdir.

Ozarbayjon davlatining JPK 39-moddasi 39.1.5-bandida jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan qilmishni sodir etgan shaxs mazkur qilmishni sodir etganidan so‘ng vafot etsa barcha jinoiy ta’qib, tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishi tugatilishi belgilangan. Bunda vafot etgan shaxsning reabilitatsiya qilinishi lozim bo‘lgan hollarda qo‘llanilmasligi istisno tariqasida belgilab qo‘yilgan[11].

Ozarbayjon davlatining JPKda boshqa davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligiga qaraganda o‘zgacharoq uslubda mazkur masala hal etilganligini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni bunda shaxsni biror maqomi ko‘rsatilmaganligi, yanada aniqroq aytganda jinoiy qilmishni sodir etgan shaxs vafot etsa bunday ishlarni rad etishi yoki tugatilishi belgilangan. Albatta normaning bunday sodda va tushunarli belgilanishi sud va tergov amaliyoti uchun xam qulayliklar beradi.

Ozarbayjon kabi Armaniston Respublikasi JPKning 35-moddasi 1-qismi 10-bandida xam xuddi shu kabi vafot etgan shaxsni gumonlanuvchi yoki sudlanuvchi maqomi belgilanmagan. Biroq Armaniston Respublikasi JPKda Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan tartibda shaxsni vafot etgan deb topilgan hollarida bu qoidaga rioya etilmasligi ya’ni ish yuritilishi rad etilmasligi yoki tugatilmasligi, bunday hollarda faqat Bosh prokuror qaror qilishga vakolatli ekanligini belgilab qo‘yilgan[12].

Gruziya davlati JPKning 105-moddasida 2-qismi “v” bandida[13], Yaponiya JPKning 339-moddasi 4-bandida[14], Birlashgan Arab Amirliklari JPK 20-moddasi 1-qismida[15], Saudiya Arabistoni JPK22-moddasi 1-qismi 4-bandida[16], faqatgina ayblanuvchi vafot etgan taqdirda jinoiy ta’qib va jinoyat ishi tugatilishi mumkinligi belgilangan.

Janubiy Koreyada[17] va Estoniya[18] davlatlarida bu borada o‘zgacharoq tajriba shakllangan bo‘lib, unga ko‘ra Koreya JPKning 328-moddasi 1-qismi 2-bandida javobgarning vafot etishi va Estoniya JPKning 199-moddasida 1-qismi 4-bandida gumonlanuvchi va ayblanuvchining vafot etish hamda xar ikki davlatda yuridik shaxsning tugatilishi jinoiy ta’qibni bekor qilinishiga sabab bo‘ladi.

Mamlakatimizda bu boradagi masalalarni Janubiy Koreya, Ozarbayjon yoki Armaniston Respublikalarining JPKlarida belgilanganligi

kabi javobgarning yoki qilmishni sodir etgan shaxsning vafoti munosabati bilan yuritilgan tergovga qadar tekshiruv yoki jinoyat ishini tugatish borasida qoidalar milliy jinoyat-protsessual qonunchiligimizda aks etishi quyidagi natijalarni berishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi IIV Tergov Departamentining 21.03.2022 yildagi 18/2509-sonli ma’lumotnomasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining 11.05.2022 yildagi 07/13-4853-150-sonli ma’lumotnomasi
3. Maxmudov S.A. Ayblilik to‘g‘risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatishning. Ayrim jihatlari // Yurist axborotnomasi – Vestnik yurista – Lawyer herald. № 6 (2020), B. 110-115
4. Murodov B.B. Jinoyat ishini tugatish: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent – 2015. O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi. 86-bet
5. Василев Фёдор Юревич. Институт отказа в возбуждении уголовного дела автореферат диссертatsiи на соискание ученой степени кандидата юридических наук Санкт-Петербург 2016. Ст. 15-16,20.
6. С.Н.Перетокин, “Охрана прав и свобод человека и гражданина при прекращении уголовного дела” автореферат на соискание ученой степени кандидата юридических наук Москва – 2006 ст. 13,24
7. Tadqiqot ishi doirasida olib borilgan surishtiruvchi, tergovchi, amaliyotchi va huquqshunoslardan iborat respondentlar jamoasi o‘rtasidagi so‘rov natijalari
8. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. 21.12.1995 yil Toshkent https://lex.uz/docs/111189 murojaat sanasi 11.05.2022 yil
9. Fuqarolik huquqi tamoyillarining nazariy va amaliy muammolari. Muxammadiev Ayub Abduraxmanovich. Toshkent 2010. 193 bet.
10. Уголовно-процессуалный кодекс Российской Федератsии (от 18 декабря 2001 года); Уголовно-процессуалный кодекс КНР (от 17 марта 1996 года) ст.24

11. Уголовно-процессуалный кодекс Азербайджанской Республики. Утвержден Законом Азербайджанской Республики от 14 июля 2000 года № 907-IQ. Статя 39

12. Уголовно-процессуалный кодекс Республики Армения от 1 сентября 1998 года №ЗР-248 ст. 35.

13. Уголовно-процессуалный кодекс Грузии Общая част Раздел I Уголовно-процессуалное законодателство и принципы Тбилиси 9 октября 2009 года № 1772-IIс рм ст.105

14. Япония жиноят-процессуал кодекси (Кэйдзи-сошё-хо). Qонун № 131. 10.07.1948 й. 339-моддаси

15. Уголовно-процессуалное право ОАЭ. Основные положения статя 20

16. Уголовно-процессуалное право - Саудовская Аравия Уголовно-процессуалный закон Королевский указ № (М / 39) 28 раджаба 1422 г. - 16 октября 2001 г. статя 22

17. Уголовно-процессуалный акт Южной Корее (Хёнса-сосон-беоп) Закон № 341 от 23 сентября 1954 ст 328

18. Уголовно-процессуалный кодекс Эстонии. Принят 12.02.2003 RT I 2003, 27, 166 Вступил в законную силу 01.07.2004. Статя 199. Обстоятелства, исключающие уголовное производство

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA FUQAROLAR ISHTIROKINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH BORASIDA KONSTITUSIYA VA QONUNLARNING ROLINI OSHIRISHGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Yuldashev Marks Oybek o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

O‘tgan yillar davomida mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolar ishtirokini huquqiy jihatdan belgilash va mustahkamlash borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Shubhasiz bu borada amalga oshirilgan muhim ishlardan biri – 2023-yil 30-aprelda qabul

qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitusiyasida jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolar ishtiroki masalalari yanada mustahkamlanganligi bo‘ldi. Binobarin, har bir davlat o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lini tanlar ekan, xalq farovonligini ta’minlashga xizmat qiladigan eng muhim maqsad va vazifalarini o‘zining Konstitusiyasi – Asosiy qonunida mustahkamlab oladi[1].

Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitusiyasida: *birinchidan*, qonuniylik va huquqiy tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko‘rsatishlari mumkinligi aniq belgilandi (146-modda); *ikkinchidan*, fuqarolar jamiyat va davlat ishlari, shu jumladan jamoat xavfsizligini ta’minlashni boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egaligi, ayniqsa yoshlarning bu boradagi faol ishtiroki davlat tomonidan rag‘batlantirishi O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitusiyasida huquqiy mustahkamlandi; *uchinchidan*, fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari fuqarolarning uyushgan shakllari bo‘lib, fuqarolarning uyushgan holda jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi ishtirokida muhim o‘rin tutadi hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida ularning faoliyati yetarlicha huquqiy mustahkamlandi; *to‘rtinchidan*, Konstitusiyaning Davlat hokimiyatining tashkil etilishiga doir normalarida jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining konstitusiyaviy-huquqiy maqomi belgilab berildi hamda ushbu normalar ularning jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini boshqarish, muvofiqlashtirish va tashkil etishga doir faoliyatida muhim prinsipial va metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi[2].

[1] *Saidov A.X.* Yangi O‘zbekiston hamda konstitusiyaviy islohotlar // Academic research in educational sciences. 2022. №TSTU Conference 2 // Elektron manba: URL: https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-zbekiston-amda-konstitutsiyaviy-islo-otlar (murojaat vaqti: 11.12.2023).

[2] *Zivodullayev M.Z., Yuldashev M.O.* O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitusiyasi – jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolar ishtirokining muhim huquqiy asosi. 2023. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi // Elektron manba: URL: https://zenodo.org/records/10353492 (murojaat vaqti: 10.05.2024).

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolar ishtirokini ta’minlashni huquqiy ta’minlash sohasida O‘zbekiston Respublikasi qonunlari muhim o‘ringa ega. Bugungi kunda mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolarning ishtirokini bevosita huquqiy tartibga soluvchi qonun mavjud bo‘lmasa-da, jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlarning faoliyatini belgilovchi bir qator qonunlarda ushbu masalaning ayrim jihatlari muayyan normalar bilan tartibga solingan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni:

4-moddasida jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri ekanligi;

9-moddasida ichki ishlar organlari o‘z faoliyatini ochiq va shaffof tarzda, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, boshqa tashkilotlar va fuqarolar, shuningdek ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshirishi;

11-moddasida ichki ishlar organlari o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida, qonunchilikda belgilangan tartibda davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi, zarur axborotni almashishi, shuningdek fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlashda ichki ishlar organlariga o‘z vakolatlari doirasida ko‘maklashishi shartligi;

13^1-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hududiy bo‘linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitishga tegishli hududda joylashgan fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, siyosiy partiyalarning, ommaviy axborot vositalarining vakillari va boshqa shaxslar taklif etilishi mumkinligi;

15 va 15^1-moddalarida ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan hamkorligini ta’minlash maqsadida qishloq, ovul va mahallalarda ichki ishlar organlarining tayanch punktlari, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish

bo‘yicha, shuningdek fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta’minlash borasida ichki ishlar organlari, boshqa huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalarining hamkorlikda ishlashini mahallalar kesimida tashkil etish bo‘yicha mahalla huquq-tartibot maskanlari tashkil etilishi hamda profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yordamchilari ularning tarkibiga kirishi;

17-moddasida ichki ishlar organlari o‘z vakolatlari doirasida bir qator huquqlarga, jumladan fuqarolarni ularning roziligi bilan hamkorlikka jalb etish, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlashda ichki ishlar organlariga yordam bergan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan fuqarolarni taqdirlash, shuningdek tashkilotlar va fuqarolardan ichki ishlar organlarining faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborotni bepul olish huquqlariga ega ekanligi aniq belgilab qo‘yilgan[1].

Fikrimizcha, kelgusida ushbu Qonunni ichki ishlar organlarining jamoatchilik tuzilmalari, xususan fuqarolar bilan hamkorligini rag‘batlantiruvchi, jumladan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoatchilik tuzilmalari va fuqarolar bilan samarali hamkorlikni ta’minlash ichki ishlar organlari faoliyatini baholashning muhim mezonlaridan biri ekanligini belgilovchi normalar bilan yanada mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Shu o‘rinda bu boradagi xorij tajribasiga e’tibor qaratilsa, Rossiya Federatsiyasining 2011-yil 7-fevraldagi “Politsiya to‘g‘risida”gi federal qonunining 9-moddasida politsiya faoliyatini amalga oshirishda fuqarolarning tizimga bo‘lgan ishonchini va qo‘llab-quvvatlashini ta’minlashga intilishi aniq belgilab qo‘yilgan[2].

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonunida ham jamoat

[1]O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami. – 2016. – № 38. – 438-m.
[2]Rossiya Federasiyasining 2011-yil 7-fevraldagi “Polisiya to‘g‘risida”gi federal qonuni // Elektron manba: https://zakonopolitsii.ru/glava-2/statya-9 (murojaat vaqti: 10.05.2024).

xavfsizligini ta’minlashda fuqarolarning ishtiroki, Milliy gvardiya bo‘linmalari bilan hamkorligiga doir muayyan normalar mavjud. Xususan:

3-moddada huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, jamoat tartibini saqlash, jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish maqsadida aholi punktlaridagi jamoat joylarida patrullik qilish O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi asosiy vazifalariga kirishi;

9-moddada Milliy gvardiya o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hamkorlik qilishi;

26-moddada Milliy gvardiya bir qator huquqlarga, jumladan fuqarolardan ma’lumotlarni va boshqa zarur hujjatlarni hamda materiallarni so‘rash va olish, shuningdek fuqarolarni o‘z roziligi bilan Milliy gvardiyaga ko‘maklashishga jalb etish, ko‘maklashgan fuqarolarni taqdirlash huquqlariga egaligi belgilab berilgan[1].

O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 5-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi qonunining 6-moddasida Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatining asosiy prinsiplari qatorida fuqarolarning yordamiga tayanish prinsipi keltirilgan bo‘lib, Qonunning 9-moddasida: “Davlat xavfsizlik xizmati o‘z faoliyatida aholi bilan yaqin aloqada bo‘ladi va fuqarolarning yordamiga tayanadi”, deb aniq ko‘rsatilgan. Shuningdek, Qonunning 21-moddasida Davlat xavfsizlik xizmati zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda davlat organlari va boshqa tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar bilan qonunchilikda belgilangan tartibda hamkorlik qilishi, 23-moddasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar, fuqarolardan ma’lumotlarni hamda

[1]O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-novabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 2020. – № 03/20/647/1569.

boshqa zarur hujjatlar va materiallarni so‘rash va olish, fuqarolarni ularning roziligi bilan ko‘maklashishga jalb etish, ko‘maklashgan fuqarolarni taqdirlash huquqiga egaligi huquqiy mustahkamlangan[1].

Shu o‘rinda bir masalaga e’tibor qaratish lozimki, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatini konspiratsiya prinsipi asosida, ya’ni o‘z faoliyatining, tezkor-xizmat axborotini olish, rasmiylashtirish, saqlash va undan foydalanishning alohida tartibini, shuningdek tezkor-xizmat hujjatlari bilan ishlash qoidalarini belgilagan holda amalga oshirishi belgilanganiga, ichki ishlar va Milliy gvardiya organlariga nisbatan yopiq tuzilma bo‘lishiga qaramay, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi qonunida fuqarolarning yordamiga tayanish prinsipi Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatining asosiy prinsiplari qatorida keltirilgani alohida e’tirofga sazovordir.

Shunday ekan, ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari faoliyatining Davlat xavfsizlik xizmati qaraganda ko‘proq fuqarolarning yordamiga va hamkorligiga tayanishini inobatga olib, Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonunlariga ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari faoliyatining asosiy prinsiplari qatoriga fuqarolarning yordamiga tayanish prinsipini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-fevraldagi “Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-75-son qarorida keltirilganidek, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi hamda «O‘zbekiston — 2030» strategiyasining qabul qilinishi milliy qonunchilikni takomillashtirish, qonun ijodkorligi jarayoni sifati va samaradorligini oshirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilish amaliyotini kengaytirish, shuningdek, huquqiy tartibga solish barqarorligini ta’minlash bo‘yicha bir

[1]O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 5-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 2018. – № 03/18/471/1022.

qator vazifalarni kun tartibiga qo‘ymoqda[1]. Darhaqiqat, gap – mamlakatimizda “Jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolarning ishtiroki to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish haqida bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolarning ishtirokini ta’minlash masalalari, jumladan uning tashkiliy asoslari, muvofiqlashtirish va rag‘batlantirish tartiblari bir qator qonunosti normativ-huquqiy hujjatlari bilan huquqiy belgilab berilgan. Xususan, fuqarolar va jamoat tashkilotlarini jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag‘batlantirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-yanvardagi 15-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq amalga oshirib kelinmoqda[2].

Bu borada Rossiya Federatsiyasida shakllangan ilg‘or tajriba shuni ko‘rsatadiki, jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda jamoatchilik ishtirokini samarali ta’minlash maqsadida, mamlakatda zarur huquqiy baza yaratilgan bo‘lib, unga «Jamoat tartibini saqlashda fuqarolarning ishtiroki to‘g‘risida»gi (2.04.2014-y.) federal qonun va 500dan ortiq hududiy normativ-huquqiy hujjatlarni kiritish mumkin[3]. Qolaversa shunday qonunlar Ukrainada – 2000-yil 22-iyunda[4], Qozog‘istonda – 2004-yil 9-iyulda[5] va Belarus Respublikasida 2003-yil 26-iyunda[6] qabul qilinganini ko‘rish mumkin.

---

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-fevraldagi “Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-75-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 2024. – № 07/24/75/0137.

[2]O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-yanvardagi “Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 15-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 2018. – № 09/18/15/0548.

[3]*Ильин П.О.* Особенности деятельности народных дружин из числа реестровых казачьих обществ, привлекаемых органами внутренних дел МВД России к охране общественного порядка // [Эл. источник]. – URL: http://cyberleninka.ru/article (дата обращения: 27.03.2024).

[4]Закон Украины № 1835-III (22.06.2000 г.) «Об участии граждан в охране общественного порядка и государственной границы» // [Эл. источник]. – URL: http:// uazakon.ru/zakon/zakon-ob-uchastii-grazdan-v-ohrane-poryadka-i-granitsi.html (дата обращения: 04.04.2024).

[5]Закон Республики Казахстан № 590-II (9.07.2004 г.) «Об участии граждан в обеспечении общественного порядка» // [Эл. источник]. – URL: http:// online.zakon.kz/Document/?doc_id=1049312 (дата обращения: 04.04.2024).

[6]Закон Республики Беларус № 214-З (26.06.2003 г.) «Об участии граждан в охране правопорядка» // [Эл. источник]. – URL: http:// http://laws.newsby.org/documents/laws/law0555.htm (дата обращения: 04.04.2016).

Fikrimizcha, quyidagi masalalarni huquqiy belgilab beruvchi O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolarning ishtiroki to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish lozim:

– jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolar ishtirokining asosiy prinsiplari;

– jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolar ishtirokining tashkiliy-huquqiy shakllari;

– jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida jamoatchilik tuzilmalarini tuzish va faoliyatini tashkil etish tartibi;

– jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etuvchi fuqarolar va jamoatchilik tuzilmalari vakillarining asosiy vazifalari, huquqlari va majburiyatlari;

– jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolar ishtirokidagi cheklovlar;

– jamoat xavfsizligini ta’minlovchi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolar ishtirokini ta’minlash bo‘yicha huquqlari va majburiyatlari;

– jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etuvchi fuqarolar va jamoatchilik tuzilmalari vakillarining ijtimoiy va huquqiy himoyasi, ularni rag‘batlantirish tartibi;

– jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolar ishtirokini muvofiqlashtirish va nazorat qilish.

Kelgusida mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolarning ishtirokini ta’minlash tartibini belgilovchi shunday qonunning qabul qilinishi, *birinchidan*, ushbu muhim yo‘nalishni tizimli, ya’ni qonundan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarigacha bo‘lgan tartibda huquqiy ta’minlash; *ikkinchidan*, ushbu sohaga doir O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlarida, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida hamda IIVning ichki idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan normalarni tizimlashtirishga xizmat qiladi[1].

1*Ziyodullayev M.Z.* Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish: yurid. fan. d-ri (DSc) diss-yasi. – Toshkent, 2019. – B. 240.

Yuqoridagi fikr va mulohazalarga asoslanib, quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

birinchidan, O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolar ishtirokining konstitusiyaviy-huquqiy asoslari yaratilgan hamda so‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan huquqiy sohadagi keng ko‘lamli islohotlar natijasida ushbu asoslar yanada huquqiy mustahkamlanib, takomillashib bormoqda;

ikkinchidan, bevosita jamoat xavfsizligini ta’minlovchi organlar bo‘lgan ichki ishlar, Milliy gvardiya va DXX organlari faoliyatini belgilab beruvchi qonunlarni ularning jamoatchilik tuzilmalari, xususan fuqarolar bilan hamkorligini rag‘batlantiruvchi, jumladan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoatchilik tuzilmalari va fuqarolar bilan samarali hamkorlikni ta’minlash ushbu organlar faoliyatini baholashning muhim mezonlaridan biri ekanligini belgilovchi normalar bilan mustahkamlash maqsadga muvofiqdir;

uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi qonunidan namuna olgan holda, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonunlariga ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari faoliyatining asosiy prinsiplari qatoriga “fuqarolarning yordamiga tayanish prinsipi”ni kiritish lozim;

to‘rtinchidan, xorijiy tajriba tahlili va bugungi kun amaliyotining ehtiyojidan kelib chiqqan holda mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolar ishtirokining asosiy prinsiplarini, tashkiliy-huquqiy shakllarini, bunda jamoatchilik tuzilmalarini tuzish va faoliyatini tashkil etish tartibini, bu borada fuqarolar va jamoatchilik tuzilmalari vakillarining hamda davlat hokimiyati organlarining huquqiy maqomini, mazkur sohada ijtimoiy va huquqiy himoya, rag‘batlantirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish masalalarini huquqiy tartibga soluvchi O‘zbekiston

Respublikasining “Jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolarning ishtiroki to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish maqsadga muvofiq.

MAMLAKATIMIZDA INSON HUQUQLARINI TA’MINLASHNING AHAMIYATI

Ubaydullayev Sherzod Muzaffarovich,
Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti
Maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi, mayor

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda milliy davlatchiligimizning mustahkam poydevori barpo etildi, qonun ustuvorligi va inson huquqlari, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan boshqa ajralmas huquqlari ta’minlandi.

O‘zbekistonda inson huquqlarini rag‘batlantirish, himoya qilish va ularga rioya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash sohasida aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi bo‘lgan **2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining** qabul qilindi. Ushbu hujjatda yaqin va o‘rta istiqbolda O‘zbekistonning taraqqiyot tendensiyalari, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini kompleks rivojlantirish yo‘nalishlari aniq belgilab berilgan[1].

So‘nggi yillarda mamlakatimizda «Inson qadri uchun» degan ezgu g‘oyani to‘liq ro‘yobga chiqarish, inson huquq va erkinliklari sohasidagi xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, davlat organlari faoliyatiga tizimli va bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha

[1] 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi // URL:http://www.lex.uz.

keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda[1]. Inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish hamda qonun ustuvorligini ta’minlash, shuningdek, jamiyat va har bir fuqaro hayotiga ularni tatbiq etish yangi O‘zbekistonning ichki va tashqi siyosatida markaziy o‘rinni egallab kelmoqda[2].

Inson huquqlari munosib hayot kechirish va insoniy salohiyatimizni rivojlantirishga imkon berish uchun zarur bo‘lgan barcha insoniy fazilatlar uchun muhimdir. Inson huquqlarini ta’minlash qo‘rquv, ta’qib yoki kamsitishsiz jamiyatda yashash uchun katta ahamiyatga ega.

Insonning asosiy huquq va erkinliklari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Ikkinchi bo‘limida bayon etilgan. 19-moddada aytilishicha O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar[3].

Inson huquqlari – bu insonning tug‘ilishidan to vafot etguniga qadar butun umri davomida unga hamrohlik qiladigan huquq va erkinliklardir. Ushbu universal huquqlar millati, jinsi, irqi yoki etnik kelib chiqishi, rangi, dini, tili yoki boshqa huquqiy maqomidan qat’i nazar, hech qanday kamsitishlarsiz barcha uchun xosdir. Inson huquqlari yashash huquqi kabi eng asosiy huquqlardan tortib, munosib turmush tarzini ta’minlashga xizmat qiladigan ta’lim olish, mehnat qilish yoki ijtimoiy ta’minot olish kabi huquqlariga qadar barcha huquqlarni qamrab oladi[4].

Inson huquqlarini ta’minlash bo‘yicha bir qator targ‘ibotlar o‘tkazilib aholining inson huquqlari bo‘icha savodxonliklari oshirilmoqda.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2023 yil 12 maydagi «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida»gi PF-70-sonli farmoni // URL:http://www.lex.uz.

[2] Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi rasmiy veb-sayti

[3] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // URL:http://www.lex.uz.

[4] Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi rasmiy veb-sayti

Inson huquqlari sohasidagi huquqiy ta’lim har bir fuqaroning inson huquqlariga nisbatan hurmatini rag‘batlantirish va unga har tomonlama rioya etilishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etib, zo‘ravonlik va nizolarning oldini olishda katta ahamiyatga ega.

Inson huquqlari sohasidagi huquqiy ta’lim aholining, ayniqsa, yoshlarning inson huquqlari sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirishga, ularda inson huquqlari va erkinliklariga hurmat hissining shakllanishiga, davlat xizmatchilarining inson huquqlari va gender tenglik sohasidagi bilim va ko‘nikmalarining oshishiga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 7 fevralda “O‘zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-46-son Qarori qabul qilingan bo‘lib Qaror bilan O‘zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturi hamda uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” qabul qilingan[1].

Ushbu Qaror bilan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirish lozim:

- 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab professional va oliy ta’lim tizimida «Inson huquqlari», «Ayollar huquqlari», «Bola huquqlari» bo‘yicha tegishlicha o‘quv va maxsus kurslar joriy etish;

Har yili «Inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi ta’lim va innovatsiyalar» milliy tanlovi o‘tkazib borish;

- inson huquqlari sohasida ta’lim olish bo‘yicha elektron platformani yaratish;
- tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar va jazoni ijro etish muassasalari xodimlari uchun qiynoqqa solishga qarshi kurashish bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslari tashkil etish;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar axborot-kutubxona markazlarida Inson huquqlari sohasidagi adabiyotlar yo‘nalishini tashkil etish va boshqa ko‘plab chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutigan.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 7 fevralda “O‘zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-46-son Qarori// URL:http://www.lex.uz.

Ta’kidlash joizki bunga qadar ham mamlakatimizda inson huquqlari sohasidagi ta’lim bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilgan.

Bugungi kunga kelib, Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markazi huzurida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari xodimlari uchun Inson huquqlariga rioya etish va uni himoya qilish sohasida kadrlar malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslari tashkil qilindi.

Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbar xodimlarining inson huquqlari sohasidagi malakasini oshirish bo‘yicha “Inson qadr-qimmati – eng oliy qadriyat” maxsus o‘quv moduli ishlab chiqildi. Mazkur modul asosida jami 400 nafardan ortiq rahbar xodimlar kelinmaqda.

Bosh prokuratura Akademiyasida “Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq” magistratura yo‘nalishi, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida “Inson huquqlari” kafedrasi qayta ochilib, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hamda Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida inson huquqlari bo‘yicha o‘qitish va tayyorlashni takomillashtirish maqsadida Magistraturada rahbar kadrlarga «Ichki ishlar organlarining inson huquqlarini himoya qilish va ta’minlash faoliyati» fani, sirtqi ta’lim fakultetida «Inson huquqlari umumiy nazariyasi» fani bo‘yicha darslar joriy qilindi.

Milliy strategiya doirasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi qarori bilan “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ro‘yxati”ga 12.00.13 – “Inson huquqlari (yuridik fanlar, sotsiologiya fanlari)” ixtisosligi kiritildi, shuningdek, Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz huzurida yuridik fanlar va sotsiologiya fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalarini beruvchi Ilmiy kengash tuzildi.

Mamlakatda inson huquqlari sohasida amaldagi holatni o‘rganish natijalari, shuningdek, BMTning shartnomaviy organlari, O‘zbekistonga tashrif buyurgan BMTning maxsus ma’ruzachilari, Universal davriy hisobot va boshqa xalqaro mexanizmlar doirasida berilgan tavsiyalarning tizimli tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishni ta’minlash maqsadida sohada demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va izchil davom

ettirish talab etiladi shu asnoda inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasdan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak kuyidagi ishlarni amalga oshirishimiz maqsadga muvofik:

Birinchidan, inson huquqlari bo‘yicha qonunchilik shakllantirish;

Ikinchidan, mamlakatda inson huquqlarini ta’minlashning institutsional mexanizmlari yaratish;

Uchinchidan, davlat inson huquqlari sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish;

To‘rtinchidan, inson huquqlari bo‘yicha ta’lim va ma’rifatni amalga oshirish;

Beshinchidan, inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish

Oltinchidan, insonning shaxsiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy huquqlari va erkinliklarini ta’minlash kafolatlarini kuchaytirish, jumladan mazkur huquqlarni poymol qilganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish;

Yettinchidan, jamiyatda inson huquqlari va erkinliklariga hurmat hissining shakllanishi, xalqaro va mintaqaviy mexanizmlar tavsiyalarining to‘liq bajarilishi uchun sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat organlari xodimlarining inson huquqlari bo‘yicha malakasini oshirish.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // URL:http://www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 7 fevralda “O‘zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-46-son Qarori// URL:http://www.lex.uz.
3. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi // URL:http://www.lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 12 maydagi «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida»gi PF-70-sonli farmoni // URL:http://www.lex.uz.

5. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi rasmiy veb-sayti

INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH VA SUD-HUQUQ SOHASIDA SENATNING PARLAMENT NAZORATI FAOLIYATI

Hotamov Homid Sulaymonovich
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi
Saidova Zamira Aslonovna
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
bosh mutaxassisi

Mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash masalasi xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishga qaratilgan demokratik islohotlarning bosh mezoniga aylanib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash maqsadida aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini yangicha tashkil qilish, bunda **xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerakligi** tamoyilini davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgiladi.

Yurtimizda inson huquqlarini himoya qilish hamda sud-huquq sohasida normativ-huquqiy bazani mustahkamlash, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlashga doir tizimli ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan **80 dan** ortiq inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro hujjatlar normalari milliy qonunchilikda o‘z aksini topgan.

Amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar insonlar hayotini, dunyoqarashini, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini, shuningdek turmush tarzini o‘zgartirmoqda.

Ta’kidlash joizki, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamenti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 32[4]-

moddasiga muvofiq Senat har yili o‘z majlisida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) faoliyati to‘g‘risidagi hisobotni eshitadi.

Shuningdek, “Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 7-moddasiga asosan Oliy Majlis Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) faoliyati to‘g‘risidagi hisobot O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislarida har yili eshitiladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 10 dekabrdagi “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4056-sonli Qaroriga muvofiq inson huquqlari sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish bo‘yicha milliy ma’ruzalarni Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustav va shartnomaviy organlarida ko‘rib chiqish yakunlarini zaruratga qarab eshitish tavsiya etilgan.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosi yuzasidan Oliy Majlis Senati tomonidan 2020–2023 yillarda jami 4 marotaba O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman)ning faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlari, 4 marotaba Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazining axborotlari eshitilgan hamda muhokama qilingan.

Axborotlar dastlab Senat qo‘mitalari majlislarida ko‘rib chiqilgan. Amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinib, ahamiyat qaratilishi zarur bo‘lgan masalalar aytib o‘tilgan. Qo‘mitalar majlislarida ekspert olimlar, senatorlar, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etgan. Senatorlar tomonidan savollar berilib, muzokara so‘zlari aytilgan.

Qo‘mita majlisi yakunida qaror qabul qilinib, Oliy Majlis Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) hamda Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazi hamda boshqa manfaatdor davlat organlari va tashkilotlariga tegishli vazifalar belgilab berilgan.

Qo‘mitalarning tavsiyalariga asosan Oliy Majlis Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) hamda Inson huquqlari bo‘yicha

O‘zbekiston Respublikasi milliy markazining axborotlari Senat majlislarida ko‘rib chiqilib, muhokama qilingan.

Qayd etish joizki, Oliy Majlis Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) 2023 yilda yangi konstitutsiyaviy qoidalar asosida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan ta’sirchan parlament nazoratini amalga oshirish, sohaga oid milliy qonunchilikni hamda milliy preventiv mexanizmni takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda bir qator ishlarni amalga oshirgan.

Xususan, 2023 yilda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy davlatlar fuqarolari va ombudsmanlari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, jamoat tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslardan Ombudsman nomiga kelib tushgan murojaatlar soni 18622 tani tashkil etgan *(2022 yilda 17761 ta).*

Murojaatlarning 15960 tasi Murojaatlar bilan ishlash bo‘limi tomonidan, 2662 tasi Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarining oldini olish bo‘limi tomonidan ko‘rib chiqilgan va ijobiy hal etilgan *(Ombudsman nomiga kelib tushgan murojaatlar tahlil qilinganda, ularning 3586 tasi ijtimoiy huquq yo‘nalishidagi, 1646 tasi murojaat etish huquqi hamda siyosiy huquq va erkinliklar yo‘nalishidagi, 3322 tasi iqtisodiy huquq yo‘nalishidagi, 1991 tasi shaxsiy huquq va erkinliklar yo‘nalishidagi, 316 tasi ekologik huquq yo‘nalishidagi hamda 970 tasi boshqa yo‘nalishdagi murojaatlarni tashkil etgan).*

Oliy Majlis Senatining 2023 yil 7 apreldagi SQ-717-IV-sonli Qarori ijrosi yuzasidan takroriy murojaatlarning oldini olish maqsadida Ombudsman Kotibiyati xodimlari, jumladan Ombudsmanning viloyatlardagi mintaqaviy vakillari tomonidan fuqarolarning telefon orqali qilingan murojaatlariga, shuningdek viloyat, shahar va tumanlardagi sayyor qabullarda, shuningdek aholining huquqiy xabardorligini oshirishga qaratilgan “Ombudsman maktabi” loyihasi doirasidagi tadbirlarda huquqiy tushuntirishlar berilgan.

“Ombudsman maktabi” loyihasi doirasida mamlakatimizning 54 ta tuman va shaharlarida 57 marotaba *(2022 yilda 25 ta)* turli tadbirlar tashkil etilgan.

Aholi muammolarini hal etish maqsadida Ombudsman tomonidan Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi bilan hamkorlikda “Inson huquqlari va erkinliklarining ta’minlanishida davlat boshqaruvi organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorligi: muammolar va ularning yechimlari” mavzusiga bag‘ishlangan “davra suhbatlari” tashkil etilgan.

Yuqorida ta’kidlangan malumotlar orqali shubhasiz inson huquqlarini himoya qilishda Senatning munosib ishtiroki naqadar ahamiyatli ekanligini bilib olish mumkin.

Bundan tashqari, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazining axborotlari Senat majlislarida ko‘rib chiqilib, muhokama qilingan.

Xususan, Oliy Majlis Senatining 2021 yil 18 noyabrdagi SQ-427-IV-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazi tomonidan 2022 yil yakunlari bo‘yicha axborot taqdim etilgan.

Axborotda Milliy strategiya doirasida 1 ta kodeks, 1 ta qonun, 5 ta Prezident farmon va qarorlari, 1 ta Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilinganligi, 1 ta xalqaro shartnoma ratifikatsiya qilinganligi ma’lum qilingan.

2023 yilda taqdim etilgan axborotda esa Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazi tashabbusi bilan Milliy strategiya doirasida 10 ta qonun, 7 ta Prezident farmon va qarorlari, 5 ta Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilinganligi ta’kidlangan.

Odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasiga doir qonunchilik bazasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish ishlari izchil davom ettirilib, 2022 yilda jami 11 ta normativ-huquqiy hujjat *(shundan 3 ta qonun, 3 ta Prezident farmoni, 1 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 4 ta qarori)* qabul qilingan va amaliyotga tatbiq etilgan.

Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish milliy komissiyasi Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha milliy komissiya etib qayta tashkil qilingan.

Shuningdek, Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha milliy ma’ruzachi instituti ta’sis etilgan.

Xalqaro standartlarga muvofiq nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2 ta Prezident qarori va Vazirlar Mahkamasining 3 ta qarori qabul qilingan.

O‘zbekiston BMTning Inson huquqlari sohasida Jahon ta’lim dasturida faol ishtirok etib kelmoqda.

Yuqorida tahlil qilingan statistik malumotlarni inobatga olib, Oliy Majlis Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) hamda Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazi faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya qilinadi:

– ijtimoiy obyektlar, madaniy-ko‘ngilochar tashkilotlar va sport inshootlaridan nogironligi bo‘lgan shaxslarning foydalanishi uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish, piyodalar yo‘laklari, yo‘lovchilar uchun bekatlar va piyodalar o‘tish joylarida ovoz va yoritish moslamalarini o‘rnatishni tartibga solish chora-tadbirlarini nazarda tutuvchi “Qulay jismoniy muhit" davlat dasturini qabul qilish;

– yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishni deinstitutsionalizatsiya qilish bo‘yicha Milliy strategiyani tayyorlash hamda “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish;

– xususiy kompaniyalar faoliyatida inson huquqlariga rioya etish va himoya qilish asoslari to‘g‘risida xabardorlikni oshirish uchun axborot kampaniyasini hamda tadbirkorlar uchun tegishli o‘quv kurslarini tashkil qilish. BMTning “Inson huquqlari nuqtai nazaridan tadbirkorlik faoliyatining dasturulamal tamoyillarini amalga oshirish bo‘yicha Milliy harakatlar rejasini qabul qilish;

– Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan inson huquqlari sohasidagi xalqaro normalarni qo‘llash amaliyotini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish;

– Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan birgalikda ta’lim muassasalari dasturlariga “Inson huquqlari”, “Ayol huquqlari”, “Bola huquqlari” o‘quv kurslarini kiritish choralarini ko‘rish;

– nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb qilgan holda inson huquqlari bo‘yicha “muqobil” ma’ruzalarni tayyorlashda amaliy yordam ko‘rsatish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamenti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni;
2. “Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni;
3. Oliy Majlis Senatining 2023 yil 7 apreldagi SQ-717-IV-sonli Qarori;
4. Oliy Majlis Senatining 2021 yil 18 noyabrdagi SQ-427-IV-sonli qarori;
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 10 dekabrdagi “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4056-sonli Qarori;
6. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) 2023 yildagi faoliyati to‘g‘risida hisoboti;
7. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazi – 2022 yilda (hisobot tahlil);
8. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik malumotlari milliy bazasi;
9. www.senat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati rasmiy sayti;
10. http://www.insonhuquqlari.uz/ – Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazining rasmiy sayti;

11. https://www.ombudsman.uz/oz/tag/humanrights – Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) rasmiy sayti.

BOJXONA SOHASIDAGI JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA INSONNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLARINI TA‘MINLASH XUSUSIYATLARI

Gafurov Farxod Rashidovich,
mustaqil izlanuvchi, yu.f.b.f.d. (PhD),
Bojxona instituti Maxsus-huquqiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar natijasiga ko‘ra, jamiyatda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta’minlash, ayniqsa va sud-tergov faoliyatida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni kafolatlash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada shuni aytish joizki, *2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi* referendumida *umumxalq ovoz berishi orqali qabul qilingan* O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutitsiyasi bilan sud-tergov faoliyatida inson huquqlarini himoya qilishni kafolatlash yanada mustahkamlandi [1, B-5-7].

Yangi Konstitutsiya bilan sud-tergov faoliyatida joriy etilgan konstitutsiyaviy qoidalar bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etish, bu borada o‘tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini hamda kriminalistik ish uslublarini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda. Shu bois, bugungi kunda bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etish amaliyotini yangi konstitutsiyaviy qoidalar talablariga rioya qilgan holda olib borishni hamda ushbu yo‘nalishda huquqiy normalarda belgilangan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni davrning o‘zi taqazo qilmoqda. Xususan, bugungi kunda sud-tergov faoliyatida va huquqni muhofaza qilish faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya qilishni ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda **“Inson qadri uchun”** tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari belgilab olindi [2, B-14-15].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirish vazifasi belgilab olindi va unda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirib olindi.

- yagona elektron reestr yaratish orqali jinoyat ishi qo‘zg‘atilishidan tortib ish yuzasidan hukm chiqarilguniga qadar bo‘lgan jarayonni individual raqam va QR kodi orqali kuzatib borish imkoniyatini joriy qilish;

- dalillarni to‘plash va mustahkamlash faoliyatini zamonaviy texnologiyalar va so‘nggi ilmiy yutuqlarni joriy qilish orqali to‘liq raqamlashtirish;

- sud va boshqa organlarning hujjatlari ijrosini ta’minlash bo‘yicha ishlar toifasining kamida 30 foizini xususiy sektor yordamida ijro etishni yo‘lga qo‘yish;

- jiddiy oqibatlar bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalari sonini kamida 50 foizga kamaytirish;

- 100 foiz jinoyat ishlari va materiallarning elektron shakldagi nusxasini yuritish va ushbu ishlar bo‘yicha elektron hujjat almashinuvini ta’minlash [3, B-2-3].

O‘zbekiston Respublikasining yuqori ustuvor qonunlari va qonunosti hujjatlarida belgilab olinayotgan sud-tergov faoliyatida inson huquqlari va

erkinliklarini ta’minlash bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish amaliyotining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishni taqazo etadi.

Xususan, hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan bojxona organlariga bir qator turdagi bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish vakolati berilgan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni 10-moddasida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish vakolati berilgan davlat organlari qatorida bojxona organlari ham ko‘rsatib o‘tilgan. Bu esa o‘z navbatida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish vakolati berilgan bojxona organlari mansabdor shaxslariga bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya qilish mas’uliyatini yana bir bor oshiradi [4, B-2].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining “Jinoyat ishining tergovga tegishliligi” nomli 381^2-moddasida ko‘rsatilgan quyidagi moddalar:

1.	*130-modda.*	*Pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish*
2.	*130^1-modda.*	*Zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish*
3.	*182-modda.*	*Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish*
4.	*184-modda.*	*Soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash.*
5.	*244^3-modda.*	*Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish*
6.	*244^4-modda.*	*Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o‘tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish*
7.	*246-modda.*	*Kontrabanda*
8.	*250^1-modda.*	*Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi*

Mazkur moddalarda ko‘rsatilgan huquqbuzarliklar bo‘yicha bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish orqali sodir etiladi. Shu bois, ushbu moddalarda ko‘rsatilgan bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi

kurashishda bojxona organlari tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv o‘tkazish vakolatiga ega bo‘lib, bu bojxona organlari mansabdor shaxslari tomonidan bojxona sohasidagi jinoyatlar bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyati, tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv o‘tkazishda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya qilish mas’uliyatini yuklaydi [5, B-189].

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonning Yangi Konstitutsiyasi bilan sud-tergov faoliyatida inson huquqlarini himoyalashni kafolatlovchi yangi konstitutsiyaviy qoidalar joriy etilgan.

Xususan, 2023-yil 30-aprelda umumxalq ovozi bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 146-moddasida:** “O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo‘linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko‘rsatishi taqiqlanadi.” deb belgilab qo‘yilgan. Bu shuni anglatadiki, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash hamda shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi va kafolatlanadi.

Shu bilan birga, **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 20-moddasida: “**Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas.” deb belgilab qo‘yildi.

Bundan tashqari, **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 31-moddasida esa:** “Har kim yozishmalari, telefon orqali so‘zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi.” deb belgilab qo‘yildi. Bu shuni anglatadiki, bugungi kunga qadar prokuror sanksiyasiga (ruxsatiga) asosan o‘tkazilayotgan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini cheklovchi tezkor-qidiruv tadbirlarini bundan buyon sudning qaroriga asosan o‘tkazish bo‘yicha yangi tartib kiritildi.

Shuningdek, **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 28-moddasida esa:** “...Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin. Agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas.” deb belgilab qo‘yildi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan bu kabi yangi o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda yangi Konstitutsiya talablariga javob beradigan hamda sud-tergov faoliyatida inson huquqlariga to‘liq rioya etilishini ta’minlovchi yangicha tezkor-qidiruv va kriminalistik ish uslbularini amaliyotga joriy etishni talab qilmoqda.

Shuningdek, bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda yangi Konstitutsiya qoidalarining joriy etilganligi quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qilmoqda:

- jinoyatchilikka qarshi kurashda sud-tergov faoliyatida inson huquqlariga to‘liq rioya qilishni ta’minlovchi tashkiliy-huquqiy asoslarni takomillashtirishni;

- jinoyatchilikka qarshi kurashda konstitutsiyaviy qoidalarga rioya qilishni ta’minlovchi yangicha tezkor-qidiruv va kriminalistik ish uslublarini amaliyotga joriy etishni;

- jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatida konstitutsiyaviy qoidalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash huquqiga ega bo‘lgan tezkor xodimlar, surishtiruvchilar, tergovchilar, prokurorlar va sudyalarning yangi Konstitutsiya qoidalarini o‘rganish va amaliyotda qo‘llash bo‘yicha malakasini oshirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-apreldagi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. B-5-7.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. B-14-15.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son farmoni. B-1-2.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-344-son Qonuni. B-2.

5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. B-189.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INSON HUQUQLARINI TA’MINLASHDA OLIY MAJLISINING INSON HUQUQLARI BO‘YICHA VAKILI (OMBUDSMAN)NING O‘RNI

Beysenov Kenjabay Sarsanbayevich
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi

So‘nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo‘yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining (keyingi o‘rinlarda — BMT) 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo‘shilgan bo‘lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi va shartnomaviy qo‘mitalariga muntazam ravishda milliy ma’ruzalarni taqdim etib kelmoqda.

Bundan tashqari, milliy qonunchilikni inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy standartlar bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar ko‘rilmoqda[1].

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 22 июндаги “Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” ги ПФ-6012-сон Фармони.

O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarini ta’minlashda Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman)ning o‘rniga to‘xtalishdan oldin, Ombudsman so‘zining tarixiga to‘xtalamiz.

Ombudsman so‘zi - bugun rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda «inson huquqlarini himoya qiluvchi» sifatida tushuniladi. Bu so‘z shved tilidan olingan bo‘lib “vakil” degan ma’noni anglatadi. U eng avval shved qiroli huzurida faoliyat yuritgan. Keyinchalik parlament shakllangandan so‘ng 1809 yildan Parlament huzuriga ko‘chgan.

Agar tarixni yaxshilab o‘rganadigan bo‘lsak, shved qiroli ushbu tajribani islom davlatlarda faoliyat yuritgan muhtasiblar ishidan o‘rganganiga guvoh bo‘lasiz. Muhtasiblar islom dini va shariat ahkomlari asosida faoliyat yuritib, nazorat funksiyasini bajarishgan.

XVII asrlarda shved qirolligiga hujum uyushtirilganda qirol hozirgi Turkiya hududlariga qochib o‘tishga majbur bo‘ladi. Qochqinda turk sultoni himoyasida mamlakatdagi fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi, o‘rnatilgan tartiblarni nazorat qiluvchi insonlarni kuzatadi. Keyinchalik o‘z vataniga qaytib, mana shu tizimni o‘z davlatida “Ombudsman” nomi bilan joriy etadi va bu Evropada ham ommalashadi.

Masalan, ispan elchisi Klavixoning Amir Temur huzuriga tashrifi to‘g‘risidagi kundaligida yozilishicha, Temur topshiriq berganda o‘z vaqtida bajarmagan rahbarlar va ularning bu kamchiligi haqida axborot beruvchi shaxslar bo‘lgan. Shuningdek, fuqaro murojaatlari bilan ishlamagan aynan ana shunday rahbarlarning shaxsan Amir Temur tomonidan ko‘pchilik ichida jazolangani Klavixo tomonidan kichik epizod sifatida qayd etilgan. Mana shu misolda ham ko‘rishimiz mumkinki, Amir Temur inson huquqlari buzilishiga yo‘l qo‘yganlarga nisbatan qat’iy bo‘lgan.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) instituti 1995 yilda tashkil etilgan. Ushbu institut MDH hududida birinchilardan bo‘lib O‘zbekistonda ta’sis etilgan[1].

Mamlakatimizda inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Xo‘sh,

[1] https://ombudsman.uz/uz/managements/ombudsman

keyingi yillarda “Inson qadri ulug‘” prinsipi asosida qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. **Mamlakatimizda Inson huquqlari bo‘yicha Milliy strategiya qabul qilindi.** O‘zbekiston Respublikasida barcha teng huquq va majburiyatga ega. E’tirof etish joizki, mamlakatimizda insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta’minlash O‘zbekistondagi islohotlarning o‘zagi hisoblanadi. Ayniqsa, inson huquqlarini ta’minlash borasidagi islohotlar bevosita 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Mazkur tarixiy hujjat doirasida qonun ustuvorligiga erishish, sud-huquq tizimini takomillashtirish, jazo turlarini liberallashtirish, qiynoqlarning oldini olish, gender tengligini, shuningdek, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, so‘z erkinligini mustahkamlash, qolaversa, insonparvarlik tamoyili asosida yo‘ldan adashganlarga yana bir imkon berish hamda ularni jamiyatga moslashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. 2020 yilda Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi qabul qilingani ham inson huquqlarini ta’minlash borasida qo‘yilgan muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

Qayd etishim lozimki, Milliy strategiyaning 58-bandida Qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha institutsional mexanizmlarni takomillashtirish masalasi belgilangan edi. Ushbu band ijrosiga to‘xtaladigan bo‘lsam, davlat rahbarining 2021 yil 26 iyundagi “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini xalqaro huquqning inson huquqlari sohasidagi umume’tirof etilgan prinsiplari va normalariga muvofiqlashtirish, qiynoqqa solish holatlari to‘g‘risidagi murojaatlarning tezkor va xolisona ko‘rib chiqilishi hamda aybdor shaxslarning muqarrar javobgarlikka tortilishi mexanizmini takomillashtirish, qiynoqqa solishdan jabrlanganlarga ijtimoiy, huquqiy, psixologik va tibbiy yordam ko‘rsatilishini hamda ularga etkazilgan zararning kompensatsiya qilinishini ta’minlash, qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish faoliyatiga fuqarolik jamiyati institutlarini

keng jalb etish kabi masalalar ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilandi va Ombudsman huzuridagi milliy preventiv mexanizm (MPM) faoliyati yanada takomillashtirildi.

Jumladan, Ombudsman huzuridagi ekspert guruhi negizida Ombudsman huzuridagi Qiynoq holatlarini aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha jamoatchilik guruhlari tashkil qilindi. Ular zimmasiga qiynoqqa solish holatlarini aniqlash hamda ularni tezkor bartaraf etish bo‘yicha talabnomalarni tegishli davlat organiga taqdim qilish, qiynoqqa solish holatlari to‘g‘risidagi murojaatlarni ko‘rib chiqishda ishtirok etish kabi vazifalar yuklatildi.

O‘tgan 2021 yil davomida Ombudsman va uning huzuridagi jamoatchilik guruhlari tomonidan harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarga 177 marotaba, 2022 yilning birinchi yarim yilligida esa 156 marotaba, 2023 yil 1-yarim yilligida Ombudsman va uning huzuridagi Jamoatchilik guruhlari tomonidan harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarga 348 marotaba monitoring tashriflari amalga oshirildi. Mazkur tashriflar ochiq va shaffof holda yoritib borilgan.

Qolaversa Milliy strategiyaning 59-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida Ombudsman instituti tomonidan ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazo muddatini o‘tayotgan shaxslar huquqlari himoyasining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, shu jumladan, penitensiar muassasalar xodimlarini muntazam o‘qitishni tashkil etish, mahkumlar huquqlariga bag‘ishlangan o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlash va chop qilish bo‘yicha ishlar ham amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi penitensiar tizimining takomillashtirilishi: qonunchilik va amaliyot” nomli risola nashr etildi.Shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda penitensiar muassasalar xodimlarining malakasini oshirishga qaratilgan qator seminar-treninglar o‘tkazilgan.

Qayd etish lozimki, Prezident SHavkat Mirziyoev tomonidan 2021 yil 22 fevral kuni BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida imkoniyati cheklangan shaxslarning o‘z qobiliyatini to‘la ro‘yobga chiqarish masalalari bo‘yicha Mintaqaviy kengash tuzish

taklifi bildirilgan va O‘zbekistonda alohida ehtiyojga ega bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta’minlashga jiddiy e’tibor qaratilayotgani ta’kidlangan edi[1].

Milliy strategiyada nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish sohalarida huquqni qo‘llash amaliyotini yanada takomillashtirish vazifasi ham belgilangan. 2020 yilning 15 oktyabr kuni mamlakat Prezidenti tomonidan yangi tahrirdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun imzolangan.

Yurtboshimizning xalqaro tashabbusi doirasida, mamlakatimiz parlamenti tomonidan Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya ratifikatsiya qilingan. Bu bilan mamlakatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari himoyasi bo‘yicha qonunchilikning ham milliy, ham xalqaro asoslari mustahkamlangan.

Umuman olganda, Milliy strategiyaning ijrosi yuzasidan salmoqli ishlar qilindi.

Sir emaski, majburiy va bolalar mehnati ko‘p yillardan buyon jiddiy muammo bo‘lib kelgan. Bugun esa majburiy va bolalar mehnati to‘liq tugatildi. Aytish joizki, davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi hamda mavjud holatga tizimli yondashuv asosida ko‘rilgan kompleks choralar samarasi o‘laroq mamlakatimizda bolalar mehnatiga va majburiy mehnatga batamom chek qo‘yildi. Bu jarayonni xalqaro ekspertlar katta qiziqish bilan kuzatib turishdi. Chunki ularning fikricha, Xalqaro mehnat tashkilotiga a’zo davlatlardan faqatgina O‘zbekiston qisqa muddatda mana shunday yaxshi natijaga erishdi va bunda to‘g‘ri hamda samarali yo‘l tanlandi.

Bu natijaga erishishda katta e’tibor, avvalambor, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga implementatsiya qilish, uni takomillashtirish, rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganishga qaratildi. Izlanish va tadqiqotlar natijasida o‘tgan 2019 — 2024 yillar davomida milliy qonunchilikni takomillashtirish maqsadida ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, Xalqaro mehnat tashkilotining qator konvensiyalari ratifikatsiyadan o‘tkazildi. Qolaversa, qishloq

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 22 февраль куни БМТ Инсон ҳуқуқлари бўйича кенгашининг 46-сессиясидаги нутқи.

xo‘jaligini modernizatsiyalash borasida ham samarali natijalarga erishildi, bolalar mehnati va majburiy mehnat uchun jinoiy javobgarlik choralari kuchaytirildi, belgilangan maqsadga erishishda barcha davlat idoralari va tashkilotlari jalb etildi hamda ularning faoliyati muvofiqlashtirilib borildi.

Bundan tashqari, bolalar mehnati va majburiy mehnatning oldini olish borasida xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan samarali hamkorlik qilindi.

Bu jarayonda jamoatchilik nazoratining, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari va OAVning ham alohida hissasi borligini qayd etishimiz lozim.

Ombudsman institutining asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan biri fuqarolar murojaatlari bilan ishlashdir. Har qanday mamlakatdagi Ombudsman faoliyati samaradorligini bevosita unga yuborilayotgan murojaatlar statistikasi va ularning hal etilishini tahlil qilish orqali o‘rganishimiz mumkin.

Qolaversa, Ombudsman faoliyati bo‘yicha jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida hal etilgan murojaatlar haqidagi xabarlar, rasmiy munosabatlar, Ombudsman tomonidan ko‘tarib chiqilayotgan muammoli masalalar, monitoring tashriflari, sayyor qabullar, fuqarolar qabuli va boshqa yo‘nalishlardagi sa’y-harakatlarimizga oid xabarlar saytimizda va OAVda e’lon qilib borilishi ham aholining Ombudsman faoliyatidan keng xabardor bo‘lish imkonini bermoqda.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakiliga fuqarolar Ombudsman va uning Kotibiyati xodimlari tomonidan muntazam ravishda haftaning besh kunida (dushanbadan jumagacha) o‘tkazib kelayotgan qabullari orqali murojaat qilishmoqda.

Qolaversa, “Ishonch telefoni”, pochta xizmati, elektron pochta, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi hamda www.pm.gov.uz internet portali orqali ham murojaatlarni qabul qilinmoqda.

Xabaringiz bor, 2021 yil 10 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni bilan

Ombudsmanning hududlardagi faoliyati yanada kuchaytirildi. 2022 yilning 1 yanvaridan buyon Obudsmanning mintaqaviy vakillari doimiy asosda faoliyat yuritmoqda. Bu aholi muammolari va masalalarining bevosita joyida tezkorlik bilan hal etilishiga xizmat qilmoqda. Ombudsman.uz saytimida hozirda 12 ta hududda faoliyat yuritayotgan Ombudsman mintaqaviy vakillari, qabul kunlari, telefon raqami va manzillari ko‘rsatilgan. Avvallari, Ombudsmanning doimiy asosda ishlaydigan hududlardagi vakillari bo‘lmagani bois murojaatni joyiga chiqib o‘rganish imkoniyati chegaralangan edi.

Hozirgi kunda Ombudsman mintaqaviy vakillari chekka-chekka hududlarga ham borib, sayyor qabullar tashkil etishmoqda, harakatlanish erkinligi cheklangan yopiq muassasalarga monitoring tashriflarini amalga oshirishmoqda, jamoaviy va yakka tartibdagi uchrashuvlar o‘tkazib kelinyapti. Jazoni ijro etish muassasalari, tergov hibsxonalari, manzil-koloniyalariga ham “Ombudsman qutilari” o‘rnatilgan bo‘lib, ular orqali mahkum va mahkumalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri Ombudsmanga murojaat qilishi mumkin. Chunki bu qutilarni Ombudsman vakilidan boshqa hech kim ocha olmaydi.

Ombudsman nazoratiga olingan murojaatlarning qay tartibda ko‘rib chiqilishiga kelsak, ularni hal etish bo‘yicha tegishli davlat idoralari va tashkilotlarga murojaat qilingandan so‘ng, uning natijasi bo‘yicha Ombudsman mintaqaviy vakillarini xabardor etishadi. Murojaatlar bilan ishlash bo‘limi xodimlari esa ma’lumotni tasdiqlash uchun murojaat muallifi bilan bog‘lanishadi. Ba’zi hollarda sud qarorlarining vaqtida ijro etilmayotgani, hokim qarorlari bajarilmay qolgani kabi holatlar ham uchrab turadi. Shunday hollarda yana tegishli davlat idoralari mas’ullariga aloqaga chiqishga to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, Ombudsman fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash yuzasidan vazirlik va idoralarga xulosa hamda taqdimnoma, sudlarga fuqarolar manfaatlarini ko‘zlab ariza va da’volar kiritish huquqidan ham samarali foydalanib kelmoqda.

Mamlakatimizda nafaqat inson huquqlari, balki barcha sohani rivojlantirishda, aholining turmush farovonligini yanada oshirishda

raqamli texnologiyalarni joriy etish, tahlil qilish, o‘rganish, xalqaro standartlar va mamlakatlarning ilg‘or tajribalariga tayaniladi.

Aynan inson huquqlarini ta’minlash sohasidagi xalqaro amaliyotni o‘rganishda, eng avvalo, O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro hujjatlar va shartnomalar asosida o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarning bajarilishi e’tiborga olinadi.

Xususan, 2002 yil 18 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 57/199-rezolyusiyasi bilan Qiynoqlar hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi Konvensiyasiga doir Fakultativ protokoli bilan milliy preventiv mexanizm tashkil etilishi nazarda tutilgan. Bu 2019 yilda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) huzurida qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha joriy qilingan.

Qolaversa, ombudsmanlar instituti miqyosida aytadigan bo‘lsak, 2020 yilda Global alyans tomonidan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) faoliyati Parij prinsiplariga muvofiqligi bo‘yicha akkreditatsiyadan o‘tkazilgan va unga “V” maqomi berilgan. Hozirga qadar Global alyans xulosalari asosida Ombudsman instituti “A” maqomni olish borasida nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlab kelinmoqda[1].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T:O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2021 yil 22 fevral kuni BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 22 iyundagi “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-6012-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmoni;

[1] https://ombudsman.uz/uz/docs/inson-huquqlari-oliy-qadriyat-3

5. BMT Bosh Assambleyasining 2002 yil 18 dekabrdagi 57/199-rezolyusiyasi.

6. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yilning 15 oktyabrdagi yangi tahrirdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6312-son Farmoni.

8. https://ombudsman.uz/uz/docs/inson-huquqlari-oliy-qadriyat

OILA VA NIKOH TUSHUNCHALARINING ILMIY-FALSAFIY, IJTIMOIY-HUQUQIY TALQINI

Rustamova Nilufar Rustamovna,
Toshkent shahar Chilonzor tumani 2-sonli FHDYO mudirasi,

Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasining “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlangan XIV-bobi 76-moddasida ifodalanishicha: ”Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir” [1]. Ushbu norma mazmun-mohiyatidan anglashiladiki, oila instituti falsafiy-huquqiy, ijtimoiy-biologik va ma’naviy-ahloqiy kategoriyadir. Bu degani, xalqimizning oilaga taalluqli milliy an’ana va qadriyatlari hamda oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun davlat ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi. Oila bilan bog‘liq qoidalarga qiyosiy-tahliliy nazar shundan dalolat beradiki, Yangi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik va Oila kodekslari, shuningdek boshqa tegishli normativ hujjatlarimizning xalqparvarligiga, ularning milliy qadriyatlarimiz va an’analarimiz bilan uyg‘unligiga amin bo‘lamiz.

Oila serqirra va mazmuniga ko‘ra keng qamrovli institut hisoblanib, yosh avlod ta’lim-tarbiyasida, ularni sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol toptirish borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida muhim o‘rin tutadi. Shu bois, oila azaldan jamiyat ijtimoiy-ma’naviy, qolaversa iqtisodiy, ma’rifiy, ahloqiy, hattoki,

siyosiy hayotida muhim ahamiyatga molik bo‘lgan muqaddas maskan sifatida e’tirof etiladi.

Tarixdan ma’lumki, davlat bilan oila, ularning vujudga kelishi va boshqarish mexanizmi ijtimoiy-huquqiy tusga ega. Oilaning yuzaga kelish asosi sifatida nikoh - nikohlanuvchi taraflarga er va xotin maqomini berish orqali ular zimmasiga huquq va majburiyatlar, javobgarlik (burch, vazifa, mas’uliyat) yuklashni yuridik jihatdan rasmiylashtirish jarayoni hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 3-bobida nikoh, nikoh tuzish tartibi, uning ixtiyoriyligi, nikoh yoshi kabi huquqiy jihatlari to‘la-to‘kis yoritib berilgan [2]. Aynan nikoh qayd etilganidan e’tiboran oilaviy munosabatlarni nazorat qilish, muammolarni hal qilish, nazoratga olish huquqiy jihatdan boshqarish davlat zimmasida bo‘ladi. Zero, har qanday jamiyat, davlatning ijtimoiy tanazzuli oilaning buzilishi, barbod bo‘lishi kabi illatlar bilan bevosita bog‘liq. Shuning uchun nikoh munosabatlari, yolg‘iz yashovchilar va oilaviy muammolarni o‘rganish jamiyat ijtimoiy tarkibini ijobiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu yo‘nalishda bevosita faoliyat olib borayotgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi huzuridagi Oila va xotin-qizlar ilmiy tekshirish instituti hamda mahallalarning rolini alohida qayd etish joiz.

Ta’kidlash kerakki, har bir oila o‘ziga xos turmush tarziga ega bo‘lib, turmush oilaning kundalik hayoti hisoblanadi. Oila g‘oyat serqirra va murakkab ijtimoiy-huquqiy ittifoq. uyushmadir. Unda quvonchlar ham, tashvishlar ham mujassam. Agar oila a’zolari ahil, hamjihat, odob-ahloqli, nomusli, o‘z qadr-qimmatini saqlaydigan, saranjom-sarishta, tejamkor bo‘lsa, bunday xonadonda turmush shirin va maroqli o‘tadi.

O‘zbek oilasining tashqaridan sezilmaydigan o‘ziga xos ichki qonun-qoidalari, ahloqiy mezonlari borki, bunda urf-odatlar va an’analar

alohida o‘rin tutadi. Jumladan, “urf-odatlar va an’analar – tarixan shakllangan va avloddan-avlodga o‘tib boradigan, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan va doimo takrorlanib turadigan hatti-harakat, hulq-atvor normalari va ko‘nikmalaridir” [3]. Masalan, tongda barvaqt turish, yuz-qo‘l yuvilmasdan salomlashmaslik, ayollarning nonushta hozirlashlari, qizlar va kelinlarning hovli va ko‘cha supurishlari kabi bir qator fazilatlar bisyor. Buni ustiga o‘zbek oilalari bolajon. Hazrati Muxammad payg‘ambarimiz o‘z hadisi shariflarida marhamat qilib aytibdilarki, “men qiyomatda o‘z ummatlarining ko‘p bo‘lishi bilan sevinishni istayman”.

Vaholanki, oilaviy munosabatlar mustaqil hodisa bo‘lib, uning ichki ishlariga hech kim behuda aralashishga haqli emas. Shu sababli oila muqaddas va daxlsiz hisoblanadi. Ilmiy-nazariy tilda aytganda, oila o‘ziga xos muhitni shakllantirgan kichik bir davlatdir. Chunonchi, oila jamiyat ichida, uning tashqarisida emas, uning tarkibidadir. Oilaviy munosabatlar jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy-ahloqiy munosabatlar bilan belgilanadi va uning bevosita yoxud bilvosita ta’siri ostida shakllanib rivojlanib boradi. Demoqchimizki, aynan jamiyat hayoti, ruhiyati oilaning ijobiy yoki salbiy jihatlariga bog‘liq bo‘ladi. SHunga ko‘ra har bir jamiyat o‘ziga xos va mos oila turini tanlaydi va bag‘rida etishtiradi.

Jamiyatning tashkil topishida, uning davomiyligini ta’minlashda oila ijtimoiy-demografik manba hisoblanadi. Insonning dunyoga kelishi, yangi avlodning paydo bo‘lishi, avlodlar almashinuvi asosan oilada sodir bo‘ladi. Farzand tug‘ilib, kamolga etib shaxs sifatida shakllanguniga qadar lozim bo‘lgan barcha ta’lim-tarbiya oila muhitida beriladi. Insonning ota-onasi, qarindoshlari, qariyalar, atrof-muhit va tabiatga bo‘lgan munosabatlari dastlab oilada boshlanadi. Shu bilan birga, oila urf-odatlarni avloddan avlodga etkazish vositasi ham hisoblanadi [4].

Oilaning vujudga kelishida uning yuridik fakt sifatida e’tirof etilganligi va jamiyat ijtimoiy hayotidagi ahamiyati nuqtai-nazaridan nikohning huquqiy jihatlariga alohida e’tibor beriladi. Qonunda

belgilanishicha, nikoh tuzish ixtiyoriy bo‘lib, bo‘lajak er-xotin o‘z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Demak, zo‘rlash, aldash, adashish, po‘pisa qilish va boshqa noqonuniy harakatlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Aks holda, nikohning haqiqiy emasligiga olib kelishi mumkin. Nikoh munosabatlarini o‘rnatishga doir asl ichki hohishga tayanmagan irodaning tashqi ifodasi o‘zi hech qanday vaziyatda nikohdan o‘tishga huquqiy jihatdan rozilik sifatida qabul qilinmaydi.

Nikoh faqat nikoh yoshiga etgan, balog‘at yoshiga etgan shaxslar o‘rtasida tuzilishi mumkin. Uzrli sabablar bo‘lganida, alohida hollarda nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko‘ra nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko‘pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin. Nikoh yoshini kamaytirish uchun uzrli sabablarning ro‘yhati kodeksda keltirilmagan bo‘lsada, aksariyat hollarda, bu homiladorlik yoki farzandning tug‘ilishi bilan bog‘liqdir.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 15-moddasiga muvofiq O‘zbekistonda nikoh yoshi erkaklar va ayollarlar uchun o‘n sakkiz yosh etib belgilangan. Nikohdan o‘tish uchun ariza topshirilayotganda, nikohdan o‘tmoqchi bo‘lgan shaxslarning yoshi belgilangan, ularning shaxsini tasdiqlaydigan hujjati talab etiladi. Ammo, ayrim joylarda mazkur shartni buzib, nikohlarning qayd qilinishi achinarli holdir. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, loaqal bittasi ro‘yxatga olingan boshqa nikoxda turgan shaxslar o‘rtasida nikohning tuzilishiga ham yo‘l qo‘yilmaydi. Ko‘pgina mamlakatlarning qonunchiligi bir nikohlik qoidasidan kelib chiqadi. Bunday ta’qiqning kelib chiqishi hududdagi mavjud diniy an’analar va madaniyat bilan bog‘likdir.

Bugungi kunda islom diniga e’tiqod etgan va milliy tarixiy an’nalarga ega, avvallari ko‘p xotinlilikka yo‘l qo‘yadigan mamlakatimiz aholisi ham bir nikohlik qoidasiga bo‘ysungan. Ommaviy axborot vositalarida bir necha marta mazkur muammo muhokama qilindi, qonunchiligiga zid bo‘lgan ko‘p xotinlik haqida me’yoriy-

huquqiy xujjatlar qabul qilish haqida so‘z bordi, ko‘p xotinlilikni qonuniylashtirish tarafdorlari paydo bo‘ldi. Ayrimlar, hattoki, mazkur ta’qiqni juda favqulodda vaziyatlarda, masalan, oilada xotinning kasalligi yoki farzandning bo‘lmasligi, ya’ni farzand ko‘rmagan hollarda bekor qilish mumkin deb hisoblaydi. Mamlakatimizda ko‘p xotinlilikka oid masala bir paytlar darhaqiqat mavjud bo‘lganligi va u milliy urf-odatlar hamda turli dinlar bilan bog‘liq bo‘lgani bois unga juda mulohazali yondashish lozim.

Nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan qarindoshlar o‘rtasida, tug‘ishgan va o‘gay aka-ukalar bilan opa-singillar o‘rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o‘rtasida ham nikohning tuzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Biroq, bunda farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o‘rtasida nikoh biologik mulohazalar emas, balki ijtimoiy aloqalar tufayli ta’qiqlanadi. Farzandlikka olish ota-onalik kabi munosabatlarni yuzaga keltirishni maqsad qilib qo‘ygan. Shuning uchun farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o‘rtasidagi nikoh ahloqiy va huquqiy ta’qiq ostida hisoblanadi.

Loaqal bittasining ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o‘rtasida ham nikohning tuzilishiga ruxsat etilmaydi. Mazkur ta’qiq tasodifiy emas. Albatta, u bir necha shartlar bilan asoslangan, ulardan biri bunday nikohda tug‘ilgan farzandlar haqida g‘amxo‘rlikni nazarda tutadi. CHunki ruhiy kasallikning nasl bo‘yicha o‘tish ehtimoli juda kattadir.

Soxta nikohning tuzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Soxta nikoh deb shaxsning oila qurish niyatisiz, biror bir manfaatni yoki g‘arazli maqsadni ko‘zlab tuzgan nikohigi aytiladi. Sohta nikoh tuzuvchi er-xotin doimo ma’lum bir maqsadni ko‘zlaydilar. Sohtalik har ikki tomonlama yoki faqat bir tomonlama bo‘lishi mumkin. Agar er ham xotin ham sohta nikoh tuzish niyatida bo‘lsa, nikohni sohtaligini isbotlab berish juda qiyin. Soxta nikohni hisobli nikohdan farqlash zarur, bunday nikohni haqiqiy emas deb topish mumkin emas, uni faqat tugatish

mumkin.

Nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odamning immunitet tanqisligi virusi (OIV kasalligi) borligini ikkinchisidan yashirganda bunday nikoh ham haqiqiy hisoblanmaydi. Qonun chiqaruvchi qayd etilgan kasalliklar mavjudligi haqida ma’lum qilishga alohida ahamiyat beradi. Agar nikohlanuvchi shaxslardan biri boshqasining kasalligi haqida oldindan xabardor bo‘lsa, bunday nikohni haqiqiy emas deb topish mumkin emas.

Er-xotinning kundalik hayoti mohiyatini tashkil qiluvchi aksariyat munosabatlar huquq doirasidan tashqarida yotadi. Agar so‘zsiz nikoh-oilaviy munosabatlarga huquq vositasida ta’sir etish mumkin bo‘lmasa, ularga nafaqat oilaviy, balki boshqa ihtiyoriy huquq sohasi yordamida ta’sir o‘tkazish mumkin emasligini tan olish kerak. SHaxsiy oilaviy munosabatlarga faqat ixtilof yuzaga kelgandagina aralashish huquqi mavjud.

Oilada er va xotinning teng huquqligi shaxsning huquqiy mavqeini belgilovchi konstitutsiyaviy qoidalardan kelib chiqadi. Bunga ko‘ra har bir erkak va ayol fuqarolarning bir hil huquq va erkinlikka egaligi hamda qonun oldida tengligi; yashash va turar joylarini erkin tanlashga egaligi; o‘z faoliyatining turini va kasbini tanlashdagi erkinliklari ifodalangan. Er va xotin teng huquq va majburiyatlarga hamda o‘zaro munosabatlarda va farzandlari bilan bo‘lgan munosabatlarida, nikoh tuzish, nikoxda bo‘lish va nikohni bekor qilinishi kabi munosabatlarda bir hil javobgarlikka egadirlar.

Er-xotin o‘rtasidagi shaxsiy munosabatlar maxsus ahamiyatga ega, ular o‘z egalari bilan chambarchas bogliq va ulardan ajratilmaydi. Aynan shaxsiy munosabatlar nikoh asosini tashkil qiladi va er-xotin o‘rtasidagi boshqa munosabatlarga ta’sir ko‘rsatadi. Ular er-xotin munosabatlari tarzini va xususiyatini belgilaydi.

Er-xotin oilaviy turmush masalalarini birgalikda hal qilish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 19-moddasida “Er va xotin oilada teng huquqlardan foydalanadilar va ular teng majburiyatlarga egadirlar” [5] deb belgilangan. Ya’ni, bundan er va

xotin bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning boshqa masalalarini birgalikda hal qiladilar, degan mazmun-ma’no kelib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, nikoh, oila va oilaviy munosabatlar jamiyat kesimida qaralganda muqaddas hisoblanib, juda murakkab va nozik ijtimoiy-huquqiy masalalar qatoridan haqli ravishda joy oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. -B. 43.
2. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi: Rasmiy nashr - - Toshkent.: “Adolat”, 2021. –B. 8-10.
3. Milliy istitqlol g‘oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli lug‘at). Toshkent: Yangi asr avlodi. 2002. -B. 149.
4. Ro‘zieva N. YOshlar tarbiyasida o‘zbek oilalari urf-odatlarining o‘rni // “Barkamol avlod tarbiyasining ma’naviy-ahloqiy, huquqiy, ekologik, valeologik, akmeologik va iqtisodiy masalalari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -Toshkent: Falsafa va huquq instituti. 2010. -B. 318.
5. Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi: Rasmiy nashr - - Toshkent.: “Adolat”, 2021. –B. 10.

ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ БЛОКЧЕЙНА ДЛЯ ЗАЩИТЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ПРАВ

Тиллабоев Шохрухбек Мирзатиллаевич,
Преподаватель кафедры «Международное право и права человека» Ташкентского государственного юридического университета

В настоящее время защита прав в интернете приобретает все большую значимость, так как копирование, плагиат и хищение персональных данных становятся серьезной угрозой. С момента появления Интернета ни одна другая технологическая инновация не вызвала столь оживленных дебатов, как блокчейн. В средствах массовой информации блокчейн часто представляется как «волшебная палочка», способная дать новый импульс и ускорение глобальной экономике. Несмотря на множество публикаций,

посвященных перспективам использования блокчейна, его влияние на развитие различных отраслей экономики все еще недостаточно изучено.

В эпоху цифровизации инновационные технологии предоставляют новые инструменты для защиты и управления интеллектуальным правом. Разработки в области блокчейн, искусственного интеллекта (ИИ) и виртуальной реальности (VR) играют ключевую роль в трансформации традиционных подходов к интеллектуальной собственности. Они предлагают уникальные возможности для обеспечения прозрачности и безопасности, но также сталкиваются с рядом вызовов, требующих правовых и этических размышлений.[1]

В связи с совершенствованием новых технологий в 1996 г. исследователи поняли, что договоры могут существовать в форме цифровой информации (двоичного кода). Создатель такого механизма Ник Сабо назвал это смарт-контрактом. «Умный» договор является самоисполнимым, автоматически происходит исполнение, о чем делается запись в реестр. Таким образом, действия человека при его заключении и исполнении сводятся к минимуму. Блокчейн был описан лишь в 2008 г., когда Сатоши Накамото смог в общих чертах придумать этот подходящий идее Сабо механизм.

Воздействие технологии блокчейн на цифровые интеллектуальные права может быть существенным, предоставляя прозрачность, непрерывность и безопасность в цифровых транзакциях. Использование блокчейна для создания устойчивых цифровых реестров способствует ясности в вопросах владения и передачи прав на контент, что в свою очередь снижает риски несанкционированного использования и пиратства, обеспечивая более эффективную защиту интеллектуальной собственности.[2]

---

[1] Жучков Никита Алексеевич, студент, Университет имени О.Е. Кутафина (МГЮА) Россия, г. Москва, Новые Технологии На Службе Интеллектуального Права: Блокчейн, Искусственный Интеллект, Виртуальная Реальность

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimiz parlamenti Konstitutsiya normalariga muvofiq 7 ta konstitutsiyaviy qonun, 15 ta kodeks, 600 dan ziyod qonunni qabul qildi, 200 dan ortiq ko‘p tomonlama xalqaro shartnomani ratifikatsiya qildi va shu tariqa Asosiy Qonunimizni amalga oshirishning yaxlit huquqiy mexanizmi yaratildi. Uning samaradorligini vaqt o‘zi ko‘rsatib turibdi va bu bugun jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilmoqda. O‘zbekistonda “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” printsipiga muvofiq, yuksak demokratik talablar va xalqaro huquq standartlariga mos milliy saylov tizimi yaratilgani ta’kidlandi. Ko‘ppartiyaviylik asosida muntazam o‘tkazilayotgan saylovlar mamlakatimiz Konstitutsiyasida fuqarolarning saylash va saylanish huquqi kafolatlanganining yorqin ifodasi bo‘lib, bu ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini, jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini oshirishga xizmat qilayotir. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari faoliyati uchun huquqiy sharoit hamda keng imkoniyatlar yaratib beradi. Bunga haqiqiy demokratiyaning muhim asosi sifatida qaraladi. Shuning bilan birga, mamlakatimizda respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga qarshi chiquvchi, urushni, milliy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi jamoat birlashmalarini tuzilishi man etilgan. Sud-huquq tizimini erkinlashtirish borasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar mamlakatimizning demokratik qadriyatlar tarafdori ekanining yorqin ifodasidir. Sud hokimiyati mustaqilligi ta’minlandi, sudlar ixtisoslashdi, kassatsiya instituti isloh qilindi, ishlarni qayta ko‘rib chiqishning apellyatsiya tartibi, yarashuv instituti joriy etildi, sud amaliyotining barcha bosqichlarida tomonlar tengligi kafolatlandi. Konstitutsiyamizda inson, uning hayoti, erki, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas tabiiy huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ular huquqiy jihatdan kafolatlangan. Inson va fuqarolarning huquq hamda erkinliklari sohasida Konstitutsiyamiz Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining barcha asosiy g‘oya va qoidalarini o‘ziga singdirgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi to‘g‘risidagi moddasini bajarish doirasida 2008 yilning 1 yanvaridan mamlakatimizda o‘lim jazosi bekor qilindi, qamoqqa

olishga sanktsiya berish huquqi sudlarga o‘tkazildi. Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlashtirish jarayoni davom ettirilmoqda. O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, qo‘llab-quvvatlash hamda himoya qilish borasida katta tajriba to‘plangan. Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar tizimi tashkil qilindi, bu boradagi ishlar samaradorligi Asosiy Qonunimiz normalarining so‘zsiz bajarilishiga asoslangan. Mustaqil bo‘lgan bu institutlar bir-birini takrorlamasdan jamiyatimizda qonun ustuvorligi, fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini himoya qilish printsiplariga rioya etilishiga xizmat qilayotir. Mamlakatimizda axborot sohasini bosqichma-bosqich demokratik isloh etish, bu jarayonning qonunchilik asoslarini takomillashtirish, fuqarolarning fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqlarini to‘liq amalga oshirish, islohotlarning oshkoraligi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, ommaviy axborot vositalarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash borasida aniq maqsadli kompleks ishlar amalga oshirilayotir. Natijada O‘zbekistonda faqat keyingi 10 yilning o‘zida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobar ko‘payib, bugungi kunda faoliyat ko‘rsatayotgan qariyb 1250 ta ommaviy axborot vositalarining aksariyati nodavlat hisoblanadi. Ayni paytda davlatimiz rahbari tomonidan qo‘yilgan vazifalarga binoan mamlakatimiz parlamenti yangi qonunlar ishlab chiqmoqda, amaldagi qonunlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritmoqda. Bular, o‘z navbatida, axborot sohasini yanada demokratlashtirish, ommaviy axborot vositalarini odamlar o‘z fikr va g‘oyalarini, sodir bo‘layotgan voqealarga o‘z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirishga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, mamlakatimizda davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlaydi, ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Bu printsip hayotda ham o‘z ifodasini to‘liq topmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida 6 mingdan ziyod

nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Ularga davlat tomonidan subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shaklida katta yordam ko‘rsatilmoqda. Birgina 2012 yilda ushbu maqsadlarga Davlat byudjetidan 6 milliard so‘majratildi. O‘zbekistonda Asosiy Qonunga binoan ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini isloh etish va demokratlashtirish siyosati milliy iqtisodiyotimizni jadal, barqaror rivojlantirish, aholi farovonligini muntazam oshirish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Hattoki, global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida ham o‘tgan yillardagi kabi O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’atlari kamida o‘rtacha 8,2 foizni tashkil qilgani shundan dalolat beradi. Konstitutsiyaning qat’iy amal qilayotgani sharofati bilan mamlakatimizda kuchli, raqobatbardosh, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti tarkib topdi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi jadal rivojlanmoqda. Bugungi kunda ushbu sohaning yalpi ichki mahsulotga qo‘shayotgan hissasi 54 foizdan ortib borayotir, ichki va tashqi bozorda xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqaradigan yangi korxonalar barpo etilib, yangi ish o‘rinlari ochilmoqda, aholi daromadlari oshmoqda. Tarixan qisqa muddat ichida bunday ulkan iqtisodiy muvaffaqiyatlarga mamlakatimiz Konstitutsiyasining iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlik erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va ustuvor bo‘lib, davlat himoyasida ekanini kafolatlaydigan normalarining samarali amalga oshirilishi tufayli erishdik. Xorijlik ekspertlar mamlakatimizda tinchlik, barqarorlik, millatlararo va dinlararo totuvlikni saqlash hamda mustahkamlash istiqlol yillarida O‘zbekiston erishgan eng muhim yutuq ekanini yakdillik bilan qayd etmoqda. Bu Konstitutsiyamizda O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi borasida mustahkamlangan printsipga qat’iy rioya etilayotganining bevosita natijasidir.[2]

Shu o‘rinda aytishimiz mumkinki yangi konsititutsiyamiz davlatimizning huquqiy poydevori xalqimizning demokratik yo‘lidagi katta qadam va ahamiyatli ustuvoq qadam bo‘lib xizmat qiladi xususan

barcha olib borilayotgan islohotlar zamirida xalqimizning kelajak avlodlarimizning hayotidagi zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Gulnafis Xudayberdiyeva Navoiy viloyat sudi sudyasi “Konstitutsiya-yangi tamoyillar va islohotlar”.
2. www.meningkonstitutsiyam.uz internet portalidan.

КЛЮЧЕВЫЕ ФАКТОРЫ СОВРЕМЕННОГО РАБСТВА

Рашидова Комила Искандаровна,
самостоятельный соискатель Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

В мире за последние пять лет число «современных рабов» выросло на четверть. Сегодня, по подсчетам ООН, 28 млн человек трудятся подневольно, а еще 22 миллиона вступили в брак вопреки своему желанию[1]. И сегодня борьба с современным формами рабства является серьезной проблемой для правительств, бизнеса, неправительственных организаций (НПО) и общества в целом.

Сегодня на уязвимость перед современным рабством влияет сложное взаимодействие факторов, связанных с наличием или отсутствием защиты; соблюдением прав; физической безопасностью; доступом к таким предметам первой необходимости, как продовольствие, вода и медицинское обслуживание; а также формами миграции, перемещения населения и конфликтов. Эти факторы также будут варьироваться от контекста к контексту, причем сочетание причинно-следственных и движущих факторов будет различным в каждом контексте Движущие силы современного рабства редко действуют изолированно, часто они действуют согласованно, при этом движущие силы сложным образом пересекаются и усугубляют друг друга. Например, на риск эксплуатации вовремя и в местах конфликтов и перемещения населения также влияет наличие ресурсов и институтов

[1] Совместный доклад о ситуации опубликовали Международная организация труда (МОТ), Международная организация по миграции (МОМ) и международная правозащитная группа Walk Free [«Будь свободен»]. https://news.un.org/ru/story/2022/09/1431301

для оказания помощи уязвимым группам населения. Кроме того, беженцы могут подвергаться эксплуатации по пути в более безопасные места назначения, что является средством выживания в лагерях беженцев или одним из условий их трудоустройства в стране назначения.

Современное рабство может принимать множество различных форм, включая принудительный труд, долговую кабалу, права человека, торговля людьми, принудительная сексуальная эксплуатация, рабство по признаку происхождения, детское рабство и принудительные и ранние детские браки. Рабство считается скрытым и разнообразным преступлением, и понимание уязвимости перед рабством остается сложной задачей, хотя и формируется консенсус относительно основных факторов, которые позволяют современному рабству процветать. В литературе определены пять ключевых факторов современного рабства[1] (Walk Free, 2019; 2018), к ним относятся:

1. Проблемы управления: которые могут включать в себя - политическую нестабильность, ответные меры правительства, физическая безопасность женщин, политические права, качество регулирования, права инвалидов, доступ к оружию;

2. Отсутствие базовых потребностей, которые могут включать в себя: недоедание, систему социальной защиты, возможность занимать деньги, туберкулез, доступ к чистой воде, пользование сотовыми телефонами;

3. Неравенство: которое может включать в себя - возможность получения экстренных средств, насильственные преступления, коэффициент джини, доверие к судебной системе;

4. Группы, лишенные гражданских прав: которые могут включать в себя - принятие иммигрантов, принятие меньшинств, права однополых пар;

[1] Avis, W. (2020). Key Drivers of Modern Slavery. K4D Helpdesk Report 855. Brighton, UK: Institute of Development Studies. 2 p.

5. Последствия конфликта: которые могут включать в себя - воздействие терроризма, внутренние конфликты, в ходе которых ведется борьба, внутренне перемещенные лица.

Современное рабство - это сложное преступление, и не только потому, что существует огромное разнообразие форм участия организованной преступности как в торговле людьми, так и в контрабанде, но также существует огромное разнообразие различных типов участников, действующих на этих рынках. В глобальной частной экономике принудительный труд приносит доход в размере 150 миллиардов долларов в год, и во всем мире работодатели и вербовщики все чаще используют пробелы в международном трудовом и миграционном законодательстве и правоприменительной практике. После наркотиков и оружия торговля людьми в настоящее время является третьим по величине преступным бизнесом в мире. Интернет открывает огромные возможности для преступников, а преступные сети все чаще используют технологии для совершения своих преступлений. Жертвами современного рабства становятся вербовка или реклама в Интернете, а также растущая скорость, с которой преступные группировки используют кибертехнологии, вызывают серьезную обеспокоенность правоохранительных органов и правительств.

Устойчивость уязвимых групп населения: уязвимость перед современным рабством проявляется на международном, национальном и индивидуальном уровнях. Группы населения, сталкивающиеся с дискриминацией, включая этнические и религиозные меньшинства, женщин и детей, мигрантов и беженцев, подвержены риску порабощения.

Особому риску подвергаются те, кто бежит от войны и вооруженных конфликтов. На международном уровне существует целый ряд работ по изучению связей между изменением климата, разрушением окружающей среды и стихийными бедствиями, и повышенным риском эксплуатации и торговли людьми. На национальном уровне существует несколько нормативных и

законодательных рамок, которые, как показывают исследования, могут способствовать повышению уязвимости, например, миграционная и визовая системы могут играть определенную роль в том, что люди становятся уязвимыми для эксплуатации. На индивидуальном уровне обстоятельства, которые, как показывают исследования, повышают уязвимость человека, многогранны.

Прозрачность в цепочках поставок: В последние годы проблема современного рабства и его использования в цепочках поставок все чаще оказывается в центре внимания, в том числе инвесторов и компаний частного сектора. Проблема современного рабства представляет собой серьезную проблему для компаний в условиях широкий спектр отраслей, особенно в стратегиях цепочки поставок. Компании, работающие в условиях растущей конкуренции на мировом рынке – со сложными цепочками поставок, охватывающими различные сектора, страны и бизнес–модели, - сталкиваются с многочисленными рисками и вызовами. Они сталкиваются с коммерческими рисками при выводе продукции на рынок с согласованным качеством, затратами и сроками, имея возможность реагировать быстро реагируем на изменения спроса и рынка Наконец, важно отметить, что наиболее маргинализированными и подверженными наибольшему риску являются те, кто находится в более чем одна категория риска, например, необразованные женщины, пытающиеся мигрировать.

Таким образом, совокупность факторов может усложнить устранение коренных причин современного рабства: например, власти и местные сообщества менее заинтересованы в поддержке усилий по решению проблем в сообществах мигрантов или этнических меньшинств.

В заключении, следует отметить, что решению проблем современного рабства способствовало бы:

- более глубокое понимание масштабов проблемы государствами, международными организациями, различными бизнес

компаниями; политические дебаты, включая национальное законодательство о современном рабстве,

- включение задачи по искоренению современного рабства в Цели устойчивого развития ООН,

- а также повышенное внимание проблемам современного рабства со стороны средств массовой информации и гражданского общества.

PROFESSIONAL TA’LIM HUQUQIGA OID MASALALARI

Ergasheva Shodiya Eldor qizi,
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti assistenti

Oliy ta’lim milliy va shaxs taraqqiyotining asosiy tayanchi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonda oliy ma’lumot olish huquqi ham konstitutsiyaviy kafolat, ham mamlakat taraqqiyot strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu maqola bu huquqni ta’minlash bilan bog‘liq mexanizmlar, siyosat va muammolarni o‘rganib, so‘nggi islohotlar, hukumat tashabbuslari va xalqaro standartlarni mahalliy ta’lim tizimiga integratsiyalashuviga e’tibor qaratadi.

O‘zbekistonda oliy ta’limning rivojlanishini Sovet Ittifoqi davridan kuzatish mumkin, bunda Sovet Ittifoqining sanoat ehtiyojlarini qondirish uchun birinchi navbatda texnik va kasb-hunar ta’limiga e’tibor qaratilgan edi. Mustaqillikka erishgandan so‘ng O‘zbekiston ta’lim tizimini jahon standartlari va rivojlanish maqsadlariga muvofiqlashtirish uchun tubdan isloh qilish yo‘lini boshladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda “Oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta’lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi.[1]

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 50-moddasida har bir fuqaroning ta’lim olish huquqi kafolatlangan. 51-moddasida fuqarolarning davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olish huquqi belgilangan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va o‘nlab qonun osti aktlari oliy ta’limning huquqiy asoslarini belgilab beradi. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-

son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” Strategiyasining 7-, 8- maqsadlari oliy ta’limga bag‘ishlangan.

Ushbu hujjatlar oliy ta’lim olish imkoniyatini ta’minlashda davlatning rolini belgilab, muassasalar, pedagoglar va talabalarning ham mas’uliyati, ham huquqlarini belgilab beradi

O‘zbekistonda so‘nggi yillar davomida Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi sanalmish Taraqqiyot strategiyasi doirasida, rivojlangan davlatlar kabi uzluksiz ta’lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta’lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo‘yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi.[2]

Bundan tashqari O‘zbekiston hukumati oliy ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va uning sifatini oshirishga qaratilgan ko‘plab tashabbuslarni ilgari surdi. Asosiy tashabbuslardan ba’zilari quyidagilardan iborat:

Oliy ta’lim muassasalarini (OTM) ko‘paytirish: Hukumat geografik tafovutlarni kamaytirish va qishloq joylarda OTMlarga kirish imkoniyatlarini yaxshilash uchun butun mamlakat bo‘ylab OTMlar sonini ko‘paytirmoqda.

Davlat-xususiy sheriklikni (DXSh) joriy etish: Ta’lim sohasini diversifikatsiya qilish va o‘qitishning innovatsion uslublarini joriy qilish uchun hukumat O‘zbekistonda ham mahalliy, ham xalqaro xususiy universitetlarning tashkil etilishiga olib kelgan DXShlarni rag‘batlantirmoqda.

O‘zbekistonda 2023 yilda 7 ta yangi oliy ta’lim muassasasi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan va ularning soni jami 213 taga yetgan. 213 ta OTMdan 116 tasi davlat, 67 tasi nodavlat, 30 tasi esa xorijiy oliy ta’lim muassasasi hisoblanadi.

Hozirda 213 ta oliygohda 1 mln 300 ming nafardan oshiq talaba tahsil olib, bu ko‘rsatkich orqali yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 2022 yilgi 38 foizdan 42 foizga oshgan.

2023/2024 o‘quv yili uchun 48 ta davlat oliy ta’lim muassasasining 20 ta xorijiy mamlakat bilan hamkorlikdagi qo‘shma ta’lim dasturlari ekspertizadan o‘tkazildi. Ijobiy xulosa berilgan 289 ta qo‘shma ta’lim

dasturi uchun 6 818 ta kvota kelishib berilgan. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekistonda 1,3 million nafardan oshiq talaba tahsil olmoqda. [3]

Stipendiya dasturlari: Iqtidorli talabalarni nufuzli xorijiy muassasalarda oliy ta’lim olishda qo‘llab-quvvatlovchi turli stipendiya dasturlari joriy etildi. Jumladan, 2018 yil 25 sentabr. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5545-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” Farmoni qabul qilindi. 2022 yilda Jamg‘arma tomonidan xorijiy davlatlarning nufuzli ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan stipendiatlar 479 tani tashkil etgan.[4]

O‘quv dasturlari bo‘yicha islohotlar: Amalga oshirilayotgan islohotlar oliy ta’limning mamlakat mehnat bozorining joriy va istiqboldagi ehtiyojlariga mos kelishini ta’minlash uchun o‘quv dasturlarini yangilash va xalqarolashtirishga qaratilgan.

Jahon bankining 2018 yil 27 dekabrdagi O‘zbekiston Ta’lim sektori tahlili bo‘yicha yakuniy hisobotida 2016-yilda bakalavriat yo‘nalishlari bitiruvchilarining atigi 4,5 foizi mamlakatda magistratura bosqichida o‘qishni davom ettirganligi ko‘rsatilgan.[5] Biroq Yangi O‘zbekistonda “Adolatli tanqid — kelajakning mevasi, undan chiqarilgan to‘g‘ri xulosa — bugunning mevasi” zaylida ish yuritilib bu sohadagi islohotlar yanada jadallashtirildi. Xususan, xuddi bakalavrdagi kabi ayrim abituriyentlarga beriladigan imtiyozlar magistraturada ham berildi. Qator toifadagi talabalar magistraturaga imtihonsiz grant asosida o‘qishga kiradi:

Prezidentning davlat stipendiyalari va nomli davlat stipendiyalari sovrindorlari;

Zulfiya nomidagi Davlat mukofotlari sohibalari;

“Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti sohiblari; fan olimpiadasi g‘oliblari;

Ta’lim vazirligi o‘tkazadigan fan olimpiadasi g‘oliblari (3 ta o‘rin)

Kimyo va biologiya, informatika va axborot texnologiyalari yo‘nalishini “qizil”ga bitirganlar "o‘z yo‘nalishiga" imtihonlarsiz to‘lov-kontrakt asosida qabul qilinmoqda.

Jahon bankining hisobotida “Oliy ta’lim olish imkoniyatiga ta’sir ko‘rsatadigan yana bir muammo erkaklarnikiga nisbatan ayollar sonining kamligidir. 2017/18 o‘quv yilida O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarning atigi 37 foizini (103 299 nafarini) ayollar tashkil etishi keltirilgan (YUNESKO 2018).” [5]

Ushbu kamchilikni ham bartaraf etish uchun hukumat qator islihotlarni amalga oshirmoqda. Xususan, 2019-yil 2-sentabrda “Ayollar va erkaklarning teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning 26-moddasida davlat ayollar va erkaklarning ta’lim olish huquqini ro‘yobga chiqarishi uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashi ko‘rsatilgan.

Bundan tashqari, 2022-2026-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning yangi strategiyasining 69 va 85-maqsadlari ayollarni qo‘llab-quvvatlash, gender tengligi, ayollarning ta’lim va kasbiy mahoratini oshirishga bag‘ishlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdagi 447- son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat oliy ta’lim muassasalarining magistratura bosqichiga to‘lov-kontrakt asosida qabul qilingan va ta’lim olayotgan xotin-qizlarning to‘lov-kontrakt summasini O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplab berish tartibi to‘g‘risida Nizom”ga asosan, 2022/2023-o‘quv yilidan boshlab davlat oliy ta’lim muassasalarining magistratura bosqichiga to‘lov-kontrakt asosida qabul qilingan va ta’lim olayotgan xotin-qizlarning o‘quv yili uchun to‘lov-kontraktning to‘liq summasini O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplab berish tartibi belgilangan.

O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi so‘nggi islohotlar ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ayni paytda mamlakatdagi ayollar huquqlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi gender tafovutlarini bartaraf etishga qaratilgan. Bu islohotlar hukumat tomonidan millatni modernizatsiya qilish va teng imkoniyatlarni ilgari surish maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning bir qismidir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda oliy ta’lim olish huquqi mustahkam qonunchilik bazasi va davlat tomonidan ta’lim olish va sifatni oshirishga qaratilgan qator tashabbuslar bilan quvvatlanadi. Muhim yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, tenglik, sifat va global ta’lim standartlariga moslashish kabi mavjud muammolarni hal qilish uchun doimiy harakatlar talab etiladi. Strategik sarmoyalar va islohotlar orqali O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirishi va shu orqali barcha fuqarolarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shishi va undan foyda olish imkoniyatini ta’minlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2020 yil 23-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni 11-modda

2. Ta’lim sohasidagi islohotlarni davom ettirish – ustuvor vazifa. Eldor Tulyakov, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi ijrochi direktori. 14 Apr. 2023 y. https://strategy.uz/index.php?news=1725&lang=uz

3. O‘zbekistondagi oliygohlar va ulardagi talabalar soni ma’lum qilindi. URL:https://kun.uz/news/2024/02/14/ozbekistondagi-otm-va-ularda-talim-olayotgan-talabalar-soni-malum-qilindi.

4. Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha «El-yurt umidi» jamg‘armasining faoliyati hamda 2023 yilgi 1-ochiq stipendiya tanlovi to‘g‘risida taqdimot. URL: https://eyuf.uz/admin/uploads/2023/03.04. _.pdf

5. Jahon bankining 2018 yil 27 dekabrdagi O‘zbekiston Ta’lim sektori tahlili bo‘yicha yakuniy hisoboti. 51-bet. URL: https://documents1.worldbank.org/curated/en/379211551844192053/pdf/Uzbekistan-Education-Sector-Analysis.pdf

HARBIY XIZMATNI O‘TASHNING INSON HUQUQLARI BILAN O‘ZARO ALOQALARI

Qoraboyev Abdulaziz Abduraxmonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
Universiteti tayanch doktaranti, podpolkovnik

Xizmat turlarining kengayishi kishilik jamiyatida talab va ehtiyojning kuchli ta’sir doiraga ega bo‘layotganligini ko‘rsatadi. Xizmatlar sohasi inson tamadduni taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanib kelmoqda.

Xizmat - (ar. xizmat; ish, lavozim; xizmat ko‘rsatish; yordam) bu ma’lum tomon tarafidan yo‘naltirilgan o‘z qiymati va manbasiga ega bo‘lgan nomoddiy ko‘rinishdagi harakat yoki mehnat mahsuli tushunilib, u fanlar va sohalararo quyidagi ma’nolarda tadbil etiladi:

1. Biror ish yoki mehnat bilan shug‘ullanish; biror ishni bajarish; ish, mehnat;

2. Birovga yordam ko‘rsatish; holisona qilingan ish; yordam; yaxshilik;

3. Biror tashkilot, muassasa yoki korxonada bajariladigan ish, vazifa; lavozim; shunday joyda ishlash; 4. Ish, topshiriq, vazifa; 5. So‘roq ohangi bilan aytilib, “Menda nima iishingiz bor?” degan ma’noni bildiradi; 6. Sohaviy termin bo‘lib, armiya safida bo‘lish, harbiy majburiyatni o‘tash; 7. Armiya tarkibidagi ixtisoslashgan sohalar yoki tarmoqlar: aloqa xizmati, tibbiyot xizmati, razvedka xizmati, qo‘shinlar xizmati va shu kabilar[1].

Darhaqiqat, birinchidan O‘zbek tilinig izohli lug‘atida ta’rifi berilayotgan ushbu termin, izohlarning oltinchi va yettinchi bandlaridagi ta’rifida harbiy termin sifatida xususiy ma’noda adekvat ahamiyat kasb etadi. Masalan, yuqorida ta’kidlanganidek, aloqa xizmati, tibbiyot xizmati, razvedka xizmati, qo‘shinlar xizmati kabi so‘z birikmalari sohaviy faoliyatlarning funksional vazifalarini bir-biridan tubdan farq qilishi hamda bo‘ysunuv ahamiyatiga ko‘ra turlarini belgilab beradi. Ikkinchidan, ushbu so‘z aynan harbiy-sohaviy termin ma’nosida qo‘llanib, fuqaroning davlat himoyasi uchun armiya safida bo‘lish va harbiy xizmat o‘tash (muddatli harbiy xizmat, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmat va Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o‘tagan rezervchilar xizmati kabi) asosiy burchi hisoblanadi[2].

---

[1] Bu haqda qarang: O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zME, 2020. – B. 395-396.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 64-modda.O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish – O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar. https://lex.uz/docs/6445145

Yuqoridagi ta’riflar bu terminning umumiy va xususiy jihatlarini qamrab olgan bo‘lsa-da, intellekt taraqqiyotning ma’lum talablari asosida ushbu terminning unikal ma’nolari bir qator adabiyot hamda qonunchilik hujjatlari matnida yanada tor ma’noda qo‘llanilib kelinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” PQ-4447-son Qarorida ham “**Harbiy xizmat –** fuqarolar tomonidan Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turi”[1] deya ta’rif berilgan.

Insoniyatning o‘tmishida ijtimoiy faoliyat yoki xizmat deb ataluvchi muayyan tizim bo‘lmagan bo‘lsa-da, biroq bu faoliyatning genetik tadriji qadimdan mavjud bo‘lgan. Xususan, qadimgi Misr ibodatxonalarida ochlarga tekin non va boshqa oziq-ovqat turlarini, qadimgi Yunoniston va Rimda amal qilgan filantropik harakatlar, ya’ni kambag‘allashgan aholi qatlamlariga non, kiyim-kechak hamda pul tarqatilishi, Qadimgi Xitoyda hamdard bo‘lish va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishni kuzatish mumkin[2]. Bunday xizmatlar o‘rta asrlarda ham keng targ‘ib qilingan, Jumladan, Amir Temur davrida ijtimoiy xizmat ko‘rsatish davlat darajasida amal qilingan bo‘lib “Faqiru miskin, biron kasb qilishga ojiz shol-ko‘rlarga nafaqa belgilangan”. Tarixiy manbalarda Amir Temur tomonidan “turlik-turlik hayru ehsonlar qilinib, sinf-sinf sadaqalar mustahiklarga yetkazilib, faqir va miskinlarga bisyor obu osh bergan”ligi keltirilgan[3].

O‘zbek davlatchiligi tarixi va taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamoat tartibini saqlash, aholi xavfsizligi va osoyishtaligini ta’minlash hamda davlat obyektlarini qo‘riqlash muhim vazifa hisoblangan. Tarixiy manbalarda sohaga doir qabul qilingan hujjatlar asosida “...mamlakatda ichki xavfsizlikni ta’minlash maqsadida faoliyat olib borgan tuzilmalarning nomi, boshqaruv strukturasi, vazifalari va xizmat faoliyati[4]...” doimiy ravishda o‘zgarib borganligi kuzatiladi.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 sentabrdagi PQ-4447-son Qaroriga_1-ilova, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida Nizom, 1-2-bob. https://lex.uz/docs/-4513434

[2] **Boynazarov F.** Qadimgi dunyo tarixi. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashri. T.: 2004 y. - 464 b.

[3] Sharafiddin Ali Yazdiy. Tarjimon: Muxammad Ali ibn Darvesh Ali Al-buxoriy. “Zafarnoma” asari. T.: 1997 yil.

[4] Shamsutdinov R., Mo‘minov N. O‘zbekiston tarixi. T.: 2020 yil. - 461 b.

Harbiy xizmat esa turli davrlarda turlicha namoyon bo‘lgan. Eramizdan avvalgi IX-VI asrlarda so‘g‘diylar, baqtriyaliklar (baxtariylar), xorazmiylar, sak va massagetlar davlatlarida jang olib borishga qurbi yetgan qabila a’zolari (xattoki qizlar ham jalb etilgan) yurt himoyasiga, xizmatga jalb etilgan. Rim Armiyasida esa xizmatga dastlab yer mulkka ega bo‘lgan rimliklar olingan. Keyinchalik 17 yoshga yetgan erkaklar xizmatga jalb etilganligini tarixdan bilamiz. Shu tarzdagi faoliyatning natijasida, ijtimoiy xizmat tizimi ma’lum vaqt o‘tishi bilan jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida muhim hisoblangan alohida mustaqil sohaga aylandi.

Hozirgi kunda harbiy xizmatni o‘tash mazmun-mohiyati va harbiy xizmatchilarga qo‘yiladigan talablar bir qator tushunchalarga hamda mezonlarga ega bo‘lgan[1].Tinchlik davrida muddatli harbiy xizmatga o‘n sakkiz yoshdan yigirma yetti yoshgacha bo‘lgan fuqarolar, shuningdek muqaddam haqiqiy harbiy xizmatni o‘tamagan, salomatligiga ko‘ra Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o‘tashga yaroqli erkak fuqarolar chaqiriladi. Harbiy xizmatni o‘tash muddati bir yil (12 oy) belgilangan.

Professional armiyani shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshirildi. 1991 yildan beri olib borilayotgan Qurolli Kuchlarni isloh qilish modeli harbiy xizmatchilar hayotini va jamiyatdagi mavqini ham tubdan o‘zgartirdi. Armiya islohotining hozirgi holatidan - harbiy-ijtimoiy, pedagogik-psixologik jihatlarini o‘rganish va professional armiyani yangi tamoyillar, usullar va mexanizmlarini joriy etish orqali takomillashtirish masalalari hozirgi kunda dolzarbdir.

Tadqiqotimiz davomida o‘tkazilgan suxbatlarda 62% respondentlar (bo‘linma komandirlari) jangovar bo‘linmalar kadrlar bilan butlanganlik holati yuqori bo‘lsada, kontrakt asosidagi harbiy xizmatchilar orasida bilimli, malakali va tajribali hamda o‘z ishini yaxshi biladigan, mutaxasisligi bo‘yicha professional kadrlarga ehtiyoj sezilayotganligini e’tirof etishdi. Bunday mutaxasisliklar bo‘yicha jangovar bo‘linmalarini muddatli harbiy xizmatni o‘tagan, ma’lum mutaxasislikga ega bo‘lgan va

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi PQ-4447-son Qaroriga 1-ilova, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida Nizom, 1-2-bob. https://lex.uz/docs/-4513434

kontrakt asosida harbiy xizmatga qiziqish bildirganlar orasidan tanlab olib, qayta tayyorlashdan o‘tkazish bilan to‘ldiriladi.

Hozirda muddatli harbiy xizmat o‘tashga qiziquvchilar soni ma’lum darajada kamaygan, o‘tkazilayotgan targ‘ibot ishlariga qaramasdan joylarda ma’sullar tomonidan belgilangan komandaga muddatli harbiy xizmat o‘tash uchun moslarini tanlash, yig‘ish va to‘ldirishda qiyinchiliklar tug‘ilmoqda. Aksariyat shu yoshdagi chaqiriluvchilarni turli sabablarga ko‘ra harbiy xizmatga borishni hoxlamasligi aniqlangan.

Rivojlangan davlatlarda harbiy xizmat o‘tash tartibi turli xil bo‘lib, davlat manfaatlaridan kelib chiqib, harbiy xizmat turlari tashkil etilgan. Masalan, bugungi kunda Xitoy harbiy xizmatchilar uchun ish haqi, tegishli imtiyozlar darajasini oshirdi, bu ularning turmush darajasini yaxshilashga yordam beradi va Qurolli Kuchlar uchun mutaxassisliklar bo‘yicha o‘qitish narxini ham oshirgan. Xitoyning milliy mudofaa boshqaruvi bo‘yicha quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: mamlakat rahbariyati mudofaa xarakteriga ega siyosat yuritmoqda. Konstitusiyaga muvofiq ishlab chiqilgan “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonunda bu vazifa belgilab berilgan. Qurolli Kuchlar mamlakat mudofaasini mustahkamlash, bosqinchilikka qarshi kurashish, Vatanni himoya qilish, xalq tinchligi va osuda hayotini ta’minlashdir.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Xitoyda harbiy xizmatga chaqiriluvchilar ishchi kuchining qariyb uchdan bir qismini tashkil qiladi, ya’ni har yili 400 000 ga yaqin fuqarolar harbiy xizmatga chaqiriladi. Muddatli harbiy xizmatga 18 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan erkaklar chaqiriladi, xizmat muddati ikki yil. Ayrim hollarda ayollar ham armiyaga chaqiriladi. Harbiy xizmat majburiy, ammo tanlab olinadi, ya’ni har kim ham chaqirilmaydi va maxsus tanlov orqali qabul qilinadi. Muddatli harbiy xizmatga chaqiriluvchilar ro‘yxatini tuzadi va ularni tanlash bo‘yicha ishlarni amalga oshiradi: **tibbiy ko‘rik**dan o‘tkazadi, chaqiriluvchilarning **g‘oyaviy-siyosiy dunyoqarashi**, **jismoniy tayyorgarligi** baholanadi. Sinovlar asosida xizmat ko‘rsatish uchun tavsiya etilganlar ro‘yxati tuziladi. Harbiy komissarlarga, birinchi navbatda, kollejlar va oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilariga, jumladan, zamonaviy harbiy ishlarda foydali

bo‘lgan noyob mutaxassisliklarga ega bo‘lganlarga e’tibor qaratiladi. Xitoyda fuqarolarni harbiy xizmatga chaqirilishi o‘ziga xos obro‘ va e’tiborga egaligidan dalolat beradi. Birinchidan, bu yuqori maoshga ega bo‘lgan qurolli kuchlarda martabani davom ettirish imkoniyatini bersa, ikkinchidan davlat va partiyaviy mansab karyerasini qurish osonroq bo‘ladi[1].

Xitoyning boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda, o‘ziga xos xususiyati -armiyaga bo‘lgan munosabat va uning jamiyatdagi mavqeini yuqoriga ko‘targanligida deb bilish mumkin. Harbiy chaqiruv kontingentini hisobga olganda yetarlidan ko‘p va saralash bosqichlarida kerakli mutaxasislarni tanlab olishga imkon beradi. Xitoyda harbiy xizmat nufuzli - bu maqom va daromad darajasini oshirishni kafolatlaydigan “ijtimoiy vosita” bo‘lib, harbiy kasb nufuzining oshishiga zamin yaratmoqda.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatni o‘tash azaldan inson (yoshlar)ning mustaqil rivojlanishida, hayotiy zarur bilimlarni egallashda va yangi hayot yo‘lini topishida asosiy maktab bo‘lib xizmat qilishini e’tiborga olish lozim. Har bir davlatning rivojlanishida tartib – intizomning o‘rni katta, birinchidan davlat mudofaasi uchun har bir fuqaro dahldor bo‘lishi va ularning taqdiri - Vatan taqdiri bilan bog‘liq. Ikkinchidan, harbiy kadrlarni tayyorlashda aniq va tizimli yondashuv ayrim muammolarni bartaraf etilishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 64-modda. O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish – O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar. https://lex.uz/docs/6445145
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zME, 2020. – B. 395-396.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi PQ-4447-son Qaroriga_1-ilova, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy

[1] **Китай оцифрует систему призыва в армию. https://rtvi.com/news/kitaj-oczifrovizuet-sistemu-prizyva-v-armiyu/.**

xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida Nizom, 1-2-bob. https://lex.uz/docs/-4513434

4. Boynazarov F. Qadimgi dunyo tarixi. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashri. T.: 2004 y. - 464 b.

5. Sharafiddin Ali Yazdiy. Tarjimon: Muxammad Ali ibn Darvesh Ali Al-buxoriy. “Zafarnoma” asari. T.: 1997 yil.

6. Shamsutdinov R., Mo‘minov N. O‘zbekiston tarixi. - T.: 2020 yil. - 461 b.

7. Kitay otsifruet sistemu prizыva v armiyu. https://rtvi.com/news/kitaj-oczifrovizuet-sistemu-prizyva-v-armiyu/.

8. Internet resurslari:

https://www.kun.uz

https://www.ziyonet.uz

https://www.tdpu.uz

https://www.lex.uz.

THE CONCEPT OF DIGITAL INTELLECTUAL PROPERTY RIGHTS AND THE BASICS OF ITS DEVELOPMENT

To‘rabayeva Mahliyo Ozod qizi
Master's student of Mass Media Law at
Tashkent State Law University

The existence of an effective mechanism for the protection of intellectual property rights in accordance with advanced international standards and requirements is one of the important guarantees and conditions for increasing the intellectual potential of the state and society. As noted by the great Russian civil scientist, jurist G. Shershenevich: "copyright protects the economic interests of intellectuals." Ensuring the rights of the creators of various technical, artistic and literary works in practice not only encourages them to continue their creativity, but also creates a basis for the further development of the market economy, strengthening the economic foundations of the society, and getting a decent fee for the creative products created by the authors of the works.

According to Article 2 of the Convention "On the Establishment of Universal Intellectual Property Rights" dated July 14, 1967, intellectual property includes the following rights (Uzbekistan acceded to the convention on 25 December 1991):

✓ literary, artistic and scientific works,

✓ performing activities of artists, recording, radio and television shows,

✓ inventions in all areas of human activity,

✓ scientific discoveries,

✓ industrial samples,

✓ trademarks, service marks, company names and trade marks,

✓ protection against unfair competition,

✓ all other rights related to intellectual activity in industrial, scientific, literary and artistic fields[1].

Article 1031 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan states that intellectual property objects include:

1) results of intellectual activity: works of science, literature and art; performances, phonograms, broadcasts or broadcasts of broadcast or broadcasting organizations through air or cable; programs and databases for electronic computing machines (hereinafter referred to as EHM); inventions, utility models, industrial samples; breeding achievements; undisclosed information, including production secrets (know-how);

2) means reflecting private signs of participants in civil transactions, goods, works and services: company names; trademarks (service marks); geographical indicators; the name of the place where the goods were issued;

3) Other results of intellectual activity and means reflecting private signs of participants in civil transactions, goods and services in cases provided for by the Civil Code or other laws.

According to O. Okyulov: "intellectual property right when defined from a scientific point of view, according to its essence - relations related to the creation of products of human creative activity, their use, circulation

[1] Convention "On the Establishment of Universal Intellectual Property Rights" of July 14, 1967 // https://lex.uz/docs/-2600169.

of distinguishing marks, as well as in relation to objects of intellectual property is a set of norms regulating the protection of rights"[1].

According to another Uzbek scientist, I. Yakubova, copyright is the performance (copyright) of works of science, literature, art, phonograms, broadcasts or broadcasts of broadcasting organizations through air or cable (related rights) is to regulate the relations that arise in connection with their creation and use. Examples of copyrighted works include original works of art, films, and sound recordings[2].

Originally, intellectual property laws focused primarily on protecting tangible assets such as books, paintings, and inventions. However, with the advent of the Internet and digital technologies, new challenges have arisen regarding the protection of digital creations. Traditional intellectual property laws such as copyright, patent, and trademark need to embrace the digital landscape.

Copyright law gives creators exclusive rights to their original works, including the rights to reproduce, distribute, and display their works. In the digital realm, these rights apply to digital content such as e-books, music files, videos and software. Digital Rights Management (DRM) technologies are designed to control access to and use of digital content to prevent unauthorized copying and distribution[3].

Similarly, patent law is used to protect digital inventions and processes, such as software algorithms and business methods implemented in software. However, debate continues about the patentability of certain software innovations and the balance between encouraging innovation and preventing monopolistic control over ideas.

Trademark law has also expanded to cover digital trademarks, domain names, and branding in the online environment. This includes addressing issues such as cybersquatting, where individuals register domain names that are identical or similar to existing trademarks in order to profit from confusion.

[1] O. Akyulov. Intellectual property rights. Institute of Philosophy and Law named after I. Mominov, 2005.-3b
[2] Yakubova I.B. Copyright. Study guide.-T.: TSUL publishing house, 2020.-B.8.
[3] The U.S. Copyright Office provides a comprehensive overview of copyright law in the United States: U.S. Copyright Office website.

The development of digital intellectual property rights is influenced by international agreements aimed at harmonizing intellectual property laws in different jurisdictions. Organizations such as the World Intellectual Property Organization (WIPO) play a crucial role in promoting international cooperation and setting global standards for the protection of intellectual property.

The evolution of digital intellectual property rights is being shaped by ongoing technological advances, legal complexities, and social dynamics. With each advancement in technology, new forms of digital content emerge, creating new challenges for intellectual property rights. For example, the rise of artificial intelligence (AI) and machine learning has led to questions about how ownership and liability for infringement of AI-generated works will be handled[1].

In addition, the increasing interconnectedness of the global economy and the borderless nature of the Internet have necessitated the creation of international standards for the protection of digital intellectual property rights. International treaties and agreements, such as the Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS), administered by the World Trade Organization (WTO), aim to harmonize intellectual property laws across jurisdictions and facilitate the enforcement of cross-border rights.

At the same time, debate continues about the balance between protecting intellectual property rights and promoting access to information and cultural expression. While some argue that overly restrictive intellectual property laws stifle innovation and creativity, others emphasize the importance of encouraging creators and rights holders to continue producing valuable digital content.

In response to these challenges, policymakers, legal scholars, and industry stakeholders continue to engage in dialogue and debate to shape the future of digital intellectual property rights. This ongoing conversation seeks to strike a balance between protecting the interests of creators and rights holders, fostering innovation and creativity, promoting the use of

[1] https://www.wipo.int/portal/en/index.html.

digital content, and ensuring a fair digital economy for all stakeholders. In addition to these considerations, the enforcement of digital intellectual property rights presents unique challenges in the digital age. The borderless nature of the Internet means that infringing content can easily be distributed globally, making it difficult to enforce intellectual property laws across jurisdictions. This has led to the emergence of special enforcement mechanisms such as warning and removal procedures and international cooperation agreements among law enforcement agencies.

In particular, the rapid pace of technological innovation often outpaces the development of intellectual property laws, leading to legal uncertainty and uncertainty in certain areas. For example, emerging technologies such as blockchain and decentralized finance raise questions about how existing intellectual property frameworks can be applied to decentralized systems and peer-to-peer networks[1].

Already, digital piracy and the ever-increasing online counterfeiting pose serious challenges to the protection of intellectual property rights. Efforts to combat digital piracy include legal measures, technological solutions and educational campaigns to raise awareness of the importance of respecting intellectual property rights. At the same time, it is recognized the importance of maintaining a balance between the protection of intellectual property rights and the promotion of learning and cultural expression. Initiatives such as open access publishing, Creative Commons licensing, and open source software development aim to facilitate the sharing and dissemination of knowledge while respecting the rights of creators and copyright holders. In short, the concept of digital intellectual property rights continues to evolve in response to technological progress, legal challenges, and social dynamics. The development of flexible legal frameworks is also important to ensure effective protection of intellectual property rights in the digital age by encouraging continuous dialogue and cooperation between stakeholders, innovation, creativity and access to digital content for all.

[1] https://lawandworld.ge/index.php/law/article/view/473.

The emergence of emerging technologies such as artificial intelligence (AI) and virtual reality (VR) presents new challenges and opportunities for digital intellectual property rights. These technologies are blurring the lines between traditional forms of creative expression and automated or algorithmically generated content, raising questions about authorship, ownership and responsibility. For example, it becomes difficult to determine the legal owner of intellectual property in works created by AI. Does the creator of the AI algorithm have exit rights, or does the person who trained or controlled the AI have rights? Similarly, copyright, patent, and trademark infringement issues in the VR experiences device category may arise due to the integration of multiple copyrighted works or patented technologies. In addition, the use of artificial intelligence in content creation and distribution will affect existing intellectual property laws and enforcement mechanisms. For example, AI-generated content may raise copyright infringement issues if it reproduces or adapts existing works without permission, or creates derivative works that closely resemble copyrighted material. Similarly, AI algorithms used in content recommendation systems and search engines may affect the visibility and identification of copyrighted works, raising questions about fair use, fair compensation, and the balance of interests between rights holders and users. possible

In general, the development of digital intellectual property rights is closely related to broader trends toward openness, collaboration, and democratization in the digital age. By embracing open source principles, supporting innovation ecosystems, and promoting inclusive and equitable access to knowledge and technology, we can harness the collective power of human creativity and ingenuity to solve the most pressing challenges facing humanity and build a better future for all.

According to S. Grishayev, copyright infringement on the Internet is the copying and distribution of works of science, literature and art protected by copyright for commercial purposes without the consent of the authors. In agreement with this concept, S.I. Boldirev includes computer

programs and games, and in general, any digitized material protected by copyright[1].

References

1. Convention "On the Establishment of Universal Intellectual Property Rights" of July 14, 1967.
2. O. Akyulov. Intellectual property rights. Institute of Philosophy and Law named after I. Mominov, 2005.
3. Yakubova I.B. Copyright. Study guide.-T.: TSUL publishing house, 2020.

NOGIRONLAR HUQUQI

Shodiyeva Musharraf Furqat qizi,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus fakultet 104-guruh talabasi

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni himoya qilish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri – nogironligi bo‘lgan shaxslarning Konstitutsiyamizda ko‘zda tutilgan shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquq va erkinliklarini xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalari hamda O‘zbekiston qo‘shilgan xalqaro shartnomalarga muvofiq holda, boshqa fuqarolar bilan teng ravishda ta’minlash hisoblanadi.

Nogironlik –baxtsiz hodisalar tufayli butunlay yoki ma’lum muddat mehnat qobiliyatini yo‘qotish. Jismoniy yoki akliy nuqsonlari borligi sababli ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj shaxs nogiron hisoblanadi. Nogironlik mehnat qobilyatini yo‘qotish darajaiga qarab 3 guruhga bo‘linadi. Ularga qisqacha izoh beradigan bo‘lsak 1- guruh guruh Nogironligiga mehnat qobiliyatini butunlay yo‘qotgan va boshqaning doimiy parvarishi, yordami, nazoratiga muhtoj bo‘lgan shaxslar; Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek, nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanish O‘zbekiston Respublikasi

[1] Boldyrev S.I. — Osnovnye sposoby narusheniya avtorskikh prav v seti Internet // Juridicheskie issledovaniya. – 2014. – No. 12. – S. 35 - 43. DOI: 10.7256/2409-7136.2014.12.1370 URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=13708.

Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ular to‘g‘risidagi Nizom asosida ishlovchi tibbiy - mehnat ekspert komissiyalari tomonidan aniqlanadi.

2-guruh Nogironiga mehnat qobiliyatini butunlay yo‘qotgan, lekin boshqalarning doimiy parvarishiga muhtoj bo‘lmagan, shuningdek, mehnat turidan qat’i nazar, unda uzoq muddat ishlay olmaydigan shaxslar;

3-guruh Nogironligiga mehnat qobiliyati sezilarli darajada pasaygan shaxslar kiradi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, bugun dunyoda 1 milliarddan ortiq odam nogironlikdan aziyat chekadi. Bu dunyo aholisining, taxminan, 15 foizini tashkil etadi. O‘zbekistonda ham bunday toifadagi odamlar soni kam emas. Ma’lumotlarga qaraganda 2,3 foizi yana aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak 845,3kishi imkonyati cheklangan shaxslar deb qaralmoqda

Dunyoda nogironlar huquqiga oid birinchi xalqaro akt BMT tomonidan 1975-yilda qabul qilingan ,,Nogironlar huquqlari to‘g‘risida’’gi deklaratsiya sanaladi. XMTning 1993-yildagi ,, Nogironlar uchun teng imkonyatlarni ta’minlashning standart qoidalari’’ keng qamrovli asosiy hujjatlar hisoblanadi. 2006-yilda birinchi xalqaro huquqiy akt ,,Nogironlar huquqlari to‘g‘risida’’gi konvensiya va unga fakultativ protokol qabul qilindi. Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2006 yil 13 dekabrda qabul qilingan va 2008 yil 3 mayda kuchga kirgan. Bugungi kunga qadar uni BMTning 192 a’zo-davlatidan 184 tasi ratifikatsiya qilgan. SHu davlatlar qatori o‘zbekiston ham. O‘zbekiston Respublikasining 2020 -yil 15-oktabrda qabul qilingan ,, Nogirinligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida"gi Qonunda nogironlarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib , ular nogironlarning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan kompleks chora tadbirlar ko‘rish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish; nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari va imkonyatlarini tengligini boshqa fuqarolar bilan teng ravishda ta'minlash ; nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyat va davlat hayotiga jalb etish; nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari va qadr -qimmatini hurmat qilish masalasi bo‘yicha jamiyatda

ma'rifiy. -tarbiyaviy ishlarni tashkil etish; nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash; nogironligi bo‘lgan shaxslarning inklyuziv ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashdan iborat.

Xalqaro huquq tamoyillari va me'yorlar asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining ,,Ta'lim to‘g‘risida"gi, ,, Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida" gi ,,O‘zbekistonda nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida"gi qonunlari, Oila kodeksi va boshqa hujjatlarida imkonyati cheklangan bolalarning ta'lim olishi va uyg‘un rivojlanishi, shuningdek, barcha fuqarolar qatorida imkonyati cheklangan bolalarning huquqiy va ijtimoiy himoyalanishi kafolatlangan.

O‘zbekiston Respublikasining ,, Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida" gi Qonunning 29-moddasiga asosan davlat maxsus pedagogik yondashuvga ehtiyoji bo‘lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning belgilangan ta'lim standartlari va talablari darajasida bilim olishlarini kafolatlovchi zarur mablag‘lar ajratadi hamda boshqa choralar ko‘radi

Nogiron bolalarning oiladagi ta'limi ta'lim muassasalarida, shu jumladan, ixtisoslashgirilgan ta'lim muassasalaridan ta'lim olishning imkoni bo‘lmagan taqdirda, ota -onaning yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslarning istagi hisobga olingan holda amalga oshiriladi. Bunda ota yoki onaga yoxud ota yoki ona o‘rnini bosuvchi shaxsga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ,,Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarning uyda yakka tartibda ta'lim olishlarini tashkil etish tartibi to‘g‘risida"gi nizomda belgilangan tartibda va shartlarda moddiy ta'minot hamda imtiyozlar beriladi.

Nogironlarni oliy ta'lim muassasalariga o‘qitishga qabul qilishda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-iyundagi 417-sonli qarori bilan tasdiqlangan ,,Oliy ta'lim muassasalariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘shimcha davlat granti kvotalari asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida"gi nizom talablariga amal qilinadi

Nogironlarning mehnat qilish huquqi. ,, Nogironlar huquqlari to‘g‘risida"gi konvensiyaning 27-moddasida belgilanishicha, ,,ishtirok

etuvchi davlatlar nogironlarning boshqalar bilan teng ravishda mehnat qilish huquqini e'tirof etadi. Bu mehnat bozori va ishlab chiqarish muhiti nogironlar uchun ochiq. Inklyuziv va ishtirok eshit imkonyati bo‘lgan sharoitda nogiron o‘zi tanlagan va erkin rozi bo‘lgan mehnat faoliyati orqali turmush kechirishiga pul ishlab topish imkoniyatiga ega bo‘lish huquqini qamrab oladi".Mehnat kodeksining 220-moddasiga asosan ish beruvchi belgilangan minimal ish joylariga mahalliy mehnat organi tomonidan yo‘llangan nogironlarni ishga qabul qilishi shart. Xodimlarning Soni yigirma kishidan ortiq bo‘lgan korxonalarda, muassasalar va tashkilotlarda mahalliy davlat hokimyati organlari nogironlarni ishga joylashtirish uchun xodimlar sonining kamida uch foizi miqdorida ish joylarining eng kam sonini belgilaydi va zaxirada saqlaydi

, O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risidagi" Qonunining 23-moddasida nogironlarga barcha turdagi mehnat faoliyatida munosib tarzda shart- sharoitlar yaratib berilishi, ta'tillardan foydalanish borasidagi imtiyozlar berilishi va ularga belgilangan tartibdagi maoshi kamaytirilmagan holatda to‘lanishi," 24-moddasiga binoan Esa nogironlarni mehnat qilishning barcha turlaridan foydalinishi mumkunligi qayd etilgan

Nogirinlarning mehnat qilish huquqi qariganda, betob bo‘lib qolganda, mehnat qobilyatini yo‘qotganda moddiy ta'minot olish huquqi bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi , "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to‘g‘risida"gi Qonunda va boshqa qonun hujjatlarida o‘z ifodasini topgan. O‘zbekiston Respublikasida Har Kim qariganida, mehnat layoqatini yo‘qotganida, boquvchisidan mahrum bo‘lganida va qoqnunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga egaNogironlar jamiyatlarini qo‘llab -quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatida nodavlat notijorat tashkilotlariga iqtisodiy ijatdan imkoniyatlar yaratish, turli imtiyozlar berish maqsadida 2008-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati kengashlarining qo‘shma qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzurida nodavlat va notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tashkil etildi.

TA’LIM TIZIMIGA YANIGCHA YONDASHUV VA ISLOHOTLAR

Yusupbayeva Altingul,
Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi bo‘lim boshlig‘i

Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq.

Shavkat Mirziyoyev

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma’rifat va ta’limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi, insoniyat fan o‘qi atrofida aylanayotgandek go‘yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta’limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidan boshlanishi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyati beqiyosligini nazarda tutadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi”.

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash

jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib beradi.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o‘quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta’lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta’lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e’tirofga erishish hamda boshqa ko‘plab aniq yo‘nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta’lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda yangi-yangi oliy o‘quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so‘nggi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta’lim muassasasi, jumladan, xorijiy

universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o‘quv yurtlarining soni 125 taga yetdi.

Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yilyapti. Aholi fikrini o‘rgangan holda, sirtqi va kechki ta’lim shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilyapti. Maktab bitiruvchilarini oliy ta’limga qamrab olish darajasi 2016-yilgi 9 foizdan 2020-yilda 25 foizga yetdi.

Professor-o‘qituvchilarning xorijdagi oliy ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o‘tashini ta’minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori

2018-yilga nisbatan o‘rtacha 2,5 barobar oshirildi. Bu yildan boshlab 10 ta oliy ta’lim muassasasi o‘zini-o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazildi.

Oliy ta’limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilganligi, oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko‘paytirib, 2 mingtaga yetkazilishi oliy ta’limga qamrab olish ko‘lamini yana-da kengaytirdi.

Ta’lim tizimidagi eng muhim yangiliklardan biri oliygohlar va ta’lim tizimining quyi bo‘g‘inlari o‘rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o‘quv yurtlari tasarrufiga o‘tkazilishi, shuningdek, 187 ta texnikum ham o‘z yo‘nalishi bo‘yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga biriktirilishi bo‘ldi.

Demak, xulosa qiladigan bo‘lsak, ta’lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o‘zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yana-da keng ko‘lamda davom ettirish davr talabidir.

Axborot texnologiyalar asri deb nom olgan XXI-asrda hayotning barcha jabhalarida — sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm-fanni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyoda taraqqiyot yo‘lini tutgan barcha mamlakatlarda e’tirof etilmoqda. Respublikamizda ham ana shu jarayonga alohida e’tibor berilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti davlat rahbari sifatidagi faoliyatini yurtimiz akademiklari, yetakchi olimlari, umuman, ilm ahli bilan uchrashuvdan boshlaganligi, respublikamizda ilm-fan rivojini ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan uyg‘unlashtirishga qaratganligi bejiz emas. Davlatimiz rahbarining shundan keyin sog‘liqni saqlash tizimi faoliyatini yaxshilash, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobxonlikni kuchaytirish, respublikada yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, mamlakatni yana-da rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish, “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” ishlab chiqilishi, Imom Termiziy xalqaro markazini tashkil qilish borasida va shu kabi boshqa ko‘plab qabul qilingan qarorlari, farmonlari, farmoyishlarida ilm-fanni yuksaltirish asosiy masalalardan biri sifatida belgilanishi ham ana shu e’tiborning amaliy ifodasi edi.

Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, ularning yutuqlarini yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotga aylantirish jarayonida intellektual mulkning ishonchli himoya qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, intellektual mulk ulushi Yevropada yalpi ichki mahsulotning 45, Xitoyda 12, Rossiyada 7 foizini tashkil etadi. 2020-yilning 12-oktabr kuni Prezidentimiz raisligida bo‘lib o‘tgan yig‘ilish ham “Intellektual mulkni himoya qilish – Uchinchi uyg‘onish davri uchun ishonchli poydevor bo‘lib xizmat qiladi” mavzusiga bag‘ishlangan edi. O‘shanda davlatimiz rahbari patent egalari va tadbirkorlar o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlash zarurligiga alohida e’tibor qaratdi.

Shu ma’noda O‘zbekistonni 2030-yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning 50 ta yetakchi davlatlari qatoriga kiritish bo‘yicha ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e’lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari va 2017-yil 7-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, “Yoshlarga oid Davlat dasturi”, yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining

2019-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmonlari mamlakatimizda ta’lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Xususan, ta’lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo‘ldi. Mazkur Qonunga asosan ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta’lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, Qonunga ko‘ra, davlat oliy ta’lim, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o‘rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo‘ldi. Nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish ularning ta’sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta’lim tashkilotlariga litsenziya Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo‘ldi.

Shunga ko‘ra, mazkur Qonunning qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi ta’lim sohasida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bo‘ldi deyishimiz mumkin.

Hukumatimizning ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlari Namangan davlat universitetida ham izchil amalga oshirib kelinyapti. Xususan, keyingi uch yil ichida fakultetlar soni 9 tadan 15 taga, mutaxassislik kafedralari soni 27 tadan 46 taga, ta’lim yo‘nalishlari soni 31 tadan 52 taga, magistratura mutaxassisliklari soni esa 12 tadan 26 taga yetkazildi. Bunga mos ravishda ilm istagida bo‘lgan universitet talaba yoshlari soni 5 100 nafardan qaryib 21 000 nafarga yetdi. Professor-o‘qituvchilar soni 470 nafardan 710 nafarga yetdi. Universitetda 2018-2019 o‘quv yiliga qadar ilmiy salohiyat 26 foizni tashkil etib, bironta ixtisoslik bo‘yicha ixtisoslashgan kengash faoliyat olib bormagan. Keyingi yillarda ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e’tibor qaratilib, ilmiy salohiyat 37 foizdan oshdi, ta’lim sifatini ta’minlash yo‘lida bugungi kunda 12 ta ixtisoslik bo‘yicha 9 ta ixtisoslashgan kengash

faoliyat olib bormoqda. Albatta, bu borada 17 ta tayanch doktoranturada tahsil olayotgan doktorantlar hisobidan universitet ilmiy-pedagog kadrlari saflarini salohiyatli kadrlar bilan to‘ldirish maqsadi belgilab olingan.

Yaqin-yaqingacha universitet asosan pedagogik soha uchun mutaxassislar tayyorlar edi. Bugungi kunda universitetda Arxeologiya, Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish, Sotsiologiya, Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo‘yicha), Kutubxona-axborot faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha), Zooinjeneriya: baliqchilik, Mevachilik va uzumchilik, Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi, Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik, Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish, Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha), Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish, Turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha), 2021-yildan boshlab esa Davolash ishi, Pediatriya ishi kabi yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlashni boshlaganligi oliygohimizni haqiqiy ma’noda viloyatimizning aql markaziga aylanayotganligidan dalolat beradi.

Universitet yirik ilmiy-tadqiqot markazi sifatida Namangan davlat universitetida media markaz tashkil etish, Akvakultura bo‘yicha o‘quv-amaliy trenajer tashkil etish, “Dorivor o‘simliklardan shifobaxsh ichimliklar tayyorlash”, Shifobaxsh profilaktik Sumalak ishlab chiqarish texnologiyasi, Farg‘ona vodiysida tarqalgan kamyob va yo‘qolib borayotgan hamda endem turlarning tirik kolleksiyasi, elektron fotoalbomi va raqamlashtirilgan elektron ma’lumotlar bazasini yaratish kabi yirik xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etyapti.

Axir biz shunday jahon tendensiyalaridan chetda qolishimiz mumkinmi? Albatta, yo‘q. Bugungi kunda institutimiz mintaqaviy va xalqaro darajadagi aniq loyihalar ustida ishlayapti, yangi raqamli ta’lim platformasini yaratish, infratuzilmada zamonaviy bo‘linmalar tashkil etish bo‘yicha innovatsion yechimlar qabul qilmoqda. Shuningdek, ko‘plab ilmiy hamda ta’limiy tadbirlarda ishtirok etyapti.

ДИНИЙ ЭКСТРЕМИЗ ВА ТЕРРОРИЗМГА ҚАРШИ КУРАШИШДА ҲУҚУҚНИ МУҲОФАЗА ҚИЛУВЧИ ОРГАНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Авлиёқулов М.

мустақил тадқиқотчи

Бугунги кунда жамият аҳолисининг терроризм ва диний экстремизм ғоялар таъсирига тушиб қолиши ҳамда террористик ташкилотларга аъзо бга қарши курашиш ва унинг олдини олиш муаммолари Ўзбекистон Республикаси давлат органлари, маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органлари ва жамоат ташкилотлари фаолиятида устувор аҳамият касб етади.

Мамлакатда терроризм ва диний (биринчи навбатда, Ислом) мухолифатга қарши курашиш тизими яратилди ва такомиллаштирилмоқда. Ушбу тизимнинг асосий элементлари қуйидагилардан иборат: Бош прокуратура, Давлат хавфсизлик хизмати (ДХХ) тегишли бўлинмалар Ички ишлар вазирлиги (ИИВ), Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги дин ишлари қўмитаси, маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органлари (маҳалла қўмиталари). Ушбу тизимдаги ёрдамчи функцияларни Ўзбекистон ҳукумати назоратидаги оммавий ахборот воситалари ва жамоат ташкилотлари амалга оширади.

Тизим фаолиятининг асосий мақсади ташқи ва ички диний кучларнинг Ўзбекистон жамияти ҳаётининг сиёсий соҳасига таъсирини аниқлаш ва диний (Ислом) экстремизм намоён бўлишининг олдини олишдир. Ушбу тизим фаолиятининг объектлари диний ташкилотлар, бирлашмалар, гуруҳлар ва уларнинг вакиллари, диний таълимотлар тарафдорлари ва диний экстремизмнинг ғоявий позицияларида турган ёки террористик фаолият усулларига мурожаат қилган, шунингдек ғояларни таклиф қиладиган (тарғиб қилувчи) ёки

ўзларининг диний моделларини амалиётга татбиқ этишга ҳаракат қиладиган индивидуал диний шахслардир[1].

Терроризм – сиёсий, диний, мафкуравий ва бошқа мақсадларга эришиш учун шахснинг ҳаёти, соғлиғига хавф туғдирувчи, мол-мулк ва бошқа моддий объектларнинг йўқ қилиниши (шикастлантирилиши) хавфини келтириб чиқарувчи ҳамда давлатни, халқаро ташкилотни, жисмоний ёки юридик шахсни бирон-бир ҳаракатлар содир этишга ёки содир этишдан тийилишга мажбур қилишга, халқаро муносабатларни мураккаблаштиришга, давлатнинг суверенитетини, ҳудудий яхлитлигини бузишга, хавфсизлигига путур етказишга, қуролли можаролар чиқаришни кўзлаб иғвогарликлар қилишга, аҳолини қўрқитишга, ижтимоий-сиёсий вазиятни беқарорлаштиришга қаратилган, Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексида жавобгарлик назарда тутилган зўрлик, зўрлик ишлатиш билан қўрқитиш ёки бошқа жиноий қилмишлар[2].

Экстремизм атамасини умумий ва кенг тарқалган тушунча сифатида айнан таржима қилинганда (лотинча extremus - кескин, ашаддий) «жамиятда мавжуд тартиб ва қоидаларни кескин инкор этувчи қарашлар ва ҳаракатларга содиқлик» – деган маънони англатади[3]. Экстремизмнинг маъноси аниқ, очиқойдин ва содда туюлишига қарамай, экспертлар орасида ушбу тушунчанинг турли талқинлари мавжуд. Бугунги кунда жаҳон экспертлар жамоатчилиги орасида экстремизмни таърифлаш борасида якдилликнинг йўқлиги, бу тушунчани таърифлашнинг усуллари қанчалик тўғрилиги юзасидан кескин мунозараларга сабаб бўлмоқда.

Барча давлатлар сингари Ўзбекистон ҳам терроризм ҳамда диний экстремизга қарши курашишни ташкил этишда ўзининг ҳуқуқий механизмларини яратди ва бир нечта давлат органларига тегишли қонуний ваколатларни тақдим этган. Жумладан, Ўзбекистон

[1] К. И. Поляков “Исламский экстремизмв центральной азии” 2014 год., г.Москва, Научный журнал Института Востоковедения РФ., ББК 66.3(543) // https://book.ivran.ru/f/polyakov022014-block1.pdf

[2] Ўзбекистон Республикасининг 15.12.2000 йилдаги “Терроризмга қарши курашиш тўғрисида”ги 167-II-сон Қонуни/// https://lex.uz/docs/29526

[3] Д.С.мухитдинов: “Экстремизм ва уни ўрганишга бўлган ёндашувларнинг таҳлили” // CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS) 2022 йил, 39 Б. // https://cyberleninka.ru/article/n/ekstremizm-va-uni-rganishga-b-lgan-yondashuvlarning-ta-lili

Республикасининг 2000 йил 15 декабрдаги “Терроризмга қарши кураш тўғрисида”ги 167-II-сон қонуни[1]нинг 8-моддаси мазмунига кўра, терроризмга қарши курашни амалга оширувчи давлат органлари қуйидагилар сифатида белгиланган:

– Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати;

– Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси;

– Ўзбекистон Республикаси Президенти давлат хавфсизлик хизмати;

– Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги;

– Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитаси;

– Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги;

– Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги;

– Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш департаменти;

– Терроризмга ҳамда диний экстремизмга қарши курашда иштирок этаётган давлат органларининг фаолиятини мувофиқлаштириш ҳамда террорчилик фаолиятининг олдини олиш, уни аниқлаш, унга чек қўйиш ва унинг оқибатларини минималлаштириш борасида ҳамкорликда ҳаракат қилишларини таъминлаш Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати томонидан амалга оширилади.

Қолаверса ҳуқуқ тартибот органлари ёшларнинг террористик ҳамда экстремистик ғоялар таъсирига тушиб қолишига қарши курашиш бўйича ваколатли органлар, Ўзбекистон Республикасининг “Терроризмга қарши курашиш тўғрисида”ги, “Экстремизмга қарши курашиш тўғрисида”ги, “Давлат ҳавфсизлиги тўғрисида”ги, “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги, “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги Қонунлар, Ўзбекистон Республикаси Жиноят ва Жиноят-процессуал Кодекслари, “2021-2026 йилларга мўлжалланган экстремизм ва терроризмга қарши курашиш бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги

[1] Ўзбекистон Республикасининг 15.12.2000 йилдаги “Терроризмга қарши курашиш тўғрисида”ги 167-II-сон Қонуни // https://lex.uz/docs/2107763

Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони ҳамда ички идоравий норматив ҳужжатларга асосан фаолиятини амалга оширади.

Хусусан, мамлакатимиздаги жамият аъзоларининг (ёшлар) терроризм ва диний экстремизм ғоялар таъсирига тушиб қолишига қарши курашиш бўйича махсус ваколатли орган ДХХ ҳисобланиб, вазифаси махсус куч ва воситалар орқали Ўзбекистон Республикасининг конституциявий тузумини, суверенитетини, ҳудудий яхлитлигини ҳамда бошқа давлат манфаатларини ташқи ва ички таҳдидлардан ҳимоя қилишдан, қонунийликни мустаҳкамлаш ва қонун устуворлигини таъминлашдан, шунингдек Давлат хавфсизлик хизматининг ваколатига киритилган ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, уларни аниқлаш ва уларга барҳам беришдан иборат.

Шу билан бирга ДХХ ўз фаолиятининг асосий йўналишлари, яъни **терроризм, экстремизм**, уюшган жиноятчиликка, қурол-яроғ, гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний муомаласига қарши курашиш бўйча фаолиятни олиб боради.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал Кодексининг **345-моддасига** кўра, ДХХ Терроризм ҳамда экстремизга қарши курашишда Жиноят Кодексида келтириб ўтилган, **155–модда** (Терроризм), **155^1–модда** (Тайёрланаётган ёки содир этилган террорчилик ҳаракатлари тўғрисидаги маълумотлар ва фактларни хабар қилмаслик), **155^2–модда** (Террорчилик фаолиятини амалга ошириш мақсадида ўқувдан ўтиш, чиқиш ёки ҳаракатланиш), **155^3–модда**ларида (Терроризмни молиялаштириш), назарда тутилган жиноятларга доир ишлар бўйича дастлабки тергов давлат хавфсизлик хизмати терговчилари томонидан олиб борилади.

Бундан ташқари, **244^1–модда** (жамоат хавфсизлиги ва жамоат тартибига таҳдид соладиган материалларни тайёрлаш, сақлаш, тарқатиш ёки намойиш этиш) **244^2**–модда (диний экстремистик, сепаратистик, фундаменталистик ёки бошқа тақиқланган ташкилотлар тузиш, уларга раҳбарлик қилиш, уларда иштирок этиш) ларида назарда тутилган жиноятлар тўғрисидаги ишлар бўйича

дастлабки тергов иш қўзғатган дастлабки тергов органи томонидан амалга оширилади.

Бугунги кунда, терроризм ҳамда экстремизм ғояларини сингдириш фаол амалга оширилаётганлигини хисобга оладиган бўлсак, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан Жиноят, Жиноят-процессуал ҳамда Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги Кодексларда кўрсатилган қилмишларни аниқлаш фош қилиш ва айбдорларга нисбатан қонуний чора кўриш масалаларини айтиб ўтиш лозим.

Хусусан, юқорида келтириб ўтилган жиноятлар бўйича Ўзбекистон Республикасининг “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги Қонунида кўрсатилагн органлар, яъни Ички ишлар вазирлиги, Давлат хавфсизлик хизмати, Ўзбекистон Республикаси Президенти давлат хавфсизлик хизмати, Давлат божхона қўмитаси, Бош прокуратураси ҳузуридаги Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш департаменти терроризм ҳамда экстремизга қарши кўрашишда тезқор-қидирув фаолиятини амалга оширади.

Ушбу Қонуннинг 14–моддасига мувофиқ, юқоридаги органлар: сўров; маълумотлар тўплаш; қиёсий текширув учун намуналар йиғиш, текшириш учун харид қилиш; назорат остида олиш; предметларни ва ҳужжатларни текшириш; тезкор кузатув; шахснинг айнанлигини аниқлаш; турар жойларни ва бошқа жойларни, биноларни, иншоотларни, жойнинг участкаларини, техник ва транспорт воситаларини текшириш, почта, курьерлик жўнатмалари ва телеграф хабарларини назорат қилиш; телефонлар ва бошқа телекоммуникация қурилмалари орқали олиб бориладиган сўзлашувларни эшитиб туриш; улар орқали узатиладиган ахборотни олиш; абонентлар ёки абонент қурилмалари ўртасидаги боғланишлар тўғрисида ахборот олиш; тезкор киритиш; назорат остида етказиб бериш; ниқобланган операция ва тезкор эксперимент каби оператив тадбирларини прокурор санкциясига мувофиқ амалга оширади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб шуни таъкидлаш жоизки, террористик ва экстремистик ташкилотларга қарши курашнинг

муҳим йўналиши жиноий ҳаракатларнинг олдини олиш хисобланади. Бундан ташқари, бугунги кунда ижтимоий хавфли ҳаракатларнинг эрта босқичда аниқлаш ва ёшларни террористик ва экстремистик ғоялар таъсирига тушишни олдини олиш долзарблик касб этмоқда.

Хозирда кузатилаётган тенденция шуни кўрсатадики, бузғунчи кучлар томонидан ғояларни тарқатиш маконга, чегарага ва тўсиққа эга бўлмаган ўргимчак тўри бўлмиш интернетда давом эттирилмоқда. Ушбу амалиёт террорист ва экстремистлар учун жиноий фаолиятни ташкил этувчи ҳамда бажарувчини яширишга катта имкон бермоқда.

Хусусан, Европада хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилотининг таҳлилий маълумотларига кўра, 90% террорчи ҳамда экстремистлар ўзларининг бузғунчи мафкура ва ғояларини инсонлар онгига интернет орқали сингдириб келишмоқда[1].

Шунга кўра, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 01.07.2021 йилдаги № 6255–сонли “2021 — 2026 йилларга мўлжалланган экстремизм ва терроризмга қарши курашиш бўйича Ўзбекистон Республикаси миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги фармони белгиланган.

Қайд этиш лозимки, бугунги кунда экстремистик ва террорчилик ташкилотлари сафларига жалб қилишда Интернет жаҳон ахборот тармоғидан кенг фойдаланилмоқда, унинг ёрдамида экстремизм ва терроризм мафкураси фаол сингдирилиб, аҳолининг диндор қисми ўртасида жамиятга қарши кайфият шакллантирилмоқда.

<u>Маълумот учун:</u> *Давлат Статистика агентлигининг маълумотларига кўра, Ўзбекистонда 2023 йил аввалида интернет тармоғига уланган абонентлар сони 26,7 миллион нафарни ташкил қилган. Бу кўрсаткич ўтган йил билан солиштирганда мазкур кўрсаткич 16,3 фоизга кўп эканлигини алоҳида эътироф этиб ўтиш керак*[2].

[1] Отчет ОБСЕ: “Серия экспертных онлайн-форумов ОБСЕ по использованию Интернета террористами: угрозы, ответы и возможные будущие шаги” 2023 год. https://www.osce.org/files/f/documents/8/3/104407.pdf

[2] Давлат статистика агенлиги маълумоти 2023 йил январь. //https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/23637-o-zbekistonda-internet-tarmog-iga-ulangan-abonentlar-soni-qancha

Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан бугунги кунда экстремистик маълумотларни интернет маконида жойлаштирган ва тарқатган шахсларнинг анонимлиги сақланиб қолаётганлиги айбдор шахсни ўз вақтида аниқлаш ва уни фаолиятига чек қўйишда айрим муаммоларга сабаб бўлмоқда.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ҳам замонга мос равишда, юзага келаётган тенденциялардан келиб чиқиб ўз фаолиятини йўлга қўйганлигини таъкидлаш жоиз.

Бугунги кунда, Ўзбекистон Республикасининг ваколатли давлат органлари томонидан экстремистик ва террористик материалларни тарқатувчи веб-ресурслар ва ижтимоий тармоқларнинг фаолиятини аниқлаш ва олдини олиш бўйича комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Жумладан, тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи органлар томонидан мавжуд, тезкор-қидирув тадбирларини таъминловнчи техник воситалар интернет тармоғини мониторинг қилиш, террористик ҳамда диний экстремистик мазмундаги материалларни аниқлаш айбдор шахсларни қидириш ва уларнинг фаолиятини чек қўйишга, шунингдек ушбу йўналиш бўйича комплекс чора-тадбирларни амалга ошириш имкониятини бермоқда.

Шу билан бирга мамлакатимизда, экстремистик ва террористик ташкилотларнинг Интернет жаҳон ахборот тармоғи орқали ёллаш ҳаракатларида кузатилаётган фаоллик сабабли, уларни зарарсизлантириш бўйича қўшимча чоралар кўрилиши зарурлиги 2021 — 2026 йилларга мўлжалланган экстремизм ва терроризмга қарши курашиш бўйича Ўзбекистон Республикаси миллий стратегиямизда белгилаб ўтилган.

Шунга кўра, Ўзбекистон Республикасида экстремистик ва террористик мазмундаги материаллар жойлаштирилган интернет сайтлари, каналлар, профилларни аниқлаш ва уларнинг фаолиятига чек қўйиш юзасидан масъул ташкилотлар билан ҳамкорликда йўлга қўйилган механизм асосида қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Мазкур механизмга асосан, Дин ишлари бўйича қўмитаси, Давлат хавфсизлик хизмати, Ички ишлар вазирлиги, Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги билан ҳамкорлигида интернет тармоғидаги радикал диний мазмундаги контентлар аниқланиб, Олий суд қарори билан улар экстремистик ва террористик материаллар деб топилади.

Ушбу тартибга асосан, Ўзбекистон Республикаси Олий судининг 60 га яқин қарори чиқарилиб, уларга мувофиқ 500 дан ортиқ контент радикал мазмунда деб топилган ҳамда уларни Ўзбекистон Республикаси ҳудудида тайёрлаш, тарқатиш, сақлаш, олиб кириш ва намойиш этиш тақиқланган[1].

Шунингдек, Диний мазмундаги материаллар тегишли қонун ҳужжатларига кўра, қуйидаги ҳолатларда:

- жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахсий ёки ижтимоий мавқеига қараб ёки бошқа ҳолатларга кўра камситиш ёхуд ўзга шахслар маҳсулотларини обрўсизлантириш;
- Ўзбекистон Республикасининг мавжуд конституциявий тузуми, ҳудудий яхлитлигини зўрлик билан ўзгартиришга даъват қилиш;
- уруш, зўравонлик, терроризм, шунингдек диний экстремизм ва сепаратизм ғояларини тарғиб этиш;
- миллий, ирқий, этник ёки диний адоват қўзғатувчи ахборотни тарқатиш;
- диний эътиқодни ўзгартиришга даъват қилиш;
- диндорларнинг диний туйғуларини ҳақорат қилиш ёки камситиш;
- фуқароларни ўз конституциявий мажбуриятларини бажармасликка чақириш;
- давлат, жамоат ёки диний ташкилотларнинг ҳуқуқлари ва мол-мулкига тажовуз қилишга ундаш каби ғоялар акс этган

[1] Ўзбекситон Республикаси Дин ишлари бўйича Қўмитасининг 2023 йилдаги Ўзбекистонда тақиқланган экстремистик ва террористик контентлар рўйхати// https://religions.uz/

материалларни Ўзбекистон Республикаси ҳудудида тайёрлаш ва тарқатилишига йўл қўйилмайди.

Юқоридагилар билан бир қаторда, олимлар ва соҳа мутаҳассисларини фикрига кўра, бугунги кундаги диний экстремизм фақатгина юқорида кўрсатилган жиноятларда, балки:

– конститутсиявий тузум асосларини зўравонлик билан ўзгартириш, Ўзбекистон Республикасининг ҳудудий яхлитлиги ва суверенитетини бузиш;

– ҳокимиятни эгаллаш ёки ўзлаштириш;

– ноқонуний қуролли тузилмаларни ташкил этиш ёки уларда иштирок етиш;

– террорчилик фаолиятини амалга ошириш;

– зўравонлик ёки оммавий зўравонлик даъватлари билан боғлиқ миллий, ирқий, этник ёки диний адоватни қўзғатиш;

– ҳар қандай ижтимоий гуруҳга нисбатан сиёсий, мафкуравий, ирқий, миллий, этник ёки диний нафрат ёки адоват асосида оммавий тартибсизликларни амалга ошириш[1] кабиларда намоён бўлиши мумкин.

Санаб ўтилган экстремизм ғояларини ўзига хос жихатларидан хулоса қиладиган бўлсак, мазкур ҳаракатларнинг барчаси тинчлик ва инсониятнинг хавфсизлиги ҳамда Ўзбекистон Республикасига қарши жиноятлар деб хисобласак ҳам бўлади.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, ёшларни терроризм ҳамда диний экстремизм ғоялари таъсирига тушишига қарши кўрашишда, фақатгина ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг функцияси кифоя бўлмайди. Бу иллатга қарши комплекс чора-тадбирларни амалга ошириш зарурати мавжуд. Сузимизга исбот сифатида, ҳозирги вақтда ёшлар экстремизмининг сабаблари жуда кўп. Шартли равишда жамият ҳаётининг маълум бир соҳасига тегишли гуруҳларни бир неча қисмга бўлиш мумкин. Булар иқтисодий, сиёсий, ижтимоий, оилавий,

[1] Д.С.мухитдинов: “Экстремизм ва уни ўрганишга бўлган ёндашувларнинг таҳлили” // CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS) 2022 йил, 42-43 Б// https://cyberleninka.ru/article/n/ekstremizm-va-uni-rganishga-b-lgan-yondashuvlarning-ta-lili

маърифий, маданий ва ахлоқий ва бошқалар[1]. Юқорида санаб ўтилган муаммолар аслида битта муаммоли тизимни яратади, уларнинг комплекс ечими экстремизмни ёшлар муҳитидан йўқ қилишга ёрдам беради.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг 15.12.2000 йилдаги "Терроризмга қарши курашиш тўғрисида"ги 167-II-сон Қонуни;

2. Ўзбекистон Республикаси 22.09.1994 йилда қабул қилинган Жиноят Кодекси;

3. Ўзбекситон Республикасининг 22.09.1994 йилда қабул қилинган Жиноят-процессуал Кодекси

4. Д.С.Мухитдинов: "Экстремизм ва уни ўрганишга бўлган ёндашувларнинг таҳлили**"** central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis) 2022 йил, 42-43 Б;

5. А. М. Тяникова, П. Е. Суслонов: "Причины зарождения молодежного экстремизма: Анализ существующих проблем" Международный терроризм: причины, формы и проблемы противодействия: материалы межд. науч.-практ. конференции. Белгород, 2017 г.833-838 С.;

6. К. И. Поляков "Исламский экстремизмв центральной азии" 2014 год., г.Москва, Научный журнал Института Востоковедения РФ., ББК 66.3(543

7. Давлат статистика агенлигининг 2023 йил январь ойидаги маълумоти ///https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/23637-o-zbekistonda-internet-tarmog-iga-ulangan-abonentlar-soni-qancha;

8. Европада хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилотининг 2023 йилдаги ҳисоботи: "Серия экспертных онлайн-форумов ОБСЕ по использованию Интернета террористами: угрозы, ответы и возможные будущие шаги" https://www.osce.org/files/f/documents/8/3/104407.pdf;

[1] А. М. Тяникова, П. Е. Суслонов: "Причины зарождения молодежного экстремизма: Анализ существующих проблем" Международный терроризм: причины, формы и проблемы противодействия : материалы межд. науч.-практ. конференции. Белгород, 2017 г.833-838 С.

9. Ўзбекситон Республикаси Дин ишлари бўйича Қўмитасининг 2023 йилдаги Ўзбекистонда тақиқланган экстремистик ва террористик контентлар рўйхати// https://religions.uz/

МАЪМУРИЙ ЙЎЛ БИЛАН УШЛАБ ТУРИШ ТАРТИБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Рустамов Санжар Сухробович,
Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси Давлат-ҳуқуқий фанлар кафедраси катта ўқитувчиси в.б.

Барчамизга маълумки, инсоният тарихида ҳар бир давлат ўзининг халқи учун муносиб турмуш тарзини яратиш йўлида унинг ҳуқуқлари олий қадрият саналадиган ҳуқуқий демократик жамият қуриш мақсади сари интилар экан, биринчи галдаги вазифаси сифатида асосий Қомуси саналган давлат Конституциясини ўз ҳалқининг минг йиллик тарихий қадриятлари ва ўша давр талаблари асосида замонавий андозаларга таянган ҳолда такомиллаштириб боради.

2023 йил 30 апрель куни Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Конституциясининг қабул қилиниши муносабати билан ўтказилган референдум юқоридаги фикрларнинг амалий ифодаси десак муболаға бўлмайди.

Дарҳақиқат Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев Конституцивий комиссиянинг аъзолари билан учрашувда “Янгиланган Конституция мамлакатимизнинг узоқ муддатли тараққиёт стратегиялари, умуман, юртимиз ва халқимизнинг эртанги фаровон ҳаёти учун мустаҳкам ҳуқуқий асос ҳамда ишончли кафолат яратиши лозим. Бир сўз билан айтганда, **“Инсон қадри учун”** ғоясини ҳамда ҳозирги ислоҳотларимизнинг бош тамойили бўлган **“Инсон – жамият – давлат”** деган ёндашувни Конституциямизнинг мазмунига чуқур сингдириб, амалий ҳаётимизда бош қадриятга айлантиришимиз зарур. Яъни, инсоннинг

қадр-қиммати, шаъни ва ғурури бундан буён барча соҳаларда биринчи ўринда туриши керак.” деб, таъкидлади.

Ушбу ёндашувнинг амалий исботини янги Конституциямизнинг 27-моддасида ташкил топганлигида кўришимиз мумкин, унга кўра “Ҳар ким эркинлик ва шахсий дахлсизлик ҳуқуқига эга.

Ҳеч ким қонунга асосланмаган ҳолда ҳибсга олиниши, ушлаб турилиши, қамоққа олиниши, қамоқда сақланиши ёки унинг озодлиги бошқача тарзда чекланиши мумкин эмас.

Ҳибсга олишга, қамоққа олишга ва қамоқда сақлашга фақат суднинг қарорига кўра йўл қўйилади. **Шахс суднинг қарорисиз қирқ саккиз соатдан ортиқ муддат ушлаб турилиши мумкин эмас.**

Шахсни ушлаш чоғида унга тушунарли тилда унинг ҳуқуқлари ва ушлаб турилиши асослари тушунтирилиши шарт.”

Яъни амалдаги Конституцияга кўра жиноий-ҳуқуқий мажбурлов чораларининг ноқонуний тарзда қўлланилиши тақиқланади, бу эса инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиниши ҳуқуқий кафолатлари конституциявий даражада мустаҳкамланганлигидан далолат беради.

Янги Конституциянинг жамият ҳаётига татбиқ этилганига бир йилдан ортиқ вақт ўтган бўлса, унда белгиланган концептуал ғояларнинг ижроси қанчалик таъминланаётганлиги ҳақида қатор саволларни кун тартибига қўяди.

Шу муносабат билан ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари томонидан ҳуқуқни қўллаш амалиётида маъмурий мажбурлов чораларини қўллаш ваколатини берувчи амалдаги Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг тегишли маъмурий процессуал нормалари янги Конституциянинг юқорида таъкидланган нормаси талабаларига қанчалик мос келишини ўрганиб, тадқиқ этиш мақсадга мувофиқдир.

Жумладан Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг (кейинги ўринларда – МЖтК деб юритилади) 286, 287, 288-моддалари “маъмурий йўл билан ушлаб

туриш, маъмурий йўл билан ушлаб туришга ваколатли органлар ва маъмурий йўл билан ушлаб туриш муддатлари”га бағишланади.

“Маъмурий йўл билан ушлаб туриш” чорасининг тушунчаси ҳақида соҳа олимлари томонидан қуйидагича таъриф берилган бўлиб, **“Маъмурий йўл билан ушлаб туриш – ҳуқуқбузарнинг шахсий эркинлигини вақтинча чеклаб қўйишдир.”**

Шунингдек **“Маъмурий йўл билан ушлаб туриш – ҳуқуқбузарнинг шахсини аниқлаш, маъмурий баённома тузиш ва ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги иш юзасидан чиқарилган қарорнинг ижросини таъминлашга қаратилган, шахснинг қисқа муддатга эркинлигини чеклашдан иборат маъмурий таъсир чораларидан биридир.”**

Юқорида берилган таърифлардан шуни хулоса қилиш мумкинки, иккала таърифга кўра ҳам “у ёки бу мақсадда **шахснинг эркинлигини чеклаш**”дан иборат бўлган маъмурий мажбурлов чораси ҳисобланар экан.

Бугунги кунда ушбу мажбурлов чорасини қўллаш ваколати МЖтКнинг 287-моддасига (Маъмурий йўл билан ушлаб туришга ваколатли органлар (мансабдор шахслар)) асосан ички ишлар органлари, чегара қўшинлари, қўриқланадиган объект жойлашган ердаги ҳарбийлаштирилган қўриқлаш бўлинмасининг катта мансабдор шахси, ҳарбий автомобиль инспекциясининг мансабдор шахслари, Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги органларининг мансабдор шахслари, божхона органлари ходимлари, ҳарбий патруль, давлат солиқ органларининг, Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Иқтисодий жиноятларга қарши курчашиш департаменти ва унинг жойлардаги бўлинмаларининг мансабдор шахслари, Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси органларининг мансабдор шахсларига берилган.

Демак юқорида санаб ўтилган органлар ҳуқуқни қўллаш амалиётида ўзларига берилган ваколатлари доирасида, яъни ҳуқуқбузарнинг шахсини аниқлаш, маъмурий баённома тузиш ва

ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги иш юзасидан чиқарилган қарорнинг ижросини таъминлашга қаратилган **шахснинг қисқа муддатга эркинлигини чеклашдан иборат маъмурий мажбурлов чорасини қўллайдилар.**

Зеро, шахснинг эркинлиги **қисқа муддатга чекланар** экан, ушбу муддат қанчани ташкил қилиши мумкинлиги ҳақидаги кейинги саволни кун тартибига қўяди.

Ушбу саволга жавоб бериш мақсадида МЖтКнинг 288-моддасига (маъмурий йўл билан ушлаб туриш муддатлари) эътиборимизни қаратсак, унга кўра:

маъмурий йўл билан ушлаб туриш **уч соатдан** ортиқ давом этиши мумкин эмас, айрим ҳолларда алоҳида зарурат муносабати билан Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларида маъмурий йўл билан ушлаб туришнинг **бошқача муддатлари** белгиланиши мумкин;

чегара тартибини ёки Ўзбекистон Республикаси давлат чегараси орқали ўтиш пунктларидаги тартибни бузган шахслар баённома тузиш учун **уч соатгача** муддатга ушлаб турилиши мумкин, ҳуқуқбузарнинг шахсини ва ҳуқуқбузарлик ҳолатларини аниқлаш учун зарур бўлган ҳолларда эса - ушлаш пайтидан бошлаб **йигирма тўрт соат ичида прокурорга** ёзма тарзда маълум қилиб, **уч суткагача** ёки ҳуқуқбузарда ўзининг шахсини тасдиқловчи ҳужжат бўлмаса, **прокурорнинг санкцияси** билан **ўн суткагача** муддатга ушлаб турилиши мумкин.

Ушбу Кодекснинг 54, 56, 57, 58, 61, 90-моддаларида, 164-моддасининг тўртинчи қисмида, 170, 183, 184^2, 184^3, 191, 194, 194^1, 195, 195^1, 201, 204, 205, 206, 210-моддаларида, 225-моддасининг биринчи - учинчи қисмларида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этган ёхуд ўзининг шахси тўғрисидаги маълумотларни яширган шахслар ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги иши жиноят ишлари бўйича суд ёки ички ишлар органи бошлиғи (бошлиқ ўринбосари) томонидан кўриб чиқилгунга қадар, лекин **24 соатдан кўп бўлмаган муддатга** ушлаб турилиши мумкин.

Маъмурий йўл билан ушлаб туриш муддати ҳуқуқбузарни баённома тузиш учун олиб келиш пайтидан бошланади, маст ҳолдаги шахслар учун эса – улар ҳушёр тортган вақтдан бошланади.

Юқорида келтирилган модданинг нормалари таҳлил қилинадиган бўлса, шахснинг эркинлиги **“вақтинча”** ёки **“қисқа муддат”**га чекланиши хусусиятига эга бўлган **“маъмурий йўл билан ушлаб туриш”** чорасини қўллаш муддатлари, айниқса, 288-модданинг иккинчи қисмида келтирилган **“уч сутка”**, **“ўн сутка”** муддатлар, шунингдек ушбу муддатлар асосида ушбу мажбурлов чорасини қўллашга рухсат этишни назарда тутувчи “прокурорнинг санкцияси” деган жумлаларни амалдаги янги Конституциянинг 27-моддасининг учинчи қисмида “Ҳибсга олишга, қамоққа олишга ва қамоқда сақлашга фақат **суднинг қарорига** кўра йўл қўйилади. **Шахс суднинг қарорисиз қирқ саккиз соатдан ортиқ муддат ушлаб турилиши мумкин эмас.**” деб, кўрсатилган талабларга мувофиқлаштириш зарурати мавжуд.

Бундан шуни билиш мумкинки, бугунги кунда шахснинг эркинлиги МЖтКнинг 288-моддасига (Маъмурий йўл билан ушлаб туриш муддатлари) асосан амалдаги Конституциянинг 27-моддаси учинчи қисми талабига зид ҳолда 48 соатдан кўп муддатга ҳам чекланиши мумкин бўлиб қолмоқда.

Ушбу ҳолатга чек қўйиш ва амалдаги қонунчиликни Конституция нормалари талабларига мослаштириш мақсадида МЖтКнинг 288-моддаси (Маъмурий йўл билан ушлаб туриш муддатлари) **иккинчи қисмини қуйидаги таҳрирда баён қилиш** мақсадга мувофиқ деб ўйлаймиз:

“Чегара тартибини ёки Ўзбекистон Республикаси давлат чегараси орқали ўтиш пунктларидаги тартибни бузган шахслар баённома тузиш учун уч соатгача муддатга ушлаб турилиши мумкин, ҳуқуқбузарнинг шахсини ва ҳуқуқбузарлик ҳолатларини аниқлаш учун зарур бўлган ҳолларда эса — ушлаш пайтидан бошлаб йигирма тўрт соат ичида прокурорга ёзма тарзда маълум қилиб, **қирқ саккиз соатгача** ёки ҳуқуқбузарда ўзининг шахсини тасдиқловчи ҳужжат

бўлмаса, **суднинг қарори** билан ўн суткагача муддатга ушлаб турилиши мумкин.”

Бизнинг фикримизча МЖтКнинг 288-модданинг иккинчи қисми юқоридаги каби янги таҳрирда баён қилиниши янги Конституциямизнинг жамият ҳаётида амалда ижроси таъминланганлигига эришилади. Зеро Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 8 майдаги “Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-67-сонли Фармонида янги таҳрирдаги Конституция олий юридик кучга эга эканлигидан келиб чиқиб, давлат органлари ва ташкилотлари, шу жумладан **суд** ва **ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолиятида тўғридан-тўғри** ва **сўзсиз қўлланилиши** таъминланган бўлар эди.

Мухтасар қилиб айтганда Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг **“Инсон қадри учун”** ғояси ҳамда ислоҳотларимизнинг бош тамойили **“Инсон – жамият – давлат”** деган ёндашувни Конституциямизнинг мазмунига чуқур сингдирилишида” ўзимизнинг ҳиссамизни нечоғлик қўшган бўлсак, мақсадимизга эришган бўламиз.

TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA INSON HUQUQLARINING O‘RNI

Achilov Alisher Temirovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Jinoiy-huquqiy fanlar” kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori(PhD),

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 19-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi[1]. Inson huquqlarini ta’minlash masalasi umumjahon ahamiyatga molik masala bo‘lib, uning ta’minlanishi faqat davlatga, uning organlari va mansabdor shaxslariga bog‘liq desak, to‘g‘ri fikr yuritgan bo‘lmaymiz. Inson huquqlarining

[1] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.https://www.lex.uz/acts/20596

ta’minlanishi jamiyatning siyosiy, huquqiy ongi va madaniyatiga, aholining o‘z haq-huquqlarini qonunda belgilangan asos va tartiblarda amalga oshirishga qodirligi va shunga bo‘lgan intilishi bilan ham belgilanadi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzalarida “Milliy strategiya doirasida inson huquqlarini o‘qitishning uzluksiz tizimini yaratish, umumta’lim maktablari, oliy o‘quv yurtlari, kadrlarni qayta tayyorlash markazlarida “Inson huquqlari”, “Bola huquqlari”, “Ayollar huquqlari” nomli maxsus o‘quv kurslarini joriy etishning vaqti-soati keldi, deb o‘ylayman. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarni faqat va faqat xalq manfaati yo‘lida og‘ishmay xizmat qiladigan idoralarga aylantirishimiz lozim.” – deb ta’kidlab o‘tgandilar.[1]

Ushbu nutqdan kelib chiqib, tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) sohasida “Inson huquqlari”, “Bola huquqlari”, “Ayollar huquqlari” bo‘yicha qanday hujjatlar mavjudligi va bunda TIF qatnashchilarining huquqlari qanchalik muhofaza etilgani qiziqtiradi kishini.

Ma’lumki, 10 dekabr kuni butun dunyoda namoyishlar o‘tkazish va huquq himoyachilarini sharaflash odat tusiga kirgan. Axir 1948 yilning ushbu sanasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A(III) Rezolyutsiyasi bilan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” qabul qilingan.

Mazkur sanada odatda inson huquqlari uchun kurashgan eng taniqli kurashchilar sifatida Nelson Mandela, Mxatma Gandi, Kenja Martin Lyuter King, Aun San Su Chji, Eleonora Ruzvelt va boshqalar esga olinadi.

Deklaratsiya 30 ta moddadan iborat bo‘lib, unda insoniyat oilasining hamma a’zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligi, xalqlar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni rivojlantirishga ko‘maklashish zarurligi va boshqa muhim masalalar e’tiborga olingan.[2]

[1] Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. 2019 yil 7 dekabr

[2] BMT Bosh Assambleyasining “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”

Tashqi iqtisodiy faoliyatga taalluqli qonun-hujjatlarida ham inson huquqlariga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, ulardan ba’zilarini keltirib o‘tamiz.

Mamlakatimizda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari mujassam bo‘lgan eng asosiy hujjat bo‘lib bosh qomusimiz bo‘lmish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hisoblanadi. Uni yaratishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining hujjatlari, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi va xalqaro huquqda e’tirof etilgan boshqa aktlarga asoslanilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasiga ko‘ra, «Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi. O‘zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta’minlanadi. Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas».

Respublikamizda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash zamirida, tashqi savdoni liberallashtirish, import jarayonlarini imkoni boricha soddalashtirish asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Respublika va dunyoning boshqa davlatlari o‘rtasida xalqaro savdoning rivojlanishi, ishlab chiqarish integratsiyasining kengayishi va takomillashuvi tashqi iqtisodiy faoliyatning yanada kengayishiga sabab bo‘ladi. Har qanday davlatning tashqi iqtisodiy faoliyati jahon xo‘jaligining faoliyati bilan bog‘lanadi. Bugungi rivojlanib borayotgan iqtisodiy hayotda iqtisodiyotning bir xilda mo‘tadil ketishi uchun tashqi iqtisodiy faoliyatning ahamiyati katta hisoblanadi, shuningdek rivojlanib borayotgan bozor munosabatlarida turli davlatlar bilan siyosiy aloqalar singari iqtisodiy aloqalar ham rivojlanib boradi. Bu esa iqtisodiyotning muhim

tarmog‘i hisoblanuvchi tashqi iqtisodiy faoliyat naqadar yuqori rol o‘ynashini bildiradi.

O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat sohasi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish va uni mexanizmini yuritishda milliy huquqiy me’yorlarini ishlab chiqish zaruratga aylandi. Bunday huquqiy hujjat mustaqillikka erishish arafasida qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni mamlakatimizda ushbu faoliyat rivojlanishi uchun dastlabki munosib zaminni yaratdi. 2000 yil 26 mayda ushbu qonunning takomillashtirilgan yangi tahriri ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi[1].

O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasiga asosan,

Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda, O‘zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining hududida doimiy yashash joyiga ega bo‘lgan va yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatga olingan jismoniy shaxslar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga haqlidir.

O‘zbekiston Respublikasining davlat organlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishlari mumkin.

TIFni amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari TIF subyektlari hisoblanib, quyidagi huquqlarga ega:

qonun hujjatlari doirasida TIFda qatnashish shakllarini mustaqil belgilash, TIFni amalga oshirish uchun o‘z xohishiga ko‘ra boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni shartnoma asosida belgilangan tartibda jalb qilish;

TIF natijalariga, shu jumladan milliy va chet el valyutasidagi daromadga qonun hujjatlariga muvofiq mustaqil ravishda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish.

[1] O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 maydagi “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi 77-II-sonli Qonuni, https://www.lex.uz/docs/67345

TIF subyektlari TIF sohasidagi o‘z huquqlari va manfaatlariga daxldor bo‘lgan va maxfiy tusda bo‘lmagan axborotlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat organlaridan olishga haqlidir. Axborotning maxfiyligi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadi.

TIFning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

TIF subyektlari erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi;

TIF subyektlarining tengligi;

savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmaligi;

TIFni amalga oshirishda o‘zaro manfaatdorlik;

TIF subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi.

Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi barcha bartaraf etib bo‘lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar TIF ishtirokchisining foydasiga talqin qilinadi.[1]

Vakolatli shaxs tovarlarning va transport vositalarining xususiyati, miqdori, ishlab chiqarilgan mamlakati yoki qaysi maqsadga mo‘ljallanganligidan qat’i nazar, istalgan bojxona rejimini tanlashga yoki uni boshqa bojxona rejimiga o‘zgartirishga haqli.[2]

Ko‘rikdan o‘tkazilayotgan shaxs yoki uning qonuniy vakili yoxud uni kuzatib boruvchi shaxs shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish jarayonida quyidagi huquqlarga ega:

- bojxona organi boshlig‘ining yoki uning o‘rnini bosuvchi boshqa shaxsning shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risidagi qarori e’lon qilinishini talab qilish;

- ona tilidan foydalanish, shuningdek tarjimon xizmatlaridan foydalanish;

- o‘z huquqlari va majburiyatlari bilan tanishish;

- tushuntirishlar, iltimosnomalar berish;

- shaxsiy ko‘rik bayonnomasini tuzish tugallanganidan so‘ng u bilan tanishib chiqish va mazkur bayonnomaga kiritilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni bayon etish;

[1] O‘zbekiston Respublikasining Bojxonakodeksi,4-modda.https://www.lex.uz/docs/2876354
[2] O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. 26-modda

- bojxona organining qarori, uning mansabdor shaxslari harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish.[1]

Ko‘rikdan o‘tkazilayotgan shaxs yoki uning qonuniy vakili yoxud uni kuzatib boruvchi shaxs qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Xulosa o‘rnida yuqoridagi qonunlar-hujjatlarida inson huquqlari, xususan, TIF qatnashchilarining huquqlari qat’iy muhofazasi belgilanganligi, mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashga xizmat qilishini alohida etirof etishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, https://www.lex.uz/acts/20596
2. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, https://www.lex.uz/docs/2876354
3. O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 maydagi “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi 77-II-sonli Qonuni, https://www.lex.uz/docs/67345
4. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi https://mfa.uz/uz/press/news/2020/01/22313/
5. BMT Bosh Assambleyasining “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” 10 dekabr 1948 yil;

[1] O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. 196-modda

СУДЛАНГАНЛИКНИНГ ҲУҚУҚИЙ ОҚИБАТЛАРИ, УНИНГ ЖАЗО ТАЙИНЛАШ, ШАХСНИ ХАВФЛИ ВА ЎТА ХАВФЛИ РЕЦИДИВИСТ ДЕБ ТОПИШДАГИ АҲАМИЯТИ

Ибадуллаев Сарварбек,
Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси ўқитувчиси

Қонунчиликка кўра, жиноий жазо қўллаш билан боғлиқ бўлган жавобгарлик қилмишнинг ижтимоий хавфлилик даражаси ҳамда тайинланган жазо тури ва жазонинг ўталган қисмининг муддатлари билан боғлиқ ҳолда судланганлик муддати келиб чиқиши билан боғлиқдир. Жазо қўллаш билан боғлиқ бўлган жавобгарлик анча оғир бўлиб, бундай қилмишни баҳолашда қилмишнинг ижтимоий хавфлилик даражаси, жиноят натижасида етказилган зарарнинг миқдори ва айбдорнинг шахси ҳисобга олинади. Жиноий жавобгарликнинг вақт бўйича чегараси борми? Агар бор бўлса, қачон бошланади ва қачон тугайди? Жиноий жавобгарлик шахснинг содир қилган жинояти учун мажбурлов чорасини қўллашда ифодаланган жавобгар бўлиш мажбуриятидан иборат экан, ана шу мажбурият қачондан бошланади? Бу борада юридик адабиётларда ягона фикр йўқ. А.А.Пионтковский жиноий жавобгарлик жиноят содир қилинган пайтдан бошланади деб ёзади[1]. Я.М. Брайнин эса муайян шахснинг жиноят содир қилганлиги тергов органлари томонидан аниқланган пайтдан бошланади, деб ҳисоблайди[2].

Жиноий жавобгарликнинг вужудга келиши ва тугагунча бўлган вақт жиноий жавобгарликни амалга ошириш вақти ҳисобланади. Жиноий жавобгарликни амалга ошириш эса, жиноят содир қилганлиги муносабати билан шахсга нисбатан суриштирув ва тергов ҳаракатларини олиб бориш (гумондорни қўлга олиш, унга нисбатан эҳтиёт чораларини қўллаш), ишни судда кўриш, айблов ҳукми чиқариш, жазони ижро этишдан иборат. Судланганлик муддатининг

[1] Курс советского уголовное право в 6 томах. Общая часть. М., 1970, 9-бет.
[2] Брайнин Я.М. Уголовная ответственность и ее основание в Советском уголовном праве, М: 1963, стр. 27.

тугаши билан жиноий жавобгарликни амалга ошириш батамом тўхтатилади деб ҳисоблайди кўпчилик муаллифлар

Бизнинг фикримизча, шахс жиноят содир қилиши биланоқ, у қўлга олинган ёки олинмаганлигидан қатъи назар, унда қилмиши учун давлат олдида жавобгар бўлиш, давлатда эса муайян давлат идоралари орқали Жиноят процессуал кодекси нормаларини қўллаш вазифаси пайдо бўлади. Демак, жиноят-ҳуқуқий муносабатлар жиноят содир қилиш пайтдан бошланади ва шунга мувофиқ жавобгар бўлиш мажбурияти ҳам шу пайтдан бошланиб, ҳукм қонуний кучга кириши билан тугайди. Чунки жиноий жазони ўташ ва судланганлик оқибатлари, жиноий жавобгарликнинг оқибатлари ҳисобланади. Чунки жиноий жавобгарлик, жазо қўллаш билан боғлиқ бўлган ва жазо қўллаш билан боғлиқ бўлмаган жавобгарликдан иборат. Айнан айблов ҳукмининг қонуний кучга кириши билан шахс судланган ҳисобланади.[1]

Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 77-моддасида белгиланганига кўра жазо тайинланган айблов ҳукми қонуний кучга кирган кундан бошлаб шахс судланган деб ҳисобланади. Демак, қонун мазмунига кўра, шахсни судланган деб хисоблаш учун албатта муайян турдаги жазога ҳукм килинган ва ҳукм қонуний кучга кирган бўлиши керак. Ҳукм чиққан, лекин ҳукм ҳали қонуний кучга кирмаган вақт судланганлик вақти ҳисобланадими ёки йўкми? Агарда, Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 77-моддаси иккинчи қисмида назарда тутилган қоидага асосланилса шахс ҳали судланган ҳисобланмайди. Аммо айнан ана шу ҳукм чиққан ва ушбу ҳукм қонуний кучга киргунча бўлган вақт айрим муаммоларни келтириб чиқаради. Бу муаммолар шундан иборатки, шахс ана шу вақт ичида қасддан янги жиноят содир этса, рецидив жиноят ҳисоблаш керакми ёки жиноятлар жами ёки такроран жиноят содир этиш деб ҳисоблаш керакми деган ҳақли савол туғилади.

Бизнинг назаримизда, шахснинг судланган деб ҳисоблаш масаласини ҳукм қонуний кучга кирган кундан бошлаб ҳисобга олиш

[1] “Уголовное право Российской Федерации. Общая часть” – 1997.

қонунда тўғри белгиланган. Чунки ҳукм қонуний кучга киргунча янги ҳолатлар очилиб қолиши туфайли шахсга нисбатан оқлов ҳукми чиқарилиши, иш аппелляция ёки кассация тартибида кўрилиб, ҳукм ўзгартирилиши, ёки иш кассация тартибида кўрилиб, шахсга нисбатан жавобгарликдан ёки жазодан озод қилиш қўлланиши мумкин. Бундай ҳолатларнинг барчаси шахсни судланмаган деб ҳисоблашга ёки судланганлик муддатларига таъсир қилади.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 34-моддасида рецидив жиноят тушунчаси берилган бўлиб, рецидив жиноят тушунчаси бевосита шахснинг олдин қасддан қилган жинояти учун судланганлиги билан бевосита боғлиқдир. Ушбу моддада берилган тушунчага кўра, шахснинг илгари қасддан содир этган жинояти учун судланганидан кейин янги жиноят содир этиши рецидив жиноят деб топилади. Бу ерда “Судланганидан кейин” деганда қонун чиқарувчи орган қайси вақтни назарда тутмоқда? Яъни, ҳукм чиққандан кейин содир этилган жиноятни назарда тутмоқдами ёки ҳукм қонуний кучга кирганидан кейин содир этилган жиноятни назарда тутмоқдами? Қонуннинг ушбу матни мазмунидан буни аниқлаш қийин. Аммо Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 60-моддасида (бир неча ҳукм юзасидан жазо тайинлаш) “Агар маҳкум ҳукм чиқарилганидан кейин жазони тўла ўтамай туриб, янги жиноят содир этса, суд янги ҳукм бўйича тайинланган жазо муддатига илгариги ҳукм юзасидан ўталмай қолган жазо муддатини тўла ёки қисман қўшади”, — дейилади. Ушбу қонуннинг мазмунига кўра, шахс ҳали судланган ҳисобланмасада муайян жинояти учун ҳукм эълон қилинганидан кейин қасддан янги жиноят содир этса, рецидив жиноят деб ҳисобланади. Демак, судланганлик муддатига нисбатан қилмишни рецидив жиноят деб ҳисоблаш муддати кенгроқ бўлиб, ҳукм эълон қилинган вақтни ҳам қамраб олади. Шунга кўра қилмишни рецидив жиноят деб ҳисоблаш вақти қонуний кучга кирган вақтни ва Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 78-моддасида назарда тутилган муддатларни қамраб олади. Шахснинг судланганлик ҳолати эса ҳукм қонуний кучга кирган кундан бутун жазони ўташ муддатига (шу жумладан, қўшимча

жазони ўташ муддатига) ҳам жорий қилиниб, ЖК 78-моддасида назарда тутилган муддатларда судланганлик ҳолати жорий қилинади.

Агар шу юқорида айтилганлардан хулоса қилиб айтиш мумкинки, ҳукм эълон қилинганидан то биринчи ҳукм бўйича жазони ўтаб бўлгунча (асосий ва қўшимча жазоларни) янги жиноят содир этилса, Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 60-моддаси қоидаларини қўллаб жазо тайинланса ҳукм эълон қилинган вақтдан ЖК 78-моддасида назарда тутилган муддатлар қилмишни рецидив жиноят деб ҳисоблаш муддатлари ҳисобланади.

Судланганликнинг моҳияти шахс суд ҳукмида белгиланган жазо чораларини ўтаб бўлганидан кейин қоидага кўра, маълум бир муддат давомида унинг ҳуқуқ ва эркинликларини муайян миқдорда чеклайдиган ҳуқуқий оқибатларни туғдирадиган алоҳида ҳуқуқий ҳолатда бўлиши билан тавсифланади.

Жиноят қонунчилигига кўра, судланганликнинг икки йўналишдаги оқибатлари бўлиб, улар судланганликнинг умумий оқибатлари ва судланганликнинг жиноят ҳуқуқий оқибатларидир.

Судланганлик “шахс ҳолати”нинг жиноят-ҳуқуқий тавсифи сифатида, унинг хулқини ижтимоий хавфлилиги даражасини ошиши жиноят таркибининг жиноят-ҳуқуқий тавсифига, унинг квалификацияси ва айнан жиноий сиёсат ва амалиётни оғирлаштирган ҳолда жазони кучайтиришга таъсир кўрсатиши мумкин.[1]

Судланганликнинг маҳсус оқибати шахс устидан маъмурий назорат ўрнатиш ва шу йўл билан шахсни ҳалол турмуш кечириш йўлига ўтиб олишида ёрдам беришдан иборат ва маъмурий назорат ўрнатиш ҳам шахс судланганлигининг оқибатидир. Оғир ёки ўта оғир жинояти учун озодликдан маҳрум этишга ҳукм қилинган шахсларнинг жазони ўташ вақтидаги ёки жазодан озод бўлганларидан кейинги ёмон хулқ атвори учун уларнинг устидан маъмурий назорат ўрнатилишига сабаб бўлиши мумкин.

[1] Граматчиков М.Б Судимост: понятие, история, преспективи законадателной регламендатции Орёл.1996. С- 214

Маъмурий назорат оғир ёки ўта оғир жиноят содир этган шахслар, хавфли рецидивистлар ёки бир неча марта қасддан қилган жинояти учун озодликдан маҳрум этишга ҳукм қилинган, жазони ўташ вақтида тузалиш йўлига ўтишни хоҳламай, жазони ўташ тартибини муттасил равишда бузган ёки жазони ўтаб чиққанидан кейин жамоат тартибини муттасил бузиб турмуш кечирган шахслар устидан ўрнатилади.

Демак маъмурий назорат ўрнатиш шахснинг янги жиноят содир қилганлиги учун мажбурий равишда қўлланадиган мажбурлов чораси бўлмай, асосан жиноят содир қилганлиги учун озодликдан маҳрум қилишга ҳукм қилинган шахснинг ёмон хулқининг оқибати ҳисобланади. Шунга кўра маъмурий назорат ўрнатишни судланганликнинг маҳсус оқибати деса бўлади.[1]

Судланганликнинг ҳуқуқий оқибати асосан шахс янги жиноят содир қилганда вужудга келади. Агар судланган шахс судланганлик муддати мобайнида янги жиноят содир қилмаса, бирон-бир жиноят ҳуқуқий оқибат келиб чиқмайди.

Судланганликнинг жиноят-ҳуқуқий оқибатлари бир марталик ҳаракатда ифодаланувчи юридик факт сифатида қуйидагиларни назарда тутади:

1) бир қатор жиноятлар таркибининг малакаловчи белгиси эканлиги;

2) такрорий жиноятнинг белгиси эканлиги:

- Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 32-моддасининг биринчи қисмига биноан, Жиноят кодекси Маҳсус қисмининг айнан бир моддасида, қисмида, Кодексда алоҳида кўрсатилган ҳолларда эса, турли моддаларида назарда тутилган икки ёки бир неча жиноятни шахс турли вақтларда содир этган, аммо уларнинг бирортаси учун ҳам судланган бўлмаса, такроран жиноят содир этиш деб топилади;

- Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 32-моддасининг иккинчи қисмига кўра, агар шахс илгари содир этган қилмиши учун

[1] М.Усмоналиев Судланганлик унинг ҳуқуқий окибатлари ва либераллаштириш муаммолари. Ўқув қўлланма, Т.: Янги аср авлоди 2005.32 - бет

жавобгарликдан ёки жазодан озод қилинган бўлса, жиноят такроран содир этилган деб топилмайди.

3) Судланган шахс қасддан янги жиноят содир қилса, қуйидаги оқибатлар келиб чиқади.

- Ўзбекистон Республикаси ЖК 34-моддасининг биринчи қисмига биноан қилмиш рецидив жиноят ҳисобланади. Лекин бунда олдинги жинояти ҳам, кейинги жинояти ҳам қасддан содир қилинган бўлиши керак. Жиноятлардан бири қасддан, иккинчиси эҳтиётсизликдан содир этилган бўлса рецидив жиноят деб ҳисоблаб бўлмайди.

- Ўзбекистон Республикаси ЖК 34-моддасининг иккинчи қисмига биноан илгари ҳукм қилинган жиноятга ўхшаш жиноятни содир этиш, Кодексда алоҳида кўрсатилган ҳолларда эса Махсус қисмининг бошқа моддалари билан ҳукм қилинган шахснинг қасддан янги жиноят содир этиши хавфли рецидив жиноят деб топилади. Бунда албатта олдинги жиноят учун судланганлик муддати ўтиб кетмаган бўлиши керак.

- Ўзбекистон Республикаси ЖК 34-моддасининг учинчи қисмида назарда тутилган асослар мавжуд бўлса, содир этилган жиноят ўта хавфли рецидив жиноят деб топилиши мумкин.

4) Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси Умумий қисмидаги бир қатор моддаларнинг қўлланилишига тушинлик қилиши:

- олдинги жинояти учун муайян турдаги жазога ҳукм қилинган шахс қасддан янги жиноят содир этса, Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 70-моддаси асосида жазодан озод қилиш қўлланилмайди;

- олдинги жинояти учун судланган шахс ижтимоий хавфи катга бўлмаган ёки унча оғир бўлмаган жиноятни содир қилган шахсга нисбатан Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 71-моддаси асосида айбдорни чин кўнгилдан пушаймон бўлганлиги муносабати билан жазодан озод қилиш қўлланилмайди;

- шартли ҳукм қилиш (72-модда) илгари қасддан содир этган жинояти учун озодликдан маҳрум этиш жазосига ҳукм қилинган шахсларга нисбатан қўлланилмайди (Ўн саккиз ёшга тулмаган шахслар, биринчи ва иккинчи гурух ногиронлари, аёллар, шунингдек олтмиш ёшдан ошган шахслар бундан мустасно). Бунда шахснинг олдинги жинояти учун судланганлик муддати ўтиб кетмаган бўлиши керак.

5) жазо тайинлаш қоидаларига таъсир кўрсатувчи фактлар:

- Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 56-моддаси 1-қисмининг “н” бандига кўра илгари қасддан жиноят содир этган шахснинг қасддан янги жиноят содир этиши жазони оғирлаштирувчи ҳолат деб топилиб, жазо тайинлаш вақтида суд томонидан ҳисобга олинади. Бунда албатга судланганлик муддати ўтиб кетмаган ва олдинги ва кейинги жиноятлар қасддан содир этилган бўлиши керак.

Ўзбекистон Республикаси Олий Суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги “Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида”ги 1-сон Қарорининг 10-бандида “Қасддан такроран ёки илгари содир этилган жиноят учун судлангандан сўнг қасддан янги жиноят содир этилиши, агар биринчи жиноят учун жиноий жавобгарликка тортиш муддати ўтиб кетган, судланганлик белгиланган тартибда тугалланган ёки олиб ташланган ёхуд шахс муқаддам содир этган жиноий хатти-ҳаракат учун қонунда жавобгарлик бекор қилинган бўлса, шунингдек, ЖК 65, 66, 66[1], 68, 69, 70, 71, 76-моддаларига биноан шахс илгари содир этган жинояти учун жиноий жавобгарликдан ва жазодан озод этилган бўлса, жазони оғирлаштирувчи ҳолат сифатида эътироф этилиши мумкин эмаслиги белгилаб қўйилган[1].

- Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 60-моддасининг мазмунига кўра, олдин судланиб муайян жазога ҳукм қилинган шахс жазони (асосий ва қўшимча) жазоларни тўла ўтамай туриб янги жиноят содир қилса, 60-моддада белгиланган қоидалар

[1] https://lex.uz/docs/1455976

асосида жазо тайинланади. Бунда ҳар икки жиноятларнинг қасддан ёки эҳтиётсизликдан содир этилганлигининг аҳамияти йўқ.

- олдинги жинояти учун жазо муддатини тўла ўтамай туриб шахс янги жиноят содир этса жазоларни қўшишнинг ҳисоблаш қоидалари Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 61-моддасида белгиланган тартибда амалга оширилади.

- агар шахс Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 69-моддасида кўрсатилган муддатлар ўтмасдан янги жиноятлар содир қилган шахсга нисбатан ЖКнинг 60-моддасида назарда тутилган тартибда жазо тайинланиб, жазоларни қўшиш 61-моддада белгиланган тартибида қўшилади. Бунда жиноятларнинг қасддан ёки эҳтиётсизликдан содир этилганлигининг аҳамияти йўқ.

6) Озодликдан маҳрум қилиш кўринишидаги жазони ўташ муссасаларининг турларини аниқлаш тартибига ва аёлларни озодликдан маҳрум қилиш кўринишидаги жазони ўташ колонияларнинг турларини аниқлаш тартибига таъсир кўрсатувчи жиҳатлар:

- Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 50-моддаси 7-қисми “в” бандида, илгари қасддан содир этган жинояти учун озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазони ўтаб чиқиб ёки ўтаётган чоғида, қасддан янги содир этган жинояти учун ҳукм қилинаётганларга нисбатан жазони қаттиқ тартибли колонияларда ўталиши белгиланган;

Ушбу модданинг “г” бандига кўра, ўта хавфли рецидивистларга нисбатан жазони махсус тартибли колонияларда ўташ тайинланади. Умрбод озодликдан маҳрум қилишга ҳукм этилганлар, шунингдек афв этиш тартибида умрбод озодликдан маҳрум қилиш жазоси озодликдан маҳрум қилиш билан алмаштирилган шахслар ҳам жазони махсус тартибли колонияларда ўтайдилар.

- Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 50-модданинг 8-қисми “в” бандида илгари озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазони ўтаб чиқиб, янги содир этган ўта оғир жинояти учун ҳукм қилинаётганларга, шунингдек ўта хавфли рецидивист деб

топилганларга нисбатан жазони қаттиқ тартибли колонияларда ўташ тайинланиши белгилаб қўйилган;

7) жазони ўташдан муддатидан илгари шартли равишда озод қилиш қоидаларини қўллашга таъсир кўрсатувчи фактлар:

- Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 73-моддасининг 3-қисмига биноан жазони ўташдан муддатидан илгари шартли равишда озод қилишни олдин судланган шахсларга нисбатан қўллашда суд томонидан жазони ўташдан муддатидан илгари шартли равишда озод қилишда маҳкум:

а) ижтимоий хавфи катта бўлмаган ёки унча оғир бўлмаган жинояти учун суд тайинлаган жазо муддатининг камида учдан бир қисмини;

б) оғир жинояти учун, шунингдек қасддан содир этган жинояти учун, агар шахс илгари қасддан содир этган жинояти учун озодликдан маҳрум этишга ҳукм қилинган бўлса, суд тайинлаган жазо муддатининг камида ярмини;

в) ўта оғир жинояти учун, шунингдек жазодан муддатидан илгари шартли озод қилинган ёки жазоси енгилроғи билан алмаштирилган шахс жазонинг ўталмаган қисми мобайнида қасддан янги жиноят содир этганлиги учун ҳукм қилинган бўлса, суд тайинлаган жазо муддатининг камида учдан икки қисмини ҳақиқатда ўтаб бўлинганлиги талаб қилинади.

Ўзбекистон Реупубликаси ЖКнинг 74-моддаси асосида жазонинг қолган қисми енгилроқ жазо билан алмаштириш қўлланилган шахсларга нисбатан янги қасддан содир қилган жинояти учун ҳукм қилинган бўлса, суд тайинлаган жазо муддатининг камида учдан икки қисмининг ҳақиқатан ўтаб бўлинганидан кейин қўллаши мумкин. Бунда шахснинг олдинги жинояти учун судланганлик муддати ўтиб кетмаган бўлиши керак.

8) жазонинг ўзига ҳослигини белгилашда суд томонидан ҳисобга олинадиган, қонунда назарда тутилган бошқа ҳуқуқий оқибатлар келиб чиқади.

Амалдаги Жиноят кодексининг 50 ва 77-моддаларида белгиланишича, ЖКнинг 78-моддасида кўрсатилган муддатлар ўтиб кетган бўлса, шахс янги жиноят содир қилган тақдирда ҳам бирон бир жиноят ҳуқуқий оқибатлари келиб чиқмайди ва шахс янги жиноят содир қилса умумий тартибда жавобгарликка тортилади.

Олдин муайян қилмиш жиноят ҳисобланиб, муайян турдаги жазога ҳукм қилинган ва жазони ўтаган, аммо қонуннинг ўзгариши билан бундай қилмиш жиноят деб ҳисобланмайдиган тақдирда, шахс судланмаган ҳисобланади ва янги жиноят содир қилган тақдирда, жавобгарлик масаласи умумий тартибда хал қилинади.

Юқорида айтилган қоидалар ўн беш йилдан кам бўлган муддатга озодликдан маҳрум қилиш жазосига ҳукм қилинган шахсларга, тинчлик ва инсониятнинг хавфеизлигига қарши жинояти учун ҳукм қилинган шахсларга нисбатан қўлланилмайди. Қонун мазмунига кўра бундай жинояти учун ҳукм қилинган шахсларнинг судланганлик ҳолати қонунда белгиланган муддат ўтиб кетгандан кейин ўз-ўзидан тамом бўлган ҳисобланмай, уларнинг судланганлигини фақат суд олиб ташлаши мумкин.

Аммо бундай ҳолда ҳам бир қатор муаммолар келиб чиқади ва булар қўйидагилардир:

Агар шахс тинчлик ва инсоният хавфсизлигига қарши жиноятда айбланиб ҳукм қилинган бўлса (Ўзбекистон Республикаси ЖК Махсус қисмининг VIII бобида назарда тутилган жиноятларда (150-156-м.м.) судланганлик муддатлари қўлланилмай, ҳукм чиққандан кейин неча йил ўтиб кетганлигидан қатъи назар судланган бўлиб қолаверади ва қўлга олинган ёки ўзи келиган вақтдан ҳукм ижро қилинаверади ва уларни судланганлигини олиб ташлаш ваколати судларга берилмаган.

Ана шу айтилганларга кўра судлар, тинчлик ва инсоният хавфсизлигига қарши жиноятлардан бошқа ҳар қандай жиноят учун ўн беш йил ва ундан ортиқ муддатга озодликдан махрум қилиш жазосини ўтаб чиққан кундан бошлаб, ЖК 79-моддасида назарда тутилган асослар мавжуд бўлса, шахснинг судланганлигини олиб ташлаши мумкин.

Тинчлик ва инсоният хавфсизлигига қарши жинояти учун ҳукм қилинган шахсларнинг судланганлигини фақат Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 93-моддаси 23-бандига мувофиқ фақат авф этиш асосида Ўзбекистон Республикаси Президенти ваколатига киради.

Ўзбекистон Республикаси Олий Суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги “Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида”ги 1-сон Қарорининг 54-бандида белгилаб қўйилганидек, Жиноят кодексининг 60-моддасида назарда тутилган бир неча ҳукмлар бўйича жазо тайинлаш қоидалари биринчи ҳукм эълон қилинганидан сўнг, лекин ўша ҳукм бўйича тайинланган асосий ва қўшимча жазолар тўлиқ ўталганга қадар маҳкум томонидан янги жиноятни содир этилган ҳолларда қўлланилади.

Иқтибослар/Сноски/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3723 sonli qarori (Decision PQ-3723 of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to fundamentally improve the system of criminal and criminal-procedural legislation") //https://lex.uz/docs/-3735818#-3736684
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 77-modda 2-qismi. “Adolat” huquqiy axborot marlazi.Toshkent-2020. (Article 77, Part 2 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. "Adolat" legal information center. Tashkent-2020)
3. 2015-yil 18-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenuming “Sudlanganlik holati tugallanishi va olib tashlashga oid qonunchilikni qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 13-sonli qarori (Resolution No. 13 of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan dated September 18, 2015 "On the judicial practice on the application of the legislation on the completion and removal of convictions")
4. Бородин С. В. Общая характеристика отягчающих обстаятельств умишленного убийства по Ветнамскому законодательству. В кн: Совершенствование мер борби с

преступностью и ее профилактика –Т.: 1980 –С. 31 (Borodin S.V. General characteristics of aggravating circumstances of intentional murder according to Vietnamese legislation. In the book: Improving measures to combat crime and its prevention – T.: 1980 – P. 31).

5. Ленау М. Личность виновного и приговор суда. // 1992. – №21 –С. 18 (Lenau M. Identity of the culprit and the verdict of the court. // 1992. – No. 21 – P. 18)

6. Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар. Умумий қисм. “ILM ZIYO” T. 2006. –Б. 532. (Rustamboev M.Kh. Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. General part. "ILM ZIYA" T. 2006. -P. 532)

7. Усмоналиев М. Судланганлик унинг ҳуқуқий оқибатлари ва либераллаштириш муаммолари. – Т.: Янги аср авлоди. 2005 й. –Б. 12 (Usmonaliev M. Conviction, its legal consequences and problems of liberalization. - T.: The generation of the new century. 2005 -P. 12)

8. Виттенберг Г.В. Нкоторые вопросы практика применения Указа Президума Верховного Совета Иркутск: Исд-во Иркутского ун-та, 1991. 127-139 (Wittenberg G.V. Some questions about the practice of applying the Decree of the Presidium of the Supreme Council Irkutsk: Publishing House of Irkutsk University, 1991. 127-139)

9. Наумов А.В. Уголовное право. Общая часть. –М.: БЕК, 1996. – С. 481-482 (Naumov A.V. Criminal law. A common part. –M.: BEK, 1996. – P. 481-482).

10. Галина В.В. Погашение и снятие судимости. Харьков: Вищая школа, 1979. –С. 7 (Galina V.V. Expungement and expungement of a criminal record. Kharkov: Vishaya School, 1979. –P. 7).

11. Зелодова С.И // Павоведение. 1974. –№ 2. –С.66 (Zelodova S.I. // Pavovedenie. 1974. –No. 2. –P.66).

12. M.X.Rustambayev “ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat huquqi kursi” darslik. 252 – bet. –Toshkent 2018. (M.K. Rustambayev "Course of Criminal Law of the Republic of Uzbekistan" textbook. 252 – p. -Tashkent 2018)

13. Mualliflar jamoasi. “Jinoyat huquqi” darslik. Toshkent 2020. – P.89. (The team of authors. "Criminal law" textbook. Tashkent 2020. - P.89)

14. Рустамбаев М. Х. Осуществление правосудия по уголовным делам судами незввисимого Узбекистана. –Т.: “Узбекистон”. 1994 –С. 123 (Rustambaev M. Kh. Administration of justice in criminal cases by the courts of independent Uzbekistan. –T.: “Uzbekistan”. 1994 –P. 123).

15. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to‘plami. Jild .2 – T.: Adolat, 2006. – B. 229. (Collection of decisions of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. Volume 2 - T.: Adolat, 2006. - P. 229)

TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV JARAYONIGA JALB ETILGAN SHAXSLARNING PROTSESSUAL MAQOMINI MUSTAHKAMLASH

Jo‘rayev Javlon,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi
katta o‘qituvchisi, kapitan

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar insonning sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari barcha sohalarda ustuvor ahamiyat kasb etishini qat’iy qoidaga aylantirish, bir so‘z bilan aytganda, **«Inson qadri uchun»** g‘oyasini hamda bugungi islohatlarning bosh tamoyili bo‘lgan **«Inson-jamiyat-davlat»** degan yondoshuv O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasida o‘z ifodasini topgan.

Yangi Konstitutsiyaviy o‘zgarishlar o‘z navbatida milliy qonunchilik tizimida o‘z ifodasini topishi, jumladan, tergovga qadar tekshiruvni o‘tkazish asoslari va tartibini belgilovchi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida tergovga qadar tekshiruv bosqichida jalb qilingan shaxslarni huquqiy maqomini mustahkamlash bilan bog‘liq normalarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Tergovga qadar tekshiruv serqirrali tushuncha bo‘lib, uni amalga oshirish jarayonida jinoyat ishini qo‘zg‘atish, uni qo‘zg‘atishni rad etish masalalari hal etiladi. Shuningdek, tergovga qadar tekshiruv – to‘plangan materiallar yuzasidan jinoiy qilmish mavjudligi yoki yo‘qligini aniqlashga yo‘naltirilgan tergov harakatlarini amalga oshirishning huquqiy asosi bo‘lib hisoblanadi. U dastlab jinoyat-protsessual institut sifatida namoyon bo‘lib, ya’ni jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi haqidagi masalaning yechilishi tartibini belgilovchi protsessual me’yorlar yig‘indisini tashkil qiladi. Tergovga qadar tekshiruv bosqichidagi protsesual faoliyat JPKda belgilab qo‘yilgan mansabdor shaxs (tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi va prokuror)lar tomonidan amalga oshiriladi hamda mazkur jarayon belgilangan sharoitlarda va maxsus protsessual shakllarda yuritiladi.

Amaliyotimizda tergovga qadar tekshiruv natijasida to‘plangan materiallar yuzasidan jinoiy hatti - harakat (yoki harakatsizlik) yoki qilmishning mavjudligi, mavjud emasligini aniqlashga yo‘naltirilgan, surishtiruv yoki tergov harakatlarini amalga oshirishda dastlabki huquqiy asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Tergovga qadar tekshiruv davrida protsess ishtirokchilarining biror-bir maqomi mavjud emasligi, jumladan kelgusida gumon qilinuvchi tariqasida jalb etilishi lozim bo‘lgan shaxsning, guvohning yoki jabrlanuvchi tarafning maqomi mavjud emasligi, ularning tergovga qadar tekshiruv vaqtida ruhsat berilgan tergov harakatlari davomida o‘z manfaatlarini himoya qilishda to‘sqinlik keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, tergovga qadar tekshiruvda ishtirokchilarning himoya huquqidan foydalana olmasliklari, biror-bir maqomi e’tirof etilmagan, unga nisbatan huquq va majburiyatlar aks etmagan ishtirokchining bunday huquqlarini ta’minlash borasida qoidalarning o‘zi mavjud emasligini ko‘rishimiz mumkin.

Sud tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish, jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirishga oid qonun osti hujjatlarida belgilagan vazifalariga muvofiq, jinoyat hamda jinoyat - protsessual qonunchiligidagi

mavjud normalarni qayta ko‘rib chiqish va ularni takomillashtirish kabi talablaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, ushbu qonunchilik institutini isloh qilish lozimligini taqozo qiladi.

“O‘zbekiston–2030” strategiyasining qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo‘nalishida aynan 87-maqsad, **“Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirish”** ko‘rsatib o‘tilgan. Unda ***“tergovga qadar tekshiruv jarayoniga jalb etilgan shaxslarning protsessual maqomini aniqlashtirish, ushbu shaxslar gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi va guvoh huquq va majburiyatlaridan foydalanishini belgilash, tergovga qadar tekshiruv bosqichida ayrim tergov harakatlarini o‘tkazishga ruhsat berish”*** kabi ustuvor maqsadlar belgilangan bo‘lib, ularning bajarilishi mamlakatimizdagi har bir shaxsning huquq va erkinliklari kafolatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish bilan bog‘liq amaliyotdagi muammoli holatlardan kelib chiqib quyidagilarni taklif qilamiz:

Birinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksining 24-moddasi (Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalanish huquqi bilan ta’minlash)da gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi himoyalanish huquqiga ega ekanligi, himoyalanish huquqi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud zimmasidagi gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga va sudlanuvchiga unga berilgan huquqlarni tushuntirib berish hamda u o‘ziga qo‘yilgan ayblovdan himoyalanish uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullardan foydalanishda haqiqiy imkoniyatga ega bo‘lishiga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rish majburiyati bilan ta’minlanishi ifoda etilgan. Ammo, O‘zbekiston Respublikasining «Jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash to‘g‘risida»gi Qonunining 18-moddasida Ushlab turilganlar va qamoqqa olinganlar ushbu Qonunda belgilangan huquqlardan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi uchun nazarda tutilgan huquqlarga ega bo‘lishi ifoda etilgan bo‘lib, bugungi kunda

bevosita tergovga qadar tekshiruv jarayonidan boshlab ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarga nisbatan himoyachi ta’minlanishi yo‘lga qo‘yilgan. Lekin bugungi kunga tergovga qadar tekshiruv jarayonida shaxslarning himoyalanish huquqi Jinoyat-protsessual kodeksida o‘z aksini topmagan.

Fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga berilayotgan e’tibor sifatida O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi 29-moddasida ***«Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko‘rsatiladi. Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e’tiboran o‘z tanloviga ko‘ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega»*** degan mazmunda konstitutsiyaviy norma belgilangan bo‘lib, bu har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida yuridik yordam olishi mumkinligini belgilangan va bu norma jinoyat protsessual kodeksida o‘z ifodasini topishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevral kunidagi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan **«2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi»**ning 17-maqsadi: «Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish» deb nomlanib unda «Sudga qadar ish yuritishning barcha bosqichida **shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish»** ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar belgilangan bo‘lib, jumladan:

1. Tergovga qadar tekshiruv jarayoniga jalb etilgan shaxslarning protsessual maqomini aniqlashtirish, ushbu shaxslar gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi va guvoh huquq va majburiyatlaridan foydalanishini belgilash;

2. Tergovga qadar tekshiruv bosqichida ayrim tergov harakatlarini o‘tkazishga ruxsat berish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi tayyorlash bo‘yicha topshiriqlar belgilangan.

Tergovga qadar tekshiruv jarayonida shaxs huquq va erkinliklarining samarali ta’minlanishiga erishish maqsadida ushbu jarayonda ishtirok etayotgan, ya’ni tergovga qadar tekshiruv o‘tkazilayotgan shaxsning jinoyat protsessi ishtirokchisi sifatidagi huquqiy maqomini belgilash hamda ushbu shaxsning huquq va majburiyatlarini Jinoyat-protsessual kodeksi normasida aks ettirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yuqoridagi sanab o‘tilgan omillarni inobatga olib, ularning barchasini huquqiy yechimi sifatida quyidagi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 47-moddasiga o‘zgartirish kiritish maqsadga muvofiq. Jumladan,

“47-modda. Gumon qilinuvchi

Gumon qilinuvchi jinoyat sodir etgani to‘g‘risida ma’lumotlar bor bo‘lsa-da, bu ma’lumotlar uni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish uchun yetarli bo‘lmagan shaxsdir.

Shaxs:

1) o‘ziga nisbatan tergovga qadar tekshiruv boshlangan;

2) jinoyat sodir etishda gumon qilinib, ushbu Kodeksning 221-moddasida belgilangan tartibida ushlangan;

3) surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb qilish to‘g‘risida qaror chiqarilgan vaqtdan boshlab gumon qilinuvchi deb hisoblanadi.”

Uchinchidan, tergovga qadar tekshiruv jarayonida shaxs huquq va erkinliklarining samarali ta’minlanishiga erishish maqsadida ushbu jarayonda ishtirok etayotgan, ya’ni tergovga qadar tekshiruv o‘tkazilayotgan shaxsning jinoyat protsessi ishtirokchisi sifatidagi huquqiy maqomini belgilash hamda ushbu shaxsning huquq va majburiyatlarini Jinoyat-protsessual kodeksi normasida aks ettirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“48-modda. Gumon qilinuvchining huquq va majburiyatlari

(birinchi qism) Gumon qilinuvchi: o‘zining nimada gumon qilinayotganligini bilish; **jinoyat protsessining har qanday bosqichida o‘z tanloviga ko‘ra advokat yordamidan foydalanish,** ushlab turilganligi va turgan joyi to‘g‘risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo‘ng‘iroq qilish yoxud xabar berish;

(ikkinchi qism) **tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining**, surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtirok etish; yarashuv to‘g‘risidagi, amnistiya aktini qo‘llash haqidagi ishlar bo‘yicha sud majlislarida ishtirok etish; tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish huquqiga ega.

Gumon qilinuvchi: **tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi**, surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning chaqiruviga binoan hozir bo‘lishi, tergovga qadar tekshiruvda, surishtiruvda va dastlabki tergovda ishtirok etishdan bosh tortmasligi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo‘q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko‘ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to‘sqinlik qilmasligi; o‘ziga nisbatan tanlangan ehtiyot chorasidan kelib chiqadigan talablarni bajarishi; **tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining** surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning guvohlantirish, ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish to‘g‘risidagi hamda surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning ekspertiza o‘tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish to‘g‘risidagi qarorlari va ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa protsessual qarorlar ijro etilishiga to‘sqinlik qilmasligi; ishni tergov qilishda tartibga rioya etishi shart.”

Ushbu normalarni jinoyat-protsessual qonunchiligiga kiritilishi tergovga qadar tekshiruv davrida shaxs huquq va erkinliklarini samarali ta’minlash bilan birga tergovga qadar tekshiruv faoliyatini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar va organlar zimmasiga tegishli majburiyatlarni yuklatilishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlar kelib tushganda o‘tkaziladigan tergovga qadar tekshiruv

davrida shaxs malakali yuridik yordam olishi va advokat yordamidan foydalanishini ta’minlash, tergovga qadar tekshiruv o‘tkazilayotgan shaxsning jinoyat protsessi ishtirokchisi sifatidagi huquqiy maqomini belgilash hamda ushbu shaxsning huquq va majburiyatlarini Jinoyat-protsessual kodeksi normasida aks ettirish Yangi Konstitutsiyaviy o‘zgarishlar o‘z navbatida milliy qonunchilik tizimida o‘z ifodasini topishiga, jumladan, tergovga qadar tekshiruvni o‘tkazish asoslari va tartibini belgilovchi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi va ichki idoraviy hujjatlarda harbiy xizmatchilarga nisbatan tergovga qadar tekshiruv davrida ularning huquqiy maqomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. http:www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. http:www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi F-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. http:www.lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevral kunidagi
PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi» // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. http:www.lex.uz.

5. Tursunov B.R. Rustambayev M.X. Mirazov D.M. Fayziyev Sh.F. Tergovga qadar tekshiruv. – Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2019. 357 B.

6. Mirazov D.M. Tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish asoslari, tartibi va xususiyatlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – 75 b.

7. Jinoyat-protsessual huquqi [Matn]: darslik. - Toshkent: Complex Print, 2020. – 679 b.

O‘ZBEKISTONDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMINING AHAMIYATI

Sodiqov Mirjalol,
O‘zbekiston Respulikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Umumiy taktika va operativ san’at kafedrasi o‘qituvchisi

Bugungi kunda axborot tizimlari shu qadar murakkab va ko‘p funksiyaliki, ular ba’zan inson omilidan tashqari tahdidlarni ham keltirib chiqaradi. Jamiyatning asosini shaxslar tashkil etadi. Shuning uchun ham doim o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Bu yerda xavfsizlik va erkinlik tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Inson o‘zini xavfsiz his qiladigan muhitda erkin fikrlaydi va harakat qiladi. Aksincha, har kim erkinlik yo‘lida o‘zi xohlaganini qilsa, kerak bo‘lgan joyda to‘xtamasa, erkinlik maydoniga boshqalar ham kirsa, nizolar yuzaga kelib, butun jamiyatga tarqaladi, davlat va jamoat xavfsizligi xavf ostida qoladi.

Axborot texnologiyalari rivojlangan sari ehtiyojlar ham o‘zgarib, xavfsizlik deb ataluvchi hodisa tizimli shakl kasb etib, xususiy mulk va shaxsni himoya qilish tarzida umumlashib, vaqt o‘tishi bilan qabul qilingan qonunlar bilan huquqiy asos yaratilgandagina mustahkamlanadi. Tadqiqotchi Shvartauning axborot urushi haqidagi o‘z qarashlarini “Axborot urushi sanoat, siyosiy global ta’sirlar, iqtisodiy kuchlar va hatto butun mamlakatlarga qarshi davom etishi mumkin. Bu texnologiyaga nisbatan texnologiyadan foydalanish; bu sirlarni o‘g‘irlash; bilimdan bilim egalariga qarshi foydalanish, dushmanni ularning bilim va texnologiyasidan foydalanish qobiliyatidan mahrum qilish”[1] deya

[1] Денщиков А.Л. Информационная стратегия США : анализ, современност, перспективы : дисс. кан. полит. наук. - Москва, 2007. – 186 с.

izohlaydi. Axborot tahdidlari jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasiga xavf soladi. Axborot urushining jamoat xavfsizligiga ta’sirini harbiy-siyosiy jihatdan tahlil qilish va unga qarshi kurashish usul va yo‘llarini takomillashtirish zarurati ham shundan iborat. Tadqiqotchi V.F.Prokofevning fikricha, “Axborot urushini harbiy-siyosiy jihatdan baholash turli darajadagi gibrid urushlarni namoyon etuvchi jang maydonlarini “axborot tahdidi bilan bog‘liq jangovar snaryadni to‘ldirish”ni ham ifodalaydi, shuning uchun harbiy adabiyotlarda “axborot bombasi”, “axborot minasi” kabi atamalar keng qo‘llanilmoqda”[1]. Axborot xavfsizligini ta’minlashning qarshi ta’sir modeliga asosan axborot tahdidlarini oldini olish va unga qarshi kurashish mexanizmini ishlab chiqish zarur.

Axborotning ortib borayotgan ahamiyati axborotning o‘zaro ta’sir qilish jarayonlarini tartibga solishni ta’minlash uchun davlatning faol aralashuvini talab qiladi. Shuni unutmaslik kerakki, axborot texnologiyalarining rivojlanishi bugungi kunda jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida keng ko‘lamli salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosat faoliyatida axborot xavfsizligini ta’minlash va mavjud mexanizmini takomillashtirish eng muhim ustuvor vazifalardan biridir. Respublikamizda axborot tahdidlarini aniqlash va ularni bartaraf etish sohasida faoliyat yurituvchi asosiy tashkilotlar sirasiga Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tarkibidagi Ommaviy kommunikatsiya sohasidagi monitoring markazi va Axborot xavfsizligini ta’minlash markazi, Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasini kiritish mumkin.

Gap xavfsizlik haqida ketar ekan, avvalambor, axborot urushi tahdidlariga qarshi kurashishda samarali faoliyat yuritadigan aniq bir mexanizmni ishlab chiqish kerak. Bu mexanizm axborot tahdidlarini aniqlashi va unga qarshi o‘z vaqtida munosib javob reaksiyasini berib,

[1]Прокофев В.Ф. Тайное оружие Информационной войны: атака на подсознание / В.Ф.Прокофев. - 2. изд., расшир. и дораб. - Москва: СИНТЕГ, 2003 (ПИК ВИНИТИ). – 395 с.

qarshilik ko‘rsatishi kerak. Axborot xavfsizligini ta’minlash mexanizmi O‘zbekiston Respublikasida qay holatda? Ushbu mexanizm sohada faoliyat kursatuvchi subyektlarning me’yoriy-huquqiy hujjatlari asosida belgilangan vakolatlari va vazifalarini qay tarzda amalga oshirishini belgilab beradi. O‘z navbatida, ushbu mexanizmning samaradorligi sohadagi me’yoriy-huquqiy bazaning mukammalligi bilan bog‘liq. Mamlakatimizda axborot tahdidlarni aniqlash va bartaraf qilish mexanizmi monitoring, tahlil, aniqlash va bartaraf qilish bosqichlaridan iborat.



1.1-rasm. Axborot urushi tahdidlarini aniqlash va qarshi kurashish mexanizmi

Ushbu yo‘nalishda O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston Respublikasi Ma’naviyat va ma’rifat kengashi va uning tarkibidagi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazlari hamda Fuqarolik jamiyati rivojlanishini monitoring qilish mustaqil instituti, Respublika “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi, O‘zbekiston axborot agentligi, Bosh prokuratura, Favqulotda vaziyatlar vazirligi, Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Sog‘likni saqlash vazirligi, Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor vazirlikla,r ular tarkibiga kiruvchi tashkilotlar o‘z vakolatlari doirasida shaxs, jamiyat va davlatni axborot tahdidlardan himoya qilish, ularni turli tahdidlar ta’siriga tushib qolishining oldini olish bo‘yicha vakolatlari doirasida faoliyat yuritadi.

Axborot urushi strategiyasi jamoat xavfsizligini ta’minlashda muhim faktorlardan biri bo‘lib, unda ma’lumotlarning to‘g‘riligi e’tiborga olinishi kerak. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Televideniya, matbuot va Internet hayot nafasini, ta’bir joiz bo‘lsa, har bir sohaning “yurak urushi”ni aniq va ravshan his qilishda muhim ahamiyatga ega”[1]. Shu sababli zamonaviy jamiyatning xavfsizlik makro ko‘rsatkichlarini monitoring qilish, mavjud vaziyatni baholash, ushbu sohadagi asosiy o‘zgarishlar va rivojlanish tendensiyalarini ko‘rib chiqish, hal etilishi lozim bo‘lgan muammolarni aniqlash va e’tiborni axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, axborot xavfsizligi bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar vakolati va qarshi turish irodasi doirasida hodisalar va voqealar to‘g‘risida ma’lumot to‘playdi, lekin vaziyatni aniqroq baholash va axborotning salbiy ta’siriga yetarli darajada qarshi turish uchun sohalar va tizimlar o‘rtasida ma’lumot almashish, tahlil qilish va tarqatish uchun hamkorlik qilish mexanizmini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, chegara nimalagini bilmaydigan axborot tahdidlariga qarshi kurashishi uchun xalqaro maydonda yetarli darajada hamkorlikni tashkillashtirish lozim. Shu bilan birga, tahdidlarni nazorat qilish va ularga qarshi kurashishda davlat sektori xalqaro huquq normalari va aloqalarni hisobga olishi kerak. Tahdidlar doimiy yoki strategik darajada bo‘lishidan qat’i na’zar, ular uchun javobgarlik faqatgina davlat tomonidan emas, balki davlat hokimiyati organlari, jamoat tashkilotlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan doimiy ravishda amalga oshirilishi kerak.

O‘zbekiston xavfsizlik organlari bosib o‘tgan mashaqqatli, shu bilan birga, sharafli va fidokorona yo‘l xalqimiz ko‘p asrlik tarixining salmoqli sahifalarini tashkil etadi. Siyosiy tuzilmasidan qat’i nazar, barcha davrlar axborot xavfsizligini ta’minlashda maxsus xizmatlarning faoliyati katta ahamiyatga ega. Demak, milliy xavfsizlik tizimi demokratik-huquqiy jamiyatning ishonchli qalqoni sifatida davlat mustaqilligi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi, konstitutsiyaviy tuzilishi, xalq va mamlakat manfaatlarini, inson huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta’minlaydi.

[1] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: O‘zbekiston, 2021 –B. 47.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Денщиков А.Л. Информационная стратегия США : анализ, современност, перспективы : дисс. кан. полит. наук. - Москва, 2007. – 186 с.

2.Прокофев В.Ф. Тайное оружие Информационной войны: атака на подсознание / В.Ф.Прокофев. - 2. изд., расшир. и дораб. - Москва: СИНТЕГ, 2003 (ПИК ВИНИТИ). – 395 с.

3.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: O‘zbekiston, 2021 –B. 47.

XAVFSIZLIK SOHASIDA PROFAYLING: IMKONIYAT VA KAMCHILIKLAR

Ikanov Azamat Agzamovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi boshlig‘i, yu.f.b.f.d. (PhD),
Baxriddinov Azamat Ortiqmirzayevich,
tadqiqotchi

Har qanday kasbiy faoliyatni, uning psixologik tarkibiy qismlarini aniqlash va rivojlantirish orqali yanada samaraliroq qilish mumkin.

Huquqni muhofaza qilish organi xodimi uchun psixologiyani bilish alohida ahamiyatga ega, chunki ularning ish ob‘ekti odamlardir. Tergovchi faoliyatining psixologik tuzilishining hal qiluvchi tarkibiy qismi uning jinoyat ishi bo‘yicha dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashdagi kognitiv faoliyatidir. Tergovchi kognitiv faoliyatning ikki yo‘nalishini ajratib ko‘rsatish mumkin: birinchidan, sodir etilgan jinoyatning o‘zini qayta tiklash, ikkinchidan, jinoyat sodir etgan shaxsning psixologiyasini, shuningdek, guvohlar va jabrlanuvchilarning shaxsini bilish.

Verbal va noverbal xatti-harakatlarning nozik tomonlarini bilgan holda, tergovchi tergov va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirayotganda, jinoyat protsessi ishtirokchilari shaxsining psixologik portretini tuzishi va shu asosda aniqlanishi oson bo‘ladi. Yuridik psixologiya jinoyat protsessi ishtirokchilarining xulq-atvorida jinoyat

ishini tergov qilish bilan bog‘liq har qanday faktlarni yashirishga urinishlarni aniqlashning bir qancha usullari va vositalarini taklif qiladi.

Shaxslararo muloqot jarayonida shaxsning psixologik holatini aniqlash imkonini beruvchi texnologiyalardan biri, shuningdek, noqonuniy xatti-harakatlarga moyil bo‘lgan shaxslarni aniqlash ehtimoli yuqori bo‘lgan texnologiyalardan biri bu profillash yoki profaylingdir[1]. Bu nisbatan yaqinda paydo bo‘lgan va shaxslararo muloqotda qo‘llaniladigan noverbal komponentlarni ochishga imkon beradigan psixologik fanning yangi yo‘nalishi hisoblanadi.

Vizual psixodiagnostika imo-ishoralar nazariyasini keng qo‘llaydi. Psixologlarning aniqlashicha, odamlar o‘zaro aloqada bo‘lganda, ma‘lumotlarning 60-80% og‘zaki bo‘lmagan va faqat 20-40% – og‘zaki ravishda uzatiladi[2]. Insonning holatiga qarab, odamning charchoq darajasini, kayfiyat, o‘ziga bo‘lgan ishonchini va hatto ijtimoiy mavqeini baholash mumkin. Yurish va turish ham inson shaxsiyatining ba‘zi xususiyatlarini aytib berishi mumkin. Insonning ovozi va nutqi uning hissiy kechinmalari, bilimdonligi, aql-zakovati va xarakteri haqida ma‘lumot beradi. Vizual psixodiagnostika uchun eng samarali ma‘lumot beruvchi vosita – bu odamning yuz ifodalari hisoblanadi.

Chet elda huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida profillashdan foydalanish juda keng qo‘llaniladi. Qo‘llashning asosiy sohalari jamoat xavfsizligini taminlashda ko‘p kuzatiladi. O‘zbekistonda va barcha zamonaviy davlatlarda terroristik xarakterdagi jinoyatlarning oldini olish uchun hozirda yo‘lovchilarni parvozdan oldin tekshirishda profillash texnologiyalari eng keng tarqalgan.

Bizning fikrimizcha, barcha jamoat xavfsizligi bilan ishlovchi tashkilotlarda profaylingni o‘rgatish maqsadga muvofiqdir, chunki bugungi kunda shaxsning psixofiziologik reaksiyalaridan foydalangan holda nafaqat bevosita jinoiy harakatlarni sodir etishga, balki noqonuniy niyatlarni aniqlashga imkon beradigan texnologiyalardan foydalanish kerak. Shuningdek, dastlabki tergov organlarida sodir etilgan jinoyat izlarini aniqlashda ham profaylingning o‘rnini oshirish zarur.

Profaylingni keng qo‘llash orqali quyidagi yutuqlarga erishishimiz mumkin.

1. Inson xulq-atvorini tahlil qilish: profayling insonni qanday motivlar va maqsadlarga undayotganini, u nimani o‘ylashini va his qilishini, qanday qaror qabul qilishini aniqlash imkonini beradi. Bu mijozning ma’lum bir mahsulot yoki xizmatga qanday munosabatda bo‘lishini tushunish kerak bo‘lgan biznesda foydali bo‘lishi mumkin.

2. Yolg‘onni aniqlash: Profaylerlar odamning rost yoki yolg‘on gapirayotganini aniqlash uchun turli usullardan foydalanishi mumkin. Bu jinoyatni tergov qilishda, shuningdek, odamning savollarga qanchalik to‘g‘ri javob berishini bilish muhim bo‘lgan faoliyatda yordam berishi mumkin[3].

3. Xodimlarni baholash: profayling turli sohalardagi xodimlarni baholash uchun ishlatilishi mumkin, ishga qabul qilish agentliklari, rekruting kompaniyalari, ta’lim muassasalari va boshqalar. Bu sizga nomzodning ma’lum bir lavozimga mos kelishini va uning jamoada qanday ishlashini aniqlash imkonini beradi.

4. Huquqbuzarlikning oldini olish: Profilni yaratish potentsial jinoyatchilarni aniqlash va jinoyatlarning oldini olish uchun ishlatilishi mumkin[4]. Masalan, teraktlar yoki boshqa xavfli jinoyatlar sodir etishi mumkin bo‘lgan shaxslarni aniqlash uchun profillashdan foydalanish mumkin.

Ammo bugungi kunda profayling texnologiyasini o‘qitishda bir qancha muammolar mavjud. Birinchidan, profayler kasbini tayyorlashda umumiy standart yo‘q. Bundan tashqari, har kim bunday kasbni o‘rgatish uchun o‘quv kurslarini ochishi mumkin. Ikkinchidan, kelajakdagi profaylerlarni o‘rgatadigan barcha o‘qituvchilar etarli amaliy tajribaga ega emas. Chet elda profaylingni qo‘llash bo‘yicha ko‘p yillik muvaffaqiyatli tajribadan olingan ijobiy natijalar ushbu uslubni ichki ishlar xodimlarini tayyorlashda amaliy foydali ekanligini tasdiqlaydi va tezkor qidiruv bo‘linmalari, jamoat xavfsizligi xodimlari, xodimlarini kasbiy tayyorlashda muhim rol tutmoqda.

Hozirgi vaqtda ko‘plab olimlar profil yaratish sohasida ishlamoqda, bu erda yangi texnikalar ishlab chiqilmoqda, ularning maqsadi:

– jinoyatlarni imkon qadar tez ochish imkonini beruvchi mexanizm yaratish;

– inson xatti-harakatlarini samarali baholash usulini yaratish.

Ushbu maqsadlarga ba’zi vositalar yordamida erishiladi:

– insonning psixolingvistik xususiyatlarini tahlil qilish;

– xarakter turini aniqlash;

– aloqa strategiyasi va taktikasini qo‘llash;

– insonning his-tuyg‘ularini tushunish;

– inson xulq-atvori strategiyalarini aniqlash.

Shunday qilib, biz profayler keng ko‘lamli faoliyat sohalarida katta foyda keltirishi mumkinligini bildik. Ushbu bilimlarni harbiy faoliyat sohasida qo‘llash va razvedka faoliyatini olib borish orqali bir qator muammolarni hal qilish mumkin:

– noto‘g‘ri ma’lumotlar;

– murakkab testlardan foydalanmasdan yangi xodim, uning qadriyatlari, sevimli mashg‘ulotlari va o‘tmishdagi hayoti haqida muhim ma‘lumotlarni olish qobiliyati;

– turli vaziyatlarda, ayniqsa hayot uchun xavf tug‘diradigan holatlarda xodimlarning xatti-harakatlari strategiyasini ishlab chiqish;

– yangi nomzodlarni tanlash va xodimlarni ishdan bo‘shatish tamoyillari va usullarini oqilona qo‘llash.

Ammo ko‘plab ijobiy tomonlar mavjud bo‘lsa-da, profil yaratish bir qator kamchiliklarga ham ega, masalan:

1. Subyektivlik: Profayler olingan ma’lumotlardan shaxsiy manfaatlar uchun yoki shaxsga zarar etkazish uchun foydalanishi mumkin. Bu inson huquqlari va axloq qoidalarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

2. Ma’lumotlarning ishonchsizligi: Profilni yaratish inson xatti-harakatlarini tahlil qilishga asoslangan, ammo vaziyatga qarab xatti-harakat o‘zgarishi mumkin. Bundan tashqari, ba’zi odamlar o‘zlarining haqiqiy shaxsiyatini va xatti-harakatlarini yashirishi mumkin.

3. Cheklangan ma’lumot: profil yaratish inson haqida to‘liq tasavvur bera olmaydi, chunki u faqat xatti-harakatlar va tashqi ko‘rinishga asoslanadi. Bu noto‘g‘ri xulosalar va noto‘g‘ri qarorlarga olib kelishi mumkin.

Mamlakatimizda profayling sohasi vakillari uchun ehtiyoj juda yuqori. Ushbu ishning ahamiyatini bo‘rttirib yoki kamaytirib bo‘lmaydi, ammo hozirgi vaqtda profilni yaratishga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish mumkin va barcha sudlar jinoyatchini o‘rganishning ushbu usulini dalil sifatida qabul qilmaydi, chunki psixofiziologik tadqiqotlar yakuniy emas. Ammo jinoyatchini aniqlashning cheklangan vaqti, shuningdek, aldash faktini aniqlash uchun asbob-uskunalarning yuqori narxi va ushbu uskuna bilan ishlay oladigan xodimlar sonining cheklanganligi kabi xususiyatlar tufayli profil yaratish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyoj ortib boraveradi.

Foydalanilgan manbalar

1. Ениколопов С.Н., Ли Н.А. Психологические особенности криминального профайлинга // Психологическая наука и образование. – 2007. – №5. – С.295-299.

2. Арпентьева М.Р. Экспертный профайлинг как сфера профессиональной деятельности психолога-практика. // Научный журнал • «PEM: Psychology. Educology. Medicine» • ISSN 2312-9352 (Online) – 2016 г. №3. – С.20–28.

3. Мальцева Т.В., Кутепова М.В. Личность преступника: психологический аспект: Учебное пособие. – Руза: Московский областной филиал Московского университета МВД России, 2014. – С.31.

4. Профайлинг в органах внутренних дел: учеб.пособие для студентов вузов, обучающихся по специальностям «Юриспруденция» и «Правоохранительная деятельность» / [В.Л. Цветков и др.]; под ред. В.Л. Цветкова. - М.: ЮНИТИ-ДАНА: Закон и право, 2014. - 254 с.

GERMANIYADA RAHBAR KADRLAR TAYYORLASH TIZIMI TAHLILI

Muradullayev Abbosbek Abduraxmanovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida davlat sektorida ham xususiy sektorda ham yetakchilik qobiliyatiga ega, malakali kadrlarga, shu jumladan, rahbar kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan strategiyaning 97-maqsadida “Yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish, o‘quv jarayonlariga harbiy tayyorgarlikning zamonaviy usullarini keng joriy etish” samaradorlik ko‘rsatkichi belgilangan[1].

Germaniya rahbar kadrlarni tayyorlash tizimi turli sohalarda yetakchilik lavozimlarini egallashga qodir malakali mutaxassislarni tayyorlashdagi samaradorligi bilan xalqaro e’tirofga sazovor bo‘lgan. Dual ta’lim tamoyiliga asoslangan ushbu tizim kasb-hunar ta’limi muassasalaridagi nazariy tayyorgarlikni ish joyidagi amaliy tajriba bilan uyg‘unlashtiradi.

So‘nggi yillarda Germaniya rahbar kadrlarni tayyorlash tizimi mehnat bozorining o‘zgaruvchan ehtiyojlarini qondirish uchun sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi. An’anaga ko‘ra, texnik va ishlab chiqarish kasblari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashga yo‘naltirilgan tizim endilikda yetakchilik va boshqaruv ko‘nikmalarini eng yuqori darajada rivojlantirishga ham katta e’tibor qaratmoqda.

Ushbu ilmiy tadqiqotda nemis rahbar kadrlarni tayyorlash tizimining kasbiy ta’limdan etakchilikka qadar bo‘lgan evolyutsiyasini eng yuqori darajada o‘rganishdir.

Ushbu tadqiqot natijalari ta’lim va tijorat mutaxassislari, shuningdek, o‘z mamlakatlarida boshqaruv ta’lim tizimini yaxshilashga intilayotgan boshqaruvchilar uchun qimmatli tushunchalarni beradi.

Germaniyada “davlat xizmati” tushunchasi ancha keng qamrovga ega va mansabdor shaxslarni tayyorlash davlatga tegishli barcha sohalarni

qamrab oladi. Federal Oliy maktabda o‘qish 3 yil davom etadi, shundan 1,5 yili sinflarda o‘qishga, 1,5 yili esa sohada amaliyotga sarflanadi. Germaniyadagi 314 ta universitetdan 26 tasi davlat xizmati uchun boshqaruv kadrlarini tayyorlash bilan shug‘ullanadi. Nemis talabalari umumiy sonining 76 foizi universitetlarda, 3-5 foizi esa rahbar kadrlarini tayyorlash uchun oliy maktablarda tahsil oladi.

Davlat va munitsipal boshqaruv federal oliy maktabi nemis tizimida davlat xizmatchilarini tayyorlash bo‘yicha yetakchi muassasa Bruglda joylashgan. U bo‘lajak davlat xizmatchilarini davlat boshqaruvining turli sohalarida ishlashga tayyorlash uchun mo‘ljallangan bakalavriat va magistratura dasturlarining keng doirasini taklif etadi.

Davlat va munitsipal boshqaruv federal oliy maktabi dasturlari nazariy ta’limni davlat organlarida amaliyot o‘tash bilan birlashtiradi. Bu talabalarga davlat boshqaruvining nazariy asoslarini ham, davlat boshqaruvida ishlashning amaliy jihatlarini ham chuqur tushunish imkonini beradi.

Davlat va munitsipal boshqaruv federal oliy maktabidan tashqari, Germaniyaning 16 federal hududlarining har birida davlat xizmatchilari uchun o‘quv dasturlarini taklif qiluvchi o‘z davlat oliy maktabi mavjud. Bu maktablar davlat xizmatchilarini davlatning hokimiyat organlarida ishlashga tayyorlashga qaratilgan.

Hudud oliy maktablari federal davlat va shahar boshqaruvi oliy maktabiga o‘xshash dasturlarni taklif qiladi, ammo mintaqaviy xususiyatlar va ehtiyojlarga urg‘u beradi. Ular bitiruvchilarga yuqori darajada davlat boshqaruvida samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni beradi.

Federal Davlat boshqaruvi akademiyasi Federal Ichki ishlar vazirligining markaziy o‘quv muassasasi hisoblanadi. U yuqori martabali davlat amaldorlari uchun malaka oshirish va yetakchilik malakasini oshirish dasturlarini taklif etadi.

Federal Davlat boshqaruvi akademiyasining dasturlari davlat amaldorlariga davlat boshqaruvi, yetakchilik va siyosatni boshqarish bo‘yicha ilg‘or bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlashga mo‘ljallangan. Shuningdek, ular turli vazirlik va idoralarning davlat organlari xodimlarining o‘zaro hamkorligi uchun platforma yaratadi.

Germaniyada rahbar kadrlarni tayyorlash tizimi bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

Ikki darajali tuzilma: tizim ikki darajaga bo‘lingan: tayyorgarlik darajasi va ilg‘or tayyorgarlik darajasi. Bu davlat xizmatchilarining butun faoliyati davomida uzluksiz rivojlanishini ta’minlaydi.

Amaliy yo‘nalish: O‘quv dasturlari sezilarli miqdordagi amaliy amaliyotlarni o‘z ichiga oladi, bu esa talabalarga olgan bilimlarini amalda qo‘llash imkonini beradi.

Mustaqillik: Davlat va munitsipal boshqaruv federal oliy maktabi va davlat oliy maktablari mustaqil muassasalar bo‘lib, o‘qitish va baholashda xolislikni ta’minlaydi.

Meritokratiya: Davlat xodimlari faqat xizmat ko‘rsatish darajasiga ko‘ra tanlanadi va lavozimga ko‘tariladi, bu esa yuqori malaka va professionallikni ta’minlaydi.

Shunday qilib, biz Germaniyaning rahbar kadrlarini tayyorlashning asosiy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin, ular orasida:

– kompensatsion kurslar, ular doirasida tegishli faoliyat turlari bo‘yicha chuqurlashtirilgan o‘quv kurslari, masalan, huquqshunoslar iqtisodiy bilimlar, iqtisodchilar esa huquqiy bilimlar bo‘yicha tayyorlanadi;

– birinchi marta rahbarlik lavozimlarida ish boshlayotgan oliy va ilg‘or darajali davlat xizmatchilari uchun, shuningdek, alohida yerlar bo‘yicha maxsus dasturlar bo‘yicha malaka oshirish kurslari;

– aniq maqsadli seminarlar (davlat xizmatchilari faoliyatining funktsional va predmet yo‘nalishlari, xalqaro va milliy tashkilotlarda ishlash bilan bog‘liq holda malaka oshirish va boshqalar);

– fondlar va xalqaro tashkilotlar (Germaniya xalqaro taraqqiyot fondi, Yevropa hamjamiyati va boshqalar) faoliyatiga muvofiq kurslar va seminarlar.

Hulosa qilganda, Germaniya rahbar kadrlar tayyorlash tizimi samarali korporativ etakchilik uchun malakali shaxslarni tayyorlaydigan keng qamrovli va ko‘p bosqichli yondashuv hisoblanadi. Mazkur yondashuvlarga asoslangan holda rahbar kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish kelgusida o‘z samarasini berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/6600413
2. Программа подготовки управленческих кадров Федерального Министерства экономики и энергетики. http://www.argenbl-academy.de/ru/home/
3. Открыт набор на стажировки в Германии на 2022 г. http://lenfond.ru/2021/12/09/otkryt-nabor-na-stazhirovku-v-germaniyu-v-2022-g. html

ХАВФСИЗЛИК ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ МОҲИЯТИ

Рахмонов Х.П.

Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси

Замонавий дунёда хавфсизликка бўлган эҳтиёжнинг аҳамияти ортиб бораётганлиги кузатилмоқда. Унинг ёрдамида иқтисодиёт, ташқи ва ички сиёсат, жамоат хавфсизлиги ва ҳуқуқ-тартибот, мудофаа ва бошқа соҳаларда хавфсизлик мезонларини белгилаш, комплекс чора-тадбирлар ва хавфсизлик механизмларини ишлаб чиқишнинг долзарблиги ортиб бормоқда.

Бу борада олимлар ўртасида турлича қарашлар мавжуд бўлиб, хавфсизлик тушунчасига ҳам ўзига хос таърифлар ишлаб чиқилганини кўришимиз мумкин.

“Хавфсизлик” тушунчаси турли йўналишларда ишлатилишига кўра, унинг маъносини турлича таҳлил қилса бўлади. Ўз навбатида, ғоявий жиҳатдан хавфсизлик, ҳаётда учраши мумкин бўлган хавф-хатарлардан ҳимояланиш, кафолатланиш маъноларини билдиради.

Даставвал “хавфсизлик” тушунчасининг тарихига эътибор берадиган бўлсак, ушбу атама 1190 йилларга бориб тақалади[1]. Унга кўра, Робер тушунчага қуйидагича таъриф беради: “ўзини ҳар қандай хавф-хатардан ҳимояланган деб ҳисобловчи инсон руҳиятининг

[1] Раджабова Ҳ.Ш. “Хавфсизлик” тушунчасининг лексиксемантик таҳлили (Инглиз ва Ўзбек тиллари мисолида) // Results of National Scientific Research. https://scienceweb.uz/publication/2096

хотиржам ҳолати” Тарихнинг кейинги даврларида давлат тузилмаларининг шаклланиши билан боғлик равишда «хавфсизлик» тушунчаси моддий, сиёсий ва иқтисодий соҳаларда давлат қурилиши, бошқариш органлари тенденцияларига мос келадиган реал хавф-хатарнинг (жисмоний ва маънавий) йўқлиги натижасида вужудга келадиган тинчлик ҳолати шароити маъносини англатган

Хусусан, А.Т.Турсунбеков фикрича[1], хавфсизлик, аввало, ижтимоий ҳодисадир. Бу унинг туб моҳиятини, яъни кишилик жамиятини ўраб турган дунёга, мавжудлик шартлари ва хавфсизлик объектига муносабатнинг ўзгармас асосини фаолият ташкил этишини англатади. Ўз навбатида фаолият бирор-бир натижага эришишни якуний мақсад қилиб қўйган босқичма-босқич, изчил амалга оширилувчи жараённинг намоён бўлишидир. Бу маънода хавфсизлик муайян жараённинг якуний мақсади - хавфсизлик субъектлари фаолиятининг натижаси, маҳсули сифатида намоён бўлади.

Тадқиқотчи Т.В. Владимирова давлат хавфсизлигини жамоат хавфсизлиги (ижтимоий хавфсизлик) ва шахс хавфсизлиги билан бир қаторда миллий хавфсизликни таъминлашнинг йўналишларидан бири деб ҳисоблайди. Уларнинг орасидаги фарқ ҳар доим ҳам бир-бирига тўғри келмайдиган ушбу субъектларнинг манфаатларига боғлиқ деб ҳисоблайди.

Шунингдек, унинг фикрича, шахс манфаатлари ва бошқа манфаатларни ҳам ҳимоя қилишга қаратилган амалиётлар мажмуасини миллий хавфсизлик бажаради.

Фикримизча, хавфсизликни моҳиятини очиб беришда шахс, давлат, жамият хавфсизлиги (турлари), сиёсий, ҳарбий, иқтисодий, ахборот хавфсизлиги (соҳалари), миллий, минтақавий ва халқаро хавфсизлик (даражалари) тўғрисида ҳам сўз юритиш мумкин. Сабаби, қайд қилиб ўтилган элементлар йиғиндиси бир бутун тизимни яратади.

Шу билан бирга мазкур тизимнинг алоҳида олинган ҳар бир элементи, ўз навбатида, мустақил тизимни ва шу билан бирга мустақил тадқиқот предметини ташкил этади. Турли сиёсий мактаблар, қарашлар,

[1] Турсунбеков А.Т. Хавфсизлик ижтимоий ҳодиса сифатида. Тафаккур манзили. 2022-йил август. https://cyberleninka.ru/article/n/havfsizlik-izhtimoiy-odisa-sifatida/viewer

мафкура ва сиёсий режимларнинг мавжудлиги эса тадқиқотчи вазифасини янада мураккаблаштиради.

Россиялик тадқиқотчи Г.В. Иващенко «Хавфсизлик тушунчаси ҳақида» деб номланган мақоласида хавфсизлик моҳиятини таҳлил қилар экан, тизимли-фаолият ёндашувидан келиб чиқиб, унинг мазмунини қуйидагича ифодалайди: «фаолият ҳар қандай ижтимоий мавжудотнинг яшаб қолишини таъминловчи усул, ва унинг туб моҳиятини англатувчи омилдир. Ижтимоий ҳаётда фаолиятнинг у ёки бу жиҳатини намоён этмайдиган бирорта ҳам ҳодиса мавжуд эмас».

Хавфсизлик субъекти фаолиятининг мазмуни манфаатлар ташкил этади.

Ҳаётий муҳим миллий манфаатлар – хавфсизлик объектлари эҳтиёжлар билан бевосита алоқадорликдагина мавжуд бўлиши мумкин. Аниқроқ айтганда, ҳаётий муҳим миллий манфаатлар хавфсизлик субъектларининг эҳтиёжларидан келиб чиқиб, уларнинг шаклланишида ўзига хос асос бўлиб хизмат қилади. Ушбу ўринда ўзини, ўзлигини сақлаб қолиш ва ривожланиш – хавфсизлик субъекти эга бўлиши лозим бўлган энг муҳим эҳтиёжлар сифатида баҳоланади.

Эҳтиёжлар ўз табиатига кўра объектив, яъни уларнинг мавжудлиги доим ҳам субъектлар хоҳиш-иродасига боғлиқ эмас. Манфаат эса фаолият субъектлари томонидан ўзларининг объектив эҳтиёжларини англаб етиши натижасида шакллантирилади.

Ҳаётий муҳим миллий манфаатлар объектив эҳтиёжларни қондириш услуб ва воситаларини ўзида мужассам этган хавфсизлик борасидаги давлат сиёсатининг мазмун ва йўналишларини белгилаб беради. Хулоса ўрнида айтиш лозимки, хавфсизлик субъектлари томонидан объектив эҳтиёжларни аниқлаш ва уларни англаб етиш субъектларнинг мақсадга, яъни хавфсизликка эришишга қаратилган босқичма-босқич ҳаракатининг бошланиш нуқтаси ҳисобланади.

Демак, хавфсизлик субъектлари фаолиятини объектив эҳтиёжларни қондириш ва субъектив манфаатларга эришиш билан боғлиқ жараён тарзида тавсифлаш мумкин.

Субъектлар фаолиятининг самарадорлиги уларнинг манфаатларини амалга ошириш учун зарур бўлган муайян шарт-шароитларнинг мавжудлигига боғлиқ. Мазкур шароитлар субъектлар

томонидан шакллантирилиб, ҳуқуқий, иқтисодий, молиявий ва бошқа кўринишларда бўлиши мумкин. Одатда, фаолият тизимида мазкур компонентнинг мавжуд бўлмаслиги, унда муайян бўшлиқни юзага келтиради.

Шунинг учун ҳам уни бартараф этишнинг муҳим босқичи ва иштирокчиларнинг устувор вазифаси сифатида қаралади. Мазкур ўринда субъект хавфсизлиги, унинг фаолияти хавфсизлиги тадқиқотчилар томонидан «мавжуд бўлиш шарт-шароитларининг мажмуи» сифатида кўрилиб, хавфсизлик «субъект манфаатларининг ҳимояланганлик ҳолати эмас, балки субъект мавжудлигининг шарт-шароитлари» тарзида таърифланади.

П.Г.Белов хавфсизликни «миллатнинг бугунги ва келажак авлоднинг асосий қадриятларига минимал риск билан мавжуд бўлиб, кўпайиш ва такомиллашиш учун зарур бўлган эҳтиёжларини қондириш қобилияти» сифатида таърифлайди.

Фикримизча, хавфсизликнинг асосий объекти норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда акс эттирилган «шахс, жамият ва давлат манфаатлари» эмас, балки ўз турмуш тарзи ва ҳудудига эга фуқаролар бўлиши керак. Бироқ мазкур ўринда эътироз сифатида айнан шахс манфаатлари, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари (қонуний манфаатлари) давлатнинг асосий қонуни ва бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда мустаҳкамлаб қўйилган. Хавфсизлик субъектларига тегишли манфаатларнинг тегишли қонунчилик ҳужжатларида белгилаб қўйилиши, аввало, уларни таъминлашнинг ҳуқуқий шарт-шароитлари мавжудлигидан далолат берса, иккинчидан, хавфсизлик субъектлари фаолиятини енгиллаштиради.

Хавфсизлик категориялари қисқа, лўнда ва аниқ таърифга эга бўлиши лозим.

Чунки улар норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда қайд этилади ва хавфсизлик субъектлари фаолиятини белгилаб берувчи ҳамда улар амал қилиши лозим бўлган ҳуқуқий категорияларга айланади. Юридик амалиётдан келиб чиқиб айтиш мумкинки, шахс, жамият ва давлат тушунчалари юридик аҳамиятга эга, кенг тан олинган ҳуқуқий категориялар ҳисобланади.

MUNDARIJA

KIRISH 3

Rustambayev M.X. Inson huquqini takomillashtirishning konstitutsiyaviy asoslari 8

Turg‘unov O.K. Konstitutsiya meniki-seniki-barchamizniki 14

Zulfiqarov Sh.X. Yangilangan Konstitutsiya chinakam xalq Konstitutsiyasi yangi O‘zbekistonni barpo etishda huquqiy poydevordir 23

Усманов М.Б. Высокое правосознание и правовая культура – залог развития страны..... 31

Пулатов Ю.С. Проявления экстремизма - угороза правам и свободам гражданина и общественной безопасности..... 43

Ruziyev R.D. Yangi O‘zbekistonda inson huquqlari strategiyasiga ilmiy-qiyosiy nazar..... 48

Ismailov I. Ўзбекистон Республикаси фуқароларини ҳимоя қилиш ва уларга ҳомийлик кўрсатиш кафолатларини таъминлашнинг конституциявий асослари..... 56

Мухитдинова Ф.А. Ценностно-гуманистическое обоснование прав человека в обновленной Конституции Узбекистана 73

Ziyodullayev M. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashda tutgan o‘rni va roli..... 83

Muxammadiyev A.A. Inson huquqlari haqidagi xalqaro-huquqiy normalarning axloqiy asoslari 91

Gaziyev Sh.M. Ilyasova O, Sharipov A. Inson huquqlarini ta’minlashda ijtimoiy davlat fenomeni 94

Axmedova M.T., Raimova D. Xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining o‘ziga xos jihatlari 99

Axmedova M.T., Baxtiyorov F., Xolbo‘tayeva D. Ayollarni mehnat sohasida huquqiy himoya qilish shakllari va mexanizmlarini takomillashtirish 105

Очилов Ў.С. Янги Ўзбекистонда инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро мажбуриятларнинг амалга оширилиши: янги муаммолар ва уларнинг ечимлари..... 109

Usmanova M.A., Muinova N.A. Ayollarning mehnat va ijtimoiy himoya huquqlarini ta’minlash masalalari 116
Юлдашева Г. Процессы совершенствования деятельности национальных институтов по правам человека Республики Узбекистан 124
Огай Д.А. Судебная защита прав человека - международный коммерческий суд Узбекистана 131
Axmedov D.K. Yangi Konstitutsiyadagi o‘zgarishlar va imkoniyatlar 135
Nuridullayev A.A., Zakurlayev A. Yangi tahrirdagi konstitutsiyaning mazmun mohiyati va ortga qaytmas islohotlar 140
Raxmanov A.R. Islom huquqida inson huquqlari masalalari 146
Yuldashov S.O. Sudga murojaat qilish huquqining konstitutsiyaviy asosi 152
Olimjonov X.M. Yusupboyeva D.I. Insonparvarlik tamoyillarini yoshlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishdagi ahamiyati 160
Payziyev A.M., Ishmuratov E.I. Tezkor qidiruv faoliyatida inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish 165
Nurullayev F.U. Ekologik migrantlarning xalqaro hamda milliy huquqiy tahlili 172
Esemuratov A.I. Правовые основы защиты жертв торговли людьми 177
Shomurotov M.A. Inson huquqlarini himoya qilishda fuqarolik institutlarining tutgan roli 184
Sharapov Sh.Sh. O‘zbekistonda oliy ta’lim olish huquqini ta’minlash: umumiy ko‘rinish 188
Rakhmonova S. The features of the formation of women's political rights in uzbekistan 193
Teshayeva G.A. Internetga kirish huquqi inson huquqlarinig ajralmas qismi 196
Eshbekov D.Sh. O‘zbekiston parlamentining hukumat faoliyati ustidan nazoratini kuchayishi 204

Babakulov B. Inson huquqlarini ta’minlashda reabilitatsiyaning qonunchilik asoslarini rivojlantirishning ayrim masalalari 208
Hakimov O.A. Harbiy pensiyalar – harbiy xizmatning muhim ijtimoiy kafolati 216
Ataniyazov J.K. Jinoyat protsessida huquqiy maqomi belgilanmagan shaxslar bo‘yicha ish yuritishni rad etish yoki tugatish 223
Yuldashev M.O. O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolar ishtirokini huquqiy tartibga solish borasida konstitusiya va qonunlarning rolini oshirishga doir ayrim mulohazalar . 230
Ubaydullayev Sh.M. Mamlakatimizda inson huquqlarini ta’minlashning ahamiyati 239
Hotamov H.S., Saidova Z.A. Inson huquqlarini himoya qilish va sud-huquq sohasida senatning parlament nazorati faoliyati 244
Gafurov F.R. Bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda insonning konstitutsiyaviy huquqlarini ta‘minlash xususiyatlari 250
Beysenov K.S. O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarini ta’minlashda oliy majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman)ning o‘rni 255
Rustamova N.R. Oila va nikoh tushunchalarining ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-huquqiy talqini 263
Tillaboyev Sh.M. Правовые аспекты использования блокчейна для защиты интеллектуальных прав 269
Aliakbarova Sh.M. National mechanisms of implementing international treaties in the Republic of Uzbekistan 276
Hotamov H.S. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda Senatning parlament nazorati faoliyati 280
G‘iyosov B.H. Konstitutsiyaning amaliy ahamiyati 291
Рашидова К.И. Ключевые факторы современного рабства..... 297
Ergasheva Sh.E. Professional ta’lim huquqiga oid masalalari 301
Qoraboyev A.A. Harbiy xizmatni o‘tashning inson huquqlari bilan o‘zaro aloqalari 305
To‘rabayeva M.O. The concept of digital intellectual property rights and the basics of its development 311

Shodiyeva M.F. Nogironlar huquqi 317
Yusupbayeva A. Ta’lim tizimiga yanigcha yondashuv va islohotlar 321
Авлиёқулов М. Диний экстремиз ва терроризмга қарши курашишда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг аҳамияти 327
Rustamov S.S. Маъмурий йўл билан ушлаб туриш тартибини такомиллаштириш масалалари 337
Achilov A.T. Tashqi iqtisodiy faoliyatda inson huquqlarining o‘rni 342
Ибадуллаев С. Судланганликнинг ҳуқуқий оқибатлари, унинг жазо тайинлаш, шахсни хавфли ва ўта хавфли рецидивист деб топишдаги аҳамияти 348
Jo‘rayev J. Tergovga qadar tekshiruv jarayoniga jalb etilgan shaxslarning protsessual maqomini mustahkamlash 360
Sodiqov M. O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlashda axborot xavfsizligini ta’minlash mexanizmining ahamiyati…….366
Ikanov A.A., Baxriddinov A.O. Xavfsizlik sohasida profayling: imkoniyat va kamchiliklar..... 371
Muradullayev A.A. Germaniyada rahbar kadrlar tayyorlash tizimi tahlili…….375
Рахмонов Х.П. Хавфсизлик тушунчаси ва унинг моҳияти..... 379

INSON HUQUQLARINI TA’MINLASH – DAVLATNING OLIY MAQSADI

respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI

Muharrir: Murakayeva Z.I.
Texnik muharrir: Ravshanov U.M.

Bosishga ruxsat etildi: 08.06.2024 y. Buyurtma: № 178. Format 60x84/16.
Times New Roman garniturasi bilan raqamli bosma usulida bosildi.
Hajmi: 24,12 t.-h.t. Adadi: 10 nusxa.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi